


**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

“IQTISODIYOT” kafedrası

**«XORIJIY INVESTITSİYALAR»
*fani bo`yicha***

MA`RUZA MATNLARI



NAMANGAN -2009 yil

“Xorijiy investitsiyalar” fani bo`yicha tayyorlangan ma`ruza matnlari mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar va undagi investitsiya jarayonlari bo`yicha bilim va ko`nikmalarni oshirishga mo`ljallangan.

Ma`ruzalar matni 2002 yil Davlat ta`lim standarti va O`zR OO`MTV tomonidan №BD-340000 oqami bilan 23 avgust 2008 yildagi 263-sonli buyrug`i bilan ro`yxatga olinib tasdiqlangan namunaviy dastur asosida tuzildi.

Ma`ruzalar matni Namangan Davlat universiteti “Geografiya va iqtisodiyot” fakul’teti Ilmiy kengashishining 2009 yil 28 avgust 1-son majlisida muhokama etildi va ma`qullangan.

Tuzuvchi: o`qituvchi K.Sirojiddinov

Taqrizchilar: Namangan Davlat universiteti “Iqtisodiyot”
kafedrasida dotsenti, i.f.n. N.Sotvoldiev
Namangan muhandislik-pedagogika instituti “Menejment” kafedrasida
mudiri i.f.n. dotsent R.Ismatov

1-Mavzu: XORIJIY INVESTITSİYALAR HAQIDA TUSHUNCHA VA UNING MOHIYATI.

Reja:

1. Investitsiya tushunchasi.
2. Investitsiya munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solinishi.
3. Xorijiy investitsiyalarning mohiyati va jalb qilish sabablari.
4. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning o'rni va roli.
5. Investitsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari.

«Investitsiya» atamasi lotin tilidagi «invest» soʻzidan kelib chiqqan boʻlib «qoʻyish», «mablagʻni safarbar etish», «kapital qoʻyilmasi» maʼnosini beradi. Keng maʼnoda investitsiya mablagʻni koʻpaytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Koʻpgina hollarda «investitsiya» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obʼektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy neʼmatlar hamda ularga doir huquqlar tarzida taʼriflanadi. Investitsiya deganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati obʼektlariga yoʻnaltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir.

Oʻzbekiston Respublikasida investitsiya xususida qonuniy hujjatlar 1991 yildan boshlab qabul qilindi va oʻtgan vaqt ichida ular ancha takomillashtirildi. Investitsiya toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunda koʻrsatilishicha, investitsiya bu iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablagʻlari, banklarga qoʻyilgan omonatlar, paylar, qimmatli qogʻozlar (aktsiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir. Bu iqtisodiy taʼrif investitsiyaning bozor iqtisodiyoti sharoitida toʻlaligicha faoliyat koʻrsatishini aniq tasdiqlaydi. Jumladan, unda, birinchidan, investitsiyaning oʻziga va investitsiya faoliyatining obʼektlariga keng taʼrif berilgan; ikkinchidan, investitsiyaning bevosita iqtisodiy va ijtimoiy samara olishga muqarrar bogʻliqligi taʼkidlab oʻtilgan. Demak, investitsiyaga bozor munosabatlaridan kelib chiqib berilgan taʼrifning oʻzidayoq investitsion jarayonning hajmi, asosiy bosqichlari, yaʼni jamgʻarmalar (resurslar), qoʻyilma mablagʻlar (sarf-xarajatlar), samara (daromad, foyda) aniq, va ravshan koʻrsatib oʻtilgan. Xuddi shu kabi yondashuv investitsion faoliyatning bozor munosabatlariga oʻtishi uchun zamin yaratadi, bu esa, moliyaviy moddiy va aqliy boyliklarni qayta taksimlashning vertikal va gorizontal usullaridan bir xilda foydalanishni taʼminlab beradi.

Iqtisodiy kategoriya sifatida investitsiya quyidagicha tasniflanadi:

- Birlamchi (avaylangan) jamgʻarilgan kapitalni koʻpaytirish maqsadida kapitalni tadbirkorlik obʼektlariga joylashtirish;
- Investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida investitsiya faoliyati ishtirokchilari oʻrtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

Xorijiy mamlakatlarning tajribasi va investitsiya toʻgʻrisida oʻzimizda qabul qilingan qonunlarning tahlilidan kelib chiqib, investitsiyaning shartli ravishda uchta turini ajratish mumkin:

- moliyaviy investitsiyalar;
- moddiy investitsiyalar;
- aqliy (intellektual) investitsiyalar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida shar bir investitsiya turining oʻziga xos oʻrni boʻladi. Moliyaviy investitsiyalar tarkibiga mashalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, banklardagi omonatlar, depozit sertifikatlar, aktsiyalar, obligatsiyalar, vekselʼlar va boshqa qimmatli qogʻozlar shunda tenglashtirilgan boyliklar kiradi.

Moddiy investitsiyalar tarkibiga asosiy fondlar, yaʼni binolar, asbob-uskunalar, inshootlar, kommunikatsiyalar va boshqa turdagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismlari kiradi.

Aqliy (intellektual) investitsiyalar miqdori juda rang-barangdir, ya'ni ular mulkiy shuquqlar shaklidagi investitsiyalar aqliy mehnatga oid shakldagi investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investitsiyalardan iborat.

Mulkiy huquqlar guruhiga kiradigan investitsiyalarning xillari bozor munosabatlarining nechog'lik rivojlanganligiga, milliy bozorlarning o'ziga xos tomonlariga qarab har xil bo'ladi. Aqliy mehnatga oid haq-huquqlar shaklidagi investitsiyalar tarkibiga mualliflik huquqlari, "nou-xau", kashfiyotlar, tovar belgilariga beriladigan litsenziyalar va boshqa xil egalik huquqlari kiradi.

Investitsiyalar – bu hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapital. O'zining moliyaviy shakliga ko'ra, ular foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan aktivlar hisoblansa, iqtisodiy xususiyatiga ko'ra, u yangi korxonalar qurishga, uzoq muddatli xizmat ko'rsatuvchi mashina va asbob uskunalariga hamda shu bilan bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan harajatlardir.

Investitsiyalar xususi sektor va davlat tomonidan mamlakat ichkarisida va uning tashqarisida turli ishlab chiqarishlarga va qimmatbaho qog'ozlarga (aktsiyalar, obligatsiyalar) qo'yilishi mumkin. Investitsiyalar yalpi va sof investitsiyalarga ajratiladi. YAlpi investitsiyalar – bu ishlab chiqarish vositalarining iste'mol qilingan qismini qoplash hamda ularni qo'shimcha o'sishi maqsadida ishlab chiqarish jamg'armalari va aholi mablag'lari qo'yilmalaridir. Boshqacha so'z bilan aytganda, yalpi investitsiyalar o'z ichiga amortizatsiya va sof investitsiyalarni qo'shadi. Sof investitsiyalarni aniqlash uchun yalpi investitsiyalardan amortizatsiya ajratiladi.

YAlpi investitsiyalar va amortizatsiya o'rtasidagi nisbatga qarab iqtisodiyotning ahvoli qanday ekanligini, ya'ni yuksalish, yo turg'unlik yoki pasayish davrini boshidan kechirayotganligini aniqlash mumkin. Agarda, yalpi investitsiyalar amortizatsiyadan ortiq, ya'ni sof investitsiya yuqori bo'lsa, iqtisodiyot yuksalishda bo'ladi, chunki uning ishlab chiqarish quvvatlari o'sadi.

YAlpi investitsiya va amortizatsiya bir-biriga teng bo'lgan chog'da iqtisodiyot turg'unlik holatida bo'ladi. Bu vaziyatda sof investitsiyalar nulg'a barobar va iqtisod shu yilda qancha kapital iste'mol qilgan bo'lsa, uni qoplash uchun shuncha ishlab chiqaradi.

Ishchan faollik pasayib borayotgan iqtisodiyot uchun (asegnatsiya holati) yalpi investitsiyalar amortizatsiyadan kam bo'lgan holdagi vaziyat xosdir, ya'ni iqtisodiyotda yil davomida kapital ishlab chiqarilganiga nisbatan ko'proq iste'mol qilinadi. Bunday holatda sof investitsiyalar ishorasi manfiy bo'lib, uning mutlaq qisqarishini bildiradi. Natijada, yil oxirida kapital hajmi yil boshidagiga qaraganda kam bo'ladi.

Islahotlar dastlabki bosqichida iqtisodiyotning stagnatsiya holati deyarli barcha hamdo'stlik mamlakatlarida kuzatildi. Korxonalarning ichki investitsiyalash imkoniyatlarini pasayishi bilan bir vaqtda markazlashgan kapital qo'yilmalarning qisqarishi, ishlab chiqarishni tushib ketishiga, milliy mahsulot hajmini mutlaq kamayishiga olib keldi.

Investitsiya kiritishda, avvalo:

- investitsiya faoliyati sub'ektlarning mustaqilligi va tashabbuskorligi;
- kiritilayotgan moddiy ne'matlarga investitsiya maqomini berish (fuqaro o'zining ehtiyojlarini qondirish uchun olgan buyumlari investitsiya bo'la olmaydi);
- qonun bilan belgilangan investitsiya faoliyatini amalga oshirish imkoniyati yaratilishi zarur bo'lib hisoblanadi.

Investitsiyalar – bu yangi korxonalar qurilishiga, mashina va asbob-uskunalar sotib olishga, ya'ni yangi kapitalni barpo etishga ketgan harajatlardir. Investitsiyaga ketgan harajatning miqdori ikki omilga bog'liq: birinchisi – sof foydaning kutilayotgan me'yori, qaysiki uni tadbirkorlar investitsiyaga ketgan harajatlaridan olishni mo'ljallaydi; ikkinchisi – foiz stavkasi yoki tadbirkor real kapitalni sotib olishga zarur bo'lgan pulga ega bo'lishi uchun to'lashi lozim bo'lgan baho. Agarda, kutilayotgan foyda me'yori foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali va aksincha, foiz stavkasi kutilayotgan foyda me'yoridan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali bo'lmay qoladi.


Investitsiya harajatlari foyda keltirishini aniqlashda nominal foiz stavkasi emas, balki real foiz stavkasi hisobga olinadi. Real foiz stavka narxlar darajasini o'zgarishini aks ettirib, nominal

stavkadan inflyatsiya darajasini ayirmasi ko`rinishida aniqlanadi. Masalan, nominal foiz stavkasi 16%ga teng bo`lsa, inflyatsiya darajasi yiliga 12% tashkil etsa, unda real foiz stavkasi 4% (16%-12%) tashkil etadi. Agarda, bu miqdor kutilayotgan sof foyda me`yorida past bo`lsa, investitsiya harajatlari o`sib boradi.

Investitsiya talabining egri chizig`i istalgan investitsiya hajmi (I) va real foiz stavkasi miqdori (r) o`rtasidagi bog`liqlikni o`rnatadi. Real foiz stavkasi, ya`ni pul kapitalini qarzga olish bahosi qanchalik yuqori bo`lsa, investitsiyalashni xohlovchilar shuncha kam bo`ladi va aksincha real foiz stavkasi qanchalik past bo`lsa, foyda keltiradigan investitsiya loyihalari shuncha ko`p bo`ladi. SHuning uchun ham investitsiya funktsiyasi grafigi quyiga qarab og`ma bo`ladi.

Makroiqtisodiy siyosatda foiz stavkasi bilan investitsiya hajmi o`rtasidagi mavjud bog`liqlik hisobga olinadi va keng foydalaniladi. Foiz stavkasining miqdori pul-kredit siyosatining muhim quroli hisoblanadi. Davlat uni o`zgartirish orqali mamlakatdagi pul taklifini tartibga solib turadi. Foiz stavkasini ko`tarilishi pulning qimmatlashuvi va unga bo`lgan talabning qisqarayotganini bildiradi. Demak, investitsiya harajatlari ham qisqarib boradi. O`z navbatida, investitsiya harajatlarini qisqarishi, kelajakda milliy ishlab chiqarish hajmini pasayishini bildiradi.

Investitsiya funktsiyasining grafigi.



2. Investitsiya munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solinishi.

Investitsiya munosabatlarining davlat tomonidan tartibga solinishi huquqiy sharoitlar yaratish, ushbu faoliyatni yuritish uchun kafolatlar berish, bu faoliyat sub`ektlarini sug`urtalash va boshqa vositalar orqali ijtimoiy yoki davlat manfaatlarini amalga oshirish yo`lida tashkil etiladi. Investitsiya munosabatlarining mohiyati bu faoliyat ishtirokchilari doirasida va darajasida o`z ifodasini topadi. O`zbekiston investitsiya faoliyati davlat tomonidan tartibga solinadi. Davlat investitsiya faoliyatining qonunchilik negizini takomillashtirish, soliq to`lovchilar va soliq solish ob`ektlarini, soliq stavkalari va ularga doir imtiyozlarni tabaqalashtiruvchi soliq tizimini qo`llash, normalar, qoidalar, standartlarni belgilash, monopoliyaga qarshi choralarini qo`llash, kredit siyosati va narx siyosatini o`tkazishga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlarini belgilash, investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish mexanizmlarini belgilash va boshqa yo`llar bilan bunday faoliyatni amalga oshiradi. Investitsiya faoliyatini tartibga solish, huquqiy nuqtai nazaridan, turli mulkdorlar o`rtasida moddiy va nomoddiy aktivlarni takror ishlab chiqarish xususidagi o`ziga xos, murakkab, ijtimoiy zarur iqtisodiy (investitsiya) munosabatlarini shakllantirish me`yorlarini nazarda tutadi. Investitsiya jarayonining barcha sub`ektlari – chet ellik investorlardan boshlab, davlat, yuridik va jismoniy, shu jumladan chet ellik shaxslar (rezidentlar va norezidentlar)gacha bu munosabatlarning ishtirokchilariga aylanadilar. Huquq nuqtai nazaridan chet el investitsiyalari boshqa davlat hududida kapitalga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish bilan bog`liq. Iqtisodiy nuqtai nazardan esa ularning hududiy, zamon va makondagi haraka ko`pdan-ko`p qo`shimcha risklar bilan to`qnashish ehtimoliga ega bo`ladi.

Respublikada investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish birinchi navbatda davlatning iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirish maqsadlarini ko`zlaydi.

Respublika qonun hujjatlariga muvofiq chet el investitsiyalari milliyashtirilishi, davlat tasarrufiga olinishi mumkin emas. CHet el investitsiyalari tabiiy ofatlar, falokatlar, epidemiyalar hollarini mustasno qilganda, rikkvizitsiya qilinmaydi. CHet el investorlarga qonuniy faoliyat natijasida olingan o'z foydasi va boshqa mablag'larini chet el valyutasida chetga o'tkazish kafolatlanadi. Qonun hujjatlarida chet ellik investorlarga ularning davlat boshqaruvining vakolatli organlari bilan tuzadigan kontsessiya shartnomalari asosida tabiiy resurslarni qidirish, foydalanishga tayyorlash va foydalanish hamda boshqa xo'jalik faoliyatini joriy qilish uchun kontsessiyalar berish nazarda tutilgan. Respublika qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan faoliyatning hamma sohalari va turlari bo'yicha kontsessiya berilishi mumkin. CHet ellik investor qarori bilan investitsiyalarga hamda ularning natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, tasarruf etish huquqi respublika qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga berilishi mumkin.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirishni muhim shartlaridan biri muomalada bo'lgan pul birligini qadrsizlanishini oldini olishdir. Investitsiya faoliyatidan olinadigan samarani ko'paytirish maqsadida investitsiyalar hajmini, yo'nalishlarini va manbalarini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. SHu bilan birgalikda yangi moliyalashtirish, kredit bilan ta'minlash, bahoni tahlil qilish, soliqqa tortish tizimlarini takomillashtirishdir. SHuni ta'kidlab o'tish joizki, investitsiya faoliyatini tartibga solishda eng muhim va asosiy muammolardan biri chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni respublika mintaqalari bo'ylab bir tekis joylashtirishdir.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va chet el investitsiyalarini jalb qilishning kengayib borishi darajasiga qarab investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, bevosita chet el investitsiyalarini yangi loyihalarga hamda qo'shma korxonalarga jalb etishga qaratilishi lozim. SHuningdek, tartibga solish xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining katta qismini investitsiya faoliyatiga jalb qilishni ham nazarda tutishi kerak. Bunda chet el investitsiyalarining oqib kirishini rag'batlantirish, shu bilan birga milliy iqtisodiyot sub'ektlarining bu faoliyatda ishtirok etishini taqdirlash muhim o'rinda turadi. SHunday qilib davlat tomonidan investitsiya munosabatlarini tartibga solishning vazifasi, bir tomondan, bevosita chet el investitsiyalari oqimini oshirishdan, ikkinchi tomondan, milliy iqtisodiyotdagi xususiy mulkchilik sub'ektlarining qo'yilmalarini kengaytirishdan iborat bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalarini tartibga solish va jalb etish bilan shug'ullanadigan rasmiy muassasalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalarini tartibga solish va jalb etish bilan shug'ullanadigan rasmiy muassasalar

1.	Vazirlar Mahkamasining tashqi iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish departamenti	Quyidagi joriy jarayonlarni muvofiqlashtiradi: -investitsiya faoliyatini, birinchi navbatda chet el investitsiyalari bilan amalga oshiriladigan loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur hukumat qarorlarini ishlab chiqish; -davlat boshqaruvi idoralari, vazirliklar va idoralar ishini tashkil etish.
2.	«O'zistiqlashtirish»	Investitsiya siyosatini va dasturlarini ishlab chiqish
3.	Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi	Korxonalarni tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tarzida ro'yxatga olish va xorijiy kompaniyalar vakolatxonalarini akkreditatsiyalash
4.	Davlat mulki Qo'mitasi	Davlatga tegishli mulkni xususiylashtirish va tasarruf etish jarayonlarida chet el investitsiyalarini tartibga solish.
5.	Moliya Vazirligi	Qarz siyosati va hukumat kafolatlarini berish.
6.	Adliya Vazirligi	CHet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni ro'yxatga olish.
7.	Tashqi ishlar vazirligi	Xorijiy investorlarga va O'zbekistonda ishlayotgan ajnabiy

		fuqarolarga vizalar berish.
8.	Ichki ishlar vazirligi	Xorijiy investorlarni va O'zbekistonda ishlayotgan ajnabiy fuqarolarni turar joyi bo'yicha ro'yxatga olish.
9.	Davlat soliq qo'mitasi	CHet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni soliqqa tortish va ularning bojxona bilan bog'liq faoliyatini tartibga solish
10.	Markaziy bank	Konvertatsiya tartib-qoidalarini, shuningdek, uning o'tkazilishini, valyuta mablag'laridan foydalanishni tartibga solish, qarz siyosati.
11.	Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bank	Tashqi iqtisodiy faoliyatga bank xizmati ko'rsatish va loyihani moliyalashni amalga oshirish.
12.	Xorijiy investitsiyalar bo'yicha agentlik	-Mamlakat va xorij investorlarining investitsiya takliflari to'g'risida ma'lumotlar bankini shakllantirish; -investitsiya muhitini o'rganish; -xorijiy investorlarga axborot va boshqa xizmatlar ko'rsatish; -investitsiya loyihalarini amalga oshirishda mamlakat va xorij investorlariga yordam ko'rsatish; -chet el kapitali ishtirokida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining bajarilishini kuzatish (monitoring); -xorijiy investorlarga davlat ro'yxatidan o'tilganidan keyin yuridik shaxs sifatida faoliyat ko'rsatishida yordam berish (tovar ishla' chiqaruvchilar palatasi bilan hamkorlikda).
13.	«O'zbekinvest» davlat sug'urta kompaniyasi va «O'zbekinvest-inteneyshnl» qo'shma korxonasi	CHet el investitsiyalarini investitsiya tavakkalchiligidan sug'urtalash
14.	«O'zbekinvestloyi-ha» milliy injiniring kompaniyasi	Dastlabki texnik-iqtisodiy asoslamani va investitsiya loyihalari texnik-iqtisodiy asoslamalarini tayyorlash
15.	Davlat mulki qo'mitasi huzuridagi qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi	Qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish, rivojlantirish, nazorat qilish va tartibga solish sohalarida davlat siyosatini amalga oshirish. Mamlakat va xorijiy emitentlarning qimmatli qog'ozlarini sotib olish orqali majmua investitsiyalarini amalga oshirish.

3.Xorijiy investitsiyalarning mohiyati va jalb qilish sabablari

Bir davlatdan boshqa davlatga daromad olish uchun yunaltirilgan har qanday shakldagi mulkni to'la qonli xorijiy investitsiya deyishimiz mumkin. Ammo shunday mulk shakllari borki, biz ularni xorijiy investitsiya deya olmaymiz. Masalan, elchixona chet davlat mulki xisoblanadi, yoki xorijiy fuqaro shaxsiy uy sotib olsa bu xorijiy shaxs mulki xisoblanadi, lekin xorijiy investitsiya bo'la olmaydi.

Xorijiy investitsiyalar - bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklaridir. Xorijiy investitsiyalari ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi. Xorijiy investitsiyalarning ichki investitsiyalardan farqi shundaki, ularda investor boshqa mamlakat fuqarosi buladi. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra xorijiy investitsiyalar ssuda kapitali (ya'ni qarz va kredit), xamda bevosita va portfel' investitsiyalarga bulinadi. Investitsiyalar nimaga yunaltirilganligi ular kaysi xorijiy investitsiya turiga kirishini belgilaydi.

Xorijiy investitsiyalar qo'shma korxonalarda o'z xissasi bilan katnashib, xorijiy investorlarga to'liq tegishli bo'lgan korxonalarni yaratish, xususiylashtirishda katnashish, xorijiy sheriklar bilan bank tuzish, qimmatbaxo qog'ozlarni sotib olishi, er va boshka tabiiy resurslardan foydalanish xuquqiga ega bulishi, erkin iqtisodiy hududlarda faoliyat olib borishlari mumkin.

Xorijiy investitsiyalarga asosan 2 gurux omillar ta'sir ko'rsatadi:

1) iqtisodiy omillar:

- ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiy usish sur'atlarining bir maromda ushlab turilishi;
- jahon va aloxida mamlakatlar iqtisodiyotida chukur tarkibiy siljishlarning amalga oshirilishi (ayniksa, fan-texnika tarakkiyoti yutuklari va jahon xizmatlar bozori tarakkiyoti ta'siri ostida olib borilishi);
- ishlab chiqarishni xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvining chukurlashuvi;
- jahon iqtisodiyotini transmilliylashtirilishini o'sib borishi (AKSH Transmilliy korporatsiya (TMK)lari xorijiy filiallarining maxsulot ishlab chiqarish xajmi AQSH tovar eksportidan 4 marotaba ortikdir);
- ishlab chiqarishning baynalminallashuvi va integratsiya jarayonlarining chukurlashib borishi;
- xalqaro iqtisodiy munosabatlar (XIM)ning faol rivojlanishi va boshk.

2) siyosiy omillar:

- kapital eksporti (importi)ni erkinlashtirish (Erkin iqtisodiy hududlar (EIX), offshor hududlari va boshq.);
- rivojlanayotgan mamlakatlarda industirlashtirish siyosatini olib borish;
- iqtisodiy islohotlarni olib borish (davlat korxonalarini xususiylashtirish, xususiyl sektorini va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash);
- bandlik darajasini ushlab turish siyosatini olib borish va boshqalar.

4. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning o'rni va roli.

Bozor iqtisodiyotining asosiy iqtisodiy tushunchalaridan biri investitsiyalar tushunchasi bugungi hayotimizga keng va tez kirib kelishining o'zi uning mohiyati va ahamiyatini, zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston va jahon iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog'liqligini bugungi kunda deyarli har bir mutaxassis va xo'jalik yurituvchi sub'ekt anglab etganligini nazarda tutsak, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xususan, chet el investitsiyalarini kengroq jalb etish ularning mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali ijrosini ta'minlashning muhim asosiga aylanganligi bilan bog'liqligini tushunib olish qiyin emas.

2007 yilda xorijiy investitsiyalar ishtirokida 700 dan ortiq yangi korxonalarining barpo etilganligi xukumatomizning bu sohaga bo'lgan katta e'tibori va ularga yaratib berayotgan qulayliklari natijasidir.

Bu borada so'z ketganda Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini ta'kidlashimiz lozim: "Bugun joylarda iqtisodiyotni yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarni barpo etish va rekonstruktsiya qilish uchun xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, nechog'lik katta hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini kimgadir isbot qilib berishga hojat yo'q. Bu avvalombor, aholi bandligi, uning ish haqi va daromadlarini oshirish, bu oxir – oqibatda respublikamiz hududlari, shahar va tumanlarimizdagi eng muhim ijtimoiy muammolarni echish demakdir"¹.

SHu boisdan ham vatanimizga xorijiy sarmoyalarni jalb etayotgan korxonalarni iqtisodiy rag'batlantirish va zaruriy sharoitlarni yaratib berish o'ta muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu turdagi korxonalarni rag'batlantirish asosan soliq imtiyozlari orqali amalga oshiriladi. CHunki har bir investor o'z sarmoyasini biror hududga kiritar ekan uni befarq qoldirmaydigan va e'tiborini tortadigan asosiy masala u erda amal qilayotgan soliq qonunchiligi hamda soliqlardan berilayotgan imtiyozlar masalasidir. SHu sababdan soliq imtiyozlarini to'g'ri yo'nalishlarda taqdim

¹ Каримов И.А. "Инсон манфаатлари устуворлигини таъминлаш – барча ислохот ва ўзгаришларимизнинг бош мақсадидир". // Халқ сўзи, 2008 йил, 9 феврал.

etish, ulardan samarali va oqilona foydalanishni yo`lga qo`yish lozim, aks holda esa imtiyozlarni berishdan ko`zlangan maqsadlarga erishilmaslikka olib keladi. SHunga ko`ra, iqtisodiyotni faol rivojlantirish keng miqyosdagi investitsiyalarni talab qiladi.

Demak, investitsiyalar har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi va uning taraqqiyotini ta`minlovchi kuch ekan, barcha imkoniyatlarimizni ishga solib iqtisodiyotimizga yo`naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirishimiz lozim.

Vatanimiz iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb qilish va investitsiya faoliyati taraqqiyotini ta`minlash qulay investitsiya muhitini barpo etishni talab qiladi. 2007 yilda O`zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi 23 foizga oshdi va 4,3 mlrd.dollardan ziyod miqdordagi mablag`ni tashkil etdi. Natijada YAIM o`sishi 9,5%ga va davlat byudjeti esa YAIMga nisbatan 1,1% profitsit bilan yakunlandi. Jami investitsiyalarning 70 foizidan ortig`i ishlab chiqarish ob`ektlari qurilishiga, jumladan, salkam 50 foizi korxonalarni texnik va texnologik modernizatsiya qilishga yo`naltirildi. Jalb etilayotgan investitsiyalarning umumiy hajmida chet el investitsiyalarinig salmog`i yuqori bo`ldi. Xorijiy investitsiyalar hajmi 58 foizga ortib, 1 milliard dollarni tashkil etdi. Ularning 76 foizi to`g`ridan-to`g`ri kiritilgan xorijiy investitsiyalardir. To`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar jami kapital qo`yilmalarning 17,8%ini tashkil qildi. Hozirgi kunda respublikamiz tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar hissasiga to`g`ri kelmoqda.

2007 yil investitsiya dasturiga muvofiq 300dan ortiq yirik investitsiya loyihasi nihoyasiga etkazildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokida esa 700dan ziyod yangi korxonalar vujudga keldi. 2008 yilda respublikamiz asosiy ishlab chiqarish tarmoqlariga kiritiladigan investitsiyalar miqdorini 17 foizga oshirishga erishish vazifasi belgilab berildi. 2007 yilda xorijiy investitsiyalarning aksariyat qismi yoqilg`i-energetika, kimyo va neftkimyo sanoatiga (jami investitsiyalarning 44,7%i), informatsion texnologiyalar va telekommunikatsiyalar sohasiga (16,9%), qishloq va suv xo`jaligiga (13,4%), kommunal soha, transport, kapital qurilish va qurilish sanoatiga (12,4%) yo`naltirilgan.<sup>2</sup> SHu bilan bir qatorda, respublikada investitsiyalar bilan bog`liq muammolar mavjud ularni hal qilish O`zbekistonni yanada rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ular: infrastrukturasini sust rivojlanganligi, O`zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini jahon OAVlarida reklamasini yo`qligi, investitsiyalarni viloyatlararo taqsimotida yuqori differentsiyalashganligi (Misol uchun, Qoraqalpog`iston, Xorazmni Toshkentga nisbatan hisoblaganda).

Ko`rib turganimizdek, O`zbekiston oldida bir qancha muammolar mavjud, ularni hal etishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim deb topdik:

- xorijiy investorlarga va milliy ishlab chiqaruvchilarga bir xil imkoniyat, imtiyozlar yaratish;
- milliy buxgalteriya hisobini Xalqaro Moliyaviy Hisobi Standartlariga yanada yaqinlashtirish;

- qo`shma korxonalarni tashqi bozorlarga yo`naltirilgan faoliyatini jadallashtirish, valyuta oqimini barqarorlashtirish. Bunga rag`batlantirish uchun turli xil kommunal xizmatlardan qisman ozod etish va soliq, yig`im, bojxona to`lovlaridan to`liq ozod etish orqali erishish;

- investitsiyalarning hududiy bir yoqlamalik xususiyatini oldini olish maqsadida, viloyatlarni rivojlanganlik darajasi bo`yicha 3 guruhga bo`lib, sust rivojlangan regionlarga investorlar uchun ko`proq manfaatdorlik, moyillik yaratish;

- erkin eksport zonalari amaliyotini o`rganish va ularni yurtimizda joriy qilishga erishish.

5. Investitsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlariga investitsiyalarni moliyalashtirishning o`ziga xos manbalari shakllantirilgan bo`lib bunday manbalari korxonalarning o`z o`zini moliyalashtirish tamoyillariga asoslangan holda quyidagi manbalari mavjuddir:

1. Korxona va jismoniy shaxslar jamgarmalari;
2. Bank kreditlari xisobiga moliyashtiriladigan investitsiyalar:

² Д.Р.Абдуазизов. Инвестиция сиёсати ва Ўзбекистон иқтисодиётидаги таркибий ўзгаришлар. ЎЗМУ. Республика илмий-амалий конференция материаллари.2008 йил 25 апрель.

a) Xorijiy investitsiyalar

b) Davlat byudjeti va byudjetdan tashkari fondlar mablag'lari xisobiga moliyalashtiriladigan investitsiyalar.

Sunggi yillarda investitsiyalar tarkibi, xususan, byudjetdan ajratiladigan investitsiyalar va bank kreditlari ahamiyati keskin o'zgardi. Davlat byudjetining investitsiya sarflari 2003yilda 29,4 foizni tashkil qilgan bulsa, 2004 yilda 0,9 foizga kupaygan, ya'ni 30,3 foizni tashkil etdi. Monetar siyosat kuchaytirilishi korxonalar moliyaviy axvolining barqaror emasligi korxona va jismoniy shaxslar mablag'laridan moliyalashtiriladigan investitsion loyixalarning hajmiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishga va korxonalar uchun samarali bo'lishiga iqtisodiy infratuzilmaning markaziy bo'g'ini moliyaviy mexanizmning tarkibiy qismi bo'lgan soliklar mexanizmi xisoblanadi. Chunki soliklar xam xar bir korxona miqyosida tuzilgan investitsion loyixalarning iqtisodiy samarasi takdirini xal kilishda asosiy urinni egallaydi. O'zbekistonda xam investitsion loyihalarni tuzishda va moliyalashtirish uchun kulay investitsiya muxitni yaratish bo'yicha izchil chora- tadbirlar ishlab chikilmokda.

Ularning negizida ikkita asosiy omil yotadi:

-iqtisodiy barkarorlik;

-inflyatsiya jarayonlarini tartibga solish va milliy valyuta- sumning to'lov kobiliyatini oshirishga yunaltililgan makroiqtisodiy siyosat.

Xozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida kulay investitsiya loyixalarini tuzish va ularni moliyalashtirish bo'yicha quyidagi omillar mavjud:

-investitsion loyixalar bilan shugullanuvchi shaxslarni ragbatlantirish;

-sanoatning ustuvor soxalari, yokilgi, energetika majmualari bo'yicha investitsion loyixalar tuzish jadallashtirish;

-xalk xo'jaligida ilm fanga talab kuchli tarmoqlarida ishlab turgan kuvvatlarni yangilash va yangilarini barpo etish bo'yicha intellektual investitsion loyixalarni amalga kiritilishi.

Investitsiya loyihasini moliyalashtirish manbalari va ishtirokchilari quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Investitsiya loyihasini moliyalashtirish manbalari va ishtirokchilari tasnifi

Guruhlar	Guruh ichi guruhlari	Investitsiya faoliyati ishtirokchilari tashkiliy shakllari
Byudjet va nobyudjet fondlar	Davlat byudjeti	Hukumat Iqtisodiyot vazirligi Moliya vazirligi
	Mahalliy byudjetlar	Mahalliy vakolatli organlar
	Nobyudjet fondlar	Pentsiya fondi Bandlik fondi Investitsiya fondi va boshqa fondlar
Kredit tizimi	Banklar Kredit muassasalari	Markaziy bank Davlat g'aznachiligi Investitsion banklar Kredit uyushmalari
Sug'urta tizimi	Sug'urta fondlari va tashkilotlari	Davlat sug'urta kompaniyalari Boshqa sug'urta kompaniyalari
Moliyalash-tirishning jamoaviy shakllari	Investitsion tashkilotlar Investitsion banklar Sug'urta tashkilotlari	Investitsiya kompaniyalari va fondlari Nodavlat pensiya fondlari Sug'urta kompaniyalari

		Payli investitsion fondlar
Xorijiy investorlar	CHet el davlatlari, hukumatlari, XMllar, tijorat banklari, institutsional investorlar, investitsion banklar	XTTB ETTB Xalqaro moliyaviy qo`mita AQSH eksimbanki boshqalar
Korxonalar		Mulkchilikning turli shakllaridagi har qanday korxonalar

Investitsiyalashda aylanma kapitalga ustivorlik berilishini fakat kapitalning tarkibiy tuzilishi bilan tushuntirish ozlik kiladi. Gap shundaki, dastlabki kapital jamgarish davrida pulni tez to`plash uchun uni kapital oboroti tez bo`ladigan soxalarga joylashtirilishi yuz beradi, chunki bu bilan yukori foyda normasi yuzaga keladi. Foyda normasi yukori joyda esa, uni kapitallashti-rish imkoni katta bo`ladi. Bu omil xam xususiy sektorda pulni oborot kapitaliga aylantirish uchun ragbat yaratadi. Bozor talablariga binoan tejamli xo`jalik yurita bilmaslik tannarxni ortishiga olib keladi, bu narx o`zgarmagan sharoitda, xam zararga olib keladi. Ammo xozirgi o`tish davrida xo`jalikdan tashkarida bo`lgan omillar ta`siri goyat kuchli. Bu balanslashmagan inflyatsiya sharoitida davlat xarid narxining mavjudligidir. Bu narx asosiy maxsulotlar (paxta, galla, pilla)ga taallukli bo`lib, uning darajasi resurslar narxiga mutanosib ravishda o`zgarmaydi. Natijada bu narxlar «kaychisi» paydo bo`lib, bu shirkat xo`jaliklarini rentabel ishlashiga yo`l bermaydi. Davlat narxlari amalda monopsoniya narxlari, ya`ni xaridorning biryoklama manfaatidan kelib chikkan xolda belgilanadigan narx bo`ladi. U bozorni monopollashganligini bildiradi. SHirkatlar tabiatan tarkok va erkin xo`jalik lekin ular erkin bozorga ishlay olmaydi. Bu ziddiyat ularni moliyaviy tanglikka maxkum etadi. Bozorda davlat monopoliyasining saklanishi monopsoniya yo`k sharoitda xam sezilib turadi. Buni xususan ozik-ovkatdan iborat shirkat, fermer va dexkon xo`jalik maxsuloti narxini sanoat narxiga nisbatan sekin o`sishida, narxining paritetida ko`rish mumkin. Dexkonlar maxsulotining ayirboshlanish ekvivalentining pasayishi tufayli ular foydani kam ko`radi, yoki uni umuman olmaydi. Bu albatta, investitsiyalarni o`z mablag`i xisobidan ta`minlash imkonini cheklab ko`yadi.

2-mavzu. XORIJIY INVESTITSIYALARNING SHAKL VA TURLARI

Reja:

1. Xorijiy investitsiyalarning turlari.
2. Investitsiya faoliyatiga tegishli xuquqiy munosabatlarning ob`ekti va sub`ekti
3. Bevosita va portfelli xorijiy investitsiyalar.

Xorijiy investitsiyalarning quyidagi turlari mavjud: kapital, innovatsiya va ijtimoiy investitsiya.

Kapital investitsiya jumlasiga asosiy fondlarni vujudga keltiruvchi va takror ishlab chiqarishga, shuningdek, ishlab chiqarishning boshqa shakllarini ishlab chiqarishga qo`shiladigan investitsiyalar kiradi.

Innovatsiya investitsiyalar jumlasiga texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqish va o`zlashtirishga qo`shiladigan investitsiyalar kiradi.

Ijtimoiy investitsiyalar jumlasiga inson salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne`matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo`shiladigan investitsiyalar kiradi.

Xorijiy investitsiyalar ko'lamiga qarab xalqaro doiradagi, ya'ni xalqaro investitsiyalar ko'rinishiga ham ega bo'ladi. Xalqaro investitsiyalar – jahon mamlakatlari o'rtasida xarakatda bo'lgan investitsiyalardir.

Investitsiyalarni xorijga chiqarish, ularning mamlakatlar o'rtasidagi faol harakati zamonaviy jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ajralib turuvchi xususiyatlariga aylandi. Investitsiyalarni chetga chiqarish jahon xo'jaligidagi tovarlarni chetga chiqarish monopoliyasini tugatdi. Hozirgi vaktida xalqaro investitsiyalarning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 30%dan oshadi. Bu ko'rsatkich jahon savdosi usishi sur'atlaridan deyarli 5 marotaba ortiqdir. Xalqaro investitsiyalar o'zida moddiy boylik barpo etish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish, pul va tovar shakllarida jamgarilgan zaxiralarni mujassamlashtiradi. Ushbu investitsiyalar doimiy ravishda mamlakat ichida bir tarmoqdan boshqasiga, hamda davlatlararo harakatda bo'ladi.

Investitsiyalar turli shakllarda amalga oshiriladi va ularni tahlil qilish, rejalashtirish uchun alohida xususiyatlaridan kelib chikkan holda guruhlashtiriladi. Quyilish ob'ektiga karab investitsiyalar real va moliyaviy shakllarga ajratiladi. Real investitsiyalar (kapital kuyilmalar) – pul mablag'larini korxonaning moddiy va nomoddiy aktivlariga sarflanishidan iborat. Moddiy investitsiyalar asosiy kapitalning elementlarini sotib olish bilan bog'liq bo'lib, kupchilik hollarda investitsion loyixalar doirasida amalga oshiriladi. SHuning uchun shaxsiy mablag'lar bilan birga karzga olingan mablag'lar xam foydalanilishi mumkin.

Quyida keltirilgan 2-chizmada xorijiy investitsiyalarning tasniflanish belgilari keltirilgan.

Investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchilar (investorlar) quyidagi belgilari bo'yicha tasniflanadi.

1. Joriy faoliyatning yunalishlari bo'yicha institutsional va individual investorlar. Institutsional investorlar rovida sanoat, savdo, transport, aloqa va boshqa sohalaridagi aksioner jamiyatlar namoyon bulsalar, individual investorlar rovida fuqarolar namoyon buladi.
2. Investitsiyalash maqsadlari bo'yicha strategik va bevosita investorlar. Ular o'z oldiga kompaniyalarni boshqarish xuquqini olishni maqsad qilib qo'yadilar. Buni ular boshqa kompaniyalar aksiyalarining nazorat paketini sotib olish yoki ularning ustav kapitalininn katta qismini egallash orqali amalga oshiradilar. Portfel' investorlar dividend va foiz shaklida daromad olish maqsadida o'z kapitalini turli moliyaviy vositalarga joylashtiradilar.
3. Rezidentlikka tegishliligi bo'yicha investitsiyalar milliy va xorijiy investorlarga ajratiladi.

Nomoddiy investitsiyalar nomoddiy boyliklar yaratilayotganda amalga oshirilib, kadrlarni tayyorlash va kayta tayyorlashga, ilmiy-tadkikot va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish, yangi maxsulotlarning namunalarini yaratishga sarflarni mujassamlashtiradi.

Fan-texnika taraqqiyotini tezlashuvi bilan intellektual salohiyat ishlab chiqarishni eng kuchli omiliga aylandi, uning jiddiy unsuri bo'lib qoldi. XX asr boshlarida fan ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish uchun sarflanadigan kuyilmalar oshib bordi. SHuning uchun ham jahonda real investitsiyalar tarkibida ilmiy izlanishlar, fan, ta'lim, kadrlar tayyorlash uchun sarflanadigan harajatlar o'sib bordi. Masalan, AKSH, YAponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda fan va ilmiy izlanishga sarflanadigan qo'yilmalar o'sish sur'atlari asosiy fondlarga sarflanadigan investitsiyalardan ustundir. Jahon bozoriga kirib borish, keng ko'lamda marketingni rivojlantirish, batafsil axborotga ega bo'lish, yuqori darajadagi komp'yuter tizimlarini tashkil etishni, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va mazkur sohada dunyodagi rivojlangan davlatlar darajasiga erishishni talab etadi. SHuning uchun xam jadal sur'atlar bilan rivojlanish real investitsiyalar tarkibida fan, texnika, ta'lim, kadrlarni kayta tayyorlash uchun sarflanadigan real investitsiyalar asosiy o'rinlardan birini egallashi zarur.

Asosiy fondlarga sarflangan real investitsiyalar maqsadi sarflanish yo'nalishlari va boshqa ko'rsatkichlarga ko'ra hududlararo, tarmoqlararo, texnologik, qayta ishlab chiqarish tarkiblariga ega. Asosiy fondlarga sarflangan investitsiyalarni, ularning aktiv (mashinalar, asbob-uskunalar) va passiv (bino, inshootlar) qismlarini tashkil etish uchun sarflangan umumiy harakat yig'indisidagi ulushi investitsiyalarning texnologik tarkibini tashkil etadi. Qayta ishlab chiqarish tarkibi investitsiyalarning kanday maqsadlarga yo'naltirilganligi; yangi qurilishga, ishlab turgan korxonalarni kengaytirishga, rekonstruksiyaga va yangi texnika bilan qayta kurollantirishga jalb

qilingan harajatlarni umumiy harajatlardagi har birining nisbiy jihatdan ulushini ko'rsatadi. Investitsiyalarning hududlararo va tarmoqlararo tarkibi esa ularning nisbiy jihatdan hududlar va tarmoqlar bo'yicha taqsimotini bildiradi.

Rivojlangan mamlakatlarda real investitsiyalarning asosiy qismini shaxsiy investitsiyalar tashkil etadi. Davlat sektorida real investitsiyalar sarfi muxim ahamiyatga ega. Iqtisodiy muvofiqlashtirish siyosati asosida kreditlar, subsidiyalar ajratiladi, davlat kapital kuyilmalari muvozanatlashtiriladi va real investitsiyalar o'zlashtiriladi.

Davlat tomonidan o'zlashtiriladigan investitsiyalar dastlabki bozor infratuzilishini va u bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirishga sarflanadi. Investitsiyalarni samaradorligini oshirish asosiy kapitalni aktiv elementlarini vujudga keltirish va o'stirish hisobiga amalga oshiriladi. Investitsiyalar yunaltirilaetgan soxalar va ularni ishlatishdan olinadigan natijalarga kura real va moliyaviy investitsiyalarga bulinadi. Real investitsiyalar deb real kapitalning usishiga olib keladigan, ya'ni ishlab chikarish mablaglari, material boyliklarning usishini ta'minlash uchun kuyilgan kuyilmalarga aytiladi. Moliyaviy investitsiya deb aktsiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshka kimmatli kogozlar uchun kuyilgan kuyilmalarga aytiladi. Bu kuyilmalar buyum kurinishdagi kapitalning usishini uzida mujassam etmasada, lekin foyda shu jumladan spekulyativ foyda ya'ni kimatli kogozlar kursi uzgarishi natijasida vujudga keladigan foyda keltiradi. Moliyaviy investitsiyalarning ikki xil kurinishida buladi. Aktsiyalarni sotib olish real moddiy kurinishdagi kapitalni yaratmaydi. Lekin kelajakda spekulyativ kurinishda foyda olish mumkin buladi. Aktsiyalarni sotishdan tushgan mablagni ishlab chikarish uchun, asbob uskunalr sotib olish uchun sarflaganda u real kapitalga aylanadi va real investitsiya kurinishini oladi. SHu sababdan kimmatli kogozlarni oldi-sotdi operatsiyalari natijasida olinadigan spekulyativ foyda keltiruvchi moliyaviy investitsiyalar va kimmatli kogozlarni sotish natijasida pul kurinishdagi real moliyaviy investitsiyalarni farqlash lozim.

Real investitsiyalarni tavsiflash ularni hajmi va daromad keltirishi asosida amalga oshiriladi. Moliyaviy investitsiyalar kapitalni, to'lov va moliyaviy majburiyatlarning barcha turlarini o'zida mujassamlashtiruvchi, moliyaviy aktivlarga joylashtirilishini anglatadi. Ushbu moliyaviy vositalarning eng muximlari qimmatli qog'ozlardir: ulushli (aktsiyalar) va karz (obligatsiyalar). Real investitsiyalardan farkli ularok moliyaviy investitsiyalarni kuprok portfel' investitsiyalar deb atashadi, chunki bu xolda investorning asosiy maqsadi bo'lib moliyaviy aktivlarning mukammal yigmasini (investitsiyalar portfelini) shakllantirish va qimmatbaxo qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan turli operatsiyalarni boshkarish xisoblanadi. Moliyaviy investitsiyalar shaxsiy kompaniyalar va davlat idoralari tomonidan muomalaga chikarilgan aktsiyalarga, obligatsiyalarga va boshka qimmatli qog'ozlarga va bank depozitlariga, uzok muddatga jalb kilinadigan kuyilmalardir. Moliyaviy investitsiyalarning asosiy qismi, kapitalni noishlab chiqarish soxasiga sarflanishini bildiradi. Moliyaviy investitsiyalar aksariyat holatlarda real investitsiyalarning manbai bo'lib xizmat kilishi mumkin. Moliyaviy investitsiyalar erkin bozor infratuzilmasi rivojlangan mamlakatlarda, qimmatli qog'ozlar bozori orqali kapitalni sohalar bo'yicha taqsimlanishida muhim ahamiyatga bo'lgan davlatlarda ko'prok tarqalgan. Rivojlangan mamlakatlarning moliyaviy investitsiyalarining tarkibida asosiy o'rinni shaxsiy investitsiyalar tashkil kiladi.

SHaxsiy investitsiyalar, tadbirkorlar, xususiy firmalar, kontsernlar va aktsioner tashkilotlar tomonidan taqiqlanmagan faoliyatlarga sarflanadigan mulkdorlik va intellektual boyliklarni anglatadi. Etuk qimmatli qog'ozlar bozori mavjud bo'lgan mamlakatlarda shaxsiy investitsiyalarni ko'pgina qismi maxsus investitsiya fondlari tomonidan sarflanadi. Xorijiy investitsiyalarning moliyaviy shakli (portfel' investitsiyalar) milliy iqtisodiyotda istiqbolli korxonalarni aniklash va keng miqyosda investitsiyalashni amalga oshirishga asos bo'la oladi.

Investitsiyada katnashish xarakteriga ko'ra investitsiyalar bevosita va portfel' investitsiyalarga ajratiladi. Bevosita investitsiyalar investorni o'z moliyaviy mablag'lag'larini joylashtirish ob'ektini tiklash imkoniyatini beradi. Portfel' investitsiyalar tijorat banklari, investitsion kompaniyalar va fondlar va boshqalar yordamida amalga oshiriladi. Moliyaviy vositachilar to'plangan mablag'larni samarali, daromad keltiradigan kilib joylashtiradilar. Portfel'

investitsiyalar boshka emitentlarning anderrating yordamida qimmatli qog'ozlarga joylashtirish shaklida namoyon buladi.

Investitsiyalash davriga qarab investitsiyalar qisqa muddatli (bir yilgacha bo'lgan muddatga beriladi) va uzoq muddatli (bir yildan ortiq muddatga beriladi) bo'ladi. Masalan, oddiy aktsiyalar umuman biror – bir muddat bilan cheklanmaydi. Masalan, depozit sertifikati olti oy muddatga beriladi – bu qisqa muddatli kuyilmalar vositasidir, obligatsiyalar 20 yilda qaytarish muddati bilan uzoq muddatli kuyilmalar vositasidir. Lekin, uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarni sotib olish va qisqa muddatdan, masalan olti oy o'tgandan so'ng, investor uzoq muddatli vositalardan qisqa muddatli maqsadlar uchun foydalanish mumkin. Ko'pincha investorlar ana shunday vositalarni tanlaydilar va o'z pullarini qisqa muddatlarga qo'yishni xoxlaydilar. Masalan, yaqin olti oy mobaynida investorga kerak bo'lmaydigan summaga, u olti oylik muddatga ega bo'lgan depozit sertifikati sotib olishi mumkin: qirq yoshga to'lgan investor pensiyaga chiqquncha pul yig'ish uchun biron-bir kompaniyani obligatsiyasini 20 yilga sotib olish mumkin. Odatda uzoq muddatli investitsiyalar kapital qo'yilmalar shaklida namoyon bo'ladi.

Mulk shakllaridan kelib chikib investitsiyalar xususiy, davlat, qo'shma va xorijiy shakllarga ajratiladi. Xususiy investitsiyalar nodavlat yuridik shaxslarining va fuqarolarning mablag'larini tadbirkorlik faoliyati ob'ektlariga kuyilishini anglatadi. Davlat investitsiyalari davlat byudjeti va davlat korxonalarining mablag'larini

Hududiy joylashtirilish bo'yicha investitsiyalar ichki va tashqi investitsiyalarga bo'linadi.

Xorijiy investitsiyalar davlat yoki xususiy investitsiyalar shaklida bo'lishi mumkin. Birinchi shaklda davlat investitsiyalari ishtirok etib, bunda bir davlat boshqa davlatga kreditlar yoki boshqacha shakldagi qarzlarni berishi mumkin. Bunday munosabatlarga xalqaro huquq normalari qo'llaniladi. Ikkinchi shaklda esa, bir mamlakat xususiy firmalari, kompaniyalari yoki fuqarolari boshqa mamlakatning tegishli sub'ektlariga beradigan investitsiyalar tushuniladi. Davlat investitsiyalari deb davlat tomonidan milliy daromadning davlat byudjetining mablag'lari kurinishida mamlakat iktisodining rivojlanishi uchun sarflaetgan mablag'lariga tushuniladi. Xususiy investitsiyalar deb xususiy kompaniyalar, axoli va tadbirkorlar tomonidan mablag'larning kuyilishiga aytiladi. Investitsiya munosabatlari shu darajada murakkab va ko'p qirraliki, ko'pincha davlatlar o'rtasidagi munosabatlar xususiy shaxslar o'rtasidagi munosabatlar bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Bunday aloqa investor huquq va talablarni davlatga topshirganda yaqqol ko'rinadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalarni qo'llash ko'lamini va investitsiyaga mablag' ajratish jihatdan turlarga ajratishadi. Moddiy ishlab chiqarish jarenidagi investitsiyalashdan tashkari mamlakatda ijimoiy madaniyat soxalari uchun, fan tarmoklari uchun, madaniyat, ta'lim, sog'likni saklash, jismoniy tarbiya va sport soxalari uchun, informatika sohasi, tabiatni muxofaza qilish uchun, yuqorida ko'rsatilgan soxalar uchun qurilishlarga, texnika va texnologiyalarni yangi turlarini kullash uchun katta mikdorda investitsiya mablag'lari ajratilmokda. Bu investitsiyalarni xozirgi vaktida xorijiy mamlakatlar adabietida «inson investitsiyasi», «inson kapitaliga investitsiya qilish» deb atashmokda. Bu investitsiyaning aloxida bir kurinishi bulib, asosan kishilarning sog'lig'ini saklash, akliy va ma'naviy rivojlanishi uchun, xaetini uzaytirish xamda kishilarning ish faolliyatida ijodiy katnashi va uning samaradorligi oshishi uchun sarflanadi. Xozirgi vaktida Uzbekiston Respublikasida investitsiyaning asosiy kismalari sog'likni saklash, maorif uchun sarflanmokda. Bunga misol kilib, kishlok joylarda vrachlik ambulatoriya punktlari, kollej va litseylar kurish dasturlarini misol kilib olish mumkin.

Ma'lumki investitsiyalar ma'lum bir vaktga kuyiladi. SHu sababdan moliyaviy kuyilmalar uzok muddatli va kiska muddatli moliyaviy kuyilmalarga ajratiladi. Uzok muddatli moliyaviy kuyilmalar bir yildan kup bulgan muddatlarga kuyiladi, ba'zan 10 yillarga xam kuyilishi mumkin. Masalan kishi faktori uchun kuyilgan investitsiyalar kishilar olgan bilimlardan samarani kup yillardan keyin olish mumkin. Kiska muddatli moliyaviy kuyilmalarga bir yilgacha bulgan muddatga kuyilgan investitsiyalar tushuniladi, ya'ni shu muddatda kuyilgan mablag'lar uz samarasini berishi lozim.

2. Investitsiya faoliyatiga tegishli xuquqiy munosabatlarning ob`ekti va sub`ekti

Investitsiyalar iqtisodiy va boshqa faoliyat ob`ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne`matlar hamda ularga doir huquqlar hisoblansa, investitsiya faoliyati sub`ektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog`liq harakatlari majmui investitsiya faoliyati deb yuritiladi. Investitsiya faoliyati tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning bir ko`rinishidir, shuning uchun ham tadbirkorlikka xos bo`lgan belgilar, ya`ni mulkiy mustaqillik, tashabbuskorlik va tavakkalchilik unga ham xos bo`lgan xususiyatdir.

Investitsiya faoliyatining ob`ekti moddiy va nomoddiy ne`matlar ishlab chiqarish ob`ektlari hisoblanadi.

Investitsiya faoliyatining sub`ektlaridan biri investor bo`lib, u o`z mablag`larini, qarzga olingan va jalb etilgan mablag`larni, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, shuningdek intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati ob`ektlariga jalb etishni amalga oshiradi. Bunday o`ziga xos faoliyat sub`ektlarining yana bir katta guruhi mavjud bo`lib, ular investitsiya faoliyati ishtirokchilari deb yuritiladi va ularning asosiy vazifasi investorning buyurtmalarini bajaruvchi sifatida investitsiya faoliyatini ta`minlash bo`lib hisoblanadi.

Investor va investitsiya faoliyatining ishtirokchilari-sub`ektlari quyidagilar bo`lishi mumkin:

- O`zbekiston Respublikasining rezidentlari, fuqarolari, yuridik shaxslari;

- mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruvi organlari;

xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va chet ellik yuridik shaxslar hamda fuqarolar, shuningdek fuqaroligi bo`lmagan shaxslar va O`zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yashovchi fuqarolari;

- hamkorlikda investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek davlatlar va xalqaro tashkilotlar.

Investorlar buyurtmachi (mablag` kirituvchi), kreditor, sotib oluvchi bo`lishlari, shuningdek investitsiya faoliyati ishtirokchisi vazifasini bajaruvchi ham bo`lishlari mumkin.

O`zbekiston Respublikasi hududidagi chet el investitsiyalari deyilganda, O`zbekiston Respublikasi hududida chet ellik investorlarning daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujatlarida ta`qiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob`ektlariga qo`shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklari hamda ularga doir huquqlari, shu jumladan intellektual mulkka doir huquqlari, shuningdek chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad tushuniladi.

O`zbekiston Respublikasida chet ellik investorlar quyidagilar, chunonchi:

chet el davlatlari, chet el davlatlarining ma`muriy va hududiy organlari, davlatlararo bitimlar va boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki xalqaro ommaviy huquq sub`ektlari bo`lgan xalqaro tashkilotlar, chet el davlatlarining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil topgan va faoliyat ko`rsatib kelayotgan yuridik shaxslar, boshqa har qanday shirkatlar, tashkilotlar va uyushmalar, chet el fuqarolari bo`lmish jismoniy shaxslar, fuqaroligi bo`lmagan shaxslar va chet ellarda doimiy yashaydigan O`zbekiston Respublikasi fuqarolari bo`lishi mumkin.

3. Bevosita va portfelli xorijiy investitsiyalar.

Maqsadiga ko`ra, xorijiy investitsiyalar bevosita va portfel' investitsiyalarga bulinadi. Bevosita investitsiyalar – bu kapitalni tug`ridan-tug`ri eksporti bo`lib, investitsiya kirituvchiga shu korxona ustidan nazorat kilish xuquqini beradi. Bunda korxona asosiy kompaniyaning xorijdagi shaxobchasiga aylanadi. Bevosita xorijiy investitsiya(BXI)lar asosan xususiy tadbirkorlik kapitali shaklida buladi.

Xalqaro statistikada investitsiyalarni BXIlar turiga kiritish bo`yicha xar xil yondashuvlar mavjud. Xorijiy investorlar tomonidan nazorat kilish xuquqini belgilovchi kursatkich sifatida ular ega bo`lgan aksionerlik kapitalining xissasi kursatkichidan foidalaniladi. Bu kursatkich AKSHda 10%, Frantsiya va Buyuk Britaniyada 20% ga yaqin, Germaniyada 25%dan 50% gacha, O`zbekistonda esa 49% darajasida belgilangan. SHuningdek, shu korxonaning boshkaruvida bevosita amalga oshirilaetgan investitsiyalarning uzok muddatli ekanligi xam uning muxim belgilaridan biridir. Investitsiyaning bu kurinishi tavakkalchilikni, investitsiyalardan foydalanish

samaradorligi uchun ma'suliyatni davlat va axoli zimmasiga yuklamasdan, balki ularni tadbirkorlik tizimlari urtasida taksimlashning eng yaxshi va sinalgan usuli xisoblanadi.

BXI borasidagi yana bir yondashuv bu turdagi investitsiyalarni fakat mulkchilik kulami bilan, ya'ni aksionerlik kapitalidagi ulushi bilan bog'liq, deb kursatadi. Unga muvofik BXIlarni:

- a) xorijda aksiyalarni sotib olish orkali;
- b) foydani kayta investitsiyalash yordamida;
- v) firma ichki karzlari va karzdorliklari orkali amalga oshirish mumkin.

Kupchilik iktisodchilar bu shakllar etarli emas, deb xisoblashadi va asosli ravishda turli xil noaksioner shakllar orkali bu ruyxatni davom ettirishadi (subkontraktlar, boshkaruv kelishuvlari, francheyzing, litsenzion kelishuvlar va boshkalar).

BXIlarning shakl va usullariga bog'liq tushunchalar bilan bog'liq turli xil yondashuvlarning kupayishi kator muammolarni keltirib chikardi. Bu muammolar umumbashariy xarakterga ega bo'lib, nostandart yondashuvlar echimini talab etadi.

Bevosita investitsiyalar ikki guruxga bulinadi:

1. Transkontinental kapital kuyilmalar.
2. Transmilliy kuyilmalar.

Transkontinental kapital kuyilmalar - investitsiya kiritish uchun kulay bozor sharoiti bo'lgan xolda boshka bir davlat yoki kontinentdan investitsiya eksportini amalga oshirishdir. Asosiy maqsad – bozorni egallash va shu kontinentda yangi ishlab chiqarishni tashkil etish.

Transmilliy kapital kuyilmalari asosan kushni davlatlarga amalga oshiriladi. Bundan asosiy maqsad – bosh kompaniyaga nisbatan kilinadigan kapitalning xarakatini minimum darajada amalga oshirish.

Bevosita investitsiyalar ikki maqsadga yunaltiriladi:

1. YAngi kompaniya tashkil etish.
2. Bankrot bo'lgan kompaniyalarni xarid kilish.

Portfel' investitsiyalar (portfolio investments) - shunday investitsiyalarki, bunda kapitalni daromad olish maqsadida korxonalarning aksiyalari, obligatsiyalari va boshka qimmatli qog'ozlarini sotib olish uchun sarflanadi. Bunday investitsiyalar korxonalarning moliyaviy xujalik faoliyati ustidan nazorat urnatish xuquqini bermaydi. Xorijiy portfel' investitsiyalar barcha xalqaro operatsiyalarni amalga oshirishda firmalar uchun muxim ahamiyatga ega. By turdagi investitsiyalarga asosan moliyaviy muammolarni echish uchun murojaat kilinadi. Korporatsiyalarning moliyaviy bulimlari mablag'larning bir mamlakatdan boshka mamlakatga qisqa muddatli investitsiyalardan yukori foyda olish uchun utkazadilar. Bunday investitsiyalar kupincha xususiy tadbirkorlar kapitaliga asoslangan, ba'zida esa uz qimmatbaxo qog'ozlarini chikaradi va xorijiy qimmatbaxo qog'ozlarini sotib oladi.

Xalqaro portfel' investitsiyalari mamlakat to'lov balansida qanday klassifikatsiyalangan bulsa, shunday aks ettiriladi. Portfel' investitsiyalar kuyidagi kurinishda bulishi mumkin:

-aksioner qimmatbaxo qog'ozlari (equity securities) - bozor muomalasidagi pul xujjati bo'lib, xujjat egasining ushbu xujjatni chikargan shaxsga nisbatan mulkiy xuquqqa egaligini tasdiklaydi;

-zayom qimmatbaxo qog'ozlar (debt securities) - bozor muomalasidagi pul xujjati bo'lib, zayom egasining ushbu xujjatni chikargan shaxsga nisbatan munosabatini tasdiklaydi.

Zayom qimmatbaxo qog'ozlari kuyidagi shakllarda chikariladi:

-obligatsiya (bond) (oddiy veksel', karz majburiyati) pulli dastak bo'lib, uning soxibiga kafolatlangan va kat'iy belgilangan pul daromadi yoki shartnoma asosida belgilangan uzgaruvchan pul daromadini olish xuquqini beradi;

-pul bozori dastaklari - pulli dastak bo'lib, uning soxibiga ma'lum bir davr ichida kafolatlangan va kat'iy belgilangan pul daromadi olish xuquqini beradi. Bu dastaklar bozorda pasaytirilgan narxlarda sotiladi, narxni pasaytirish darajasi foiz stavkasining katta-kichikligiga va karzni koplanish muddatiga bog'liqdir. Bularga gazna veksellari, depozit sertifikatlari, bank aptsentlari va boshkalar kiradi.

Moliyaviy derivatlar (financial derivatives) – bozor narxiga ega boʻlgan pulli dastak boʻlib, uning soxibiga birlamchi qimmatbaxo qogʻozlarni sotish yoki sotib olish xuquqini beradi. Bularga opsiyonlar, fʼyucherslar, varrantlar, svoplar kiradi.

Xalqaro portfelʼ investitsiyalari xarakatini xisobga olish maqsadida toʻlov balansida quyidagi kategoriyalar kabul kilingan:

Nota (karz majburiyati) (note) - qisqa muddatli (3-6 oy) pulli dastak boʻlib, bank bilan kelishuv asosida karz oluvchining uz nomiga chikariladi, bozorda joylashtirilishi kafolatlanadi va sotilmagan notalar sotib olinadi, rezerv kreditlar bilan taʼminlanadi. Keng tarkalgan notalar – Evronotalardir.

Option (option)- shartnoma (qimmatbaxo qogʻoz) boʻlib, xaridorga maʼlum bir qimmatbaxo qogʻoz yoki tovarni belgilangan muddatdan sung yoki maʼlum bir davr ichida katʼiy belgilangan narxlarda sotib olish yoki sotish xuquqini beradi. Option xaridori uning egasiga yukorida kayd etilgan xuquqlarni sotishi evaziga mukofot pulini tulaydi.

Varrant (warrant) – opsiyonning bir turi boʻlib, egasiga belgilangan muddat ichida emitentdan imtiyozli sharoitda maʼlum bir mikdordagi aksiyalarni sotib olish imkonini beradi.

Fʼyuchers (futures) –qimmatbaxo qogʻozlarni, valyuta yoki tovarlarni belgilangan narx va kelajakdagi belgilangan muddatda sotish yoki sotib olish borasidagi bajarilishi majbur boʻlgan qisqa muddatli standart shartnomalardir.

Forvard kursi (forward rate)- asosiy karz summasining maʼlum bir uzgarmas qismiga nisbatan belgilangan vaktida tulanadigan foiz stavkasining xajmi tugrisida kelishuv boʻlib, u usha kundagi foiz stavkasidan past yoki yukori bulishi mumkin.

Svop (swap) – savdo koidalariga amal kilgan xolda bitta karzni tulash boʻyicha maʼlum bir muddat utgandan sung shartlarni uzgartirish boʻyicha bitim

Portfelʼ investitsiyasining bevosita investitsiyalardan afzallik tomoni shundaki, ular tugatilish vaktida qimmatbaxo qogʻozlar tezda nakd valyutaga almashtirib olinishi mumkin. Portfelʼ investitsiyalarning amalga oshirilishining asosiy sababi – tavakkalchilik darajasini xisobga olgan xolda xorijiy investor uz mablagʻlarini xorijda maksimal foyda keltiruvchi qimmatbaxo qogʻozlarga joylashtirishi mumkin. Maʼlum bir maʼnoda portfelʼ investitsiyasi pulni inflyatsiya va spekulyatsiya yuli bilan foyda kurishdan saklash vositasi sifatida karaladi. Bunda investitsiya kilinayotgan soxa xam, qimmatbaxo qogʻoz turi xam xech kanday ahamiyatga ega emas, u ustama kurs usishiga karab istalgan foydani bersa va devidendlar tulansa buldi.

3-jadval

Bevosita va portfelʼ investitsiyalar oʻrtasidagi farqlar

Belgilar	Bevosita investitsiyalar	Portfelʼ investitsiyalar
Kapital chiqarishdan asosiy maqsad	Xorijiy firma ustidan nazorat urnatish	YUkori foyda olish
Maqsadga erishish yullari	Xorijda ishlab chiqarishni tashkil etish va olib borish	Xorijiy qimmatbaxo qogʻozlarini sotib olish
Maqsadga erishish usullari	a) xorijiy firmaga tulik egalik kilish b) aksiyalar nazorat paketini sotib olish (XVJ nizomiga binoan kompaniya aksioner kapitalining 25%dan kam bulmasligi kerak)	Xorijiy firma aksioner kapitalining 25%dan (AKSH, YAponiya, Germaniyada 10%dan) kamini sotib olish
Daromad shakllari	Tadbirkorlik faoliyati foydasi, dividendlar	Dividendlar, foizlar

Manba: Akopova E.S., Voronkova O.N. i dr. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. Rostov-na-Donu: «Feniks», 2000.- S. 278 (416 s).

3-mavzu. GLOBALLASHUV HAMDA IQTISODIY INTEGRATSIYALLASHUVNING KUCHAYIB BORISHIDA INVESTITSIIYA JARAYONLARI

Reja:

1. Jahon iqtisodiyotining globallashuvida xorijiy investitsiyalarning o`rni.
2. Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi doirasida investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish.
3. O`zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini ishlab chiqish.
4. Xorijiy investitsiyalarni eksporti va importi.

O`zbekiston bugungi kunda yirik xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakatlar qatoriga kirish uchun barcha iqtisodiy, siyosiy va xuquqiy asoslarga ega. Lekin bu degani O`zbekistonda xorijiy investorlarni jalb qilish uchun barcha ishlar qilib bo`lindi, degani emas. endigi navbatda bu asoslarga tayangan holda investitsiyalar jalb etishning mexanizmlarini takomillashtirish masalalari turadi.

Jahon tajribasi shuni ko`rsatadiki strategik investorlar ko`p miqdordagi mablag`larni birinchi navbatda iqtisodiyoti o`z ichki imkoniyatlari asosida barqaror va izchil ravishda rivojlanayotgan mamlakatga yunaltiradi. Aynan shunday mamlakatlardagina quyilgan mablag`lar saqlanishiga va barkaror foyda olishga muljal kilsa buladi. Ichki va chet el investorlarini birinchi navbatda minimal darajadagi soliq imtiyozlari emas, balki biznesdagi keyingi qulay va maqbul istiqbollar qiziqtiradi.

MDX davlatlarining paydo bulishi bilan xorijiy investorlarning investitsion faoliyatlarini amalga oshirishdagi yangi imkoniyatlar maydoni paydo buldi. SHuni aytish kerakki xorijiy investorlar bu masalada katta tajribaga ega. Albatta bu masalaning bir tomoni bulsa, ikkinchi tomoni investitsiyalar qabul qiluvchi (MDX) davlatlari uchun zamonaviy ishlab chiqarish vositalarini qabul qilishdagi investitsion tanlov imkoniyati yaratildi. Bunga oddiy hol deb karash kerak emas, chunki, investitsiyalar-iqtisodiyotni xarakatga keltiruvchi, uni olga siljituvchi kuch.

Mamlakatni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalarining jumladan, xorijiy investitsiyalarning ahamiyati kattadir. Ma`lumki, xar qanday davlat dunyodan ajralgan holda jahon tajribalarini o`rganmasdan, dunyoning etakchi davlatlari ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan rivojlanishi mumkin emas. O`zbekiston iqtisodiyotida chukur iqtisodiy islohatlar, tarkibiy o`zgarishlar amalga oshirilgan ekan, xorijiy investitsiyalar rivojisiz tasavvur etib bo`lmaydi.

Globallashuv jarayoniga qo`shilish bu dunyoning etakchi davlatlari bilan hamkorlikda bo`lish, ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy sohadagi davlat siyosatining o`zaro manfaatli asosda bu davlatlar siyosatiga mos kelishidir. Zamonaviy jahon iqtisodiyoti uchun investitsiya faolligi va jahon iqtisodiyoti globallashuvining kuchayishi muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar va bozor iqtisodiyotiga utish davrini boshidan kechirayotgan davlatlarning xalqaro mexnat taksimotidagi roli ortib borayotganligi xam unga ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

SHuningdek, globallashuv jarayoniga iqtisodiyotni erkinlashtirish, ilmiy-texnika tarakkiyotining tezlashishi, rakobatning kuchayishi va boshka bir kator omillar xam xosdir.

«CHet el investitsiyalari» tug`risida O`zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 aprel` Qonunining 3- moddasida «CHet ellik investorlar asosan daromad (foйда) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun xujjatlarida taqiqlangan boshqa turdagi faoliyat ob`ektlariga qo`shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir xuquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir xuquqlar, shuningdek chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O`zbekiston respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e`tirof etiladi».<sup>3</sup> Xorijiy investitsiyalarining umumiy ta`rifi F. Xeniusning 1947 yil AKSHda chop etilgan tashqi savdo lug`atining 2- nashrida kuyidagicha berilgan: «Xorijiy investitsiyalar - bir mamlakat hududidan ikkinchi mamlakat hududiga kiritilgan, eksport kilingan investitsiyalar»⁴

³ Узбекистоннинг янги қонунлари. 19-сон,-Т.: Адолат,1998.532-бет.

⁴ Самархужаев Б.Б. Инвестиции в Республике Узбекистан. Ташкент, 2003г. С.16. Dictionary of Foreign Trade? by F.Henus Sec/ Ed. N4.,1947, P.387.

Bizningcha chet el investitsiyalari – chet mamlakatlarining milliy iqtisodiyotga moddiy, moliyaviy va nomoddiy (nau-xau) ko`rinishidagi muddatli qo`yilmalarning barcha shakllari tushuniladi. Bu quyidagilardan iborat bulishi mumkin: qo`shma korxonalarni tashkil qilishda o`z ulushi bilan qatnashish, xorijiy sarmoyadorlarga to`la tegishli bo`lgan korxonalarni barpo etish, xorijiy shaxslar tomonidan qimmatli qog`ozlarni, shuningdek, zayom va kreditlar olish.

Ma`lumki xorijiy investitsiyalar iqtisodiy rivojlanish garovi. Xorijiy investitsiyalar iqtisodni xarakatga keltiruvchi kuch. endi yuqoridagi savollarga Prezident I.A.Karimov ta`biri bilan javob berganda «...kecha faqat xom ashyo maxsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan O`zbekiston bugun dunyo xaritasida o`zining munosib o`rnini egallashga, boshqa taraqqiy topgan mamlakatlar avvalombor, AQSH, G`arbdagi demokratik davlatlar, sharqdagi YAponiya, Koreya, Malayziya yoki shunga o`xshash davlatlarga teng bo`lishni o`z oldiga maqsad qilib qo`yar ekan, bunda birinchi galdagi chet el sarmoyalari, chet el investitsiyasi nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu davlatlarning tarixi shuni ko`rsatadiki, agar bu xorijiy malakatlarga sarmoya kelmasa, investitsiya kelmasa, hech qachon bu davlatlar bugungi rivojlanish darajasiga ko`tarila olmas edi».

O`zbekiston ulkan xorijiy investitsiyalar yunaltirilayotgan mamlakatlar guruhiga kirish uchun barcha shart-sharoitlarga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun bir qator afzalliklarga ega. O`zbekiston jahon xamjamiyati oldida uzining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, dune xaritasida geografik joylashishi, tabiiy resurslarining tarkibi va zahirasi, xukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosat va boshkalar bilan muxim rol uynaydi.

2007 yil davomidv iqtisodiyotimizga kiritilgan investitsiyalar umumiy xajmi 23 foizga ortdi va 4,3 milliard dollardan ziyod miqdordagi mablag`ni tashkil etdi. Bu esa o`tgan yillar mobaynida erishilgan eng yuqori ko`rsatkichdir. SHunisi diqqatga sazovorki, jami investitsiyalarning 70 foizdan ortig`i ishlab chiqarish ob`ektlari qurilishiga, jumladan salakam 50 foizi korxonalarni texnik va texnologik modernizatsiya qilishga yunaltilirdi. O`zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar xajmi 58 foizga ortib, bir milliard dollarni tashkil etgan bulsa, ularning 76 foizi tugridan-tugri kiritilgan investitsiyalar ekanini ta`kidlash lozim.

Hozirgi kunda respublikamiz tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar xissasiga tugri kelmokda va ularning eksport xajmidagi ulushi utgan yili 60 foizni tashkil etdi.

Xalqaro moliya institutlari bilan xamkorligimiz faol rivojlanmokda. Ta`lim, sog`likni saqlash, qishloq va suv xo`jaligi hamda moliyaviy resurslarni boshqarish sohalarida strategik loyihalarni amalga oshirish uchun o`tgan yili qariyb 330 million dollar mikdorida imtiyozli kreditlar va 46 million dollarlik grantlar jalb etildi. Investitsiya va sarmoyalar haqida gap borganda, bir muhim masalaga aloxida tuxtalib utishni zarur. Bugun joylarda iqtisodiyotni yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jixozlangan yangi korxonalarni barpo etish va rekonstruktsiya kilish xorijiy sarmoyalarni jalb kilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat kursatish soxasi va kasanachilikni rivojlantirish nechoglik katta, xal kiluvchi ahamiyatga ega ekanini kimgadir isbot kilib berishga xojat yuk. Bu avvalambor, axolii bandligi, uning ish xaki va daromadini oshirish, bu oxir-okibatda respublikamiz hududlari, jaxar va tumanlarimizdagi eng muxim ijtimoiy muamolarni echish demakdir.⁵

Bu esa uz navbatida xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi uchun kulay investstsiion muxit barpo etish shartlarining ayrimlarini uz ichiga oladi. Xorijiy investitsiyalar iqtisodiy jarayonlar xisoblanib, jahon bozori bilan uzaro yakin va tulik bog`liqlikda buladi. SHu nuktai-nazardan u kupgina iqtisodiy jarayonlarni uzida kamrab oladi. Xorijiy investitsiyalar bozor munosabatlariga utayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini tarkibiy kayta qurish sur`atlarini tezlashtirish imkonini beradi. eng muhim yunalish sifatida xorijiy investitsiyalarni jalb etishni o`z ichiga olgan investitsiya faoliyatining jadallashuvi bugungi kunda o`tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlar uchun ayni muddao. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish u yoki bu mamlakatda olib borilayotgan siyosiy va ijtimoiy – iqtisodiy islohatlarga bog`liq.

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2007 йилда мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари ва 2008 йилда иқтисодий ислохатларни чуқурлаштирининг энг муҳим устувор йуналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамаси мажлисидаги маърузаси. Халқ сузи, 2008 йил 9 феврал, 2бет.

Investitsiyalar zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan kurollanish, ilmiy texnik, ishlab chiqarish va aqliy imkoniyatlarini tiklashning asosiy vositadir. Aynan xorijiy investitsiyalar orqali milliy iqtisodiyot jonlanib, ishlab chiqarishda zamonaviy raqobatdoshlar tovarlar ishlab chiqarishga ixtisoslashib boriladi. Bu esa o'z navbatida yangi ish o'rinlarining ochilishi va mamlakatdagi mavjud iqtisodiy va ijtimoiy muammolarining hal bo'lishiga olib keladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning tutgan o'рни, salmog'i mazkur davlatdagi investitsion muxitning qanchalik qulayligini belgilaydi. Bu muhit ko'p jixatdan xorijiy investitsiyalarga nisbatan davlat olib borayotgan siyosatini va tashqi iqtisodiy faoliyatining davlat tomonidan tartibga solishining xususiyatlari bilan baholanadi.

2. Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi doirasida investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish

Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi O'zbekiston Respublikasi hududida, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, yuridik shaxslar tomonidan xorijiy investorlarni jalb etgan holda jahon bozorida chiqindilar chiqarishning sertifikatlangan qisqartirishlarini sotib olishni nazarda tutuvchi investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish uchun asos yaratadi.

Kioto Protokoli - Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Hadli Konventsiyasiga 1997 yil 11 dekabrda qabul qilingan, O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1999 yil 20 avgustda ratifikatsiya qilingan va 2005 yil 16 fevraldan boshlab kuchga kirgan, parnik gazlarini atmosferaga chiqarishni qisqartirish mexanizmlarini belgilovchi hujjat hisoblanadi.

Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi (MRM) - unga ko'ra Kioto Protokoliga 1-ilovaga kirmagan mamlakatlar o'z hududida parnik gazlarini atmosferaga chiqarishni qisqartirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishi va bunday loyihalar natijasida olingan chiqindilar chiqarish qisqartirishlarini Kioto Protokoli 1-ilovasiga kirgan mamlakatlar hukumatlariga yoki kompaniyalariga yoxud chiqindilar chiqarishning sertifikatlangan qisqartirishlarini (chiqindilarni sertifikatlangan qisqartirish (CHSQ) - MRM investitsiya loyihasini amalga oshirish natijasida olingan va IO'HKning Ijro etuvchi kengashida sertifikatlashdan o'tgan, uglerod ikki oksidi ekvivalentining bir metr tonnasiga teng bo'lgan birliklarda o'lchanadigan chiqindilarning miqdoriy qisqartirilishini anglatadi) sotib olishdan manfaatdor bo'lgan har qanday tashkilotlarga sotish mumkin bo'lgan mexanizmdir. Ushbu mexanizm Birlashgan Millatlar Tashkilotining MRM bo'yicha loyihalarni amalga oshirish uchun iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Hadli Konventsiyasi tegishli hujjatlari bilan belgilangan tartibotlar, mezonlar va talablarni qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 6 dekabrda PQ-525-son qaroriga muvofiq Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi bo'yicha Idoralararo kengash tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi bo'yicha Milliy organ hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Hadli Konventsiyasi huzuridagi MRM loyihalarini ro'yxatdan o'tkazish va chiqindilar chiqarishni qisqartirishni sertifikatlash organi Birlashgan Millatlar Tashkilotining MRM bo'yicha iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Hadli Konventsiyasining Ijro etuvchi kengashi (IO'HKning Ijro etuvchi kengashi) hisoblanadi..

MRM loyihalarini tayyorlashda va amalga oshirishda, shuningdek chiqindilarning sertifikatlangan qisqartirishlarini sotishda xizmatlar ko'rsatishga vakil qilingan xalqaro va xususiy tashkilotlardan, "Karbon jamg'armalari" foydalaniladi.

Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi doirasida investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish quyidagilarni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda loyiha tashabbuskori tomonidan MRM Milliy organiga yozma ariza kiritiladi, arizaga MRM bo'yicha nazarda tutilayotgan investitsiya loyihasi to'g'risidagi umumiy axborot ilova qilinadi. Loyiha bo'yicha buyurtmanoma O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi bilan kelishiladi. Zarurat bo'lganda, loyiha bo'yicha buyurtmanomaga kiritish uchun MRM Milliy organi tomonidan loyiha bo'yicha qo'shimcha axborot va hujjatlar so'rab olinishi mumkin. MRM Milliy organi loyiha bo'yicha buyurtmanoma taqdim etilgan vaqtdan

boshlab ikki hafta muddatda loyihani MRM doirasida barqaror rivojlanish milliy mezonlariga muvofiq amalga oshirish mumkinligini ko'rib chiqadi. Loyihani MRM doirasida amalga oshirish mumkinligi to'g'risidagi masala ijobiy ko'rib chiqilgan taqdirda MRM Milliy organi Idoralararo kengashga loyiha bo'yicha buyurtmanomani ma'qullash uchun loyihani amalga oshirish mexanizmi bo'yicha xulosa hamda loyihani amalga oshirish uchun investor tanlash bo'yicha tanlov hujjatlariga asosiy talablar bilan birga kiritadi. Idoralararo kengash taklifni taqdim etilgan hujjatlar asosida ko'rib chiqadi va loyihani amalga oshirish mumkinligi to'g'risida yoxud loyihani puxtalashtirish zarurligi to'g'risida qaror qabul qiladi. Loyihani amalga oshirish mumkinligi to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda Idoralararo kengash tomonidan, zarurat bo'lganda, ayni bir vaqtda investor tanlash bo'yicha tanlov komissiyasi tarkibi, tanlovni o'tkazish muddatlari va loyihani amalga oshirish uchun investor tanlash bo'yicha tanlov hujjatlariga talablar tasdiqlanadi. Idoralararo kengash tomonidan loyihani amalga oshirish to'g'risida ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda MRM Milliy organi uchun kun muddatda loyiha tashabbuskorini rasmiy ravishda xabardor qiladi, xabarnomada loyihani amalga oshirishning tavsiya etilayotgan mexanizmini hamda loyihani amalga oshirish uchun investor tanlash bo'yicha tanlov hujjatlariga asosiy talablarni ko'rsatadi. Loyihani Karbon jamg'armalari yoki Xalqaro moliya institutlari orqali amalga oshirish mexanizmini tanlashda loyiha-texnik hujjatlarni (LTH) tayyorlash, investorlarni, vakolatli operativ organlarni va chiqindilarning sertifikatlangan qisqartirishlari xaridorlarini tanlash tegishli Karbon jamg'armalari yoki Xalqaro moliya institutlari tomonidan belgilangan tartibotlarga muvofiq amalga oshiriladi. MRM Milliy organi tomonidan tanlov asosida tanlab olish zarurligi ko'rsatilgan taqdirda loyiha tashabbuskori loyihani amalga oshirish uchun Idoralararo kengash tomonidan belgilanadigan muddatlar va talablarga muvofiq investor tanlash bo'yicha tanlov e'lon qiladi.

Ikkinchi bosqichda tashabbuskor tomonidan MRM Milliy organiga yozma ariza kiritiladi, unga quyidagilar ilova qilinadi:

- muzokaralar davomida erishilgan dastlabki va yakuniy qiyosiy jadvallar, loyiha tashabbuskori tomonidan tanlangan taklif ko'rsatilgan holdagi tanlov qatnashchilari takliflari. Qiyosiy jadvalda ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligi uchun loyiha tashabbuskori javob beradi;

- MRM tartibotlariga muvofiq ishlab chiqilgan rus va ingliz tillaridagi loyiha-texnik hujjatlar;
- loyihani amalga oshirishning oylar bo'yicha jadvali;
- Gidrometeorologiya xizmati markazining loyiha bo'yicha ijobiy xulosasi;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining loyiha bo'yicha ijobiy ekologik xulosasi.

Quyidagilar Idoralararo kengash tomonidan loyihani baholashning asosiy mezonlari hisoblanadi:

- loyihani amalga oshirishning umumiy iqtisodiy maqsadga muvofiqligi va samaradorligi;
- loyihaning ekologiya talablariga muvofiqligi;
- texnologik asbob-uskunalarining zamonaviy sifat standartlariga muvofiqligi.

Idoralararo kengash ikki hafta muddatda takliflarni taqdim etilgan hujjatlar asosida ko'rib chiqadi va loyihani amalga oshirishning mumkinligi to'g'risida qaror qabul qiladi.

MRM bo'yicha loyiha amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan investitsiya loyihasiga qo'shimcha deb hisoblangan taqdirda asosiy investitsiya loyihasini tayyorlash va ekspertizadan o'tkazish tartibi ana shunday loyihalar uchun tatbiq etiladigan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Asosiy investitsiya loyihasi bo'yicha dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash tasdiqlanguncha yoxud O'zbekiston Respublikasi va Xalqaro moliya institutlari o'rtasida o'zaro hamfikrlik to'g'risidagi memorandum imzolanguncha loyiha bo'yicha buyurtmanoma berish bosqichida MRM bo'yicha loyiha komponentini amalga oshirish yuzasidan Idoralararo kengashning ijobiy qarorini olish zarur. Idoralararo kengashning loyihani amalga oshirish to'g'risida ijobiy qarori qabul qilingan taqdirda MRM Milliy organi loyiha tashabbuskorini rasmiy ravishda xabardor qiladi va IO'HK Ijro etuvchi kengashiga loyiha bo'yicha ma'qullash xati jo'natadi. MRM Milliy organidan ma'qullash xati olingandan keyin MRM loyihasi tashabbuskori validatsiya (loyihani tasdiqlash

to'g'risidagi qaror) qilish va keyinchalik loyihani IO`HK Ijro etuvchi kengashida MRM tartibotlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazish uchun tegishli Vakolatli organi tanlash bo'yicha mas'ul hisoblanadi. Loyiha-texnik hujjatlar ekspertizadan ijobiy o'tkazilganda va Vakolatli operativ organ tomonidan tasdiqlanganda loyiha tashabbuskori Vazirlar Mahkamasining tegishli Axborot-tahlil departamentiga MRM loyihasini amalga oshirish to'g'risida Hukumat qarori loyihasini kiritadi. MRM loyihasi tashabbuskori shuningdek chiqindilar chiqarishning kamayishi monitoringi, MRM talablariga muvofiq chiqindilar chiqarishning qisqarishini tasdiqlash va sertifikatlash bo'yicha tadbirlarning bajarilishi uchun javob beradi. Loyiha tashabbuskori MRM Miliy organiga loyihani amalga oshirishning borishi to'g'risida har chorakda axborot taqdim etadi.

Musaffo rivojlanish mexanizmi bo'yicha investitsiya loyihalariga nisbatan qo'llanadigan Barqaror rivojlanish milliy mezonlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Iqtisodiy mezonlar:

- tayyor mahsulot birligi hisobiga energiya va xom ashyo sarfini kamaytirish;
- zamonaviy texnologiyalarni joriy etish yo'li bilan ishlab chiqarish samaradorligini yoki tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- O'zbekiston Respublikasida bozorning xususiy sektorini rivojlantirishga ko'maklashish.

Ekologik mezonlar:

- atrof-muhitning saqlanishiga va yomonlashishining oldini olishga ko'maklashish;
- tabiiy xom ashyo sarfini va ishlab chiqarish chiqitlarini kamaytirish;
- xom ashyodan takroriy foydalanishga va G'yoki tiklanayotgan tabiiy resurslardan foydalanishga yo'naltirilgan texnologiyalarni joriy etish;
- atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish.

Ijtimoiy mezonlar:

- aholining ish bilan bandligining o'sishiga va haqiqiy daromadlarining oshishiga ko'maklashish;
- loyihani amalga oshirishga jalb etilgan xodimlarning va loyiha amalga oshirilayotgan hududda yashaydigan aholining sog'lig'ini yaxshilash;
- aholining tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalaridan xabardorligini oshirish.

Tavsiya etilayotgan investitsiya loyihasi barcha Barqaror rivojlanish milliy mezonlarini qondirishi shart emas, lekin ko'rsatib o'tilgan mezonlarga muvofiq mamlakatning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak.

3. O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini ishlab chiqish

Investitsiya loyihasi (loyiha) - iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaat ko'rish maqsadida investitsiyalar kiritgan holda oldindan belgilangan muddat mobaynida amalga oshiriladigan o'zaro bog'liq tadbirlar va ishlar kompleksidir.

Loyihaoldi hujjatlari - qabul qilingan parametrlarga ko'ra loyihani amalga oshirishning imkoniyati va maqsadga muvofiqligini, shuningdek uning hayotiylikini asoslab beruvchi hujjatlar yig'indisi hisoblanadi. Loyihaoldi hujjatlariga loyihaning texnik-iqtisodiy asoslashi (texnik-iqtisodiy hisoblashi), materiallar va asbob-uskunalar etkazib berish, qurilish-montaj ishlarini va ishlarning boshqa turlarini bajarish yuzasidan tender o'tkazish uchun tanlov hujjatlari; loyihaning yakuniy texnik-iqtisodiy asoslashi yoki texnik-iqtisodiy hisoblashi, shuningdek moliyaviy takliflar yoki kredit va investitsiya shartnomalari (pul mablag'lari jalb etilgan taqdirda) kiradi.

Loyiha hujjatlari - ishchi hujjatlarni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan arxitektura-shaharsozlik echimlari va texnik echimlarni, qurilishning smeta qiymatini o'z ichiga oluvchi hujjatlar. Loyiha hujjatlari tasdiqlangan texnik-iqtisodiy asoslash asosida ishlab chiqiladi.

Dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash yoki dastlabki texnik-iqtisodiy hisoblash (DTIA yoki DTIH) - variantlarni ko'rib chiqish asosida loyihani oqilona joylashtirish va amalga oshirishning eng samarali texnik, tashkiliy va iqtisodiy echimini tanlashni, umuman loyihaning cheklangan qiymatini, shu jumladan, texnologik asbob-uskunalar qiymatini asoslovchi, uni moliyalashtirishning

mumkin bo'lgan manbalari bo'yicha variantlarni hisobga olgan holda moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyoj hajmini belgilovchi hujjat hisoblanadi.

Yakuniy texnik-iqtisodiy asoslash yoki texnik-iqtisodiy hisoblash (TIA va TIH) - investitsiya loyihasini amalga oshirishning tanlov savdolari asosida va loyihani moliyalashtirish shartlarini hisobga olgan holda aniqlangan yakuniy, eng samarali texnik, tashkiliy va moliyaviy-iqtisodiy echimlarini belgilovchi loyihaoldi hujjati.

Xalqaro moliya va iqtisodiyot institutlari (XMII) - davlatlararo bitimlar asosida tashkil etilgan, O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini moliyalashtiruvchiG`birgalikda moliyalashtiruvchi institutlardir.

Xorijiy hukumat moliya tashkilotlari (XHMT) - O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini moliyalashtiruvchiG`birgalikda moliyalashtiruvchi xorijiy hukumat moliya tashkilotlari;

Investitsiya loyihasini amalga oshirish shartlariga bog'liq holda investitsiya loyihasi hujjatlari quyidagicha izchillikda ishlab chiqiladi:

a) DTIA - moliyalashtirish manbalari va shartlarini kelishishG`tanlov hujjatlari - TIA - ishchi hujjatlar;

b) DTIH - moliyalashtirish manbalari va shartlarini kelishishG`tanlov hujjatlari - TIH - ishchi hujjatlar;

v) ishchi loyiha-tanlov hujjatlari.

Investitsiya loyihasining DTIA (DTIH) bo'yicha xulosalarni ko'rib chiqish va tayyorlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) O'zbekiston Respublikasi "Davarxitektqurilish" qo'mitasi tomonidan - DTIA (DTIH) hamda tegishli vazirliklar va loyiha tashabbuskorlari bo'lgan idoralarning - SHaharsozlik kodeksi talablariga, normativ hujjatlar talablariga va qabul qilinayotgan qurilish qiymatining qaror topgan bozor kon'yunkturasiga darajasiga muvofiqligi yuzasidan tarmoq xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda;

b) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan - DTIA (DTIH) va "Davarxitektqurilish" qo'mitasining quyidagilar bo'yicha xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda:

DTIA bo'yicha - iqtisodiyotni barqaror, mutanosib rivojlantirishni ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishni, tarkibiy qayta o'zgartirishlarni, tarmoqlararo kooperatsiyalashni amalga oshirishni, investitsiya siyosatini ro'yobga chiqarishni, ishlayotgan quvvatlardan foydalanishni, shuningdek xom ashyo va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bozori kon'yunkturasini ta'minlash nuqtai nazaridan loyihani amalga oshirishning umumiy iqtisodiy maqsadga muvofiqligini baholash yuzasidan;

DTIH bo'yicha - ijtimoiy ahamiyatini, ijtimoiy sohaning alohida tarmoqlarini va "boshqa tarmoqlar"ni rivojlantirish bo'yicha Hukumat qarorlariga muvofiqligini ishlab turgan quvvatlardan foydalanishni va ularni joylashtirishni maqbullashtirishni hisobga olgan holda baholash yuzasidan;

v) O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan - DTIA (DTIH) hamda "Davarxitektqurilish" qo'mitasining tavsiya etilayotgan marketing kontseptsiyasi, tayyor mahsulotni sotish istiqbollari asosida jahon bozori kon'yunkturasini, shuningdek tavsiya etilayotgan texnologiyaga muvofiq asbob-uskunalarining narxlarning cheklangan parametrlari nuqtai nazaridan loyihani amalga oshirish imkoniyatini baholash yuzasidan xulosasi taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda.

Tashabbuskor tomonidan talab qilinayotgan asbob-uskunalar (texnologik liniya), shu jumladan yakka tartibda tayyorlanayotganlarining to'liq va mufassal spetsifikatsiyasini taqdim etish mumkin bo'lmagan taqdirda asbob-uskunalarining narxlarining cheklangan parametrlari Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan TIA(TIH)ni ekspertizadan o'tkazish jarayonida baholanishi mumkin. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi hamda Iqtisodiyot vazirligi o'z vakolatlari doirasida tashabbuskorga investitsiya loyihalarining DTIA (DTIH)ni ishlab chiqishda prognozlanayotgan uch besh yillik davr uchun ichki va tashqi bozorlar marketingini ishlab chiqishni tashkil etishda ko'maklashadilar.

g) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan - DTIA (DTIH) va "Davarxitektqurilish" qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining quyidagilar bo'yicha xulosalari taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda:

DTIA bo'yicha - loyihaning moliya-iqtisodiy samaradorligini va qoplanuvchanligini baholash, loyihaning maqbul parametrlariga erishishni ta'minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojni aniqlash, shuningdek loyihani moliyalashtirishning tavsiya etilayotgan variantlarini baholash yuzasidan;

DTIH bo'yicha - loyihani amalga oshirishning mumkin bo'lgan variantini tanlash, moliyalashtirishning tavsiya etilayotgan sxemasining maqbulligi, loyihaning maqbul parametrlariga erishishni ta'minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojini aniqlash yuzasidan;

d) xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan - DTIA (DTIH) va "Davarxitektqurilish" qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining loyihaning iqtisodiy samaradorligi, loyiha tashabbuskorlarining kredit tarixini o'rganish, pul oqimlari tahlili, tavakkalchiliklarni baholash va loyihaning maqbul parametrlariga erishishni ta'minlaydigan moliyalashtirishga ehtiyojini aniqlash yuzasidan xulosalari taqdim etilgan vaqtdan boshlab ikki hafta muddatda. Moliyalashtirishni byudjet mablag'lari hisobiga (boshqa manbalardan foydalanmasdan) amalga oshirish nazarda tutilayotgan ob'ektlar bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi bankning ekspert xulosasi talab qilinmaydi.

Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligining ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ob'ektlar, jalb etilayotgan kreditlarni to'lash uchun mablag'lar defitsitini byudjet mablag'lari hisobiga uzishni nazarda tutadigan DTIA (DTIH) bo'yicha xulosalarida nazarda tutilayotgan byudjet mablag'larining maqsadga muvofiqligi (muvofiq emasligi) hamda hajmlari, shu jumladan soliq imtiyozlari berish to'g'risidagi xulosalar mavjud bo'lishi kerak.

Vakolatli ekspertiza organlari qayta tashkil etilgan taqdirda xulosa huquqiy voris bo'lgan tashkilot tomonidan beriladi.

DTIA (DTIH)ni tasdiqlash to'g'risidagi hujjat loyihaning nomi, uning tashabbuskori, qurilishning cheklangan qiymati (shu jumladan, import texnologik va boshqa asbob-uskunalarini sotib olish xarajatlari), ob'ektning hisoblab chiqilgan quvvatini (ishlab chiqariladigan mahsulotning yillik hajmi va nomenklaturasini), shuningdek iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini, shu jumladan eksport hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

Loyihaning tasdiqlangan DTIA (DTIH) parametrlari, shu jumladan, xarajatlar turlari bo'yicha moliyalashtirishning cheklangan limitlari asosida loyiha tashabbuskori tomonidan, belgilangan tartibda;

a) moliyalashtirish manbalari belgilanadi va kelishiladi;

b) pudratchilarni va loyiha bo'yicha xarid qilinadigan texnologik - asbob-uskunalarini etkazib beruvchilarni aniqlash uchun tanlov hujjatlari ishlab chiqiladi.

XMTI va XHMT qarz mablag'lari jalb etilgan holda ro'yobga chiqariladigan loyihalarni ko'rib chiqish va tayyorlash ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda loyiha tashabbuskorlari "Davarxitektqurilish" qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga XMTI XHMTning baholashdan oldingi missiyalari hisobotlari asosida tayyorlangan, loyiha qiymatining dastlabki bahosini va jalb etiladigan qarz mablag'lari miqdorini o'z ichiga oluvchi loyihani amalga oshirish zarurligi to'g'risida takliflar kiritadilar.


XMTI XHMTning loyihani moliyalashtirishG`birgalikda moliyalashtirish yuzasidan roziligi olingan taqdirda ularning baholash komissiyalari hisobotlari asosida O'zbekiston Respublikasi bilan XMTI XHMT o`rtasida o`zaro anglashuv to'g'risidagi memorandum belgilangan tartibda imzolandi. Ikkinchi bosqichda loyiha tashabbuskori XMTI XHMTning baholash missiyasi hisoboti asosida TIANi ishlab chiqadi va ayni bir vaqtda ko'rib chiqish uchun uni ushbu Nizomning 12-bandida ko'rsatilgan vakolatli ekspertiza organlariga taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobiga moliyalashtirishgaG`birgalikda moliyalashtirishga tavsiya etilayotgan investitsiya loyihasining

DTIA (DTIH) va TIA(TIH) ushbu bo`limda bayon qilingan talablarni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

Loyihaoldi va Loyiha hujjatlarini ishlab chiqish

SXEMASI



Investitsiya loyihasining dastlabki texnik-iqtisodiy asoslanishi quyidagi vakolatli ekspertiza organlarida belgilangan tartibda ekspertizadan o'tadi:

3-jadval

Vakolatli ekspertiza organlari	Xulosa natijasi (tavsiya etildiG`rad etildi)
Iqtisodiyot vazirligi	
Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi	
"Davarxitektqurilish" qo`mitasi	
Moliya vazirligi	
Vakolatli bank (banklar)	

Investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash (TIA)ning NAMUNAVIY TARKIBI

1. Loyihaaning maqsadi (rezyume).
2. Loyihaaning buyurtmachisi.
3. Loyiha strategiyasi (loyihani yaratish tarixi va shart-sharoitlari).
4. Marketing bozori va kontseptsiyasi.

5. Moddiy resurslar.
6. Ob`ektning joylashgan joyi.
7. Loyihalashtirish va texnologiya.
8. Ishlab chiqarishni tashkil etish va qo`shimcha xarajatlar.
9. Mehnat resurslari.
10. Loyihani amalga oshirish sxemalari.
11. Loyihani amalga oshirish variantlarini moliyaviy baholash.
12. Xulosalar (Loyihaning asosiy afzalliklari va kamchiliklari, qabul qilingan variantning muqobil variantlardan afzalliklari, noaniqlik tavakkalchiliklari va jihatlari, loyihani amalga oshirish imkoniyatini baholash.)
13. Milliy va xorijiy valyuta xarajatini alohida aks ettirgan holda erkin shaklda moliyaviy va iqtisodiy ko`rsatkichlar sxemalari, shu jumladan quyidagilar mavjud bo`lishi kerak.
14. Tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari, shu jumladan quyidagilar mavjud bo`lishi kerak:
 - 14.1. YUridik hujjatlar:
 - 14.2. Kontrakt hujjatlari:
 - 14.3. Smeta hujjatlari va moliyaviy hujjatlar:
 - 14.4. ekspert hujjatlari va boshqa hujjatlar:
 - 14.5. Tayyor mahsulotni sotish va xom ashyo, materiallar xarid qilish marketing tadqiqotlari bo`yicha hujjatlar.

4. Xorijiy investitsiyalarni eksporti va importi.

Tobora kengayib borayotgan kapitallar bozorining baynalmilallashuv jarayoni bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar o`rtasidagi kapital oqimi hajmining ortib borishi bilan ajralib turadi. Xalqaro kapitallar oqimi - bu ishlab chiqarish omillaridan birining xarakatidir. Bunda aloxida tovar va xizmatlar boshka mamlakatlardagi ishlab chiqarishning iqtisodiy afzalligi tufayli usha tomonga okib utadi. Bu xakda bevosita va portfel' investitsiyalar xajmining umumiy usishi, qisqa va uzok muddatli kreditlar xajmining ortishi, evrovalyuta bozorlaridagi operatsiyalar miqyosining oshib borishi va boshkalar darak beradi.

Xalqaro kapitallar migratsiyasi xalqaro iqtisodiy munosabatlarda etakchi o`rinlardan birini egallar ekan, u uz navbatida jahon xo`jaligi rivojiga sezilarli ta`sir utkazadi. Bu ta`sir, avvalombor, kapitallar migratsiyasining jahon iqtisodiyotini usish sur`atlarida uz aksini topadi. Kapital ishlab chiqarishning kula investitsiya muxiti mavjud sohalarini izlab, chegaralarni kesib o`tadi. Xalqaro investitsiyalar ko`pchilik retsipient mamlakatlar uchun ishlab chiqarishdagi kapital etishmasligi muammosini hal etish, investitsiya salohiyatini oshirish va iqtisodiy o`sinh sur`atlarini tezlatish imkonini beradi.

Kapitalning chetga chiqqshi xalqaro mexnat taksimotining chukurlashuvi va rivojlanishining eng muxim shartlaridan biri xisoblanadi. Mamlakatlararo kapitallar xarakati ular urtasidagi iqtisodiy alokalar va xamkorlikni mustaxkamlaydi, ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvini chukurlashtiradi.

Xalqaro kapitallar migratsiyasi jahon savdosi rivojini ragbatlantirar ekan, u mamlakatlar urtasidagi uzaro tovar ayirboshlash xajmini oshiradi, jumladan, xalqaro korporatsiyalar filiallari urtasidagi oralik maxsulotlar ayirboshlanishini tezlashtiradi. Moliyaviy bozorlarning uzaro integratsiyalashuv va baynalminallashuv sharoitida kapitalning xalqaro takroriy ishlab chikarilishi ta`minlanadi xamda xalqaro iqtisodiy alokalar mexanizmining samaradorligi oshadi. Boshka tomondan esa nazorat kilinmaydigan kapitallar okimi mamlakat to`lov balansi muvozanatining buzilishiga va valyuta kursining sezilarli darajada tebranishiga olib keladi.

Deyarli barcha mamlakatlar amalda investitsiyalarning xam eksport, xam impor qiladi (chunki, BXIlar asosan TMK orkali amalga oshiriladi) yoki investitsiyalarni etkazib beruvchi (kaerda TMK bosh boshkaruv bulimi joylashgan bulsa) xamda kabul kiluvchi (TMK uz shaxobchalari, bulimlariga ega bulsa, ular BXIlar asosida xarakat kilishadi) sifatida ishtirok etishadi.

Xalqaro kapitallar migratsiyasi bilan bog'liq okibatlar mamlakatning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarini amalga oshirishga bevosita ta'sir utkazadi. Tabiiyki, ulardan kutiladigan salbiy va ijobiy okibatlar rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar, shuningdek, utish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlar uchun turlichadir. Ammo xar kanday sharoitda xam salbiy okibatlarni chetlab utgan xolda fakatgina ijobiy omillardan foydalanish mumkin emas. Xorijiy kapitalni jalb kilish bilan bog'liq uta murakkab va ziddiyatli jarayon bo'yicha olib borilaetgan davlat siesatida bu borada ystuvor yunalishlarni belgilab olish lozim buladi.

Xozirgi kunda kapitallarni jalb kilish va chetga chiqarish borasidagi salbiy okibatlarga karamasdan kapitalni chetga olib chikish tendentsiyasi tobora kuchaymokda. CHetga kapital olib chikishni faollashtiruvchi omillardan biri milliy iqtisodiyotlar urtasidagi usib boraetgan uzaro bog'liqlik xisoblanadi. Ishlab chiqarishning baynalminallashuvi kapitallar xalqaro migratsiyasiga katta ta'sir utkazadi va uning xarakatini tezlashtiradi. Kapital eksporti ayniksa, bevosita investitsiyalar shaklida chetga olib chikilishi ishlab chiqarishning xalqaro tus olishiga va xalqaro maxsulot deb atalmish maxsulotlarning yaratilishida asosiy omil xisoblanadi.

Xalqaro kapitallar migratsiyasi jahon xo'jaligining rivojlanishida ragbatlantiruvchi omil sifatida yuzaga chikishi bilan birgalikda xorijiy kapitalni jalb kiluvchi va eksport kiluvchi mamlakatlar uchun turli okibatlarga olib keluvchi ta'sir utkazadi.

Kapitalni eksport kiluvchi mamlakatlar uchun kapitallar migratsiyasi kuyidagicha salbiy ta'sir kursatishi mumkin:

- chetga chikarilaetgan kapital urnini koplovchi xorijiy investitsiyalarni jalb kilmaslik chetga kapital chikaruvchi mamlakatning iqtisodiy usish sur'atlarini sekinlashtirishi mumkin;
- kapitalni eksport kiluvchi mamlakatlar uchun kapitalni chetga chiqarish ularda bandlik darajasining pasayishiga olib keladi;
- chetga kapital chiqarish mamlakat to'lov balansiga salbiy ta'sir kiladi.

Kapitalni kabul kiluvchi mamlakatlar uchun esa kuyidagi ijobiy tomonlar xos:

- boshkariladigan kapital importi mamlakat iqtisodiy usishiga yordam beradi;
- jalb kilingan kapital kushimcha ish urinlarini yaratadi;
- xorijiy kapital yangi texnologiyalarni olib keladi, samarali menejment esa mamlakatda ilmiy-texnika tarakkiyoti (ITT)ni tezlashtiradi;
- kapitalning kirib kelishi retsipient mamlakat to'lov balansining yaxshilanishiga olib keladi.

O'z navbatida kapitalni jalb kilishning salbiy oqibatlari xam mavjud:

-xorijiy kapital milliy kapitalning urnini egallab, uni foyda normasi yukori tarmoqlardan sikib chikaradi, natijada ma'lum sharoitlar ta'sirida mamlakat iqtisodiyotining bir tomonlama rivojlanishi va uning iqtisodiy holati xavf ostida qolishi mumkin;

-kapital importi kupincha retsipient mamlakat bozorlarida uz xayotiy tsiklini o'tab bo'lgan tovarlarni o'tkazish bilan bog'liq, shuningdek, ishlab chiqarishdan sifatsizligi aniklanganligi bois olib tashlangan tovarlar bilan bog'liq buladi;

-ssuda kapitali importi mamlakat tashki karzining kupayishiga olib keladi;

-moliyaviy inkirozlar natijasida va fond bozorlaridan kapitalning oqib ketishi mamlakat valyutasining barkarorligiga va umumiy moliyaviy-iqtisodiy holatga jiddiy zarar etkazadi. Misol uchun 1997 yilda Janubiy-SHarkiy Osiyo mamlakatlarida yuz bergan moliyaviy inkiroz va uning jahon iqtisodiyotiga ta'sirini keltirish mumkin.

TMKlarning ko'plab filiallari orkali kapital kuyish ishlab chiqarishning xalqaro kooperatsiyalashuviga olib keladi. Turli mamlakatlarning mustakil yuridik kompaniyalari bir xalqaro korporatsiya doirasida tarmoqli, texnologik, detalli ixtisoslashuv orkali yakin alokada bulishadi. Kapital eksporti esa bu alokalarni mustaxkamlaydi.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy o'sishni ta'minlash, sanoatning etakchi tarmoqlarini rivojlantirish, bandlilikni oshirish uchun salmokli xajmdagi xorijiy kapitalni jalb etish bilan bog'liq iqtisodiy siesatlari xam kapitallar migratsiyasini ragbatlantiruvchi omillardan biri xisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar esa investitsiya muxitini erkinlashtirish orkali xorijiy kapitalni jalb etish va bu orkali iqtisodiy rivojlanishga turtki berishga xarakat kilishadi. Kapitallarning xalqaro

xarakatini ragbatlantiruvchi omillardan yana biri xalqaro moliyaviy tashkilotlar faoliyati bo`lib, ular kapitallar okimini tartibga solib turishadi.

Mamlakatlar urtasida tuzilgan daromadlar va kapitallarni ikki karra solikka tortishning oldini olish maqsadidagi xalqaro kelishuvlar uz navbatida mamlakatlar urtasidagi savdo, ilmiy-texnik xamda investitsiyalarni jalb kilish borasidagi alokalarni mustaxkamlaydi.

Amalda dunyodagi barcha mamlakatlar BXIlarni faol kullab-kuvvatlashmokda. Ularning erkin xarakati uchun kulay muxit yaratishga intilmokda, mavjud cheklanishlar bekor kilinmokda, ekspropriatsiya kilinishdan saklash holatlari kuchaytirilmokda, amaldagi bozor rakobati uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmokda.

Hozirgi sharoitda O`zbekiston kapitalni import qiluvchi mamlakat sifatida jahon maydoniga chiqmokda. Bu borada bir kator milliy manfaatlar hisobga olinadi. Kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalar hozircha etishmayotgan milliy resurslarni to`ldirishi, zamonaviy texnologiyalar, uskunalar, «nou xau»ni olib kirishi, xorijiy mutaxassislar, ekspert va konsul`tantlarni jalb qilish tufayli maxsulot sifati va ishchi kuchi malakasini oshirishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishni ragbatlantiradi, ko`shimcha ish joylari yaratadi, ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy kooperatsiya tufayli mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuviga yordam beradi.

4-mavzu. XORIJIY INVESTORLAR XUQUQIY HOLATINING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Reja:

1. O`zbekiston Respublikasida xorijiy investorlarning xuquqlari.
2. O`zbekiston Respublikasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning xuquqiy asoslari.
3. Investitsiya shartnomalari.

Iqtisodiyotda tarkibiy o`zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarning investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar, avvalo, to`g`ridan-to`g`ri investitsiyalarning o`rni beqiyosdir. Bunda ilg`or texnologiyalarni tatbiq etish, yangi ish o`rinlari yaratish va shu asosda mamlakat iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta`minlash imkoniyati yaratiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko`rsatadiki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi mazkur davlatlarning yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi omillardan biri bo`lgan. O`zbekistonda Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligini ta`minlash maqsadida chet el investitsiyalarini jalb etishga strategik ustuvor vazifa sifatida qaralib, mazkur masala davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo`nalishi etib belgilangan. Bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta`minlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyo, elektr texnikasi va to`qimachilik, oziq-ovqat va farmatsevtika, axborot va telekommunikatsiyalar tarmog`i hamda boshqa yo`nalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga ustuvor e`tibor berilmoqda. eng muhimi, xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun qulay, har tomonlama imtiyozli investitsiya muhiti yaratilgan. 2007 yil davomida iqtisodiyotimizga kiritilgan investitsiyalarning 70 foizdan ortig`i ishlab chiqarish ob`ektlari qurilishiga, jumladan, salkam 50 foizi korxonalarni texnik va texnologik modernizatsiya qilishga yo`naltirildi. O`zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 58 foizga ortdi. Ularning 76 foizi to`g`ridan-to`g`ri kiritilgan xorijiy investitsiyalardir. Investitsiya dasturi doirasida o`tgan yili 300 dan ziyod yirik investitsiya loyihasi nihoyasiga etkazildi, xorijiy investitsiyalar ishtirokida 700 dan ziyod yangi korxona barpo etildi. qo`shma korxonalar birinchi galda yuksak texnologiyaga asoslangan tarmoqlarda - engil, oziq-ovqat, elektrotexnika, kimyo va neftkimyo, mashinasozlik, qurilish materiallari sanoatida, telekommunikatsiya va axborot texnologiyalari sohasida tashkil etilayotgani e`tiborga loyiqdir.

Hozirgi kunda respublikamiz tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar hissasiga to'g'ri kelmoqda va ularning eksport hajmidagi ulushi o'tgan yili 60 foizni tashkil etdi. Bular Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligini ta'minlash maqsadida mamlakatimizda chet el investitsiyasini jalb etishning tegishli tashkiliy-huquqiy, institutsional tuzilmalari va infratizimini yaratish hamda mavjud shart-sharoitlarni izchil rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilganini yaqqol tasdiqlaydi. Ayniqsa, bunda qonuniy kafolatlarni yaratish alohida ahamiyat kasb etdi. Mamlakatimizda ushbu sohani huquqiy tartibga soluvchi "CHet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonun hamda bir qator boshqa qonun hujjatlari qabul qilindi. Ushbu qonunlarni qabul qilish, ularga zamon talablariga mos ravishda o'zgartish va qo'shimchalar kiritib borishning sababi bitta - qaerda imtiyoz, qaerda sharoit bo'lsa, qonuniy kafolat beriladigan bo'lsa, shu yoqqa investitsiya keladi. Mamlakatimizdagi siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy barqarorlik chet el investitsiyasi uchun har tomonlama qulay sharoit yaratmoqda. Davlatimiz rahbarining oqilona siyosati natijasida qabul qilinayotgan imtiyozli muhitni yaratuvchi qonunlar chet ellik investorlarda tobora katta qiziqish uyg'otmoqda. Xususan, 2008 yil 8 aprelda matbuotda e'lon qilingan "Bojxona imtiyozlarining qo'llanilish tartibini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi Qonun chet el investorlarini jalb qilish bo'yicha izchil amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomidir. Ma'lumki, chet el investorlari mamlakatimiz hududida o'z ishlab chiqarish faoliyatini, qoidaga ko'ra, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tashkil etish yo'li bilan amalga oshiradilar. O'z ehtiyojlari uchun yurtimiz hududiga zamonaviy texnologiyalar va asbob-uskunalar, ularga butlovchi buyumlar, shuningdek, xomashyo va materiallar olib kirayotgan xorijiy investorlar uchun amaldagi qonun hujjatlarida muayyan imtiyozlar nazarda tutilgan. Jumladan, "Boj tarifi to'g'risida"gi Qonunning 33-moddasi va "CHet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasiga muvofiq, xorijiy investorlar tomonidan o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan mol-mulkka bojxona boji solinmas edi. Yangi qonun asosida - chet ellik investorlar uchun yanada qulay muhit yaratish maqsadida - yuqorida qayd etilgan har ikki qonunga o'zgartishlar kiritildi. endilikda nainki chet ellik investorlar, ayni chog'da, ustav fondida chet el investitsiyalarining ulushi kamida o'ttiz uch foiz bo'lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ham o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun O'zbekiston Respublikasiga olib kiradigan mol-mulk bo'yicha boj undirilishidan ozod qilindilar. Mazkur qonunning qabul qilinishi natijasida "Boj tarifi to'g'risida"gi Qonunning 33-moddasida va "CHet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasida belgilangan imtiyozlar ustav fondida chet el investitsiyalarining ulushi kamida o'ttiz uch foiz bo'lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi qo'shma korxonalarga ham tatbiq etiladigan bo'ldi. Prezidentimiz Islom Karimovning 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida qayd etilganidek, joriy yilda iqtisodiyotimizni rivojlantirishga barcha moliyaviy manbalar hisobidan qiymati 5,4 milliard dollardan ziyod, jumladan, umumiy qiymati taxminan 1,5 milliard dollarga teng xorijiy investitsiyalarni kiritish ko'zda tutilmoqda. Buning natijasida mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarning o'sish sur'ati 40 foizdan oshadi. Xorijiy sarmoyalarni kiritish hisobidan 80 dan ortiq investitsiya loyihasini amalga oshirish, umumiy qiymati 1,4 milliard dollarlik o'ttizdan ziyod ob'ektni foydalanishga topshirish mo'ljallangan. Yangi qonunda ko'zda tutilgan imtiyozlar ana shu xayrli maqsadlarga erishishimizda muhim rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu qonun xalqimiz farovonligini oshirishda ham ulkan ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Xususan, aholini ish bilan ta'minlash, yangi ish o'rinlari ochish, eng zamonaviy texnologiya va jihozlarni keltirish hisobiga ish unumi va samaradorligi oshishi muqarrar.

2.O'zbekiston Respublikasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning xuquqiy asoslari

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatiga doir xuquqiy xujjatlar tizimida xorijiy investitsiyalar masalasiga bevosita taallukdi bo'lgan konunlar muxim urin tutadi. Vakt o'tishi bilan ikgisodiy usishning jadal borishini ta'minlash, respublika iqtisodiyotiga xorijiy

mamlakatlarning ilg'or texnologiyalarini jalb qilish va umuman jaxssh andozalariga erishish uchun xorijiy investitsiyalar sohasidagi mavjud konunchilik bazasini kayta kurib chiqish zarurati ob'ektiv ravishda paydo buldi.

Xorijiy investorlar bilan kushma korxonalar tashkil kilish mamlakatimizga:

— yangi, zamonaviy texnika va texnologiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb kilish, ularni ishlab chiqarishga joriy kilish esa necha yillar davomida sifatsiz, xaridor talabiga javob bera olmaydigan maxsulotlar ishlab chikaruvchi eski texnikalardan tezrok kugilish imkonini beradi;

— yangi ish joylari tashkil kilish va axolining ishsiz qismini ish bilan ta'minlash, shu bilan birga, xorijning ilror boshkaruv tajribasini joriy kilish imkonini beradi va shu orkali mexnat unumdorligi oshiriladi;

— jahon bozorida rakobatlasha oladigan sifatli maxsulotlarni ishlab chiqarish va ularni eksport kilish evaziga mamlakatga kadri baland valyutalarning kuprok kirib kelishini ta'minlaydi.

YUkori texnik saviyadagi tayyor maxsulotlar ulushi oshirilishi kuyidagi jixatlarga bog'liq:

— xorijiy mamlakatlardagi korxonalar bilan O'zbekistondagi eksport kiluvchi korxonalar urtasida kooperatsiya alokalarining shakllanishiga kumaklashish;

— yukori texnologiya va ilm talab kiluvchi maxsulotlar ishlab chikarilishi soxa va soxa ichi tizimi yaxshilanishiga xizmat kiladi;

— eksportning intellektual mulk ob'ektlari litsenziyalarini xamda nou-xau shaklida texnik-tijorat sirlarini sotish, injiniring va lizing soxalarida xizmatlar kursatish kabi turlarini rivojlantirish

yuli bilan respublikamizda erishilgan ilmiy-texnik yutuklarining jahon xo'jaligi aylanmasiga kirib borishini tezlashtirish;

— ilmiy ishlanmalarga, xususan, amaliy fan va texnologiyalar transferti sohasidagi ilmiy ishlanmalarga bozor yunalishini beruvchi shart-sharoit yaratuvchi innovatsiyalarni kullab-kuvvatlashning samarali tizimini ishlab chikish;

- innovatsiya jaraenini davlat tomonidan va tijorat usulida kullab-kuvvatlashning eng makbul uygunlashuvi asosiy yullarini belgilab olish xamda ilmiy-texnik ishlanmalarni tijorat ahamiyatiga molik natijalar darajasigacha etkazish;

- uzbek olimlari va mutaxassislarining chet eldagi etakchi institutlar, tashkilotlar va firmalar bilan xamkorligini kengaytirish va chukurlashtirish;

- yukori darajali marketing tadkikotlari utkazish, tijorat va texnologiya menejmenti sohasidagi yutuklarni urganish, xorijiy bozorlarning kon'yunkturasi, sigimi xamda rakobatchilarning narx siyosati, kooperatsiya, kushma korxonalar tashkil etish bo'yicha xamkorlar kidirish yuzasidan taxliliy ma'lumotlarni urganish.

Xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb etish strategiyasi bulajak chet ellik investorlarning manfaatlarini xamda milliy iqtisodiyotga zarar keltirmagan xolda ularni krndirish imkoniyatlarini urganishga asoslanadi.

Buning uchun bir tomondan, iqtisodiyotni tarkiban kayta kurishga karatilgan bir kator anik, loyixalarni amalga oshirish zarur buladi va ikkinchi tomondan, ichki investitsiya resurslari cheklangan bir sharoitda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati juda yukori baxolanadi.

O'zbekiston amalga oshirayotgan investitsiya siesatining asosiy yunalishlari orasida kuyidagilarni aloxida ta'kidlab kursatish mumkin:

— investitsiya jalb kilish uchun xalqaro me'yorlar va konventsionalarga mos keladigan, sanoati rivojlangan mamlakatlar investorlari tomonidan tan olinadigan xuquqiy shart-sharoitlarni yaratishga intilish;

— respublikaga jahon darajasidagi texnologiyalarni etkazib beradigan va iqtisodiyotning zamonaviy tuzilishini vujudga keltirishga yordam beradigan investorlar uchun ochik eshiklar siyosatini
izchillik bilan amalga oshirish;

— ishlab chiqarish bilan bog'liq loyixalarga karatilgan valyutada uzini-uzi koplashni ta'minlaydigan investitsiyalarga kumaklashish;

—mamlakatning kredit kobiliyatini, O'zbekistonning birinchi darajali karz oluvchi mamlakat sifatidagi obru-e'tiborini kullab-kuvvatlash;

—mamlakatning ayrim mintakalarida ijtimoiy va ekologiya muammolarini xal qilishga karatilgan investitsiyalarga yordam berish.

Investitsiya muxitini yanada yaxshilash shartlaridan biri bank tizimini takomillashtirish, moliya bozorida rakobatni vujudga keltirish, nakd puldagi va nakd bulmagan puldagi operatsiyalarni amalga oshi-rishni yaxshilash, shuningdek xorijiy investorlarni axborot bilan ta'minlashni yaxshilashdan iboratdir.

Investitsiyalarni mamlakatga jalb qilishda xuquqiy asoslarga taallukli xozirgi vazifa — bu xukumatning xorijiy investitsiyalar bo'yicha uzok, muddat-li barkaror pozitsiyalarini shakllantirish va uni potentsial xorijiy investorlarga etkazishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni boshlanish davridan chet el investitsiyalarini jalb qilishga tuzilmaviy qayta qurishning hamda umumjahon iqtisodiy hamjamiyatiga kirib borishini tezlashtiruvchi omil sifatida asosiy ustuvorlik berildi.

Hozirda, Respublikada xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha huquqiy baza yaratildi, investitsiyalarni jalb qilish va xorijiy investorlarga xizmat ko'rsatuvchi infrastruktura barpo qilindi va bu jarayon takomillashib bormoqda.

Bu borada, «Valyutani tartibga solish» to'g'risidagi qonun qabul qilindi, tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining vazifalari qayta ko'rib chiqildi, va unig milliy valyutani konvertatsiyasi hamda import kontraktlarini ro'yxatdai o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan vazifalari bekor qilindi.

Jumladan, 2003 yilni 15 oktyabridan milliy valyutani joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha erkin konvertatsiyasining ochilishi mamlakatdagi investitsiya iqlimini yaxshilashga va xorijiy investitsiyalar oqimining ko'payishiga katta imkoniyatlar yaratdi. 1998 yil 30 aprelda Oliy Majlis tomonidan yangi xujjat — "Xorijiy investitsiyalar tugrisida" O'zbekiston Respublikasi Konuni va "Xorijiy investorlar xuquqdarining kafolatlari va ularni ximoya qilish chora-tadbirlari tugrisida" Konun kabul kildi.

Xorijiy investorlarning huquqlarini kafolatlash va himoyalash maqsadida yaratilgan shart-sharoitlardan tashqari, Respublika tomonidan Adliya vazirligiga ularning manfaatlarini himoya qiluvchi davlat organi vakolati berildi. Jumladan, Adliya vazirligining tarkibida 2003 yildan boshlab chet el investorlari manfaatlariga zarar etish holatlarini oldini olish bo'yicha maxsus bo'linmalar tashkil etildi.

Olib borilayotgan amaliy ishlar natijasida, iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha xorijiy kapitalning tarkibida ma'lum bir siljishlar yuz berdi. Respublikamiz halq xo'jaligi tarmoqlariga sarflangan xorijiy kapital 2005 yilda 518,2 mln. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2006 yilda salkam 600 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. CHet el investorlari uchun eng o'ziga jalb etadigan soha sifatida neft'-gaz, transport va aloqa tarmoqlari bo'lib qolmoqda.

Erishilgan yutuqlar bilan birga bu borada to'siq va kamchiliklar mavjud. Buning yaqqol misoli bo'lib, mamlakatni investiya iqlimi holatini belgilaydigan asosiy ko'rsatkich bo'lgan, bevosita xorijiy investitsiyalar oqimining etarli darajada ko'paymaganligini ko'rsatish mumkin.

SHu nuqtai nazardan ham xorijiy investitsiyali korxonalar faoliyatini jonlantirish va bevosita xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi kerak:

1. Mamlakat investitsiya iqlimini yaxshilash va muammolar echimini topish maqsadida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mutaxassislari, hududiy hokimliklarining mutaxassis vakillari, investitsiya imkoniyatiga ega bo'lgan yirik kompaniya va korxonalar rahbarlari hamda respublikaning investitsiyalar sohasidagi etuk olimlari ishtirokida, keng jamoatchilik o'rtasida ochiq muloqot tashkil qilinib, mavjud muammolar oshkoralik bilan har tomonlama muhokama etilishi lozim. SHu asosda masalaga keng jamoatchilik fikrini jalb qilgan holda, mutaxassislar, olimlar va amaliyotchilar o'rtasida ilmiy va iqtisodiy asoslangan yagona investitsiya siyosatini, shuningdek, qabul qilingan qonun va qarorlarni amalda ishlash mexanizmini ishlab chiqish va hayotiyiligini ta'minlash lozim.

2. Investitsiyalar oqimiga (nafaqat xorijiy, balki ko'p tomonlama ichki investitsiyalar taalluqli) ta'sir qiluvchi omillardan biri sifatida marketing tadqiqotini zaif olib borilayotgani, natijada ko'plab ishlab chiqarilgan mahsulotlar omborlarda qoldiq bo'lib qolayotganligi ko'rsatilmoqda. Bu muammoni faqat investitsiyalarning o'ziga bog'liq, echimini izlamasdan, aholi va korxonalarning iste'mol qobiliyatini ko'tarish, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarga nisbatan sog'lom talab darajasini oshirish nuqtai nazaridan qaralishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Korxonalarning moliyaviy ko'rsatkichlari hamda iqtisodiy indikatorlar haqida xolis va ishonchli axborot ta'minoti hamon yaxshi yo'lga ko'yilgani yo'q. Bu masalani hal qilish uchun muqobil va mustaqil nodavlat axborot agentlari tashkil qilinishi lozim.

Xorijiy investitsiyalarni mamlakatga jalb qilishda xuquqiy asoslarga taallukli xozirgi vazifa — bu xukumatning xorijiy investitsiyalar bo'yicha uzok, muddat-li barkaror pozitsiyalarini shakllantirish va uni potentsial xorijiy investorlarga etkazishdan iboratdir.

3. Investitsiya shartnomalari

Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 2 avgustdagi 180-son qaroriga asosan "Investitsiya shartnomalarini tuzish va amalga oshirish tartibi" to'g'risida nizom ishlab chiqilgan. Mazkur Nizomga Vazirlar Mahkamasining 07.07.2006 y. 133-son qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan.

Ushbu Nizom "CHet ellik investorlar xuquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasiga muvofiq chet ellik investorlarga qonun hujjatlarida belgilanganlarga qo'shimcha kafolatlar va himoya choralari (imtiyozlar va preferentsiyalar) berishda ular bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan investitsiya shartnomalari tuzish tartibini belgilaydi. CHet ellik investorlar bilan ularning qo'shimcha kafolatlar va himoya choralari (imtiyozlar va preferentsiyalar) berish bilan bog'liq bo'lmagan investitsiya majburiyatlarini mustahkamlashga yo'naltirilgan shartnomalarni tuzish va amalga oshirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ushbu Nizomga muvofiq chet ellik investorlarga quyidagi kafolatlar va himoya choralari (imtiyozlar va preferentsiyalar):

- barqaror iqtisodiy o'sishni, mamlakat iqtisodiyotini progressiv tarkibiy o'zgartirishlarni ta'minlovchi ustuvor tarmoqlarni;

- respublikaning ishlab chiqarish va eksport salohiyotini mustahkamlash va kengaytirishni, respublikani jahon xo'jalik aloqalariga integratsiyalashni ta'minlovchi ustuvor loyihalarni amalga oshirilishi;

- xom ashyo va materiallarni qayta ishlashga, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga, aholini ish bilan ta'minlashga yo'naltirilgan kichik tadbirkorlik sohasidagi loyihalarni investitsiyalashning har bir aniq holatida beriladi.

Bunda soliqlar, bojxona to'lovlari va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qo'shimcha imtiyozlar xorijiy investorlar tomonidan tashkil etilgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga faqat aniq belgilangan muddatga beriladi va muddatsiz tusda bo'lishi mumkin emas. Qo'shimcha kafolatlar va himoya choralari (imtiyozlar va preferentsiyalar) beriladigan chet ellik investorlar tomonidan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida investor bilan investitsiya shartnomasi tuziladi. Investitsiya shartnomasi investitsiya faoliyati sub'ektlarining investitsiya faoliyati ob'ektlariga nisbatan xuquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydi. Investitsiya shartnomasi O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi orqali O'zbekiston Respublikasi Hukumati hamda chet ellik investor (investorlar) o'rtasida tuziladi. Investitsiya shartnomasi O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan chet ellik investorga qonun hujjatlarida belgilanganlarga qo'shimcha kafolatlar va himoya choralari (imtiyozlar va preferentsiyalar) berilgan taqdirda majburiy tartibda tuziladi.

Bunday kafolatlar va himoya choralari (imtiyozlar va preferentsiyalar) O'zbekiston Respublikasi Hukumati kafolatlari berishni, maxsus bojxona, soliq va to'lov rejimi yaratishni, loyihalarni amalga oshirish davlat monitoringini yuritishni, investitsiya loyihalarini

moliyalashtirishga ko`maklashishni, investitsiya dasturiga kiritishni yoki O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa chora-tadbirlarni o`z ichiga olishi mumkin.

Investitsiya shartnomasida quyidagilar ko`rsatilishi kerak:

- investitsiyalar ob`ekti va hajmi;

- investitsiya shartnomasining amal qilish muddati va shartlari;

- investorning, shu jumladan investitsiyalash hajmi, ishlab chiqarishning muayyan hajmini ta`minlash, mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sifatining kafolatlangan darajasi, o`zi ishlab chiqargan tovarlar eksporti va ko`rsatadigan xizmatlari hajmi, O`zbekiston Respublikasi Hukumati kafolati ostida jalb etiladigan kreditlarning qaytarilishini ta`minlash, atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlariga, mehnat qonunchiligiga va texnika xavfsizligiga rioya qilish, ishlab chiqarish faoliyatining boshqa sohalari bo`yicha xuquq va majburiyatlari;

- O`zbekiston Respublikasi Hukumatining, shu jumladan qonun hujjatlarida belgilanganlarga qo`shimcha kafolatlar va himoya choralari berish bo`yicha xuquq va majburiyatlari;

- loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash, pudrat ishlariga shartnomalar tuzish muddatlari, moliyalashtirish manbalari, loyihani amalga oshirish jadvallari, investitsiya loyihasining amalga oshirilishini texnik nazorat qilish tartibi to`g`risidagi axborotlar;

- chet ellik investor tomonidan uning majburiyatlari ijrosi to`g`risidagi hisobotlarni taqdim etish tartibi va muddatlari;

- tomonlarning investitsiya shartnomasi shartlariga rioya qilmaganligi uchun javobgarligi;

- o`zgartirishlar kiritish tartibi;

- investitsiya shartnomasining amal qilishini to`xtatish tartibi;

- investitsiya shartnomasidan kelib chiqadigan nizolarni hal etish tartibi va ko`rib chiqish joyi.

Investitsiya shartnomasida investitsiya loyihasi xususiyatiga qarab boshqa shartlar, shu jumladan:

- tomonlarning mintaqaning ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish bo`yicha o`zaro majburiyatlari;

- investorning shartnomani bajarish natijasida o`ziga tegishli mahsulotni va olingan foydani (daromadlarni) O`zbekiston Respublikasidan chetga chiqarish xuquqi;

- chet ellik investorning O`zbekiston Respublikasi jismoniy shaxslari bo`lgan xodimlarni yollash va o`qitish bo`yicha majburiyatlari, texnologiyalardan foydalanish shartlari, shuningdek investorning investitsiya loyihasini amalga oshirish tugallangandan keyin tashkil etilgan tashkilotning xodimlarini o`qitish bo`yicha majburiyatlari ham bo`lishi mumkin.

CHet ellik investor investitsiya shartnomasini tayyorlash uchun O`zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga quyidagilarni taqdim etadi:

- investitsiya shartnomasining loyihasi;

- qonun hujjatlarida belgilangan hollarda vakolatli organlarda ekspertizadan o`tkazilgan texnik-iqtisodiy asoslash (texnik-iqtisodiy hisoblash) asosida bajarilgan asosiy iqtisodiy ko`rsatkichlar;

- investitsiya shartnomasi loyihasining xuquqiy ekspertizasi yuzasidan - Adliya vazirligining xulosasi;

- chet ellik investorlarga va (yoki) tashkil etiladigan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonaga qonun hujjatlarida belgilanganlarga qo`shimcha ravishda soliq solish bo`yicha imtiyozlar va preferentsiyalar berish yuzasidan - Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Davlat soliq qo`mitasi xulosalari.

Zarurat bo`lganda, O`zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi chet ellik investordan investitsiya shartnomasi loyihasini baholash bilan bog`liq bo`lgan qo`shimcha materiallarni so`rab olishi mumkin. CHet ellik investor tomonidan taqdim etilgan investitsiya shartnomasi loyihasi va boshqa materiallar investitsiya shartnomasi loyihasi olingan kundan boshlab o`n to`rt ish kuni mobaynida vakolatli organlar tomonidan ko`rib chiqiladi. Zarurat bo`lgan taqdirda, investitsiya shartnomasi qoidalarini kelishib olish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi hamda chet ellik investor

(investorlar) o`rtasida muzokaralar o`tkaziladi. CHet ellik investor hamda O`zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan imzolangan investitsiya shartnomasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga uni tasdiqlash to`g`risida Hukumat qarorini qabul qilish uchun kiritiladi. Agar investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslashi (texnik-iqtisodiy hisobi) O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanishi kerak bo`lsa investitsiya shartnomasini tasdiqlash to`g`risidagi tegishli band investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslashi (texnik-iqtisodiy hisobi)ni tasdiqlash haqidagi Hukumat qarori loyihasiga kiritilishi mumkin. Agar investitsiya shartnomasida soliq hamda bojxona imtiyozlari va preferentsiyalari berish nazarda tutilsa bunday shartnoma qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadi. CHet ellik investor bilan investitsiya shartnomasi uni tasdiqlash to`g`risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab kuchga kiradi, agar ushbu qarorda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo`lsa. CHet ellik investor investitsiya shartnomasida belgilangan tartibda va muddatlarda O`zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga qabul qilingan majburiyatlarning bajarilishi to`g`risida hisobotlar taqdim etadi. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi investitsiya shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatlarning chet ellik investor tomonidan bajarilishini nazorat qiladi.

5-mavzu. XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING ILMIY - USLUBIY ASOSLARI

Reja:

1. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va iqtisodiyotga jalb qilishning ob`ektiv zarurligi
2. O`zbekiston Respublikasining investitsiya siyosati.
3. Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish shakllari va uni tartibga solishning jahon tajribasi
4. O`zbekiston Respublikasiga investitsiyalarni jalb qilishning asosiy yo`nalishlari
5. O`zbekiston Respublikasi investitsiya dasturi

1. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va iqtisodiyotga jalb qilishning ob`ektiv zarurligi

Jahon iqtisodiyoti globallashib, savdo yo`lidagi to`siqlar kamayib, soliq qonunlari va tartibga soluvchi rejimlar erkinlashib borayotgan hozirgi sharoitda chetdan kiritiladigan investitsiya oqimlari tez sur`atlar bilan o`smoqda. Bevosita chet el investitsiyalarining dunyo bo`yicha umumiy hajmi 1980 yildagiga qaraganda 14 baravardan ziyod o`sib, 2007 yil holatiga, jami 11 trln AQSH dollariga etdi. Hozirgi vaqtda butun dunyoda 64 mingga yaqin mamlakatlararo kompaniyalar mavjud bo`lib, ular 870 mingga xorijiy shu`ba korxonalari faoliyatini nazorat qilib turadi. Ushbu korxonalar sotilayotgan mahsulotlar hajmi taxminan 18 trln AQSH dollarini tashkil etdi. Bu esa o`z navbatida, butun jahon eksporti hajmidan 2 baravaridan ziyoddir.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ularning iqtisodiy yuksalishida faol investitsiya siyosati markaziy o`rinni egallashini tasdiqlaydi. SHu bois O`zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari uning investitsiya siyosatida to`liq aks ettirilishini taqozo etadi.

O`zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va tartibga solishda O`zbekiston Respublikasining "CHet el investitsiyalari to`g`risida", "CHet ellik investorlar xuquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to`grisida", "Investitsiya faoliyati to`grisida"gi Qonunlar va boshqa qonun hujjatlari uning huquqiy asosi bo`lib xizmat qiladi.

Mulkchilikning turli shakllari tarkib topishi investitsiyalarning rivojlanishiga katta turtki bo`ldi. Mulkchilikning turli shakllarining vujudga kelishi munosabati bilan kapitalning sohalardagi o`zgaruvchanligi, uning oqimi, hududlarga taqsimlanishi tezlashdi.

CHet el investorlari, asosan, daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob`ektlariga qo`shadigan barcha turdagi moddiy

va nomoddiy boyliklar va ularga doir xuquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi.

"CHet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonunga ko'ra O'zbekiston Respublikasida chet ellik investorlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- chet el davlatlari, chet el davlatlarining ma'muriy yoki hududiy organlari;
- davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki xalqaro ommaviy huquq sub'ektlari bo'lgan xalqaro tashkilotlar;
- chet el davlatlarining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil topgan va faoliyat ko'rsatib kelayotgan yuridik shaxslar, boshqa har qanday shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar;
- chet el davlati fuqarolari bo'lmish jismoniy shaxslar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va chet ellarda doimiy yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari.

Bozor iqtisodiyoti islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlashga qaratilgan chora - tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash hamda hajmi tobora ortib borayotgan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2007 yilda davlatimiz rahbari ta'kidlab o'tganidek, 2007 yilgi investitsiya dasturi doirasida 1 milliard AQSH dollaridan ko'proq miqdorda xorijiy investitsiyalar jalb etilishi mo'ljallanmoqda. Bu mablag'ning salkam 700 million dollari yoki qariyb 68 foizini to'g'ridan - to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashkil etadi.

Bunda to'g'ridan - to'g'ri chet el investitsiyalari va kreditlar hajmining oshganligi ijobiy holdir. Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish maqsadida 2007 yil 20 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2007 -2010 yillarda xususiylashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish chora - tadbirlari to'g'risida" gi qarori e'lon qilindi.

Bu qarorga asosan, investorlar tomonidan investitsiya majburiyatlari sifatida kiritiladigan mablag' va mulk daromad (foyda), ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish hamda qo'shilgan qiymat soliqlariga tortilmaydi, xorijiy valyutadagi qo'yilmalar esa majburiy tarzda sotilmaydi, shuningdek, investitsiya davri mobaynida tuziladigan oldi - sotdi shartnomasiga muvofiq korxonaning oldingi qarzini qoplash hisob - raqamiga majburiy tarzda undirib olinmaydi. Bundan tashqari davlat ulushi potentsial investorlarga sotilayotgan korxonaning byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlari restrukturizatsiya qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bu Qarori O'zbekistonning iqtisodiy jihatdan yuksalishi va xalqaro jahon xo'jalik munosabatlariga integratsiyalashuvining g'oyat muhim va texnik qayta jihozlashga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish yo'lidagi strategik yo'nalishini ham belgilab beradi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati benihoyat katta bo'lib, u quyidagilar bilan izohlanadi:

- birinchidan, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;
- ikkinchidan, import o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va pirovardida aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi;
- uchinchidan, kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi;
- to'rtinchidan, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi;

Investitsiya loyihalari, avvalo, ustuvor tarmoqlarga, ya'ni neft' va ximiya sanoati, transport, energetika, er osti qazilma boyliklarini ishlab chiqarishga, qurilish, telekommunikatsiya tarmoqlariga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga va ularni keng qayta ishlashga, turizm sohasini rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq miqyosda jalb qilish, xorijiy investorlarni o'z mablag'larini mamlakat iqtisodiyoti uchun sarflashga qiziqtirish maqsadida qonun asosida ular uchun imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilgan, jumladan:

- xorijiy investorlar kapitalini saqlanishi uchun kafolatlar;
- ko'rilgan zararlarni qoplanishi uchun kafolatlar;
- soliqqa tortish tizimida ularga oid belgilangan imtiyozlar;
- foyda va daromadlarni xorijga olib chiqib ketishning erkinligi;
- milliy so'mda va chet el valyutasida olingan foydalarni o'tkazish va olib chiqib ketish imkoniyati;
- bojxona imtiyozlarining mavjudligi;
- xorijiy investorlarning mulklari va ularning o'zlarini xavf-xatarlardan sug'urtaviy muhofaza qilish tizimini yaratilganligi.

2.O'zbekiston Respublikasining investitsiya siyosati.

Davlatimiz mustaqillikka erishgan yillardan boshlab, bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos iqtisodiy rivojlanish yo'lidan bormoqda. Bu yo'lda investitsiya siyosatining ahamiyati juda katta. Chunki investitsiyalar iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar, texnik va texnologik yangilanishlar, korxonalarni qayta ta'mirlash ishlarini amalga oshirishni rag'batlantiradi, mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishga imkon yaratadi. Shu jihatdan O'zbekiston Davlati o'z tuzilmaviy investitsiya siyosatini olib bormoqda. Tuzilmaviy investitsiya siyosati hududlar, tarmoqlar va korxona investitsiya siyosatlaridan tarkib topib, ular o'zaro bog'liqdir. Hududlar investitsiya siyosati investitsiyani sarflashda aholi, hudud va investor manfaatlarini hisobga olgan holda samarali ishlatishga imkon beruvchi hududda olib boriladigan chora-tadbirlar majmui. Tarmoq investitsiya siyosati esa bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlovchi tarmoqlar, sanoat mahsulotlarini eksport qilish, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish, ilmiy-texnika taraqqiyotini investitsiya yo'li bilan qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Davlat tuzilmaviy investitsiya siyosatida yangi tarmoqlarni tashkil etish va rivojlantirish, aholining iste'mol tovarlari, ish joylarga bo'lgan talabini qisqa vaqt ichida yuqori darajada ta'minlashga erishish yo'lida quyidagi vazifalarga amal qilmoqda:

- Eskirgan ishlab chiqarishlarni sekin-asta muomaladan chiqarib tashlash;
- Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash;
- To'lov qobiliyatiga ega bo'lgan va talabga mos holda ishlab chiqarish tuzilmalarini yaratish;
- Ishlab chiqarish resurslaridan va ilmiy-texnika salohiyatidan imkon qadar yuqori darajada foydalanishni ta'minlash;
- Mamlakatning ekologik va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va uni kuchaytirish;
- Samarali, raqobatga asoslangan ishlab chiqarishlar, bozor infratuzilmasi, xizmat ko'rsatish soxasi va intellektual faoliyatlar rivojlanishini uyg'unlashtirish;
- Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish va yangi tarmoqlarni barpo etish;
- Aholining ish bilan bandligini va hamda iqtisodiy faolligini oshirish;
- Hududlar ijtimoiy infratuzilmasini to'liq shakllantirish

Tuzilmaviy investitsiya siyosatini olib borishda muhim strategiyalar ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning mohiyati kichik iqtisodiy sub'ektlar rivojlanishini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Mazkur ishlarni amalga oshirishda xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda siyosiy barqarorlik, investitsiya muhitini juda qulayligi xorijiy investorlar uzoq muddatli investitsiya loyihalarini tuzishda asos bo'lmoqda. Bundan tashqari, jalb etilgan chet el investitsiyalar va kreditlar uchun kafolatlar taqdim etish, soliy va bojxona ta'riflari bo'yicha imtiyozlar, zaem va foiz stavkalarini subsidiyalash kabi shart-sharoitlar yaratilmoqda, o'nlab qonuniy xujjatlar amal qilmoqda. Jumladan, xususiylar investitsiyalarni iqtisodiyotning real sektoriga yanada jalb qilish maqsadida 2005 yil 11 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xususiylar xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni qabul qilindi. Bu farmonga binoan sanoatning

alohida sohalaridagi korxonalar asosiy faoliyati bo'yicha daromad solig'i, mulk solig'i ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish solig'i, ekologiya solig'idan, mikrofirmalar va kichik korxonalarga solinadigan yagona soliقدan, shuningdek, investitsiya miqdoriga qarab 3 yildan 7 yilgacha muddatda respublika yo'l jamg'armasi ajratmalardan ozod qilindi.

Xulosa shuki, davlat tuzilmaviy investitsiya siyosati joylarda, qishloqlarda amalga oshirishda gaz, suv, elektr, kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash davlat imtiyozlari asosida kichik korxonalar tashkil etish zarur. Chunki shu yo'l bilangina qishloq korxonalariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish mumkin.

3.Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish shakllari va uni tartibga solishning jahon tajribasi

Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati mavjud mablag'lardan, vaqtdan va imkoniyatlardan samarali foydalanishga, turli xil risklarni, mavjud shart-sharoitlarni hisobga olgan holda boyliklarni samarali joylashtirishga va shu yo'l bilan respublika iqtisodiyotini ko'tarishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishiga, chet el investitsiyalarining kirib kelishini rag'batlantirish yo'li bilan investitsiyalarni, ko'proq, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning bir qancha shakllari mavjud, ya'ni:

Ulushi qo'shib qatnashishi orqali qo'shimcha korxonalarni tashkil etish; 100% mol - mulk xorijiy investorlarga tegishli bo'lgan xorijiy korxonalarni tashkil etish; yirik xorijiy kompaniya va firmalarning shu'ba korxonalari va filiallarini tashkil etish; kontsessiya va lizing shartnomalari tuzish; tenderlar e'lon qilish; erkin iqtisodiy hududlar tashkil etish; moliyaviy aktivlarni sotish va sotib olish.

Qo'shma korxonalar tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish keng tarqalgan shakllaridan biri hamkorlikda qo'shma korxonalarni tashkil etishdir. O'zbekiston Respublikasida qo'shma korxona deganda, nizom kapitalining kamida 30 % xorijiy investorlarga tegishli bo'lgan va xorijiy investor faqat yuridik shaxs bo'lgan, nizom kapitalining eng kam miqdori 150000 AQSH dollariga teng bo'lgan ekvivalent summani tashkil etgan korxonalarga aytiladi.¹² Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxona nizom jamg'armasining 150000 AQSH dollaridan kam • bo'lmasligi sifatli mahsulotlarining oldi - sotdisi va ularni respublikaga import qilish ishlari bilan shug'ullanishga ixtisoslashgan kichik qo'shma korxonalarning keragidan ortiqcha kirib kelishining oldini olish maqsadida belgilangan.

Xorijiy korxonalarni tashkil etish orqali chet el investitsiyalarini jalb qilish bugungi kunda kengayib bormoqta. O'zbekistonda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar iqtisodiyotning turli soxalarida tashkil etilishi mumkin. Yirik xorijiy kompaniya va korxonalar o'z mol - mulklari bir qismini ajratib, shu'ba korxonalar ochishi mumkin. Bunday shu'ba korxonalarga ham qo'shma korxonalarga qo'yilgan talablar belgilangan.

Ikki yoki uchdan ortiq davlat yoki korxonalar o'z kapitalarini jamlagan holda halqaro tashkilotlar tashkil etishi mumkin.

Kontsessiya shartnomalari - bu tabiiy boyliklarni, ayrim foydali qazilmalarni qazib olish va o'zlashtirish uchun tuzilgan shartnomalardir.

Lizing shartnomasi esa chet el investitsiyalari ishtirokida asbob - uskunalarni, texnika - texnologiyalarni uzoq muddatga ijaraga olish. Tenderlar esa tanlov asosida investorlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga jalb etilishidir. erkin iqtisodiy hudud - bu ma'lum hududda chet el investitsiyalari erkin kirib kelishi va ularga nisbatan qator imtiyozlar belgilangan hududdir. O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiyot hududlar to'g'risida"gi Qonunida erkin iqtisodiy hududga quyidagicha ta'rif berilgan: "Erkin iqtisodiy hududlar - mintaqani jadal ijtimoiy — iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hududdir". erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish jarayonida davlat qo'llab - quvvatlovchi, rag'batlantiruvchi hamda nazorat qiluvchi sifatida bosh

islohotchi bo'lishi lozim. Davlatning bosh iclohotchi sifatida qatnashishi xorijiy mamalakatalar tajribasida aniq namoyon bo'ladi, masalan, Xitoy hukumati 1 dollar chet el investitsiyalarni jalb etish uchun 4 dollar o'z mablag'larini safarbar etgan. Natijada, milliy va asosan, xorijiy investorlar hududlarga investitsiyalar kiritib boshlagan, bu esa o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotini rivoji uchun poydevor bo'lib xizmat qildi. Rossiyada yaratilgan erkin iqtisodiy hududlarga Naxodka, Kaliningrad viloyati, Sankt - Peterburg shahari va boshqalar kiradi. Qozog'istondagi birinchi erkin iqtisodiy hududlar 1991 yilda paydo bo'lgan. Bular: Jezqozg'on viloyatdagi Jayren - Atasu, Kostanay viloyatdagi Lisakov va Olmaota shahardagi "Otakent" erkin iqtisodiy hududlaridir.

Moliyaviy aktivlar - bu qimmatli kog'ozlar bo'lib, u chet el kapitalini jalb etish, chet el kreditlarini olish va chet el kapitalini bank depozitlariga jalb etish uchun emissiya qilinadi.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirish va chet el investitsiyasini faol jalb etish uchun, nafaqat, hududlar balki, tarmoqlarda, shuningdek, investitsiya faoliyatining sub'ekti va ob'ektlarida ham investitsion jozibadorlik reytinglarini tahlil etib, hisoblab chiqish zarurdir. Bunda, asosan, chet el investitsiyasini iqtisodiyot sohalari bo'yicha mutanosib jalb etishning kompleks dasturini ishlab chiqish va unda tarmoqlarni, asosan, 3 guruhga, ya'ni ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va ijtimoiy sohalarga bo'lib, investitsiyani ustuvor darajada real sektorga yo'naltirib, so'ng qolgan sohalarni rivojlantirishga hamda iqtisodiyot rivojlanishi va zaruriyatidan kelib chiqib, xizmat ko'rsatish va ijtimoiy sohalarga ham jalb etilsa, maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Rivojlangan mamlakatlar xalqaro kapital harakatini, asosan, kapital eksporti-importini milliy va xalqaro darajada ragbatlantirish orqali amalga oshiradilar. Kapitalning qarzlar, portfel' investitsiyalar va boshqalar shaklida harakat qilishi borasidagi davlat siyosati uning harakatidagi barcha cheklashlarni olib tashlash maqsadida olib boriladi. Barcha xorijiy investitsiyalargarga nisbatan davlat har qanday cheklashlarni amalga oshirish huquqini o'z zimmasida qoldiradi, chunki bu milliy iqtisodiy havfsizlik bilan bog'liq. SHunisi harakterliki, kapitalni chetga chiqarish uni jalb qilishga nisbatan kam darajada tartibga solinib turiladi.

Davlat tartibga solishning quyidagi usullaridan foydalanadi:

- 1)moliyaviy: jadallashtirilgan amortizatsiya; soliqliq imtiyozlari; subsidiyalar, qarzlar berish; kreditlarni sug'urtalash va kafolatlash;
- 2) nomoliyaviy: er uchashtalari ajratish; zaruriy infrastruktura bilan ta'minlash; texnik yordam ko'rsatish.

4.O'zbekiston Respublikasiga investitsiyalarni jalb qilishning asosiy yo'nalishlari

O'tgan yili iqtisodiyotimizga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi 23 foizga ortdi va 4,3 milliard AQSH dollaridan ziyod mablag'ni tashkil etdi. Ana shu investitsiyalarning salmoqli qismi bevosita xorijiy investitsiyalardir. Ushbu fakt va raqamlar Prezidentimiz Islom Karimovning 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida alohida ta'kidlandi.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarning investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning o'rni beqiyosdir. Bunda ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, yangi ish o'rinlari yaratish va shu asosda mamlakat iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi mazkur davlatlarning yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi omillardan biri bo'lgan. Bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta'minlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyoy, elektr texnikasi va to'qimachilik, oziq-ovqat va farmatsevtika, axborot va telekommunikatsiyalar tarmog'i hamda boshqa yo'nalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga ustuvor e'tibor berilmoqda. eng muhimi, xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun qulay, har tomonlama imtiyozli

investitsiya muhiti yaratilgan. 2007 yil davomida iqtisodiyotimizga kiritilgan investitsiyalarning 70 foizdan ortig'i ishlab chiqarish ob'ektlari qurilishiga, jumladan, salkam 50 foizi korxonalarni texnik va texnologik modernizatsiya qilishga yo'naltirildi. O'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 58 foizga ortdi. Ularning 76 foizi to'g'ridan-to'g'ri kiritilgan xorijiy investitsiyalardir.

4-jadval

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga jalb qilingan va to'g'ridan-to'g'ri kiritilgan xorijiy investitsiyalar hajmining yillar bo'yicha dinamikasi

YilG'Man ba	TIASIV	TIASIV
	Xorijiy investitsiyalar (mln. AQSH dollari)	To'g'ridan-to'g'ri kiritilgan xorijiy investitsiyalar (mln. AQSH dollari)
2001	823.9	96.5
2002	516.5	80.1
2003	602.1	166.7
2004	754.6	333.8
2005	746.6	545.5
2006	895.7	683.8

Investitsiya dasturi doirasida o'tgan yili 300 dan ziyod yirik investitsiya loyihasi nihoyasiga etkazildi, xorijiy investitsiyalar ishtirokida 700 dan ziyod yangi korxona barpo etildi. Qo'shma korxonalar birinchi galda yuksak texnologiyaga asoslangan tarmoqlarda - engil, oziq-ovqat, elektrotexnika, kimyo va neftkimyo, mashinasozlik, qurilish materiallari sanoatida, telekommunikatsiya va axborot texnologiyalari sohasida tashkil etilayotgani e'tiborga loyiqdir.

5-jadval

2006 yilda O'zbekiston Respublikasida o'zlashtirilgan investitsiyalarni tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi

2006 yil uchun	Investitsiya hajmi (mln. AQSH dollari)	Jamiga nisbatan %
Neft' va gaz	298.1	43.6
Engil sanoat	132.2	19.3
IT va telekommunikatsiya	104.1	15.2
Oziq – ovqat sanoati	42.2	6.2
Moliya	20.9	3.1
Qurilish materiallari sanoati	13.1	1.9
Qazilma boyliklari	6.8	1.0
Elektronika	4.9	0.3
Kimyo va neftkimyo sanoati	2.1	0.1
Mashinasozlik	1.8	0.1
Ta'lim sohasi	4.9	0.3
Boshqa tarmoqlar	52.9	7.7
JAMI	683.8	100

Mamlakatimizda ushbu sohani huquqiy tartibga soluvchi "CHet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonun hamda bir qator boshqa qonun hujjatlari qabul qilindi. Ushbu qonunlarni qabul qilish, ularga zamon talablariga mos ravishda o'zgartish va qo'shimchalar kiritib borishning sababi bitta - qayerda imtiyoz, qayerda sharoit bo'lsa, qonuniy kafolat beriladigan bo'lsa, shu yoqqa investitsiya keladi. Mamlakatimizdagi siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy barqarorlik chet el investitsiyasi uchun har tomonlama qulay sharoit yaratmoqda. Davlatimiz rahbarining oqilona siyosati natijasida qabul qilinayotgan imtiyozli muhitni yaratuvchi qonunlar chet ellik investorlarda

tobora katta qiziqish uyg'otmoqda. Xususan, 2008 yil 8 aprelda matbuotda e'lon qilingan "Bojxona imtiyozlarining qo'llanilish tartibini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi qonun chet el investorlarini jalb qilish bo'yicha izchil amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomidir.

Ma'lumki, chet el investorlari mamlakatimiz hududida ishlab chiqarish faoliyatini, qoidaga ko'ra, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tashkil etish yo'li bilan amalga oshiradilar. O'z ehtiyojlari uchun yurtimiz hududiga zamonaviy texnologiyalar va asbob-uskunalar, ularga butlovchi buyumlar, shuningdek, xomashyo va materiallar olib kirayotgan xorijiy investorlar uchun amaldagi qonun hujjatlarida muayyan imtiyozlar nazarda tutilgan. Jumladan, "Boj tarifi to'g'risida"gi qonunning 33-moddasi va "CHet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonunning 12-moddasiga muvofiq, xorijiy investorlar tomonidan o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan mol-mulkka bojxona boji solinmas edi. YAngi qonun asosida - chet ellik investorlar uchun yanada qulay muhit yaratish maqsadida - yuqorida qayd etilgan har ikki qonunga o'zgartishlar kiritildi. Mazkur qonunning qabul qilinishi natijasida "Boj tarifi to'g'risida"gi qonunning 33-moddasida va "CHet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonunning 12-moddasida belgilangan imtiyozlar ustav fondida chet el investitsiyalarining ulushi kamida o'ttiz uch foiz bo'lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi qo'shma korxonalarga ham tatbiq etiladigan bo'ldi. Joriy yilda iqtisodiyotimizni rivojlantirishga barcha moliyaviy manbalar hisobidan qiymati 5,4 milliard dollardan ziyod, jumladan, umumiy qiymati taxminan 1,5 milliard dollarga teng xorijiy investitsiyalarni kiritish ko'zda tutilmoqda. Buning natijasida mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarning o'sish sur'ati 40 foizdan oshadi. Xorijiy sarmoyalarni kiritish hisobidan 80 dan ortiq investitsiya loyihasini amalga oshirish, umumiy qiymati 1,4 milliard dollarlik o'ttizdan ziyod obektni foydalanishga topshirish mo'ljallangan. YAngi qonunda ko'zda tutilgan imtiyozlar ana shu xayrli maqsadlarga erishishimizda muhim rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

5. O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturi

O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi bu - davlat tomonidan xorijiy investitsiyalarni ko'llab quvvatlash uchun ustuvor va birinchi galda bajarilishi kerak bo'lgan davlat tomonidan rag'batlantiriluvchi yo'nalishlarni ishlab chiqish vositasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar hamda xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muxitini yaratish va ular kiritgan mablag'larning yukori iqtisodiy samaradorligiga erishish uchun mukammal xuquqiy baza, tegishli institutlar yaratish tizimidir.

O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi (ingl. investment policy) – ichki va tashqi siyosatning umumiy yo'nalishi xisobga olingan ijtimoiy-iqtisodiy va xususiy xo'jalik karorlari majmuasi bo'lib, mablag'laglardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida malakat ichiga va xorijga kiritilgan sarmoyalarning yo'nalishi va joylashuvini belgilaydi.

Ishlab chiqarish salohiyatining o'sishi, iqtisodiy o'sish sur'atlari, moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish xajmi va sifatining ko'tarilishi va butun infrastrukturaning rivojlanishi ko'p jixatdan investitsiya va investitsiya dasturiga bog'liq.

Investitsiya dasturi davlatning investitsiya mablag'larini mamlakatda moddiy boyliklar ishlab chiqarishni tashkil etish uchun safarbar kilish vazifasidan iboratdir. Tashkiliy-xuquqiy jixatdan davlat siyosatining bu soxasi uning tegishli idoralari tomonidan ushbu siyosatning maqsad va vazifalari amalga oshiriladigan faoliyatdir.

Investitsiya dasturining tashqi tomoni xam bor bo'lib, u xalx xo'jaligini zamonaviy texnika, texnologiya va ishlab chixrishni tashkil etish asosida jadal rivojlantirish vazifasini xal etish uchun iqtisodiyotga chet el investitsiyalarini jalb etishni o'z ichiga oladi. Bu vazifani ko'shma korxonalar barpo kilish, ya'ni to'gridan to'gri xorijiy xususiy investitsiyalardan foydalanish yo'li bilan xal etish mumkin. SHu munosabat bilan xorijiy investitsiyalarni xuquqiy tartibga solish masalalari dolzablashadi.

Anik, samarador va xa'tiy rioya kilinadigan konunlariga ega bo'lgan ochix va liberal investitsiya dasturi xorijiy investitsiyalarni jalb etishning xudratli kurolidir. Bunday siyosatni ishlab chikish respublikaning asosiy vazifalaridan biri bo'lib xolishi kerak.

Xorijiy investitsiya faqat ishlab chiqarish va bozor rivojlangan sharoitda, ya'ni xalqaro bozordagi sarmoya eksporti bungacha mavjud bo'lgan tovarlar eksportidan yuqori bo'lganda paydo bo'ladi.

Davlat investitsiya jarayonini tashkil qiluvchi va asosiy investor bo'lib xizmat kilishi kerak – ijtimoiy siyosat nuxtai nazaridan bu uning asosiy vazifasi xisoblanadi.

Investitsiyalarning miqdoriy o'sishi ichki investitsiya dasturi (mablag'larni noishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish xisobiga safarbar kilish) vositasida ta'minlanadi. Investitsiyalar sifatining o'sishi ichki (fan va texnika yotuxlarini tadbik kilish) va tegishli tashqi investitsiya dasturi (xorijiy investitsiyalar – texnik tarkibi va xususiyatiga ko'ra yukorirox bo'lganlarini jalb etish) vositasida ta'minlanadi. Ichki investitsiya dasturi xam tashqi investitsiya dasturi xam, xar ikkalasi investitsiyalashning turli manbalaridan turli shakllardagi investitsiyalarni jalb etish zaruriyatini nazarda tutadi.

Investitsiya dasturining mohiyati va mazmuni eng qulay xuquqiy vositalarni topish – investitsiya jarayoni va investitsiyani xuquqiy tartibga solishdan iborat. Ratsional investitsiya dasturini amalga oshirayotgan davlat ixtiyorida xuquqiy tartibga solishning ikki vositasi mavjud: milliy-xuquqiy va xalqaro-xuquqiy.

Davlatning tashqi investitsiya dasturi xuquqiy nuqtai nazardan xorijiy investitsiyalar uchun qulay xuquqiy muxit yaratishdan iborat bo'lib, bu milliy xuquqiy tartibot, milliy xuquqiy shakllar va normalardan (konunlar va boshka me'yoriy aktlar) xamda xalqaro-xuquqiy tartibot, xalqaro-xuquqiy shakl va normalardan (ikki va ko'p tomonlama shartnomalar va bitimlar) foydalanishni nazarda tutadi. Bularning barchasida xam ichki xam tashqi investitsiya siyosatlari xisobga olinishi shart.

Investitsiya dasturining aniq maqsadga yo'naltirilgan va ilmiy asoslangan asosiy vazifsi (funktsiyasi) davlatning jamiyatda moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarishni tashkil etish uchun investitsiya mablag'larini safarbar kilish bo'yicha faoliyat yuritishidan iborat.

Investitsiya faoliyati (ingl. investment activity) – bu investitsiya kiritish va investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha olib boriladigan amaliy xarakatlarning yigindisidir.

Investitsiya dasturi aloxida davlatlar tomonidan investitsiya munosabatlari sub'ektlarining (davlatlar, yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan xorijiy) investitsiya faoliyatini kuchaytirish maqsadida choralar tizimini nazarda tutadi. Investitsiya faoliyati esa uning sub'ektlarining investitsiyani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyatlari yigindisidir.

Davlat fuqaroviy va xalqaro xususiy xuquq sub'ektlarining birortasi ega bo'lmagan xususiyatga ega. U bir vaqtning o'zida jamoat hokimiyatining egasi (ichki va tashqi siyosat yo'nalishlarini belgilaydi, davlat strategik dasturlarini, shu jumladan iqtisodiyotning strategik masalalarini hal etishga qaratilgan investitsiya dasturlarini kabul kiladi) va xususiy xuquq munosabatlari qatnashchisi (bu erda uning investitsiya faoliyatida ishtirok etishi xam nazarda tutilgan) hisoblanadi.

SHunday kilib, investitsiya faoliyati tushunchasi investitsiya dasturi tushunchasining tarkibiy qismi bo'lib, buni O'zbekiston Respublikasi «Investitsiya faoliyati haqida»gi konunining 14 va 15 moddalarini yorqin aks ettirgan.

Investitsiya dasturi tovar-pul munosabatlarini takomillashtirish sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur siyosat rivojlangan tovar-pul munosabatlarida uncha katta ahamiyatga ega emas. CHunki o'z-o'zini boshkaruvchi iqtisodiyot sharoitida investitsiya dasturi asosan tartibga soluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Ustuvor yo'nalishlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

birinchi ustuvor yo'nalish – ommaviy turar joy kurulishi;

ikkinchi ustuvor yo'nalish – zamonaviy kommunikatsiya vositalari, transport va aloka vositalarini ishlab chiqarish, transport va informatsiya tarmoxlarini yaratish va modernizatsiya kilish;

uchinchi ustuvor yo`nalish – yukori texnologiyalar. Yukori texnologik va jahon bozorlarida rakobatbardosh, import mollarining o`rnini bosa oladigar tovarlarni ishlab chiqarishni tashkil etish.

to`rtinchi ustuvor yo`nalish – zaxiralarni tejovchi, ekologik toza texnologiyalar. Mineral boyliklarni er ostidan xazib olish va tabiiy xom ash`yoni to`lix va kompleks xayta ishlash uchun eng yangi fan-texnika yutuxlaridan foydalanish.

beshinchi ustuvor yo`nalish – fermerlik va dextxon xo`jaliklari tarmogi, ishlab chiqarish, xayta ishlash, xadoxlash, transportirovka kilish, sotish va shifobaxsh ko`shilmalari bo`lgan ekologik toza ozix-ovxat maxsulotlari bo`yicha andozalarga amal kilgan holda nazorat kilish texnologiyasini o`zlashtirib olgan xayta ishlovchi va savdo korxonalarining ko`magi asosida ekologik toza oziq-ovqat maxsulotlarini chiqarish

Prognozda markazlashgan va markazlashmagan kapital qo`yilmalar manbalari hisobga olinishi zarur:

A) Markazlashgan kapital qo`yilmalar. U o`z navbatida quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- davlat byudjet va nobyudjet fondlarining mablag`lari;
- davlat kafolati asosida beriladigan chet el kreditlari va investitsiyalari.

B) Markazlashmagan kapital qo`yilmalar:

- korxonalarning mablag`lari;
- davlat va boshqaruv organlarining mablag`lari;
- banklarning tijorat kreditlari;
- aholining mablag`lari.

Taqqoslama ro`yxat investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan muhim yo`nalishlarni ko`rsatuvchi prospekt hisoblanadi. Taqqoslama ro`yxatga kiritilgan investitsiya bo`yicha:

- doim monitoring va dastur tuzishning har bir bosqichiga injineriing ko`zatuvlaridan o`tadi;
- davlat kafolati ostida chet el kredit liniyalaridan foydalanish imkoniyatiga ega.

Investitsion loyihalarning manziliy dasturi har yili ishlab chiqilib, moliyalashning asosiy manbalari asosida investitsion loyihalarning kerakli ro`yxatini o`z ichiga oladi.

Investitsion loyihalarning manziliy dasturiga kiritishning zarur shartlari mavjud:

- texnik - iqtisodiy asoslarning mavjudligi;
- shartnomada ko`rsatilgan kreditlarning vaqtida qoplanganligi va moliyalashtirish manbalari tasdig`ining mavjudligi ham zarur.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 420-sonli “O`zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirish bo`yicha me`yoriy huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to`g`risida”gi qarori ishlab chiqildi. Unga ko`ra O`zbekiston Respublikasi investitsion dasturi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashning muhim qismi bo`lib davlat investitsiya siyosatining asosiy yo`nalishlarini aks ettiradi. Dasturning asosiy maqsadi bo`lib, O`zbekiston iqtisodiyotini dinamik rivojlanishiga, O`zbekiston iqtisodiyotning zarur strukturaviy o`zgarishlarni amalga oshirishga, iqtisodiyotga yo`naltirilgan investitsiyalar asosida jahon iqtisodiy tizimiga keng integratsiyasi, tabiiy mineral xom ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishga erishish hisoblanadi.

Dastur quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- kapital qo`yilmalarni moliyalashtirish manbalari yordamida prognoz qilish;
- muhim investitsion takliflarning taqqoslama ro`yxati;
- investitsion loyihalarning manziliy dasturi.

Dastur quyidagilarni amalga oshirishga yo`naltirilgan kapital qo`yilmalar prognozini o`z ichiga oladi:

- tabiiy mineral xom ashyo moliyaviy moddiy va mehnat resurslaridan foydalanishning samarasini oshirish;

- davlat byudjeti respublikaning ichki va tashqi qarzдорligi bilan bog`liqligi;

- moliyaviy mablag`lar bilan tasdiqlangan ob`ektlarni va kreditlar qaytarilishi, shuningdek, qurilish va qurish materiallari sanoatidagi kuchlarning balanslashtirishni kiritish;

- iqtisodiy va ekologik jihatdan asoslangan yangi korxonalarni joylashtirish va regionlarning kompleks rivojlanishini hisobga olgan holda faoliyat yurituvchi korxonalarda qo`shimcha kuchlarni

yaratish hamda ishlab chiqarish, noishlab chiqarish infrastrukurasidagi va mehnat resurslaridagi tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya dasturining moliyalashtirishda asosan xorijiy investitsiyalar kata urin egallaydi. Bundan tashkari byujet va byujerdan tashkari fondlar mablag'lari xam aloxida urin egallaydi.

6-mavzu. XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNI RAG`BATLANTIRISHNING ZAMONAVIY SHAKL VA USULLARI

Reja:

1. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirishning zamonaviy shakl va usullari
2. O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga berilgan imtiyozlarning ahamiyati
3. Qo'shma korxonalarni tashkil etishda xorijiy investitsiyalarni o'rni
4. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish
5. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va o'zlashtirish maqsadida investorlarga beriladigan imtiyozlar.

1. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirishning zamonaviy shakl va usullari

YUrtboshimiz joriy yilning 12 fevralida Vazirlar Mahkamasidagi yig'ilishida mamlakat real iqtisodiyotiga y'naltirilgan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshganligini, 2006 yili bu k'rsatkich 11,4 foizga 'ysib, iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillari b'ylib xizmat qilganligini ta'kidladilar. Iqtisodiy islohotlar izchillik bilan o'tkazib kelinayotganligi, yaratilgan qulay imtiyoz va preferentsiyalar tizimi tufayli mamlakatimizda 2006 yil holatiga ko'ra 20 milliard AQSH dollaridan ziyod miqdorda xorijiy investitsiya jalb etilgan, to'g'ridan-to'g'ri jalb qilingan xorijiy investitsiyalar esa 2000–2006 yillar mobaynidagina 9,3 baravar ko'paygan va endilikda 2,5 milliard dollarni tashkil etmoqda. Xorijiy investitsiyalar O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tarkibiy o'zgartishlar o'tkazish, tayyor mahsulot ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish, eksport hajmini oshirishga imkon yaratayotganligiga amin bo'lish mumkin. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi kengayib va ortib borayotganligi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ko'lamdor demokratik va bozor islohotlarining to'g'riligi hamda samaradorligi chet ellik sheriklar tomonidan yana bir e'tirof etilganligining o'ziga xos dalolatdir.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyali korxonalarning bir maromda faoliyat yuritishi va investorlarning huquqlari himoya qilinishi uchun me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan «CHet el investitsiyalari t'yg'risida»gi, «CHet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari t'yg'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Soliq kodeksi chet el sarmoyalarini amalga oshirishning huquqiy asoslari va tartibini belgilab beradi. Sir emaski, 'yz mablag'ini biror mamlakat iqtisodiyotiga kiritmoqchi b'ylgan chet ellik sarmoyador birinchi navbatda 'yi uchun yaratilgan imtiyoz va engilliklarni bilishni istaydi. SHu 'yrinda «CHet el investitsiyalari t'yg'risida»gi Qonunga muvofiq chet ellik investorlar 'yz ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun, shuningdek chet ellik investorlarning va chet ellik investorlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida turgan chet davlatlar fuqarolarining shaxsiy ehtiyojlari uchun olib kiriladigan mol-mulkdan boj t'ylavi olinmasligini aytish mumkin.

«CHet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari t'yg'risida»gi Qonunning 3-moddasida «agar O'zbekiston Respublikasining keyingi qonun hujjatlari investitsiyalash shart-sharoitlarini yomonlashtirsa, unda chet ellik investorlarga nisbatan investitsiyalash sanasida amal qilgan qonun hujjatlari investitsiyalash paytidan boshlab 'yn yil mobaynida q'yllaniladi. CHet ellik investor 'yz xohishiga k'ya yangi qonun hujjatlarining investitsiyalash shart-sharoitlarini yaxshilaydigan qoidalarini q'yllash huquqiga egadir», deyiladi. Demak, me'yoriy hujjatlar yurtimizga kirib kelayotgan xorijiy investorlarni har tomonlama q'yllab-quvvatlash, unga muqobil sharoitlarni yaratish nuqtai nazaridan ishlab chiqilganini alohida

ta'kidlamoq lozim. SHuningdek, yurtimizda yaratilgan qulay imtiyoz va preferentsiyalar tizimi tufayli 2006 yilda soliq imtiyozlaridan foydalanish natijasida respublikamiz korxona, kompaniya va x'jaliklari 'z moliyaviy resurslarini q'shimcha ravishda 425 milliard s'mga k'paytirgan. Bu esa shubhasiz, investitsiyalarning 'sishiga, korxonalarning aylanma mablag'ini t'yldirish va mehnatga haq t'ylashni oshirish uchun q'shimcha manba b'ylib xizmat qilgan. SHu 'rinda 2006 yil holatiga iqtisodiyotimizga jami 20 milliard AQSH dollaridan ziyod miqdordagi xorijiy investitsiya jalb etilganligi, t'yg'ridan-t'yg'ri jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 2000-2006 yillar mobaynida 9,3 marta oshgani va 2,5 milliard AQSH dollarini tashkil etganligini aytish lozim. Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirishni mustahkamlashga qaratilgan choralarning amalga oshirilishi mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash hamda hajmi tobora ortib borayotgan xorijiy sarmoyalarni jalb qilishda 'z natijasini k'rsatmoqda. Jumladan 'tgan yil davomida iqtisodiyotga y'naltirilgan sarmoyalarning 77,5 foizini tashkil etadigan markazlashmagan sarmoyalarning asosiy 'sishi xorijiy investitsiyalarni t'yg'ridan-t'yg'ri jalb qilish, korxonalarning 'z mablag'i va bank kreditlari hisobidan ta'minlangan.

Prezidentimizning mamlakat iqtisodiyoti rivoji uchun 'ta muhim b'lgan «T'yg'ridan-t'yg'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi q'shimcha chora-tadbirlar t'yg'risida»gi PF-3594-son Farmoni ishlab chiqarish sohalariga t'yg'ridan-t'yg'ri xorijiy investitsiyani jalb etish, yurtimizning eksport salohiyatini yanada yuksaltirishda muhim dasturilamal b'ylib xizmat qilish bilan bir qatorda, iqtisodiyotni erkinlashtirish borasida q'yilgan yana bir muhim qadamdir.

Xorijiy investitsiyalarni t'yg'ridan-t'yg'ri jalb etishga doir ushbu Farmon mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruksiya qilish, ortiqcha ishchi kuchi b'lgan mintaqalarda yangi ish joylarini yaratish dasturini amalga oshirishga hamda xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy himoya va kafolatlarni ta'minlash maqsadlariga qaratilgan. SHu 'rinda Farmonda xorijlik ishbilarmonlarni soliq bilan rag'batlantirishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, unga muvofiq 2005 yilning 1 iyulidan boshlab, t'yg'ridan-t'yg'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyat turlari b'yicha, jumladan daromad (foyda) solig'i, mol-mulk solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq t'ylovi yoki yagona soliq hamda Respublika y'l jamg'armasiga ajratmalar t'ylashdan ozod qilindi. Bunda xorijiy investitsiyalar hajmi 300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha b'lganda 3 yil muddatga, 3 milliondan ortiq AQSH dollaridan 10 million AQSH dollarigacha 5 yil muddatga, 10 million AQSH dollaridan ortiq b'lganda 7 yil muddatga yuqorida k'rsatilgan soliqlar b'yicha imtiyozlardan foydalanadi.

Rivojlangan mamlakatlar orasida chet el investitsiyalarini 'z milliy iqtisodiyotiga jalb etishning raqobat shakli yildan-yilga kuchayib bormoqda. SHu bois, chet ellik investorlarga yaratilgan qulaylik qaysi davlatda ustun darajada b'lsa, ya'ni foyda olish ehtimoli kattaroq b'lsa, tabiiyki, ularning aynan 'sha davlat iqtisodiyotiga sarmoya kiritishga qiziqishi ortadi. Bu esa, bozor iqtisodiyotining nisbiy samaradorlik qonuniga mos keluvchi echim hisoblanadi, ya'ni qaerda samara (foyda) olish imkoniyati nisbatan yuqori b'lsa, tadbirkorlar 'sha erdagi bozorga k'yproq intiladi. SHuningdek, bugun O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga 'tayotgan davlatlar ichida eng yuqori investitsiya muhiti yaratgan mamlakatlardan biriga aylandi. Bu, shubhasiz, iqtisodiyotimizga t'yg'ridan-t'yg'ri jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar oqimini yanada kuchaytiradi. Farmonning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, u xususiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan. Farmonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni har tomonlama qulay, ortiqcha ishchi kuchiga ega b'lgan bir qator viloyatlarning qishloq aholi punktlarida joylashtirilishining belgilanishi mamlakatimizda bandlik masalalarini ijobiy hal etishga qaratilgan. Huquqiy kafolatlarning aniq-oddiyligi sarmoyadorlarning investitsiya kiritish haqida qaror qabul qilishini tezlashtirish bilan birga, ularga mavjud xatarlarni ham baholash imkoniyatini yaratadi. Davlatimiz iqtisodiy siyosati k'yproq t'yg'ridan-t'yg'ri investitsiyalarni jalb etishga va uni rag'batlantirishga qaratilganligi bois, turli shakldagi investitsiyalar oqimi yildan-yilga oshib bormoqda. O'z navbatida, respublika mintaqalaridagi boy mineral-xom ashyo resurslari, etarli miqdordagi malakali ishchi kuchlari, sog'lom atrof muhit, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik kabi omillar shubhasiz, xorijiy

investitsiyalar oqimining yanada k payishiga, respublika mintaqalarida faoliyat yuritadigan korxonalar rivojiga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz hududlarida bugungi kunda t g ridan-t g ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etish va chet el investitsiyasi ishtirokidagi q shma korxonalarning tashkil etilishini ayrim viloyatlar misolida k rib  tsak b yladi. YUrtimizning aholisi k p b lgan viloyatlari va qishloq aholi punktlarida t g ridan-t g ri xususiy xorijiy investitsiyalar asosida xorijiy investitsiyali korxonalar tashkil qilingan b lib, Farmonda keltirilgan imtiyozlardan foydalanmoqdalar. Xususan, Farmonda keltirilgan shartlar asosida 10 ta korxona daromad (foyda) solig i, mol-mulk solig i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig i, va (yoki) yagona soliq t lovi t lashdan, shuningdek Respublika y l jamg armasiga majburiy ajratmalar t lashdan ozod qilingan. Jumladan, Qoraqalpog iston Respublikasidagi «YUniver» q shma korxonasi, «T rtk lteks» q shma korxonasi, Andijon viloyatida «Oltink l Tekstil» q shma korxonasi, Namangan viloyatidagi «Marmar-F» q shma korxonasi, Sirdaryo viloyatidagi «Lola Model» q shma korxonasi, Surxondaryo viloyatidagi «Surxonteks» q shma korxonasi hamda Xorazm viloyatidagi «Urgench yog » q shma korxonasi shular jumlasidandir. SHuningdek, Farg ona viloyatining qishloq aholi punktlarida t g ridan-t g ri xususiy xorijiy investitsiyalar jalb qilinib, yangi q shma korxonalar tashkil qilingan, masalan «Molochnaya Dolina», «Unimobile» va «Aziya Paints Keramik» q shma korxonalari Farmonda keltirilgan imtiyozlardan foydalanmoqdalar.

Mamlakatimizga bu tarzda sarmoya oqib kelayotgani esa xorijiy investorlar, ya ni chet ellik sheriklarimiz respublikamizda amalga oshirilayotgan keng k lamdagi demokratik va bozor islohotlarining t g riligi hamda samaradorligini tan olgani, ularning biz bilan hamkorlik qilishga tayyor ekanining yana bir tasdig idir.

2. O zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga berilgan imtiyozlarning ahamiyati

Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat ko rsatuvchi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga amaldagi soliqlar va bojlar yuzasidan qator engilliklar, imtiyozlar belgilangan. Ushbu imtiyozlarning amal qilishi bevosita mamlakatimizda yuritilayotgan investitsiya siyosatining asosiy negizlaridan birini tashkil etib, o z ijobiy samarasini bermoqda. Masalan, Respublikamizda xorijiy investorlar o z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kiriladigan mol-mulkidan boj to lovi olinmaydi, Respublika investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarga sarf etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalari daromad (foyda) solig idan 7 yil muddatga ozod etilgan, korxona jamg armasida xorijiy investitsiya mablag lari hisssasi 50% va undan yuqori bo lsa, ular 2 yil muddatga daromad (foyda) solig idan ozod qilingan va boshqa soliq imtiyozlari belgilangan.

O zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichida mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish hukumat tashqi iqtisodiy faoliyatini diqqat markazida bo ldi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish tadbirlarini amalga oshirishda hukumat quyidagi tamoyillarga asoslandi:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish sohasida aniq maqsadni ko zlab siyosat yuritish;
- respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablag ni keng jalb etishni ta minlaydigan huquqiy ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni tobora takomillashtirish;
- respublikaga jahon darajasidagi texnologiyani etkazib berayotgan va iqtisodiyotni zamonaviy tarkibini vujudga keltirishga ko maklashayotgan xorijiy investorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini yurgizish;
- mablag larni respublika mustaqilligini ta minlaydigan, import o rnini qoplovchi va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bilan bog liq bo lgan eng muhim ustuvor yo nalishda jamlash.

SHuningdek, respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyani jalb etishni faollashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- investitsiya loyihalarini malakali ekspertlar nazoratidan o'tkazish va mukammal tayyorlanishiga erishish;
- qo'shma korxonalar va xorijiy investitsiya ishtirokidagi boshqa turdagi tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatdan o'tkazishdagi to'siqlarni butunlay olib tashlash.

Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni milliy korxonalarga jalb etishda quyidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash maqsadga muvofiqdir:

- qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash sohalarini rivojlantirish;
- mineral xom ashyo resurslarini, shu jumladan, neft' va gazni qazib chiqarish, qayta ishlash bo'yicha ekologik ishlab chiqarishni tashkil etish;
- transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ilm talab va jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish;
- turizm sohasini rivojlantirish, xalqaro va ichki turizmning zamonaviy infratuzilmasini yaratishga erishish.

O'zbekistonda xorijiy investorlarga qonuniy faoliyat natijasida olgan foydalari va boshqa daromadlarini biror-bir cheklovlarisiz istalgancha chet davlatga o'tkazish imkoniyati kafolatlanadi. Bundan tashqari xorijiy investorlar Respublika banklarida hech bir cheklovlarisiz istalgan valyutada hisob raqamiga ega bo'lishlari mumkin.

Xorijiy investitsiyasi bo'lgan korxona amaldagi qonunlarga binoan o'zi ishlab chiqargan mahsulotni litsenziyasiz eksportga chiqarish va o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur mahsulotlar importini amalga oshirish huquqiga egadir. Xorijiy investorlarga tabiiy boyliklarni qidirish, ishlab chiqarish va foydalanish va boshqa xo'jalik ishlarini yuritish uchun kontsessiyalar berilishi mumkin. Kontsessiya shartnomalar xorijiy investorlar bilan O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvining vakil qilingan organlari o'rtasida tuziladi. O'zbekiston Respublikasida barpo etilayotgan korxonalar ustav sarmoyasiga xorijiy investorlarning hissasi sifatida yoki xorijiy xodimlarning o'z ehtiyojlari uchun olib kirilayotgan mulk bo'xona to'lovidan ozod qilinadi va import solig'i undirilmaydi. Xorijiy investorlar O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning aktsiyalari, hissalar va paylarini, shuningdek, yuridik shaxslar tomonidan chiqarilgan qimmatli qogozlarni sotib olishlari mumkin. Xorijiy investitsiyalari bo'lgan korxonadan chiqish yoki bunday korxonaning tugatilish hollarida xorijiy investorlar shu korxona mulkidan o'zining hissasini korxona mulki bilan qiymatiga mutanosib ravishda pul yoki natura tariqasida qaytarib olish huquqiga ega bo'ladi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokida tuzilgan korxonalarning xo'jalik ishlarida hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining 'qonunchiligi asosida olib borilishi lozim. Bu holatlar ham qonunda ko'rsatilgan. Bu korxonalar bankrot holatiga tushib qolganda u o'z mulki, ya'ni savdo ob'ektlari, xizmat ko'rsatish sohalar, er uchastkasi, binolari, qurilishlari, uskunalaridan kelib chiqib majburiyatlari ta'minlanadi. Erdan foydalanish va egalik qilish huquqi bundan mustasno.

Agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'rsatilgan shart-sharoitlar xalqaro shartnoma va xorijiy investorlar bilan kelishuvlarda ko'rsatilgan shart-sharoitlar farq qilsa, xalqaro shartnoma va kelishuvga asosan faoliyat yurgiziladi. SHunday qilib, yaratilgan huquqiy asoslar xorijiy hamkorlarning keng investitsiya faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratib, ularning huquqlari va sarflagan investitsiyasini himoya qiladi.

Hozirga kelib, O'zbekiston hududida xorijiy kompaniyalar faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirish jarayoni asosan nihoyasiga etkazildi va amalda qo'llanilmokda. Bu faoliyatni rag'batlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarning quyidagi tizimi ishlab chiqilgan:

- xususiylashtirish jarayonida xorijiy investitsiyalarning qatnashishi;
- texnikaviy qayta qurollanish;
- xalq iste'moli va eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish.

O'zbekiston Respublikasi xorijiy investitsiyalarni milliy lashtirish va rekvizitsiya qilinmasligiga kafolat beradi. Xorijiy investitsiyalar faqat favqulodda holatlarda, avariya, epidemiya tarqalgan vaqtlarda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan rekvizitsiya qilinishi mumkin. Bu holat investorga ko'rsatilgan zarar mikdorida kompensatsiya qilanadi.

Xorijiy investorlarga uchun zarur moliyaviy-iqtisodiy kafolatlarni ta'minlash uchun hukumat tomonidan xorijiy investorlarni himoyalashning Milliy sugurta jamg'armasini barpo etish to'g'risida qaror qabul qilingan. Bu jamg'arma respublika hududida ta'sis etilgan chet el banklarida O'zbekiston Respublikasi, xorijiy investitsiya ishtirokidagi sug'urta kompaniyalari valyuta qadriyatlarining bir qismini deponentlash yo'li bilan hosil qilinadi.

Xorijiy investorlarning qonuniy faoliyatlari orqali qilingan daromadlari xorijiy valyutada, chegaralanmagan miqdorda chegaradan olib o'tishlari davlat tomonidan kafolatlanadi.

3. Qo'shma korxonalarni tashkil etishda xorijiy investitsiyalarni o'rni

O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatining rivojlanib borishi, foyda olishning turli yo'llarini amalga tatbiq etishga olib kelmoqda. Agarda avval korxonalarda asosiy daromad o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishdan iborat bo'ladigan bo'lsa, bozor munosabatlari rivojlanayotgan hozirgi sharoitda investitsiya va moliyaviy daromad olishga kengroq e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda investor oldida turgan asosiy maqsad optimal investitsiya portfelini shakllantirish bo'lib, uning ushbu portfel tarkibiga kiruvchiga investitsiya qimmatliklarini, boshqacha aytganda, investtsiya mulk ob'ektlarini qanday joylashtirishi ham muhim hisoblanadi. Bozor munosabatlari rivojlanayotgan bugungi kunda investorning o'z mulkini faqat korxonaning muomalaviy faoliyatiga emas, shuningdek investitsiya faoliyatiga ham yo'naltirilganligi, oxir-oqibatda, investor olayotgan daromadning oshishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda investor mulkini qaysi faoliyatga birlashtirishi ham muhim masalalar qatoriga kiradi. Jumladan, investor mulki tarkibida bo'lgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa mulklari investitsiya jarayonlariga ko'proq jalb qilinsa, uning oladigan daromadi yanada oshishi mumkin. Investitsiya faoliyatining vositasi hisoblangan mulk barcha ijtimoiy-iqtisodiy shakllanishlarda ishlab chiqarish munosabatlarining asosini tashkil etib, ularning xususiyatlarini belgilab beradi. Har bir ijtimoiy-iqtisodiy shakllanishda mulkchilik turli xil ijtimoiy munosabatlarda rivojlangan bo'lib, mulkchilikni tavsiflanganda uning iqtisodiy mazmunini hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakllaridan biri qo'shma korxonalar hisoblanadi. Qo'shma korxonalar tashkil etish korxona va tashkilotlarning chet ellik sheriklar bilan aloqasini yuksaltiradi, mamlakat hududida xorijlik tadbirkorliklarga keng sharoit yaratadi, mamlakat hududiga xorijiy investitsiyalarini jalb etadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirishning asosiy omillaridan biri bu qo'shma tadbirkorlikni rivojlantirishga keng yo'l ochib berilishidir. Hozirgi kunda xorijlik ishbilarmonlar O'zbekistonni o'zlari uchun qulay va ishonchli sherik deb hisoblaydilar, chunki respublikamizda xorijiy investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratildi. Natijada ularda o'z sarmoyalarini respublikamizda joylashtirish va biz bilan hamkorlik qilish istagi ortib boryapti. Respublikamizda yaratilgan qulay investitsion muhitning asosiy omillari - respublikamizdagi qulay siyosiy barqarorlik, boy xom-ashyo resurslarining mavjudligi, qo'shma tadbirkorlikning huquqiy asosi yaratilganligidir.

Qo'shma korxonalar tashkil etishning zarurati, tovar ishlab chiqarishni ko'paytirishga sezilarli hissa qo'shadi va xalqaro savdo uyushmasiga tovar almashinuvi va keng xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish uchun qulay sharoitlar yaroatadi. Qo'shma korxonalarning tashkil etilishi mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishni jadallashtiradi va xalqaro doirada mavqei ortishiga olib keladi. Qo'shma korxonalarning ahamiyatli tomoni olingan foydani taqsimlash, sarfni qoplash, korxona faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib borishdadir. CHet el investitsiyalarini respublikamiz iqtisodiyotiga jalb etish to'g'risidagi qonun-hujjatlariga binoan, korxonaning nizom fondiga ta'sischilarning o'z ulushi bo'yicha ishtirok etishi, korxonalarning mulki, aktsiyasi va boshqa turdagi qog'ozlarni sotib olishi, mahalliy fuqarolar bilan birgalikda yoki mustaqil ravishda erlarni sotib olish ko'rinishlarida ko'proq jalb etilmoqda. Qo'shma korxonalar tashkil etish – bu murakkab jarayon hisoblanadi. Bu erda hamkorlar tanlanadi, ular orasida ushbu masalalar yuzasidan muzokaralar olib boriladi. Muzokaralarda tomonlarning asosiy qarashlari aniqlanadi, oldindan olib borilgan muzokaralar bosqichida kelgusidagi maqsadlar kelishib olinadi va ular shartnomalarda rasmiylashtiriladi.

4. To`g`ridan-to`g`ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag`batlantirish

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.04.2005 yildagi "To`g`ridan-to`g`ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag`batlantirish borasidagi qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida" farmoni mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususiylashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruktsiya qilish, respublikaning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo`lgan mintaqalarida yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga to`g`ridan-to`g`ri xususiy xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy himoya va kafolatlarni ta`minlash qaratilgan. 2005 yilning 1 iyulidan boshlab to`g`ridan-to`g`ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyati bo`yicha daromad (foyda) solig`i, mulk solig`i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to`lovi to`lashdan, shuningdek Respublika yo`l jamg`armasiga majburiy ajratmalar to`lashdan ozod qilinadi.

To`g`ridan-to`g`ri xususiy xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo`lganda mazkur soliq imtiyozlari beriladi:

300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha - 3 yil muddatga;

3 milliondan ortiq AQSH dollaridan 10 million AQSH dollarigacha - 5 yil muddatga;

10 million AQSH dollaridan ortiq bo`lganda - 7 yil muddatga.

Soliq imtiyozlari quyidagi shartlar asosida qo`llanilishi mumkin:

- mazkur korxonalarni ortiqcha ishchi kuchi bo`lgan mintaqalar - Qoraqalpog`iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Sirdaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida, shuningdek Navoiy, Andijon, Namangan va Farg`ona viloyatlarining qishloq aholi punktlarida joylashtirish;

- xorijiy investorlar tomonidan to`g`ridan-to`g`ri xususiy xorijiy investitsiyalarni O`zbekiston Respublikasining kafolati berilmagan holda amalga oshirish;

- korxonaning ustav kapitalida xorijiy ishtirokchilarning ulushi kamida 50 foizni tashkil etishi lozim;

- ushbu korxonalar davlat ro`yxatidan o`tkazilgandan keyin to`g`ridan-to`g`ri xususiy xorijiy investitsiyalarni kiritish;

- xorijiy investitsiyalarni erkin almashtiriladigan valyuta yoki yangi zamonaviy texnologik uskuna tarzida qo`yish;

- mazkur imtiyozlarni qo`llanish muddati davomida imtiyozlardan olingan daromadni korxonani yanada rivojlantirish maqsadida qayta investitsiyalashga yo`naltirish.

Imtiyoz olgan korxonalar shunday imtiyoz berilgan muddat tugashidan keyin bir yil barvaqtroq faoliyatini to`xtatgan taqdirda foydani o`z mamlakatiga o`tkazish va xorijiy investorning kapitalini chet elga olib chiqib ketish faqat berilgan imtiyozlar summasini byudjetga qaytargandan keyin amalga oshiriladi.

O`zbekiston Respublikasining "CHet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to`g`risida"gi qonuni 3-moddasining to`rtinchi qismida xorijiy investorlar uchun belgilangan kafolatlar quyidagi hollarda qo`llanilishi mumkin:

- xorijiy investorlarga to`lanadigan, dividend tarzida olinadigan daromatlarga soliq miqdori (stavkalari) ko`payishi;

- xorijiy investorning chet elga o`tkaziladigan daromatlari (foydasini) o`z mamlakatiga qaytarish tartibotini murakkablashtiruvchi yoki ularning miqdorini kamaytiruvchi qo`shimcha talablar joriy etilishi, bunda davlat xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonaning to`lovga qobiliyatsizligi va bankrotligi yoki kredit beruvchilarning huquqlarini himoya qilish, xorijiy investor - jismoniy shaxs sodir etgan jinoiy qilmish yoki ma`muriy huquqbuzarlik hollarida yoxud sud yoki hakamlikning qaroriga muvofiq daromad (foyda)ni o`z mamlakatiga qaytarishni to`xtatib turishning boshqa zarurati bo`lganda xorijiy investor mablag`larini qonun hujjatlarini

kamsitmaydigan tarzda qo'llash shartlari asosida o'z mamlakatiga qaytarilishini to'xtatib turish hollari mustasno;

- investitsiyalarning miqdori bo'yicha investitsiyalash hajmlariga miqdoriy cheklashlar hamda boshqa qo'shimcha talablar, shu jumladan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarda xorijiy investitsiyalarning minimal miqdorini ko'paytirish tarzidagi talablar joriy etilishi;

- respublika korxonalarining ustav jam-g'armalarida xorijiy investorning ulush bilan ishtirok etishi bo'yicha cheklashlar joriy etilishi;

- xorijiy investorlarning vizalarini rasmiylashtirish va uzaytirish borasidagi qo'shimcha tartibotlar, shuningdek xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha boshqa qo'shimcha talablar joriy etilishi.

To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun beriladigan imtiyozlar joriy etiladigan iqtisodiyot tarmoqlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Radioelektronika sanoati buyumlari hamda komp'yuter va hisoblash texnikasi butlovchi buyumlarini ishlab chiqarish.

2. Engil sanoat:

tayyor ip gazlama va jun gazlamalar ishlab chiqarish; tayyor tikuvchilik, trikotaj, paypoq mahsulotlari va to'qimachilik galantereyasi ishlab chiqarish; terini qayta ishlash; poyabzal, tayyor ko'n-galantereya buyumlari ishlab chiqarish.

3. Ipakchilik sanoati:

shoyi gazlamalar va ipakdan tayyor buyumlar ishlab chiqarish.

4. Qurilish materiallari sanoati:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 24 martdagi PF-3586-sonli Farmoni 1a-ilovasida ko'rsatilgan qurilish materiallarining yangi turlarini ishlab chiqarish.

5. Parranda go'shti va tuxumni sanoat miqyosida etishtirish.

6. Oziq-ovqat sanoati:

mahalliy xomashyodan sanoat miqyosida qayta ishlangan tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (alkogolli, alkogolsiz ichimliklar va tamaki mahsulotlari bundan mustasno).

7. Go'sht-sut sanoati:

go'sht va sut mahsulotlarining tayyor turlari, pishloq va sariyog' ishlab chiqarish.

8. Kimyo-farmatsevtika sanoati:

dori-darmon vositalari ishlab chiqarish; sintetik kir yuvish vositalari, maishiy kimyo tovarlari ishlab chiqarish.

5. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va o'zlashtirish maqsadida investorlarga beriladigan imtiyozlar.

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va o'zlashtirish maqsadida investorlarga bir qator imtiyozlar (iqtisodiy platforma) beriladi.

Xorijiy investitsiyalar bilan tashkil etilgan korxonalar (savdo, vositachilik, xom ashyo etkazib beruvchilardan tashqari) ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab:

- daromad (foyda) solig'idan 1-yil – 25%, 2-yil – 50%, 3-yildan 100%, qishloq hududida 1-yil ozod qilinadi;
- mulk solig'idan 2 yilga ozod qilinadi;
- ishlab chiqargan mahsulotining 30% ortig'i eksportga chiqsa, 50%ga daromad (foyda solig'i), 15-30% eksportga chiqarilsa, 30% daromad (foyda) solig'idan ozod qilinadi;
- ishlab chiqarish bilan band bo'lsa, er solig'idan 2 yilga ozod qilinadi.

To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etgan mamlakatimizdagi ishlab chiqarish tarmoqlari o'zlarining asosiy faoliyat turlaridagi quyidagi soliqlardan ozod etiladilar:

- daromad (foyda) solig'i;
- mulk solig'i;
- ijtimoiy infratuzilmani va hududiy rivojlanishni rivojlantirish solig'i;
- atrof-muhit solig'i;

- mikrofirmalar va kichik biznes uchun yagona soliq;
- yoʻl fondiga majburiy ajratmalardan.

Agar, xorijiy investitsiyalar xajmi:

- 300 000 – 3 000 000 AQSH dollariga teng boʻlsa – 3 yilga;
- 3 000 000 – 10 000 000 AQSH dollariga teng boʻlsa – 5 yilga;
- 10 000 000 AQSH dollaridan ortiq boʻlsa – 7 yilga.

Oʻzbekiston Respublikasida alohida sohalarga imtiyozlar berish koʻzda tutilgan. Unga koʻra neft va gaz konlarini ochish va qidirish ishlariga xorijiy kompaniyalarni jalb qilgan korxonalar:

- ushbu ishlarni amalga oshirish davrida barcha soliqlardan;
- ushbu ishlarni amalga oshirish uchun zarur uskunalarni import qilishda bojlardan ozod qilinadi.

Mazkur soha korxonasi chet ellik hamkorlar bilan birga ochilsa, unda,

- neft va gaz qazib chiqarilgan kundan boshlab 7 yilga daromad (foyda) soligʻidan;
- xorijiy hamkorlar ulushi kapitalidan olinadigan daromad va mulk soligʻidan ozod qilinadi.

Engil sanoat sohasida:

- tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar QQS dan tashqari barcha soliqlardan ozod;
- oʻz ehtiyoji uchun ishlab chiqarish uskunalari, ehtiyot qismlarini import qilishda korxonalar bojxona toʻlovlaridan ozod qilinadi.

Respublikamizda ipakchilik sohasiga alohida eʼtibor qaratilgandir, yaʼni pillachilikka bogʻliq barcha ishlab chiqarish korxonalari 01.01.2010 yilgacha QQS dan ozod qilingan.

7-Mavzu. XORIJIY INVESTORLAR UCHUN OʻZBEKISTON IQTISODIYOTINI JALB QILUVCHANLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YOʻNALISHLARI

Reja:

1. Tashqi kapital va uning harakati
2. Oʻzbekiston iqtisodiy siyosatining strategiyasi va iqtisodiyotni erkinlashtirish
3. Oʻzbekiston Respublikasida ishlab chiqarishni mahalliyashtirish masalalari.
4. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishga hududiy jihatdan yondashish

1. Tashqi kapital va uning harakati

Kapital harakati yoki undan yuqoriroq foyda olish maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga koʻchib yurishi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning turi rivojlanayotgan shakli hisoblanadi. 1983-89 yillarda Xalqaro valyuta fondiga aʼzo mamlakatlarda tovarlar eksporti 1,7 marta, kapital eksporti 3,7 marta oshdi, kapital eksportini tezlashuviga birinchi novbatda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarishni yanada markazlashuvi va moliya kapitalini jamgʻarilishi asosiy turtki boʻldi. Yirik korporatsiyalarni paydo boʻlishi va ularni kredit bank tizimi bilan birlashuvi kapitalni mamlakatlararo koʻchib yurishiga sharoit yaratdi va shu orqali tovarlar sotish bozorlari yanada kengaytirildi.

Tadbirkorlar va hukumat chet ellik sheriklariga kredit yoki qarzlar berish, xorijda yoz ishini tashkil etish va xorijiy banklarda oʻz banklarining korrespondent hisoblarini ochishi, boshqa mamlakatlarda qimmatli qogʻozlar va koʻchmas mulkni sotib olish orqali kapital olib chiqishni amalga oshiradilar. Kapitalni olib chiqish bilan bir vaqtda, har qanday mamlakat, shuningdek kapital ham olib keladi, yaʼni kapitalning xalqaro harakati jarayoni boradi. Oʻz mohiyatiga koʻra, bu asosan moliyaviy majburiyatlarni, moliyaviy oqimlarni bir mamlakatdan boshqa mamlakatga koʻchib oʻtishini bildiradi. YAʼni qarz beruvchilar yoki mulkdorlar qarz oluvchilarga yoki kompaniyalarning xorijdagi korxonalariga hozirda foydalanish uchun pul yoki investitsion tovarni berganda hamda uning evaziga kelajakda foizlar yoki dividend keltiruvchi majburiyatlarni yoki

aktsiyalarni olgan taqdirda kapital harakati yuz beradi. SHunga muvofiq kapitalni olib kelish va olib chiqishning bir necha shakllari ajratiladi.

Kapital harakatining shakllari.

Iqtisodiy mazmuniga ko'ra.	Kim tomonidan amalga oshirilishiga ko'ra.	Ko'rinishi bo'yicha.	Muddatiga ko'ra.
Ssuda kapitali. Tadbirkorlik kapitali	Xususiy davlat Xalqaro tashkilotlar kapitali	Pul ko'rinishida Tovar ko'rinishida	+isqa muddatli Uzoq muddatli

Ssuda kapitalini olib chiqish bu bir mamlakatdagi qarz beruvchining boshqa mamlakatdagi qarz oluvchiga ma'lum muddatda qaytarib berish va foizlarni to'lash sharti bilan kredit berishidir.

Agar kapital foizlar shaklida foyda olish maqsadida berilmasdan, balki xorijdagi korxonalarni, shu jumladan qo'shma korxonalarni yaratishga sarflansa, u holda bu tadbirkorlik kapitalini olib chiqish yoki xorijga investitsiya chiqarish deb ataladi.

CHet el investitsiyalari investorga xorijiy korxonalar ustidan nazoratni ta'minlash huquqini bersa, ular to'g'ri investitsiyalar hisoblanadi, korxonalar esa asosiy kompaniyaning chet ellardagi ishlab chiqarishi bo'lib qoladi. Xorijiy investor tomonidan nazorat qilish huquqini aniqlovchi ko'rsatgich sifatida, ular ega bo'lgan aktsionerlik kapitalning hissasi ishlatiladi. A+SHda bu 10 foiz, Frantsiya va Buyuk Britaniyada 20 foizga yaqin, FRGda 25 foizdan 50 foizgacha, O'zbekistonda esa 49 foiz darajasida aniqlangan.

Agar xorijiy investorlarning kompaniya aktivlaridagi hissasi ushbu mamlakatda o'rnatilgan darajadan past bo'lsa, u holda chet el investori korxonani bevosita boshqarishda qatnasha olmaydi va faqat aktsiyalardan dividendlar olib turadi. Investitsiyalarning bunday shakli portfel' investitsiyalari deb yuritiladi.

Kapital harakati.

Ssuda kapitali.	Qarzlarni va kreditlar. Bank depozitlari va boshqa moliyaviy institutlar hisobidagi mablag'lar.
Tadbirkorlik kapitali.	Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) investitsiyalar. Portfel' investitsiyalar.

Kapital xorijga xususiy biznes, davlat kompaniyalari va hukumat, xalqaro tashkilotlar tomonidan qarzga berilishi yoki investitsiya qilinishi mumkin. SHu sababli ham kapital harakati xususiy va davlat kapitali, shuningdek xalqaro tashkilotlar kapitali shaklida amalga oshiriladi. Kapitalni mashina va asbob-uskunalar, potentlar va "nou-xau" lar, xorijiy firma ustav kapitaliga qo'yilmalar tovar kreditlari ko'rinishida olib kelinishi va olib chiqilishi mumkinligi uchun uning harakati pul va tovar shakllariga ajratiladi.

Muddati bo'yicha kapital harakati qisqa va uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Qisqa muddatli kapitalga bank depozitlari va turli moliyaviy institutlar hisoblaridagi mablag'lar, qisqa muddatli qarzlarni kiradi. Uzoq muddatli kapitalni olib kelish va olib chiqish deganda to'g'ri investitsiyalar, portfel' investitsiyalar, uzoq muddatli qarzlarni tushuniladi.

Kapital harakatining barcha shakllari bir-biri bilan o'zaro bog'liq va ularni ajratish shartlidir. Masalan, kapital qo'yilmalar ko'rinishidagi xorijiy portfel' investitsiyalar xalqaro kreditga ham kiritilishi mumkin.

Zamonaviy bosqichda kapital harakati qator o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, ulardan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, rivojlangan mamlakatlarda kapital jamg'arishning katta miqdordagi va nisbatan ortiqchaligi tufayli kapital harakatining keskin o'sishi. So'nggi 20 yil davomida kapital eksportining jahon tovar aylanishidagi hissasi 2 marta ko'paydi va hozirgi vaqtda 15 foizdan ortig'ini tashkil etadi. 1970 yillardan boshlab xalqaro ayirboshlash tarixda birinchi bor rivojlangan mamlakatlarning xorijiy korxonalaridagi ishlab chiqarish hajmi ularning

tovar eksportidan ortiq bo'ldi., ya'ni bu mamlakatlar o'zlarining xorijda amal qilayotgan ikkinchi iqtisodlarini yarata boshladilar. Ilg'or G'arbiy Evropa mamlakatlari xorijiy korporatsiyalarining ishlab chiqarish hajmi ular yalpi mahsulotning 30 foizga yaqinini tashkil etadi.

Kapital olib chiqishda ba'zi jahon markazlarining roli sezilari o'zgardi. Bunda avvalo kapital eksportida A+SH hissasining pasayganini ta'kidlash lozim. 1988 yildan boshlab bu mamlakat jahondagi yirik qarz beruvchidan qarzdorga aylandi. SHu vaqtda YAponiya jahonning etakchi investori o'rnini egalladi: uning xorijiy investitsiyalari 1986-1990 yillarda 1981-85 yillarga nisbatan deyarli besh marta ko'paydi.

Evropa mamlakatlarining yagona hamjamiyati birlashuvi kapitalning markazlashuviga olib keldi va ularni boshqa davlatlarga olib chiqishga imkoniyatlar yaratdi. Kapital harakati geografiyasidagi o'zgarishlarga, shuningdek yangi sanoatlashgan mamlakatlar ham o'z hissalarini qo'shdilar. Ularni bir maromda rivojlanishi xorijiy kapitalni o'ziga jalb etibgina qolmay, balki o'z kapitalini eksport qilishga ham imkon berdi. 1990 yillardan boshlab sobiq sotsialistik mamlakatlar ham jahon kapital ayirboshlash jarayoniga faol qo'shildi. Xalqaro ayirboshlashning tarkibiy qismi hisoblangan kapitalni olib kelish, olib chiqish mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning boshqa shakllari, jahon xo'jaligi taraqqiyotining barcha jarayonlari bilan o'zaro chambarchas bog'langan.

Baynalminal ishlab chiqarishning o'zi kapital harakatini umumjahon miqyosida va cheklanmagan bo'linishini talab qiladi. SHunday zarurat transmilliy korporatsiyalarini (TMK) yuzaga keltirdiki, ular kapitalni jahonda o'zaro taqsimlanishini ta'minlaydilar, xalqaro iqtisodiy taraqqiyotning muhim omiliga aylanadilar. TMK birinchidan, o'z kapitalining kelib chiqishi jihatidan, ikkinchidan, faoliyat doirasi jihatidan xalqaro xarakterga ega bo'ladi. TMK bir necha mamlakat milliy kapitalining birikishidan tashkil topadi, yoki u bir mamlakat kapitaliga tayangan holda xalqaro miqyosida ish yuritadi. TMK qo'lida g'oyat katta miqdorda kapital to'planadi TMKlar jahon miqyosida iqtisodiyotning xususiy sektoriga qyvilgan kapitalning 1G'3 qismini nazorat qiladi va 2 trillion dollarga qadar kapitalni investitsiya eta oladilar. Ularning faoliyati tufayli dunyo miqyosida investitsiyalar shiddat bilan o'smoqda.

TMKlar ayniqsa yoki davlatlarga katta investitsiya joylashtiradilar, ular iqtisodiyotni xususiylashtirishda qatnashib, bozor iqtisodiyoti rivojiga ko'maklashadilar. Kapitalning TMKlar vositasida butun dunyo bo'yicha taqsimlanishi, uni samarali joylashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

TMKlar faoliyati bosh kompaniyalar, ikkilamchi kompaniyalar, kompaniya bo'limlari va shahobchalari ishidan iborat. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ma'lumotiga ko'ra 1991 yili jahonda 37 mitta TMK bo'lib, ular har xil mavqega ega bo'lgan. Ulardan 20 tasi eng yiriklari hisoblanadi. eng yirik TMKlar rivojlangan davlatlar kapitaliga asoslangan. TMKlar investitsiyasi yosh mustaqil davlatlar taraqqiyotida katta ahamiyatga ega. O'zbekistonga xorijiy kapitalni jalb etish, qo'shma korxonalar tashkil etish, chet eldan kredit olish shaklida yuz beradi. +o'shma korxonalar tuzish portfel' investitsiyalariga o'xshab ketadi. TMKlar kapital qo'yish shaklini o'zgartiradilar, natijada turli kompaniyalarning birgalikda qo'ygan kapitali ahamiyati ortib borgan holda kapital harakatida yalpi tartibda qo'yilgan mablag' (bevosita investitsiya), xususiy banklar bergan qarz (bank krediti), dalat bergan qarz (rasmiy kredit) hissasi qisqaradi. Bunday o'zgarish xo'jalik faoliyatini xususiylashtiradi, bu esa erkin bozor talabiga mos keladi.

Rivojlangan mamlakatlarda kapital eksporti shakllari salmog'ining o'zgarishi. (% hisobida)

Kapital chiqarish shakli	70-yillar	80-yillar	90-yillar
Bevosita investitsiyalar	45	35	20
Portfel' investitsiyalar	19	53	70
Banklar krediti	21	6	6
Rasmiy kredit	15	6	4
Jami	100	100	100

Dunyo iqtisodiyotida erkin iqtisodiy zonalar alohida o`rin tutadi. Bu zonalar bozor iqtisodiyotining ochiq iqtisod bo`lishidan kelib chiqadi. Ular xalqaro xo`jalik aloqalarida alohida maqomga ega. erkin iqtisodiy zonalar turli mamlakatlardagi xorijiy va moddiy tadbirkorlar faoliyati uchun imtiyozli iqtisodiy shart sharoitlar yaratilgan xududlar bo`lib, ular iqtisodiy o`sishni ta`minlash, sotsial va ekologik muammolarni echish uchun ajratiladi. erkin iqtisodiy zonalar o`zining faoliyat yo`nalishiga qarab turlicha bo`lishi mumkin.

Erkin savdo zonalarida boj bekor qilinadi yoki uning miqdori arizimas bo`ladi, eksport-import ustidan nazorat bo`lmaydi. Bunday imtiyoz milliy kapitalga ham beriladi. Bunday maqsad ma`lum erda chet el kapitali faoliyatini kuchaytirib, xorijiy texnologiyani joriy etish, eksportni kuchaytirib valyuta topish yoki importqilinadigan tovarlar o`rnini bosish uchun tovar ishlab chiqarish bo`ladi.

Bank va sug`urta zonalarida ham erkin iqtisodiy zona turkimiga kiradi, bunday zonalarida bank operatsiyalari va sug`urta ishlari uchun imtiyoz bo`ladi va kapitalning kirib kelishiga qulay sharoit yaratiladi. Kapital harakatining muhim shakli ssuda kapitalini xalqaro kredit ko`rinishda olib kelinishi va olib chiqilishi hisoblanadi. Korxonalar, aholiva davlatda bo`sh aul jamg`armalarining paydo bo`lishi, ularni banklar, sug`urta va investitsiya kompaniyalarida to`planishi shuningdek tranmilliy kompaniyalar, banklar, xalqaro moliya-kredit muassasalarining paydo bo`lishi ssuda kapitali jahon bozorini shakllanishiga olib keladi. Bu bozorda turli mamlakatlardagi qarz beruvchilar va qarz oluvchilar kredit berish shartlari va kredit miqdorini belgilovchi shartnomalar tuzadilar. Turli belgilariga ko`ra xalqaro kreditning bir necha ko`rinishlari mavjud. Kapitalning xalqaro harakati kabi kredit ham qarz beruvchi va muddat bo`yicha alohida turlarga bo`linadi.

Kreditlar kim tomonidan berilishiga qarab xususiy, hukumat va xalqaro tashkilotlar kreditlariga ajratiladi. Xususiy kreditlar, xususiy firmalar va banklar tomonidan beriladi, hamda firma va bank kreditlariga bo`linadi. Firma yoki tijorat krediti bir firma tomonidan boshqasiga to`lov muddatini tuzish sharti bilan tovarlarni sotish ko`rinishida beriladi. Ushbu holda kredit olish-sotish bitimiga xizmat qiladi va tovarni ishlab chiqarish sohasidan iste`mol sohasiga harakatlantiradi. Kreditning bu turi veksel` shaklida yoki ochiq hisob bo`yicha beriladi. Veksel` shaklidagi kreditda import qiluvchi tomonidan o`tkaziladigan veksel` to`lashga rozilik bildiradi yoki oddiy veksel`ni rasmiylashtiradi. Ochiq hisob bo`yicha kreditda eksport qiluvchi import qiluvchining qarz majburiyatlarini olmaydi, `alki qarzdor tomonidan vaqti-vaqti bilan qoplanadigvn (har 1-2 oyda) qarzdorlik hisobini ochadi.

Firma yoki tijorat krediti xalqaro savdoda keng qo`llaniladi, chunki u mahsulotni sotish va foyda olish jarayonini jadallashtiradi. Biroq firmalar moliyaviy imkoniyatlarini chegaralanganligini hisobga olgan holda, u investitsiya tovarlarini etkazib berishda ishlatilmaydi. Bunday hollarda eksport qiluvchilar tijorat kreditini bank muassasalari yordamida qayta takomillashtiradi. Bank krediti keng tarqalgan kredit bo`lib, tijorat kreditidan farqli ravishda kredit bitimlarining yo`nalishi, muddati bilan chegaralanmagan. Uning qo`llanish sohasi kengroq bo`lib, fahat tovarlar aylanishiga emas, balki kapital jamg`arilishiga ham xizmat ko`rsatadi. SHuning uchun bank krediti ikki tomonlama xususiyatga ega. Birinchi holda u pullar sudasi sifatida, ya`ni qarz majburiyatlarini qoplash uchun zarur bo`lgan to`lov mablag`lar sifatida qatnashishi mumkin. +arz oluvchi tovar, veksel`, qimmatbaho qag`ozlarni garovga qo`yib, o`zi uchun ta`minlangan kredit oladi. Bu kredit qo`shimcha kapital hisoblanmaydi.

Ikkinchi holda, qarz oluvchi ta`minlanmagan kredit oladi va uni amaldagi kapitalni ko`paytirishda qo`llaydi. Bunda bank krediti kapital ssudasi haklida qatnashadi. Bank kreditining o`ziga xos shakllari bo`lib fort-feyting, faktoring va xaridor krediti hisoblanadi. For-freyting – bu import qiluvchi tomonidan to`lashga rozilik bildirilgan veksellarni eksport qiluvchidan sotib olish shaklidagi tashqi iqtisodiy operatsiyalarni kreditlashdir. Bunda to`lov majburiyatlari bo`yicha barcha xavf-xatarlar ham veksellarni sotib oluvchiga (forfeytirga) o`tadi. SHuning uchun xaridor importqilayotgan mamlakat bankining kafolat berishini talab qiladi. Kreditning bu shakli o`rta muddatlidir, ya`ni etti yilgacha, uning asosida kredit beruvchi eksparthyor, importyorga bo`lgan talablarini boshqalarga o`tkazib, o`zining moliyaviy balansini yaxshilashga imkon yaratadi.

Veksel' – bu qat'iy belgilangan shakldagi yozma qarz majburiyati bo'lib, uning egasiga muddat tugashi bilan qarzdordan ko'rsatilgan pul miqdorini to'lashni talab etish huquqini beradi. Veksellar – oddiy va o'tkazilgan veksellarga ajratiladi. Obligatsiya – bu qarz berish haqidagi guvohnoma bo'lib, uning egasi har yillik belgilangan daromadni olish huquqiga ega, ya'ni u qat'iy foiz keltiradi. Faktoring – bu vositachi kompaniya tomonidan qarzdorning to'lov majburiyatlarini to'lovga qabul qilib, uni tezda yoki o'rnatilgan muddatlarda mol egasiga to'lash. Faktoring kompaniyalari tijorat banklari faoliyati bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ulardan kredit yordami va xaridorlarning kredit qobiliyati haqidagi ma'lumotlarni oladi.

Xaridor krediti eksport qiluvchi banki tomonidan bevosita import qiluvchiga yoki unga xizmat ko'rsatuvchi bankka beriladi. Hukumat kreditlari yoki hukumatlararo va davlat zayomlari hukumat kredit muassasalari tomonidan beriladi. Masalan, AQSH, Yaponiyaning, Frantsiyaning tashqi savdo banki va eksportni uzoq muddatga kreditlash, qayta moliyalashtirish, xususiy banklarning sug'urta kreditlarini kafolatlash bilan shug'ullanayotgan boshqa banklari tomonidan beriladi. Bu kreditlarning xususiyatlari ularning imtiyozligi va maqsadligidir. Xalqaro tashkilotlarning kreditlari asosan XVF, Umumjahon banki, Evropa Hamjamiyatining kreditmoliya muassasalari, shuningdek qator xududiy kredit banklari tomonidan beriladi. Kreditlarning ob'ektiga qarab moliyaviy va bog'liq kreditlar ajratiladi.

Moliyaviy kredit deganda moliyalashtirish ob'ektini kelishilgan holda, ya'ni kreditlash maqsadlarini aniqlamasdan turib, pul valyuta ko'rinishida mablag'lar berish tushuniladi. Bu qarzlarni to'lash ham, investitsiyalar berish ham bo'lishi mumkin. Moliyaviy kreditning eng tarqalgan shakli obligatsiya hisoblanadi. Bog'liq kreditlar ma'lum maqsadlar uchun beriladi. Bu aniq tashqi savdo operatsiyalari, yoki ma'lum investitsiya, yoki boshqa loyihalar bo'lishi mumkin.

2. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining strategiyasi va iqtisodiyotni erkinlashtirish

O'zbekiston – ulkan iqtisodiy va investitsiya imkoniyatlari mamlakatidir. Markaziy Osiyo mintaqasidagi gaz kondensati zahiralarining 74%i, neftning 31%i, tabiiy gazning 40%i va ko'mirning 55%i respublikamiz hissasiga to'g'ri keladi. Bu erda gidroenergetika resurslarining ulkan salohiyati jamlangan bo'lib, juda katta mineral xom ashyolar zahiralar mavjud. O'zbekiston paxta va paxtadan olinuvchi mahsulotlar, meva va sabzavotlar etishtiruvchi asosiy mamlakatlardan biri hisoblanadi. Respublika turizmni rivojlantirish uchun ham ulkan salohiyatlarga ega. Bularning barchasi turli xil investitsiya loyiha va dasturlarini amalga oshirishdan tashqari iqtisodiyotning yanada rivojlanishini ta'minlashga imkon beradi.

Ushbu imkoniyatlarning real voqelikka aylanishi birinchidan, ikki-uch oy bilan cheklanmagan holda ma'lum vaqt talab qilsa, ikkinchidan yangi resurslarni, ayniqsa, investitsiya resurslarini talab qiladi. Bunda boshqaruv darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, mos ravishda bajariladigan vazifalar doirasi va murakkabligi ham shunchalik keng bo'ladi va aksincha. Masalan, agar mikrodarajada asosan resurslar va mehnatni tejash texnologiyalarini joriy qilish, chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshligi va sifat ko'rsatkichlarini oshirish vazifalari hal qilinsa, makrodarajada investitsiya strategiyasi va kapital qo'yilmalar tufayli tarmoq ichidagi va tarmoqlararo proportsiyalar takomillashtirilib, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishdagi xatoliklar bartaraf qilinadi, shahar va qishloqlarning tashqi qiyofasi yaxshilanadi. SHu sababli investitsiya faolligi, yaxshi o'ylab chiqilgan investitsiya siyosati va to'g'ri tanlangan ustuvor yo'nalishlar investitsiya strategiyasining muhim tarkibiy qismlari bo'lishdan tashqari kelgusida iqtisodiy o'sish va odamlarning turmush faoliyatini yaxshilash uchun qulay zamin yaratib beradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati va investitsiya strategiyasi aynan shu va shunga o'xshash dastlabki shart-sharoitlarga asoslanishi shubhasiz albatta. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi «To'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish to'g'risida»gi Farmoniga asosan chet el investitsiyalarini jalb qilish va ustuvor yo'nalishlarni belgilashda erkinlashuv tendentsiyalari sezilarli rol' o'ynashni boshlagan bo'lsada, davlat o'zining ekatchi va faol rolini saqlab turibdi. Masalan, kichik biznes sub'ektlarining investitsiya «portfeli»da hozirgi paytda umumiy hajmi 445 mln. dollar bo'lgan 140 dan ortiq investitsiya loyihalari mavjud. Ularni amalga oshirish bilan

iqtisodiyotning nufuzli sohasidagi investitsiya imkoniyatlari tugab qolmasdan, kichik biznes uchun yangi «nafas» beradi, uning nodavlat sektorini mustahkamlash, tez sur'atda o'sib borayotgan respublika aholisi uchun yangi ish o'rinlari yaratishdagi roli va salohiyatini oshiradi.

Bugungi kunda kichik biznes sohasi mamlakat yalpi ichki mahsulotining qariyb 36%ini beradi. Aytish mumkinki, ushbu sohada investitsiya va boshqa imkoniyatlarni harakatga solish tufayli bu ko'rsatkich, ya'ni kichik biznesning YAIMdagi ulushi 2007 yilda 45%ga, yaqin 5-10 yil ichida esa 60-70%ga etishi taxmin qilinmoqda.

Agar ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqadigan bo'lsak, iqtisodiyot o'sishtdagi investitsiya imkoniyatlari asosiy tarmoqlarning, birinchi navbatda neft'-gaz majmualarining rivojlanishi bilan bog'liq. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, respublika hududining 60%ga yaqini neft' va gaz sanoati uchun istiqbolli bo'lib, gaz zahiralari pul qiymatida 1 trillion dollar atrofida baholanmoqda. Bugungi kunda bu tarmoqqa O'zbekistonga jalb qilinayotgan investitsiyalarning 25% ga yaqini kiritilmoqda. Joriy yilda «Lukoy» Rossiya milliy kompaniyasining o'zi 2004 yilning iyunida imzolangan «Mahsulotni taqsimlash haqidagi Kelishuv» shartlariga asosan O'zbekistondagi gaz konlarini o'zlashtirishga 45 mln. dollar miqdorida investitsiya kiritishni rejalashtirgan. Kandim guruhi, Xauzak va SHodi konlarini o'zlashtirish, shuningdek, Ustyurt mintaqasida geologiya-qidiruv ishlarini o'tkazish uchun ajratish ko'zda tutilgan investitsiyalar miqdori 1 mlrd. dollarga teng.

O'zbekiston hukumati tomonidan respublika neft' va gaz sohasini rivojlantirish uchun Xitoy kreditorlarini jalb qilishni nazarda tutuvchi, umumiy qiymati 505 mln. dollar bo'lgan 12 ta investitsiya loyihasi ham tasdiqlangan bo'lib, shundan 385 mln. dollari 2005-2007 yillarda amalga oshirish mo'ljallangan. 2010 yilning oxirigacha iqtisodiyotning neft' va gaz tarmoqlarini rivojlantirishga kamida 3 mlrd. dollar hajmida chet el investitsiyalarini jalb qilish bashorat qilinmoqda.

Kelajakda iqtisodiyotning o'sishi va investitsiyalash istiqbollari ko'p jihatdan yoqilg'i-energetika kompleksini (YOEK) rivojlantirish bilan bog'liq bo'lib, ushbu kompleks bugungi kunda quvvati va turi bo'yicha bir-biridan farq qiluvchi bir qator elektr stantsiyalari va korxonalar namoyon qiladi. O'tgan yilda sanoatdagi jami qo'shilgan qiymatning 24%i va respublika davlat byudjeti daromadlar qismining 35%ga yaqini YOEK hissasiga to'g'ri kelgan. Mamlakat YOEK bugungi kunda bir qator vazifalarni bajarayotgan bo'lib, ularning orasida majmuaning strategik investorlar va kredit institutlarining investitsiyalarini jalb qilishni ta'minlovchi investitsiya siyosatini takomillashtirish alohida ahamiyatga ega. 2005-2007 yillar mobaynida iqtisodiyotning ushbu sektorida ikkita loyihani amalga oshirish ko'zda tutilgan:

1) «Sirdaryo IES – So'g'diyona» yo'nalishi bo'yicha 500 kV kuchlanishli elektr uzatish liniyasini qurish, loyihaning umumiy qiymati 44,4 mln. dollar;

2) «G'uzor – So'g'diyona» yo'nalishi bo'yicha 500 kV kuchlanishli elektr uzatish liniyasini qurish, loyihaning umumiy qiymati 45 mln. dollar.

Loyihalar Islom Rivojlanish Banki (IRB) ishtirokida amalga oshirilishi lozim bo'lib, mazkur loyihani 50%ini uning hisobidan moliyalashtirish ko'zda tutilgan. Loyihalardan maqsad — Samarqand-Buxoro mintaqasining elektr ta'minotini yaxshilash va elektr energiyasini etkazib berishdagi yo'qotishlarni kamaytirishdan iborat.

Farg'ona vodiysida elektr ta'minoti tizimini takomillashtirish va energetik yo'qotishlarni kamaytirish, umumiy hajmi 70 mln. dollar bo'lgan «Elektr energiyasini uzatish magistral tarmoqlarini modernizatsiyalash» mintaqaviy loyihagini amalga oshirish ishlari boshlab yuborilgan.

Aytish kerakki, iqtisodiyot tarmoqlari va butun iqtisodiyotning rivojlanishiga, bevosita iqtisodiy o'sishga u yoki bu ob'ektlarni, kerakli uchastkalarni bevosita investitsiyalashdan tashqari tashkiliy chora-tadbir va iqtisodiyot manevrlarni amalga oshirish yo'li bilan ham erishish mumkin bo'lib, ular odatda amalga oshirish uchun qo'shimcha mablag'lar sarflanishini talab qiladi. Gap, masalan, ishlab chiqarish sohasida investitsiyalarni agrosanoat majmui, engil va oziq-ovqat sanoati, shuningdek, iste'mol bozori uchun ishlayotgan mashinasozlik tarmoqlari foydasiga yo'naltirish haqida boradi. Xuddi shu jihatdan iqtisodiyotning ayrim tarmoq va sohalariga mansub korxonalarni printsiptial jihatdan yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, ularning ichki va ayniqsa, tashqi bozordagi

raqobatbardoshligini oshirish tomon o'zgartirish imkoniyatlarini ko'rib chiqish mumkin. ehtimol, mahalliy korxonalarning «O'zbekistonda ishlab chiqarilgan» tamg'asi ostida ishlab chiqarilgan mahsulotlari AQSH, Angliya, Frantsiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlardan ortda qolmaydigan, jahon bozorlarida tengma-teng ishtirok etadigan payti kelgandir.

Investitsiyalarning aksariyati qurilish sohasi orqali o'tishi sababli qurilish faoliyatini yaxshilash, bu orqali esa kapital qo'yilmalar samaradorligini oshirish mamlakat iqtisodiyotini yanada oshirishning muhim omillaridan biriga aylanadi. Aynan qurilish xalq xo'jaligi tarmog'i sifatida mavjud korxonalarni qayta ta'mirlash, kengaytirish, texnik jihatdan qayta jihozlash, shuningdek, yangi ob'ektlarni qurish yo'li bilan iqtisodiyotni amalda modernizatsiyalash, uni zamonaviy tsivilizatsiya asoslariga o'tkazishga xizmat qiladi.

Biroq qurilish jarayonlari, ayniqsa, yirik ob'ektlar qurilishi juda uzoq muddat talab qilib, ayrim hollarda 3-4 yil va undan ham ortiq cho'zilib ketadi. Qurilish muddati qanchalik uzoq bo'lsa, investitsiya resurslari shunchalik ko'p vaqt «o'lik» holatda yotadi, demak, qayta ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlari kam va iqtisodiy o'sish sur'atlari past bo'ladi. SHuning uchun ham qurilish sohasining eng muhim vazifalaridan biri qurilish muddatini qisqartirish va sifatini oshirish, investitsiya jarayonining barcha bosqichlarida resurslar saqlanishini ta'minlashi, buyurtmachilarga ob'ektlarni «turn-key» asosida topshirishi hisoblanadi.

Bunday vazifalar har qanday tarmoqda qoidaga ko'ra buning uchun etarli miqdorda moddiy va mehnat resurslari, zamonaviy texnik bazalar, ya'ni ishlab chiqarish vositalari va malakali kadrlar – oddiy ishchilardan to mutaxassislargacha - salohiyati mavjud bo'lgan hollarda muvaffaqiyatli hal qilinadi. Respublikamiz mustaqillikka erishmasdan avval yuqorida sanab o'tilgan resurslar «Minstroy», «Minsel'stroy», «Uzkolxozstroy», «Uzglavvodstroy», «Glavsredazirsovxozstroy» kabi tashkilotlar «qo'li»da mujassamlangan edi. 1999 yilning boshiga kelib bu tashkilotlar umuman tugatib yuborildi. SHu bilan bir paytda 800 ga yaqin kam quvvatli, foyda keltirmaydigan tashkilotlar ham tugatildi, tarqatib yuborilgan vazirlik va mahkamalar tarkibiga kirgan, biroq o'z faoliyatini to'xtatmagan korxona va tashkilotlarning esa mustaqil asosda va belgilangan tartibda ishlarni amalga oshirish uchun huquqiy shaxs maqomi saqlab qolindi.

Biroq, xuddi avvalgidek, hozirgi paytda ham tarmoqning salohiyatidan to'liq foydalanilayotgani yo'q, pudratchi tashkilotlarning katta qismining rentabellik darajasi juda past bo'lib, ularning texnik bazasi ham ko'ngildagidek emas. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida bularning barchasini tartibga solish birinchi navbatda qurilish sanoatidagi korxona va tashkilotlarning o'zi uchun eng muhim masaladir. Bu narsa qanchalik tez amalga oshirilsa, iqtisodiyotning investitsiya ko'rsatkichlari shunchalik yuqori, iqtisodiyotga kiritilayotgan mablag'lar qaytimi shunchalik tez va yaxshi bo'ladi.

Xulosa tariqasida shuni aytmoqchimizki, investitsiyalar iqtisodiyot o'sishining eng muhim manbalaridan biri bo'lsada, yagona emas. Investitsiya siyosatini amalga oshirish, investitsiya strategiyasini tanlashda, ayniqsa, korxonalar va ularga tenglashtirilgan tuzilmalar miqyosida moddiylashtirilgan investitsiyalar – asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni yaxshilash, mehnat mahsuldorligini oshirish hamda turli xil yo'qotish va noishlab chiqarish xarajatlarini bartaraf qilishga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. YA'ni investitsiya strategiyasi erishilgan natijalarni tahlil qilish hamda foydalanilmagan zahiralari va imkoniyatlarni izlab topishga asoslanishi lozim. Bunday yondashuv natijasida investitsion qarorlar samaradorligining asosiy ko'rsatkichi – xarajatlarning minimal va natijalarning maksimal bo'lishi ta'minlanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2008 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda islohotlarni yanada chuqurlashtirishning eng ustivor vazifalariga bag'ishlangan majlisida mamlakatda raqobat muhitini shakllantirishga alohida to'xtalib, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik jihatdan yangilash, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarib, jahon bozoriga olib chiqish bo'yicha o'z zimmasiga majburiyat olayotgan ishonchli va mas'uliyatli xususiy investorlarni xususiyashtirish jarayoniga jalb qilib, ular uchun eng qulay shart-sharoitlar

yaratish kerakligi ta'kidlandi⁶. O'zbekistonda yaratilgan qulay imtiyoz va preferentsiyalar tizimi tufayli 2007 yil holatiga ko'ra iqtisodiyotimizga jami 21 mlrd. AQSH dollaridan ziyod miqdordagi xorij investitsiyasi jalb etildi. 2000-2007 yillarda to'g'ridan-to'g'ri jalb qilingan xorijiy investitsiya hajmi esa 3,3 mlrd. Dollarni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2000 yilning 1 choragiga nisbatan bevosita xorijiy investitsiyalar salmog'i deyarli 12 marta oshganligini ko'rsatadi.

Respublikada amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar va bozor islohotlarining yuqori samardorligi yurtimizga investorlarning qiziqishini oshirmoqda va shu munosabat bilan har yili respublikada joriy yil uchun investitsiya dasturini ishlab chiqish zaruriyatga aylandi. Jumladan, 2007 yil uchun ham Investitsiya dasturi tasdiqlanib, bu dasturda real iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlari va ijtimoiy sohada yirik investiya loyihalarini amalga oshirish uchun qiymati 3,950 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lgan investitsiya mablag'lari o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan edi. Natijada 2007 yil oxiriga kelib iqtisodiyotga investitsiya qo'shishning umumiy hajmi 23 foizga o'sdi.

Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlariga muvofiq, bevosita xorijiy investitsiyalar hajmi 2006 yilda qayd etilgan 450 mln. AQSH dollariga nisbatan 2007 yilda taxminan 630 mln. Dollarni tashkil etishi kerak edi. 2007 yilda xorijiy investitsiyalarni, birinchi navbatda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish ishlarining kuchaytirilishi natijasida bevosita xorijiy investitsiyalar hajmi rejadagidan 2\130 mln. Ko'proq, 760 mln. Dollarni tashkil etdi.

Mamlakatimizning umumiy investitsiya oqimida ichki qo'yilmalar ko'pchilikni tashkil qilib (jadval), ularning iqtisodiyotga asosiy kapital uchun kiritilgan jami investitsiyalaridagi ulushi 75-80 foizni tashkil etadi. Respublikada xorijiy kapital ulushi 2001 yilda 21,7 foiz bo'lgan bo'lsa, 2007 yilga kelib 23,3 foizni tashkil qildi. Ularning salmoqli qismi kreditlardir – jami investitsiyalarning 2001 yilda 18,3 foizi va 2007 yilda 17,7 foizi xorijiy kreditlar hisobigsha to'g'ri keladi.

Jalb etilgan xorijiy investitsiyalarda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning hajmi 2006 yilgacha oshib kelgani jadvalda ko'rinib turibdi., lekin yaratilgan qonuniy bazaning amaliyotda to'laqonli ishlayotganligi tufayli 2007 yilga kelib to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi rejadagidan kam bo'ldi.

2008 yilda iqtisodiyotga qiymati 5,4 mlrd AQSH dollaridan ko'proq, jumladan umumiy qiymati taxmina 1,5 mlrd dollarga teng bo'lgan xorijiy investitsiyalarni kiritish ko'zda tutilmoqda. Buning natijasida mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarning o'sish sur'ati 40 foizdan oshadi.

O'zbekiston hukumati tomonidan 2006-2010 yillar uchun ham ustivor investitsiya takliflari ro'yxati tasdiqlandi va unda 7 mlrd Aqsh dollari ni tashkil etgan 191 loyiha o'rin oldi. Ularni amalga oshirish uchun umumiy qiymati 6,1 mlrd dollarga teng xorijiy investitsiyalarni jalb jalb etish rejalashtirilmoqda. 3,025 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan investitsiyalarni hukumat kafolati orqali, 3,075 mlrd dollarni tashkl etgan investitsiyalarni esa to'g'ridan-to'g'ri investitsiya sifatida jalb etish rejalashtirilgan.

Xorijiy investitsiyalar O'zbekistonga, birinchi navbatda, qayta ishlovchi tarmoqlardagi aksariyat sanoat korxonalarining texnik va texnologik jihatdan takomillashtirish; sanoat sohasidagi moddiy va energetik sarfini qisqartirish maqsadida moddiy xom-ashyo resurslaridan kompleks va tejamkorlik bilan foydalanishni ta'minlash; mahsulotning yuqori texnologik turlari ulushini sezilarli ko'paytirish va sanoat ishlab chiqarishining eksport imkoniyatlarini kengaytirish uchun zarur. SHu bilan birga, respublikada to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar oqimini ko'payishi milliy iqtisodiyotning rivojlanishida:

- ishlab chiqarish miqdorini kengaytirish va ishlab chiqarishda eksportga mo'ljallangan mahsulotlar hajmining oshishi;
- texnik bazani modernizatsiya qilish yo'li bilan, yuqori texnika va texnologiyalardan hamda ilmiy-texnik salohiyatdan yuqori darjada samarali foydalanish;
- xususiylashtirish imkoniyatlarining kengayishi orqali kichik va o'rta biznesning rivojlanishi;

⁶ 2008 йилда Ўзбекистон Республикасини ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устивор вазифалари ва йўналишўларини амалга ошириш чора-тадбирлари дастуридан

- kirib kelayotgan chet el investitsiyasining ortishi sababli to'lov balansining yaxshilanishi va bu bilan milliy valyuta kursi qadrining o'sishi;
- xalqaro bozorda o'z o'rniga ega bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlar, xizmat ko'rsatish sohasi hamda intellektual faoliyatga taalluqli bo'lgan sohalarni kengayishi va raqobatning kuchayishi;
- sarmoyalarni qishoq xo'jaligiga yo'naltirish orqali, sohada ishlab chiqarishni oshirish va respublikada ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan yangi ish joylarining yaratilishi;
- malakali kadrlar aholining ishbilarmon qatlami hamda olimlarning qisqa muddatli iqtisodiy-ilmiy loyihalarinni amalga oshirishda xususiy sarmoyalardan foydalanish evaziga mamlakatda zamonaviy texnologiya va nou-xaularning yaratilishi, yangi iqtisodiy soha va tarmoqlarning vujudga kelishi kabi ko'plab iqtisodiy o'sishlarni ta'minlaydi.

2007 yilda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi 700 dan ziyod yangi korxona barpo etildi. Bugungi kunda esa O'zbekistonda jami 3500 dan ko'proq qo'shma korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning aksariyati AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, SHveytsariya, Koreya, Xitoy, Turkiya, Rossiya kabi davlatlar bilan hamkorlikda tashkil etilmoqda.

Iqtisodiyotni qayta tuzish va modernizatsiyalash, uning eng muhim tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, chet el investitsiyalarni, birinchi navbatda, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish ishlarini har tomonlama kuchaytirish borasida 2007 yilda investitsiyalarning yuqori o'sish sur'ati 2006 yilga nisbatan korxonalarning o'z mablag'lari 21,9 foizga, tijorat banklari kreditlari 13,2 foizga, hukumat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar 23,6 foizga to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari 56,5 foizga ko'payishi orqali ta'minlandi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, avtomobil, kimyo, elektronika sanoatida xorijiy investitsiyali korxona (XIK) larning to'laqonli faoliyat ko'rsatishi investitsiyalarni qabul qilgan mamlakatga texnologiyalar, marketing va boshqalarni jalb etishga nisbatan ko'proq samara beradi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar boshqa xorijiy investsiyalarga nisbatan ikkita muhim afzalliklarga ega:

Birinchidan, ular uzoq muddatli xarakterga ega, shu sababli qisqa muddatli kapitallarning chiqib ketishini vujudga keltirmaydi. Bu esa, jahon xo'jalik aloqalarining globallasuvi va baynalminallasuvi sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab turish uchun muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar to'lov majburiyatlarini vujudga keltirmaydi va shundan kelib chiqqan holda tashqi qarzlarning vujudga kelishi va ortishiga olib kelmaydi. Bu ayniqsa, tashqi qarz jiddiy muammo bo'lgan mamlakatlar uchun muo'im ahamiyatga ega. Albatta, bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb etish investitsiyalarni qabul qilayotgan mamlakatlar uchun har doim ham foydali bo'lavermaydi. Amaliyotda ba'zi hollarda investitsiya qabul qilayotgan mamlakat va xorijiy investorlar manfaatlari bir-biriga muvofiq kelmaydi. Investitsiya qabul qilayotgan mamlakat hukumati iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga harakat qiladi. Xorijiy investorning asosiy maqsadi esa o'z mahsulotlarining xalqaro raqobatbardoshligini va foyda hajmini oshirishdan iborat.

So'nggi uch yil davomida o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 4 baravar oshdi. O'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar umumiy hajmining 30 foizi neft-gaz konlarini o'zlashtirish loyihalariga to'g'ri keladi, 15 foizi axborot tizimlari axborot tizimlari va telekommunikatsiyalarni, 13 foizi to'qimachilikni rivojlantirishga sarflandi hamda 7 foizi moliyaviy sektorga to'g'ri keladi.

Xulosa qilib, davlatdagi xorijiy investitsion muhitni, birinchi navbatda, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar muhitini yanada rivojlantirishga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega, deyish mumkin:

- soliq qonunchiligini soddalashtirish va ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida soliq tizimini takomillashtirish;

- chet ellik investorlar maqsadi, ko'zlangna manfaatlarini chuqur o'rganib chiqish hamda tahlil etish orqali ularga yaratilgan qulay shart-sharoitlar va imtiyozlarni kengaytirish;
- investitsiyalarni joylashtirish, ulardan samarali foydalanish borasida investitsiya marketingini kengaytirish va rivojlantirish;
- xorijiy investorlarning ba'zi toifalariga yaratilgan imkoniyatlarni barcha chet el investorlari uchun umumiy qonun-qoidalariga asosida belgilash;
- investorlarni mamlakat investitsiya muhitida ular uchun yaratilgan katta imtiyozlar va qulayliklar bilan keng tanishtirish, ularga etkazish hamda ularni xabardor qilish. bu borada "O'zinvest" faoliyatini kengaytirish.

**O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi investitsiyalarning nisbati
(yakunga nisbatan foizlarda)**

Yillar	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008
Investitsiya								
Jami	100	100	100	100	100	100	100	100
Jumladan:	78,3	75,3	79,6	80,7	75,5	80,8	76,7	
- ichki								
investitsiyalar								
- xorijiy	21,7	24,5	20,4	19,3	24,5	19,2	23,3	
investitsiya								
Ulardan:	18,3	19,7	15,4	12,2	17,1	10,9	17,7	
kreditlar								
To'g'ridan-	3,4	4,8	4,7	7,1	7,4	8,3	5,6	
to'g'ri								
investitsiya								

**3. O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarishni
mahalliyashtirish masalalari.**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan Inqirozga qarshi choralar dasturida ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, oziq-ovqat va boshqa iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirish tadbirlari ahamiyatli o'rin tutadi.

Mahalliyashtirish dasturi o'z mazmuniga ko'ra respublikamiz korxonalarida zamonaviy talablarga javob beruvchi, raqobatbardosh va import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmini oshirish, asossiz import hajmini qisqartirish, eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish, yangi ish joylarini yaratish kabi maqsadlarni namoyon etadi. Mazkur dasturning rivojlanish bosqichlari Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan qabul qilingan bir qator me'yoriy hujjatlar, jumladan: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 14 yanvardagi 18-sonli qarori; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 22 iyundagi PQ-386-sonli qarori; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 8 maydagi 93-sonli qarori; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 maydagi PQ-879-sonli qarori; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 3 iyuldagi 149-sonli qarori orqali belgilab berilgan.

Mamlakatimizda mahalliyashtirish jarayonlarining salmoqli natijalarga erishishida ishlab chiqaruvchilarga berilgan imtiyoz va qulayliklarning roli beqiyosdir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 maydagi PQ-879-sonli qaroriga ko'ra butlovchi qismlar va detallar, tayyor mahsulotlar, materiallar va xom-ashyo turlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar 2011 yil 1 yanvargacha:

- chetdan keltiriladigan texnologik asbob-uskunalar va ular uchun ehtiyot qismlar, shuningdek mahalliyashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarishda texnologik jarayonda foydalaniladigan, respublikada ishlab chiqarilmaydigan komponentlar uchun bojxona to'lovlari (bojxonada rasmiylashtirish yig'imlaridan tashqari);

- mahalliyashtirish loyihalari bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo'yicha foyda solig'i, yagona soliq to'lovi (soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo'llaydigan sub'ektlar uchun);

- mahalliyashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan asosiy ishlab chiqarish fondlari bo'yicha mulk solig'i to'lashdan ozod qilinadilar.

Mahalliyashtirish jarayonlarini kuchaytirish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni yanada rag'batlantirish maqsadida Mahalliyashtirish dasturiga loyihalarni kiritishning maqsadga muvofiqligini baholashga qo'yiladigan quyidagi yagona mezonlar va talablar majmui ishlab chiqilgan:

- Iqtisodiyot vazirligining xulosasiga ko'ra mamlakat sanoatini rivojlantirishning asosiy ustuvorliklariga muvofiqlik;

- mahalliyashtiriladigan mahsulotni ishlab chiqarishni tashkil etish uchun quvvatlar va xomashyo resurslarining mavjudligi;

- mahalliyashtirish darajasi bosqichma-bosqich oshirib borilgan holda ishlab chiqarish boshlangan paytdan boshlab 12 oy mobaynida ishlab chiqarilayotgan mahsulot bo'yicha mahalliyashtirish darajasining kamida 30 foizga etishi;

- TIF TN kodi bo'yicha pirovard mahsulot tovar pozitsiyasi boshlang'ich xomashyoga taqqoslaganda kamida birinchi 4 belgilardan biri darajasiga o'zgarishi ta'minlanishi;

- mahalliyashtiriladigan mahsulotning sotish narxi ana shunday import qilinadigan mahsulot narxidan yuqori bo'lmaganda loyiha qo'llab-quvvatlash iqtisodiy o'zini qoplashi (O'zbekistongacha bo'lgan transport sarf-xarajatlari, bojxona va soliq to'lovlari hisobga olingan holda);


- Iqtisodiyot hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirliklarining xulosalariga ko'ra mahalliyashtiriladigan mahsulotga ichki va tashqi bozorlarda barqaror talabning mavjudligi;

- mahalliyashtiriladigan mahsulotga nisbatan xalqaro standartlar bo'yicha ishlab chiqarish boshlangan paytdan boshlab 18 oy mobaynida sifatni boshqarish tizimi joriy etilishi.

Belgilangan qulay shart-sharoitlar va imtiyozlar natijasida Mahalliyashtirish dasturi doirasidagi ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga oshib bormoqda (2.3.1-rasm). Rasmdagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, mazkur ko'rsatkich 2006-2008 yillar mobaynida avtomobillar bilan hisoblanganda 1,9 marta, avtomobillarsiz 3,5 marta o'sgan.

SHuningdek, mamlakatimizda oziq-ovqat va boshqa iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida 2008 yilda mamlakatimiz hududlarida iste'mol tovarlarni ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada o'sdi (2.3.1-jadval).

**Mahalliyashtirish dasturi doirasida
ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm**



Jadvaldan ko'rinadiki, 2008 yilda respublikamizda iste'mol tovarlarni ishlab chiqarish hajmi 7436,5 mlrd. so'mni tashkil etib, bu 2007 yildagiga nisbatan 117,7% ga ko'pdir. Ayniqsa, bu

ko'rsatkich Toshkent shahri (123,6%), Samarqand (124,56%), Andijon (122,2%) viloyatlarida yuqori bo'lgan.


6-jadval

2008 yilda O'zbekiston Respublikasi hududlarida iste'mol tovarlarni ishlab chiqarish hajmi

Hududlar	mlrd. so'm	2007 yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	102,6	115,2
Andijon	2151,9	122,2
Buxoro	401,6	106,9
Jizzax	155,2	116
Qashqadaryo	246,7	117,3
Navoiy	161,9	115,2
Namangan	266,5	116,3
Samarqand	687,9	124,5
Surxondaryo	142	112,6
Sirdaryo	110,8	117,8
Toshkent	785,4	111,3
Farg'ona	639,1	106
Xorazm	152,2	108,9
Toshkent shahri	1432,7	123,6
Respublika bo'yicha	7436,5	117,7

Agar iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishda hududlarning ulushini baholaydigan bo'lsak (2.3.2-rasm), bu borada eng yuqori ko'rsatkich Andijon viloyati (29%), Toshkent shahri (19%) va Toshkent viloyatiga (11%) to'g'ri kelmoqda.

Истеъмол товарлар ишлаб чиқаришда
худудларнинг улуши (2008 й)



atlantirish

bo'yicha qabul qilingan dasturlarda mamlakatimiz ishlab chiqarish korxonalari uchun keng ko'lamli

ragʻbatlantirish tizimi nazarda tutilgan. Jumladan, ular uchun 2012 yilning 1 yanvarigacha quyidagi soliq va bojxona imtiyozlari berilmoqda:

- goʻsht va sutni qayta ishlashga ixtisoslashgan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun boʻshagan mablagʻlarni ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilishga maqsadli ravishda yoʻnaltirish sharti bilan yagona soliq toʻlovi stavkasini 50 foizga qisqartirish;

- tayyor nooziq-ovqat tovarlarning muayyan turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarni foyda va mulk soliqlaridan, mikrofirmalar va kichik korxonalarni yagona soliq toʻlovidan ozod qilish.

Prezidentimiz oʻz asarlarining Inqirozga qarshi choralar dasturiga bagʻishlangan qismini yakunlar ekanlar, «Hech shubhasiz, Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda iqtisodiyotimizdagi har qaysi subʻektning imkon qadar koʻproq manfaatdor boʻlishini, ushbu dastur ijrosi ularning har biri uchun eng muhim ishga aylanishini taʼminlash maqsadida qoʻshimcha ragʻbatlantirish choralari izlab topish katta ahamiyat kasb etadi»⁷, deb taʼkidladilar.

4. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishga hududiy jihatdan yondashish

Mamlakatimizda investitsiya siyosati islohotlarning bosqichma-bosqichlik tamoyillaridan kelib chiqib, investitsiyalarning asosiy qismi mahsulot eksportiga moʻljallangan sohalarga, yoqilgʻi-energetika majmuasiga, neft-kimyo, oltin qazib olish, paxtani qayta ishlash sanoatiga, qoplanish muddatlari qisqa boʻlgan va katta mablagʻ talab qilmaydigan yuqori samarali investitsiya loyihalariga yoʻnaltirilmoqda. Hozirgi vaqtda sanoatning qator etakchi tarmoqlaridagi yirik investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi davom etmoqda. Ayni paytda, jalb qilingan investitsiyalardan jami 3 milliardlik 80 ta loyiha boʻyicha ish olib borilmoqda.

Paxta, meva sabzovot va boshqa qishloq xoʻjaligi xom ashyosini qayta ishlash sanoati rivojlanishiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish oʻsib bormoqda. Keyingi yillarda xorijiy sarmoyalar, ayniqsa, engil sanoatni rivojlantirishga koʻproq yoʻnaltirilmoqda. 2002-2005 yillar oʻrtasida engil sanoatga kiritilgan investitsiyalar 14,1 foizdan 20,7 foizga oʻsdi. Agar engil sanoatga 1995 yilda 37,3 mln.ta yoʻnaltirilgan boʻlsa, 2005 yilda esa 848 mln. AQSH dollariga yaqin investitsiyalar jalb qilingan edi.

2006 yilda umumiy qiymati 186 million dollar boʻlgan bevosita jalb etilgan xorijiy sarmoyalar ishtirokida 53 ta loyiha boʻyicha mablagʻlar oʻzlashtirilishi yakunlanib, mahsulot ishlab chiqarish boshlandi. Jumladan, “Oʻzbekkensil sanoat” DAKsida 11 ta loyiha, “Oʻzbek-charm-poyabzal” AKsida – 2 ta hamda respublikamizning turli hududlarida 31 ta loyiha amalga oshirildi.

Oʻtgan yillarda xorijiy sarmoyalar birinchi navbatda tabiiy resurslarga eng boy, nisbatan qulay iqtisodiy sharoit va investitsiya muhitiga ega boʻlgan, aholini ish bilan taʼminlashga va boshqa ijtimoiy muammolar keskinroq turgan mintaqalarga jalb etildi.

CHet el investitsiyalarini jalb etish boʻyicha eng qulay investitsion muhit eksport faoliyatida qoʻshma korxonalar mavqei nisbatan yuqori boʻlgan Toshkent shahri, Andijon, Fargʻona, Qashqadaryo, NAvoiy va Toshkent viloyatlarida yaratilgan. SHu sababli, 1994-2006 yillarda respublikamiz iqtisodiyotida oʻzlashtirilgan jami xorijiy sarmoyalarning katta ulushi yuqoridagi mintaqalar hissasiga toʻgʻri keladi.

Bu jihatdan Toshkent mintaqasi eng yuqori mavqega ega boʻlgan mintaqalar qatoriga kiradi. 2005 yilda mamlakat iqtisodiyotiga yoʻnaltirilgan barcha kapital mablagʻlarning 30 foizidan koʻprogʻi aynana ushbu mintaqaga tegishlidir. Ammo mamlakatimizning bir qancha mintaqalarida hali ham chet el investitsiyalarini qabul qilish va uni joylashtirish uchun etarli darajada shart-sharoitlar yaratilgan emas.

SHu bois Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida va Qoraqalpogʻiston Respublikasida jalb qilingan xorijiy sarmoyalar miqdori etarli miqdorni tashkil etmaydi.

Mamlakatimiz mintaqalari oʻrtasidagi aholi jon boshiga investitsiyalar indeksining oʻsish surʼatlarida ham katta tafovutlar bor. Ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar Markazi ishlanmalariga koʻra

⁷ Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009, 36-б.

2000-2004 yillarda aholi jon boshiga investitsiyalar indeksi Tokent mintaqasida 0,747 dan 1,085 ga, Sirdaryo mintaqasida 0,772 dan 0,819 ga, Jizzax mintaqasida 0,577 dan 0,611ga, Toshkent shahrida 2,730 dan 3,088 ga o'sgan⁸.

Toshkent mintaqasi qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlash sanoatiga investitsiya kiritilishi o'sib bormoqda. 2000-2005 yillarda respublika qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlash sanoatiga kiritilgan investitsiyalarning qo'shimcha o'sish sur'ati 3,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, Toshkent mintaqasi qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlash sanoatiga kiritilgan investitsiyalarning qo'shimcha o'sish sur'ati 9,8 foizga etdi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mintaqada qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlash sanoatini rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish o'ta muhim hisoblanadi.

Toshkent mintaqasida xorijiy investitsiyalar qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlash sanoatida qo'shma korxonalarni qurish, eskilarini ta'mirlashga, ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga sarflanmoqda. Jizzax va Sirdaryo mintaqalarida esa xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi suv xo'jaligi infratuzilmasini shakllantirish va er unumdorligini oshirishga yo'naltirilgan.

Toshkent mintaqasida xorijiy investitsiyalarni jalb etishda uning tumanlari o'rtasidagi katta tafovut bor. Masalan, 2006 yilda Toshkent mintaqasi hududlariga bevosita xorijiy sarmoyalar va kreditlarni jalb etishda Olmaliq va CHirchiq shaharlari hamda Qibray, YUqorichirchiq, YAngiyo'l va Bo'stonliq tumanlari slmoqli o'rin egallagan. Lekin Quyichirchiq va Bekobod tumanlarida esa juda kam miqdorda investitsiyalar jalb etilgan.

Mintaqalar tarkibidagi shahar va tumanlarda xorijiy sarmoyalarning jalb qilish hajmi ko'p jihatdan mahalliy hokimiyat organlarining iqtisodiy islohotlarni olib borishiga ham bog'liq. Bunda mintaq tuman va shaharlarda sarmoya loyihalarini tayyorlash chog'ida ularning hududiy joylashishi, tabiiy boyliklar, qishloq xo'jaligi xom ashyosi, hamda inson resurslari har tomonlama o'rganilib, inobatga olinishi lozim.

O'tgan yillar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, xorijiy sarmoyalardan foydalanishning eng samarali yo'llaridan biri, ular hamkorligidagi yangi qo'shma korxonalarni tashkil etish hisoblanadi. SHu bois, dunyoning ko'p davlatlardagi kabi O'zbekistonda ham xorijiy investitsiyalarning katta qismi qo'shma korxonalar rivojlanishiga sarflanmoqda. Mamlakatimizda xorijiy ishbilarmon hamkorligida qo'shma korxonalar qurish 1991 yildan boshlab rivojlana boshladi. Agar ular soni 1991 yilda – 191, 1992 yilda – 368 tani tashkil etgan bo'lsa, 2006 yilda 4 mingga yaqinlashib qoldi. Respublikamizda xorijiy sarmoyalar ishtirokida tashkil etilgan korxonalrning 500 ga yaqini sanoat sohasida, shu jumladan 180dan ortig'i engil sanoatda xizmat ko'rsatmoqda.

Xorijiy investitsiyalar hamkorligida tashkil etilayotgan qshma korxonlarni mamlakatimizdagi orotiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan mintaqalarga joylashtirilishi, ayniqsa, yuqori samara bermoqda. 1995-2006 yillar mobaynida chet el investitsiyalari hisobiga tashkil etilgan qo'shma korxonalari umumiy eksport hajmida 17 foizdan 89,7 foizgacha o'sdi.

Qo'shma korxonalar qurishda Turkiya, Rossiya, AQSH, Pokiston, Buyuk Britaniya, Janubiy koreya va Germaniyaning hissasi katta bo'lmoqda.

Investitsiya sohasida shakllangan ijobiy o'zgarishlar mintaqalar itstisodiyotining rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. O'z navbatida, qulay makroiqtisodiy muhit va tashqi bozorda raqobat qilish qobiliyati bevosita xorijiy investitsiyalar o'sishiga yordam bermoqda.

Afsuski, tashkil etilayotgan qo'shma korxonalarning bir qismi turli sabalarga ko'ra faoliyat ko'rsatmay kelmoqda. Keyingi besh yil davomida ro'yxatga olingan chet el korxonalaridan faqat 71,6 foizi faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, 28,4 foizi esa mahsulot ishlab chiqarmagan va xizmat ko'rsatmagan⁹. Toshkent mintaqasida 2006 yilda faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy investitsiyalar hamkorligidagi qurilgan korxonalar salmog' 87,9 foizdan 91,0 foizga etdi. Ularda trikotaj, ip-gazlama va boshqa tayyor mahsulotlar eksport qilinishi o'sib bormoqda.

⁸ Манба: Ижтимоий-иқтисодий тадқиқотлар Маркази ишланмаларидан фойдаланилди.

⁹ Ўзбекистон Иқтисодиёти. таҳлилий шарҳ 2004 йил. Т., 2005. 68-бет.

Tobora kuchayib borayotgan raqobat muhiti hamda muntaza o'zgarib turadigan bozor talablari ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, un texnik va texnologik jihatdan yangilab borish, yangi zamonaviy korxonalar qurishni, ularni amalga oshirish esa, katta miqdorda sarmoyalar jalb qilishni taqozo qiladi.

Investitsiyalar jalb qilish asosida oziq-ovqat sanoatida mavjud bo'lgan, esi saqlanib qolgan korxonalarni ham yangi texnika va texnologiya asosida qayta tamirlash va yangilarini qurishni jadallashtirish zamon talabidir. Chunki, fan-texnika taraqqiyoti tez o'sib borayotgan sharoitda hatto yangi korxonalarda ishlatyotgan texnologiyalarni ham tez-tez yangilab borish zarur.

To'qimachilik sanoatidagi investitsiya sharoitlarini keskin yaxshilashga imkoniyat yaratish maqsadida "2005-2008 yillarda to'qimachilik sanoatiga investitsiyalar jalb qilish bo'yicha" Dastur tasdiqlandi. Ushbu dasturga ko'ra umumiy qiymati 1,2 mlrd. AQSH dollari miqdoriga teng bo'lgan investitsiyalarni jalb qilish ko'zda tutilib, 94 ta loyiha amalga oshirilishi lozim. Bu Dasturga muvofiq paxta tolasin qayta ishlash bo'yicha yakunlangan texnologik jarayonlarga ega bo'lgan zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil qilish va ular ishlab chiqargan mahsulotlarning 80 foizi eksport qilinishi ko'zda tutilgan. Loyihalarga asosan, eski korxonalarni modernizatsiya va to'liq rekonstruktsiya qilish yakunlanib, yangi korxonalar quriladi. Ushbu Dasturga binoan Toshkent viloyatida umumiy narxi 252,61 mln. AQSH dollariga teng bo'lgan 23 ob'ekt ishga tushirilishi va bulardan jami 12,9 ming ishchi o'zni yaratilishi ko'zda tutiladi.

Ushbu dasturning asosiy vazifalari qilib quyidagilar belgilangan:

- paxta tolasini qayta ishlash bo'yicha yakunlangan texnologik jarayonlarga ega bo'lgan zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil qilish;
- raqobatbardosh to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- to'qimachilik mahsulotlarining umumiy hajmidan 80 foizini eksport qilish;
- to'qimachilik korxonalarini ortiqcha ishchi kuchlari mavjud bo'lgan mintaqalarda joylashtirish.

Ushbu loyihalarning amalga oshirilishi, respublikada tayyorlanayotgan paxta tolasi umumiy hajmidan yaqin kelajakda kamida 50 foizini bosqichma-bosqich qayta ishlashni ko'paytirish imkonini yaratadi. Ustivor investitsiya takliflari yig'ma ro'yxatiga jalb qilinadigan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisob-kitob hajmi taxminan 5,9 mlrd. AQSH dollari bo'lgan 115 loyiha kiritildi. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida investitsion siyosatning eng asosiy vazifalari zamonaviy texnologiya va asbob uskunalar asosida mavjud quvvatlarni modernizatsiyalash va yangi quvvatlarni tashkil etish, xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlab eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosadigan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishdan iborat.

YAqin va uzoq kelajakdagi xorijiy investitsiyalarni yanada ko'proq jalb qilish maqsadida investorlarni zarur me'yoriy-huquqiy YU statistik, marketing va boshqa tezkor axborot bilan to'liq ta'minlash, investitsiya loyihalarini ekspertiza qilishni osonlashtirish, xorijiy investorlar bilan hamkorlik qilish bo'yicha maxsus kurslarni tashkil qilish kabi tadbirlarni amalga oshirish katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida investitsion siyosatni zamonaviy texnologiya va asbob uskunalar xarid qilish asosida mavjud quvvatlarni modernizatsiyalash va yangi quvvatlarni tashkil etish, xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlab, eksportga yo'naltirilgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishni taqozo etadi.

CHet el investorlarini jalb etish, hamkorlikda istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, yangi zamonaviy texnika, texnologiya va nou-xaularni joriy etish asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarimizning sifatini jahon bozorlari talabi darajasiga ko'tarishga imkoniyatlar yaratadi.

8-Mavzu. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI XORIJIY INVESTITSİYALAR YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH

Reja:

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan boshqarilishi.
2. Butun jahon savdo tashkiloti
3. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish kontsepsiyasi
4. Tashqi iqtisodiy faoliyatda marketing

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan boshqarilishi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab jahon tajribasini hamda milliy iqtisodiyot rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'z tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishini bildiradi.

Mamlakat taraqqiyotining har bir bosqichida uning o'z oldiga qo'ygan vazifalari mavjud bo'lib, davlatning iqtisodiy siyosati bu vazifalarni bajarilishiga qaratilmog'i kerak. 90-yillar O'zbekiston iqtisodiy mustaqilligining dastlabki bosqichi hisoblanadi va davlat tashqi iqtisodiy siyosatining maqsadlari shu davrning o'ziga xos xususiyatlariga mos kelishi kerak. Ular orasida eng muhimlari quyidagilar:

- *eksportni rivojlantirish va uning tuzilishini yaxshilash. Chunki eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotini shakllantirish milliy ishlab chiqarishni texnik iqtisodiy jihatdan jahon darajasiga ko'taradi., uning tuzilishini takomillashtiradi*YU, respublika valyuta zahiralarini ko'paytiradi;
- *import tuzilishini takomillashtirish, ya'ni uni milliy ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va kengaytirishga qaratish, sobiq ittifoq import siyosatida bo'lgan kamchilik, xatolarni bartaraf etish;*
- *O'zbekistonning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, ya'ni ma'lum darajada tashqi iqtisodiy faoliyatda eksport-import operatsiyalari, valyutani olib chiqish, boshqa xalqaro bitimlar ustidan davlat nazoratini o'rnatish.*

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosati aniq belgilangan maqsadlar va ularni amalga oshirishga qaratilgan asosiy tadbirlarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, respublika milliy iqtisodiyotining kuchli eksport bo'g'inini tashkil etuvchi va uni jahon bozorida munosib o'ringa ega bo'lishini ta'minlovchi sohalarini aniqlash. Ikkinchidan, iqtisodiyotning eksport bo'g'inida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash usullaridan keng foydalanish. Bu usullar quyidagilardan iborat:

- *eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish uchun imtiyozli foizlar bo'yicha ko'p muddatli kreditlar ajratish, mo'ljallangan investitsiyalarni sug'urtalash;*
- *eksport qiluvchilarga milliy ishlab chiqarish va uning xorijiy raqobatchilar ishlab chiqarishi xarajatlari o'rtasidagi farqni qoplash;*
- *davlat tomonidan respublikaga ilg'or texnologiyalar, tajribalar, bilimlarni kirib kelishiga subsidiyalar ajratish;*
- *eksport va importni litsenziyalash yoki chetga mol chiqarishga va chetdan uni olib kelishga ruxsatnomalar berish;*
- *ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi, xorijdan keltiriladigan xom ashyo va materiallar, asbob uskunalar va jihozlar ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish va boshqalar.*

SHu bilan birga, tashqi iqtisodiy siyosat milliy valyutani mutahkamlash va uni boshqa valyutalarga erkin almashuvini ta'minlashni, ichki narxlarni jahon bozori narxlariga yaqinlashtirish maqsadida baholar islohatini tugallashni, tashqi iqtisodiy faoliyatning me'yoriy va huquqiy asoslarini xalqaro talablar darajasiga etkazishni nazarda tutadi.

O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat ikki yo'nalishda olib borilmoqda: birinchidan, sobiq ittifoqdosh respublikalar bilan; ikkinchidan, respublika ilgari bevosita o'zaro munosabatlarda bo'lmagan xorijiy davlatlar bilan.

Agar birinchi yo'nalish, O'zbekistonni kam xarajatlar sarflab, keng ko'lamda xom ashyo, tayyor mahsulotlar, texnologiyalar, fan-texnika axborotlari bozoriga kirib borishini ta'minlasa, unga qudratli transport tarmoqlari va aloqa vositalaridan foydalanish imkoniyatini yaratsa, ikkinchi yo'nalish, respublika iqtisodiyotini keng ravishda jahon hamjamiyatiga birlashuvining iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish imkonini beradi.

Hozirgi paytda respublikada yuqoridagi holatlarni hisobga olgan holda tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish tuzimi shakllanmoqda va uni tarkibiga kirgan tashkilotlar faoliyati takomillashtirilmoqda, asosiy vazifalari aniqlanmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning hozirgi bosqichida tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish tizimining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- respublika milliy manfaatlariga javob beruvchi va uning jahon hamjamiyatidagi o'rini ta'minlovchi tashqi iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning qonuniy asoslarini o'rnatish;
- mulkchilik ko'rinishining turli shakllaridan qat'i nazar, TIFning barcha ishtirokchilari uchun eng yuqori samaradorlikni ta'minlash, ularning faoliyati va manfaatlarini himoya qilish;
- milliy iqtisodiyotni muvoffaqiyatli isloh etish uchun tashqi iqtisodiy omildan to'liq foydalanish.
- Prezident, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston TIFning rivojlanish strategiyasini aniqlaydi, uning normativ bazasini ishlab chiqadi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning barcha ishtirokchilari harakatiga umumiy rahbarlikni va ular ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- tashqi iqtisodiy aloqa vazirligi – yagona TIFni amalga oshirishni, xalqaro aloqalarning barcha ishtirokchilari, ya'ni davlat, shirkat, paychilik, jamoat, xususiy tashkilotlar faoliyatini nazorat qilishni ta'minlaydi;
- TIF ni tartibga solishning davlat usullarini ishlab chiqadi va qo'llaydi (bojxona tariflari, eksport kvotalari, TIF bilan shug'illanishga ruxsat va boshqalar);
- vazirlikka taqdim etilgan ruxsatga mos keluvchi mahsulotlar bo'yicha eksport-import operatsiyalarini o'tkazadi;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlari tomonidan tuziladigan tashqi iqtisodiy shartnoma va kelishuvlarni tekshirishni amalga oshiradi.

"Innovatsiya", "O'zagroimpeks", "Interservis", "O'ztashqitrans", "O'zekspomarkaz" - Tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo va investitsiyalar vazirligi tizimidagi yirik xo'jalik hisobidagi tashqi savdo va iqtisodiy tashkilotlar hisoblanadi. Ular shu tashkilotlar uchun belgilangan mahsulot va xizmat turlari bo'yicha tijorat-xo'jalik faoliyatini amalga oshiradilar.

TIF banki yoki respublika Milliy banki:

- tashqi iqtisodiy operatsiyalarga xizmat ko'rsatadi, shuningdek eksport-import, sarmoyaviy va boshqa bitimlar tuzadi;
- korxonalar, tashkilotlar, xususiy shaxslarning valyutadagi hisob-kitoblarini olib boradi;
- xorijiy valyuta sarmoyalarini jalb etadi, ularga xizmat ko'rsatadi, valyutadagi kredit zahiralarini yig'adi va valyutada kreditlarni amalga oshiradi;
- valyuta zahiralarini yaratadi, saqlaydi va respublikaning valyuta manfaatlarini himoya qiladi.

"O'zbekinvest" Davlat sug'urta kompaniyasi mamlakat va xorijiy investitsiyalarni sug'urtalash bo'yicha tashkilot hisoblanadi.

Davlat Soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi bojxona masalalari bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqadi va ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

TIFni boshqarishning tarmoq tashkilotlari TIF ni amalga oshiruvchi vazirliklar, idoralar, yirik korxonalar va tashkilotlarning maxsus bo'linmalaridan tashkil topgan. Ular tarmoq, idora, korxona va tashkilotlar tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish dasturini ishlab chiqadi, xorijiy sheriklar bilan shartnoma va bitimlar tuzadi, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning aniq yo'nalishlari bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar tayyorlaydi.

TIFni boshqarishda funktsional tashkilotlar ham muhim rol o'ynaydi. Bu tashkilotlarga Tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo va investitsiya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qumitasi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va boshqalar kiradi. Bu idoralarning har biri o'z mas'uliyat doirasiga kiruvchi masalalarni hal etadi va ularning natijasi uchun javobgardir.

Tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo va investitsiya vazirligi, respublika TIFni tahlil qilishni va istiqbolini belgilashni amalga oshiradi, tashqi iqtisodiy aloqalar samaradorligini oshirishga, iqtisodiyotni ichki omillar vositasida ko'tarishga asoslangan, TIFni yaxshilashga qaratilgan taklif va tavsiyalarni tayyorlaydi.

Respublika Moliya vazirligi respublika valyuta zahiralari jamlash, taqsimlash va foydalanishga javobgar bo'lib, bu jarayonlarni boshqarish usullarini ishlab chiqadi va qo'llaydi. Respublika hukumati topshirig'iga ko'ra va tuzilgan bitimlar, shartnomalar asosida valyuta fondi hisobidan qanday mablag'larni olish, o'tqazish yoki qo'yishni hal etadi. Vazirlikning valyuta boshqarmasi shuningdek respublikaning to'lov balansini ishlab chiqadi. Unda uning tashqi iqtisodiy faoliyatidan tushadigan barcha daromadlar va xarajatlar aks ettiriladi.

Respublika Davlat soliq qo'mitasi tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdagi soliq solish masalalarini tartibga soladi, bu masalalar bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqadi va ularning saqlanishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy ishtirokchilari mulkchilikning turli ko'rinishlaridagi korxona va tashkilotlar bo'lib oladi. SHu jumladan, qo'shma korxonalar ham tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchisi bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq xorijiy sheriklar bilan eksport-import, sarmoyaviy va boshqa bitimlarni tuzishga ma'lum haquqlarga egadirlar. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishga ruxsati bo'lgan korxona va tashkilotlarga ma'lum banklarda o'z valyuta hisoblari bo'lishga va bu mablag'lardan foydalanishga ruxsat berilgan.

Bojxona boji – bu mamlakatga olib kelinayotgan yoki mamlakatdan olib chiqilayotgan mahsulotlarga solinadigan majburiy soliqdir. Xalqaro amaliyotda bojxona bojlarining turli xillari qo'llanadi va ularni hisoblash yo'llari ifodalanishi hamda harakat sohasiga ko'ra quyida keltirilgan chizma bo'yicha guruhlash mumkin.

Boj olinadigan mahsulotlar, boj olinmaydigan mahsulotlar, olib kelish va olib ketish taqiqlangan mahsulotlar, shuningdek bojxona bojlari stavkasi, ya'ni ularning tartibga solingan ro'yxati bojxona tariflari deb ataladi.

Bojxona tariflari qandaydir belgilashga ko'ra taqsimlangan mahsulotlar ro'yxatini o'z ichiga olgan mahsulot sarxillovchilari (klassifikatorlari) asosida qurilgan. Bunday belgilarga ishlab chiqarish, tabiiy farqlar (hayvonot va o'simlik dunyosi) qayta ishlash darajasi (xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor buyumlar) ni misol qilib keltirish mumkin.

Bojxona tariflari asosan milliy darajada qo'llaniladi. va bunda qator vazifalarni bajaradi:

- *fiskal*, ya'ni davlat byudjeti daromadlarini to'ldirish manbai bo'lib xizmat qiladi;
- *proteksionistik*, ya'ni milliy ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatidan himoya qiladi;
- *boshqaruv*, ya'ni iqtisodiy tuzilishni qayta qurishni boshqarish vositasi hisoblanadi va ular yordamida mamlakat iqtisodiyotidagi ilg'or siljishlar rag'batlantiriladi.



2. Butun jahon savdo tashkiloti

Xalqaro savdodagi sodir bo'lyotgan jarayonlarni tahlil qilar ekanmiz erkinlashtirish uning eng asosiy yo'nalishi ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Boj to'lovlarida sezilarli kamaytirishlar yuz berdi, ko'pgina cheklashlar, kvotalar va boshqa to'siqlar yo'q qilindi. Biroq, bir qator muammolar mavjud. Ularning eng asosiysi - proteksionistik harakatlarning ko'p narsalarda bir-biriga zid bo'lgan iqtisodiy guruhlar, mamlakatlarning savdo-iqtisodiy bloklari miqyosida rivoj topishi.

Savdo-iqtisodiy bloklarning paydo bo'lishidagi birinchi kadam bu erkin savdo hududlarining yaratilishidir. Xalqaro bankning axborotlariga karaganda 90-yillar arafasida dunyo savdosining 42% shunday hududlarda olib borilgan. eng mashhur hududlar bu - Ovrupaning erkin savdo assotsiyatsiyasi(EAST), Ovrupa Xamjamiyati(ES), SHimoliy Amerika erkin savdo zonasi(NAFTA), Osiyo-Tinchokeani iqtisodiy hamkorlik tashkiloti(ATES) va boshqalar.

Xalqaro hududiy savdo bloklarining eng yirik to'qqiztasining tarkibi qo'yida keltirilgan:

1. Ovrupa Hamjamiyati (ES)-Avstriya, Germaniya, Velikobritaniya, Italiya, Irlandiya, Frantsiya, Ispaniya, Portugaliya, Finlyandiya, SHvetsiya, Daniya, Bel'giya, Lyuksemburg, Niderlandu, Gretsiya.
2. SHimoliy Amerika erkin savdo haqidagi kelishuvi (NAFTA) - A+SH, Kanada, Meksika.
3. Ovrupa erkin Savdo Assotsiatsiyasi (EAST) - Islandiya, Norvegiya, SHveytsariya, Lixtenshteyn.
4. Osiyo-Tinchokeani iqtisodiy hamkorligi (ASEAT) - Avstraliya, Bruney, Malayziya, Singapur, Tailand, YAngi Zelandiya, Papua-Novaya Gvineya, Indoneziya, Fillipinu, Tayvan', Gonkong, Yaponiya, YUjnaya Koreya, Kitay, Kanada, SSHA, Meksika, CHili.
5. Merkosur - Braziliya, Argentina, Paragvay, Urugvay.
6. Janubiy Afrika Tarakkiyot kumitasi (SADK) - Angola, Botsvana, Lesoto, Malavi, Mozambik, Mavrikiy, Namibiya, YUAR, Svazilend, Tanzaniya, Zimbabve.
7. G'arbiy Afrika iqtisodiy va valyuta ittifoki(YUEMOA)- Kot-d'Ivuar, Burkina-Faso, Nigeriya, Togo, Senegal, Benin, Mali.
8. Janubiy Osiyo hududiy hamkorlik assotsiatsiyasi(SAARK)- Indiya, Pakistan, SHri Lanka, Bangladesh, Mal'div orollari, Butan, Nepal.
9. And pakti- Venesuela, Kolumbiya, ekvador, Peru, Boliviya.

Bunday bloklarning to'zilisiga siyosiy, iqtisodiy va tarixiy xarakterdagi ob'ektiv jaryonlar sabab bo'ladi. Bir tomondan bunday jarayonlarning kuchayishi xalqaro savdoni kuchaytirsa(zona, blok, hudud miqyosida), boshqa tarafdin- har qanday yopik to'zilma uchun xos bo'lgan ba'zi bir to'siqlar yaratadi. YAgona, global dunyo savdo bazori yo'lida savdo-iqtisodiy guruhlarining bir-birlari bilan aloqasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan ko'plab to'siq va qarama-qarshiliklar mavjud.

Erkin savdo hududlarining tashkil etilishi dunyo xo'jaligiga printsiptial o'zgarishlarni kiritmaydi. Mamlakatlarning iqtisodiy bloklarga birlashishi erkin savdo fikrlarining to'la galabasi yoki proteksionistik usullarga maglub bo'lishni bildirmaydi. erkin savdo yoki proteksionizm birini tanlash zarurligi muammosi xali ham mavjud. U tashqi savdo aloqalarinnig boshqa bir darajasiga utayapti, bu darajada bir guruh davlatlarning uchinchi davlatlarga qarshi kullaydigan iqtisodiy siyosatlar haqida so'z ketadi. Hatto ma'lum bir savdo-iqtisodiy guruh ichida ham ziddiyatlar bo'ladi, bu ziddiyatlar Savdo urushlariga aylanishlari mumkin (Masalan ES mamlakatlari orasida balik, uzum, moy urushlari).

Savdo-iqtisodiy bloklarning a'zo mamlakatlari dunyo bozoridagi zamonaviy sharoitning qiyinligi va muammolarini tushungan xolda bu muammo va qiyinchiliklarni ijobiy hal qilish yo'llarini axtarmoqdalar.

Umumjahon savdo tashkiloti(VTO)ning bosh direktori R.Rudjero VTO ning a'zo mamlakatlarini ko'p tomonlama savdo tizimining taraqqiyotida hamkorlik qilishga chakirdi. Bu uning fikricha hududiy tizimlarni yaratish bir xil ahamiyatga ega. Taxminlarga ko'ra global erkin savdo zonasini yaratishga 2020 yilda erishiladi.

Xalqaro savdoni boshqarish, uning taraqqiyotiga bo'lgan to'siqlarni yo'q qilish, uni erkinlashtirishda xalqaro iqtisodiy tashkilotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tashkilotlarning eng asosiylaridan biri bu-Tariflar va savdo bosh bitimidir (GATT) dir. GATT to'zilisni haqidagi kelishuv 1947 yilda 23 mamlakat tarafidan imzolandi va 1948 yilda kuchga kirdi. 1995 yil 31 dekabr'da GATT o'z faoliyatini tugatdi va uning urniga Umum jahon savdo tashkiloti(VTO) barpo qilindi.

GATT bu ko'p tomonlama xalqaro kelishuv bo'lib, u a'zo mamlakatlarning o'zaro savdosiga aloqador ko'pgina printsiplar, huquqiy normalar, savdoni olib borish va davlat boshqaruviga oid qoidalarni o'z ichiga oladi. GATT eng yirik xalqaro iqtisodiy tashkilotlardan biri bo'lib, uning faoliyat doirasi dunyo savdosining 94%ni kamrab oladi. GATTning huquqiy mexanizmi bir qator qonun-qoidalarga asoslangan:

- savdoda bir tarafning huquqi bo'zilisni oldini olish, qo'yidagilarni ta'minlash yo'li bilan: bir tarafdan eksport, import, tranzit operatsiyalari va ular bilan bog'liq boj va to'lovlar borasida eng qulay sharoit yaratish yo'li bilan; ikkinchi tarafdan esa import va milliy mollar orasida ichki solik va to'lovlar borasida, shuningdek ichki savdoni boshqaradigan qoidalar borasida teng huquqlikni ta'minlaydigan milliy tartibni yaratishda;

- eng qulay sharoit , ya'ni kelishuvga kirishayotgan taraflar orasida ular tarafidan uchinchi davlatlarga berilayotgan(yoki berilajak) barcha imtiyoz va ustunliklardan foydalanish huquqini yaratish. Bu qoida tovarlarning olib kirilishi va olib chiqilishi, boj to'lovlari, ishlab chiqarish, dengizchilik, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqiy axvoliga ta'alluqli;

- milliy bozorni himoya qilishda ko'prok tarif ko'rollaridan foydalanish, import va boshqa notarif cheklashlardan voz kechish;

- ko'p tomonlama mo'zokaralar olib borish yo'li bilan boj tariflarining jiddiy pasaytirilishi;

- rivojlanayotgan mamlakatlar bilan savdoda preferentsialtizimni urnatish;

- savdo borasida paydo bo'lgan kelishmovchiliklarni mo'zokaralar yo'li bilan xal qilish;

- bir-biriga savdo-siyosiy yon bosishda hamkorlik.

GATTning faoliyati raundlarga birlashgan ko'p tomonlama mo'zokaralar yo'li bilan olib borilgan. GATTning faoliyat boshlaganidan beri 8 raund utkazilgan, ularning natijasida o'rtacha boj miqdori un baprobar kamaygan. 2-chi dunyo urushidan keyin ular 40%ni tashkil qilgan bo'lsa, 90-chi yillar o'rtasida ular taxminan 4%ni tashkil qilgan. 1996 yil o'rtasida GATTga 130 mamlakat a'zo bo'lgan.

3. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish kontseptsiyasi

O'zbekistonning ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti modelida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va mustahkamlash, respublikaning jahon xo'jalik aloqalariga birlashish yo'llarini belgilash, shuningdek, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining rivojlanishi va respublika integratsiyasi yo'nalishlarining jahon xo'jalik aloqalarida mustahkamlanishi asosiy o'rin egallaydi.

Ochiq turdagi iqtisodiyotning shakllanishi sharoitida rivojlangan tashqi iqtisodiy aloqalar tizimida bo'lgan har bir davlatning xalqaro mehnat taqsimotida o'z o'rniga, dunyo xo'jalik tizimida o'z «javoniga» ega bo'lishi muhimdir.

Hatto katta hududga, ko'p millionli aholiga, xilma-xil resurslarga ega bo'lgan mamlakatning bugungi kunda boshqa mamlakatlar bilan doimiy va keng iqtisodiy aloqalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi ham bundan mustasno emas. 1991 yil avgustda davlat o'z suverenligiga ega bo'lgan paytdan boshlab, o'zi tanlagan tashqi iqtisodiy siyosatini mustaqil xalqaro huquqiy sub'ekt sifatida olib bormoqda. Bu siyosatning asosiy maqsadi – O'zbekistonning

haqiqiy ochiq iqtisodiyotini va jahon iqtisodiyoti tizimi, uning integratsiyasini izchil ruyobga chiqarishdir.

Respublikaning xalqaro hamkorlikda va jahon mehnat taqsimotida ishtirok etishi uning tabiiy-iqtisodiy, transport, geografik va madaniy-tarixiy merosga xos bo'lgan imkoniyatlaridan kelib chiqadi.

O'zbekiston ulkan tabiiy resurslar potentsialiga ega bo'lib, birinchi navbatda, mineral xom ashyo resurslariga, iqtisodiy ishlab chiqarish va aholi potentsialiga, geopotolik yondashish jihatidan faqat Evroosiyo qit'asi emas, hozirgi kunda tiklanayotgan Buyuk Ipak yo'lida ham muhim strategik o'rin egallaydi.

O'zbekistonning xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish rolini ham aynan shu pozitsiyalardan ko'rib chiqish zarur. O'zbekiston oltin ishlab chiqarish umumiy hajmi bo'yicha dunyoda sakkizinchi va uning aholi jon boshiga taqsimlanishi bo'yicha beshinchi o'rinni egallaydi; respublikada 30 ta oltin qazilmalari topilgan bo'lib, hozircha ulardan faqat o'ntasi ishga tushirilgan. O'zbekiston oltinining sifati jahon oliy standartlariga to'liq javob beradi.

Muruntovdagi (Navoiy viloyati) oltini bor qazilmalarni (olinayotgan miqdori va sifati jihatidan) jahonning eng katta oltin konlari Klondayk (AQSH), Vitvaterrand (YUAR), Kolar (Xindiston) bilan bir qatarga qo'yish mumkin. YUqori probali qimmatbaho metall bu erda chorak asrdan beri qazib olinmoqda. Uni qazish olish arzon ochiq yo'l bilan borayapti. SHunday qilib, davlat suverenteti sharoitida respublika o'z oltiniga o'zi xo'jayin, jahon oltin bozorida teng huquqli hamkor bo'lishi mumkin. Lekin oxirgi paytda jahon bozorining oltin bilan o'ta tuyintirilishi tendentsiyalari ruyobga chiqishi munosabati bilan qimmatbaho metallning sifatiga talab ancha-muncha yuqoriroq bo'ldi.

Masalan, 1991 yilda Jahon bankining ko'rsatkichlariga ko'ra, bu farq 220-320 tonnaga etdi. Bunday sharoitlarda oltinga bo'lgan narx-navoni barqaror ravishda ushlab turish mushkul bo'lib koldi. CHunki sobiq ittifoq parchalanib, uning o'rnida yangi mustaqil davlatlar tashkil topishi G'arb mamlakatlarini va YAponiyani juda bezovta qilib qo'ydi. Binobarin, ular dunyoda eng katta oltin importyori va iste'molchisi edilar. SHuning uchun jahon bozorida O'zbekiston oltinini sotishda g'oyat omilkorlik zarur.

O'zbekistonda 370ta kon ishlab turibdi. Ulardan har yili 200 mln. tonna turli mineral xom ashyolar qazib olinadi, yiliga 80 ming tonna mis ishlab chiqarayotgan O'zbekiston ulkan zahiralarga boy, bu hududda yana ko'plab qo'rg'oshin, rux, vol'fram, litiy va boshqa muhim va noyob metallarning katta-katta konlari mavjud.

Respublika rivojlangan qudratli yoqilg'i-energetika bazasiga ega. Tabiiy gaz topilmalari taxminan 2 trilion kub, ko'mir 2 mlrd. tonnadan ortiq, neft' 350 mln. tonnani tashkil qiladi. Oxirgi ikki yilda ochilgan yangi neft' va gaz konlari nafaqat ichki ehtiyojlarni qondirishga, balki energiya beruvchilarning eksporti haqida ham gap yuritishga yo'l beradi.

O'zbekiston neft' konlaridagi qora oltinni qayta tayyorlash to'g'risida «El'fakiten» frantsuz kompaniyasi bilan bitim tuzilgan.

O'zbekiston Markaziy Osiyo va MDHda paxta etishtiruvchi asosiy respublika, bu borada jahonda turtinchi o'rindadir. Bu erda jahon va MDH davlatlari bilan asosiy hamkorlik yo'nalishlaridan - respublikada paxtani chuqurroq qayta ishlab, tashqi bozorga yakunlangan qimmatbaho mahsulot sifatida chiqarish mo'ljallangan.

Respublikada har yili 1,7 mln. tonna paxta tolasi tayyorlanadi. Buni jahonda chiqarilayotgan paxta bilan solishtirish mumkin: MDHda umumiy 2,75 mln. tonna, Xitoyda 4,2 mln. tonna, AQSHda 3,4 mln. tonnapaxta ishlab chiqariladi. Ishlab chiqarish hajmiga ko'ra, O'zbekiston jahon paxta bozorida teng huquqli hamkor bo'lishishi mumkin, lekin bizning paxtamiz sifati chet elniki oldida ancha past. Uning sifatini yaxshilash uchun ancha-muncha ishlar olib borish va fursat darkor. Xuddi shunday vaziyat qorako'l terilari va ipak xom ashyosi etishtirish jarayonida.

Meva va sabzavotlar etishtirishda sobiq ittifoq davrida O'zbekiston Respublikasi asosiy ta'minlovchi bo'lib, Ittifoqqa har yili yalpi meva-sabzavotning 60 %ini etkazib berardi. Bugungi kunda ham mamlakatimizda yiliga 5 mln. tonnagacha meva va sabzavot etishtiriladi, ko'plari noyob tamga ega. O'zbekiston bu tarmoq bo'yicha hamkorlikka tayyor. Respublikaning bu tarmoqqa

bo'lgan asosiy e'tibori mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash, jo'natish; qadoqlash korxonalarini barpo etishga qaratilgan.

O'zbekiston o'zida va xorijda turizm sanoati rivojlantirilishi uchun ham ko'pgina imkoniyatlarga ega. Uning hududida dunyo miqyosida tanilgan tarixiy va arxitektura markazlari - Samarqand, Buxoro, Xiva joylashgan, 4000 dan ortik arxitektura - mahobatli obidalar bor, ularning ko'plari YUNESKO himoyasidadir.

O'zbekistonning potentsial imkoniyatlari kafolatli bo'lib, bir tomondan bozor iqtisodini islohotlashtirish, boshqa tomondan esa, sobiq ittifoq o'rnida shakllangan yangi iqtisodiy makon integratsiyasi, teng huquqli va hamkorlik bilan xalqora mehnat taqsimotida va jahon xo'jalik aloqalarida bab-baravar ishtirok etish hisoblanadi.

O'zbekiston davlat suverentetiga va mustaqillikka 1991 yilning avgustida erishib, mustaqil ravishda xalqaro bozorga chiqish yo'li juda ideal bo'lmasa ham (1-jadval), lekin rivojlanish uchun ko'plab zahiralarga ega edi. Respublika tashqi iqtisodiy aloqalari intensivlashtirishining kelib chiqish shart-sharoitlari quyidagilardir:

- er boyligi, mineral xom ashyo va o'simliklar resurslari, shuningdek, ajoyib tuproq-iqlim sharoitlari, qishloq xo'jaligini rivojlantirish hamda uning mahsulotlarini qayta tayyorlaydigan sanoat ishlab chiqarish majmui bazasini yaratish uchun haddan ziyod imkoniyatlarning mavjudligi;
- milliy xalq xo'jaligi majmui infratuzilmasining yuzaga kelishi, respublikani jahon xo'jaligi aloqalariga keng miqyosda jalb eta oladigan yirik ilmiy potentsialning jamuljamligi;
- eksport potentsialining yuqori darajada ekanligi;
- tegishli kooperatsiya va hamkorlikdagi sarmoyalar yordamida raqobatga bardoshli mahsulotlarni yuqori darajada tayyorlay oladigan ishlab chiqarishni qisqa vaqt ichida yaratish potentsialining mavjudligi;
- nisbatan olganda (jahon miqyosida baholaganda) arzon ishchi kuchiga ega bo'lishi mumkinligi;
- xorijiy kapital sarmoyasi va o'zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik o'rnatish uchun respublikada barqaror siyosiy muhitning yaratilganligi.

O'zbekistonning dunyo mamlakatlari bilan xalqaro savdo-iqtisodiy munosabatlari tarixi o'rta asrlardan boshlanadi. G'arb va SHarq o'rtasidagi savdo, katta bozor uchun kurash va mehnat resurslari hamma vaqt O'zbekistonning hozirgi hududiga daxldor bo'lib kelgan, chunki uning geografik jihatdan savdo-iqtisodiy potentsiali ko'plab mamlakatlarni qiziqtirgan.

Mustaqillikdan olidngi o'n yillikda O'zbekiston asosan agrotexnika xom ashyosi (paxta, ipak, qorako'l), mashinasozlik va asbobsozlik tarmoqlari uchun komplektlash mahsulotlari, oltin, uran ishlab chiqarishga mo'ljallangan. Urish davrida ko'pgina zavodlarning O'zbekistonga evakuatsiyasi tufayli respublikada konchilik, samalyotsozlik, traktorsozlik, elektrotexnika, kimyo, to'qimachilik, og'ir sanoat tarmoqlari paydo bo'ldi. Biroq texnik, texnologik va tarif standartlari O'zbekistondan tashqarida (asosan Rossiyada) ishlab chiqarilardi, respublika sanoat sohasining rivojlanishi muayyan darajada tashqi qaramlikka bog'liq edi.

1991 yil 1 sentyabrdan boshlab O'zbekiston mustaqil davlat bo'ldi. Uning iqtisodiy va davlatchilik taraqqiyotining birinchi bosqichi (1991-1995y.) iqtisodni boshqaradigan o'z infratuzilmasini yaratish va intensiv ravishda jahon hamjamiyatida savdo aloqalarini rivojlantirishga bog'liq edi.

Xususan, yagona iqtisodiy siyosatni o'tkazish va shakllantirish; taraqqiyot strategiyasini belgilash; ichki va tashqi bozorlarda umumdavlat manfaatlarini ta'minlash; iqtisodiy, fan-texnikaviy, savdo. Madaniy va sport sohalarida hamkorlik o'rnatish, turizmni rivojlantirish va boshqa aloqalarni samarali yordam berib boshqaradigan Tashqi iqtisodiy aloqalar Vazirligi (MVES) barpo etildi. 1992 yil 26 martda qabul qilingan hukumat qaroriga ko'ra vazirlik davlat organi bo'lib, u O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalarini boshqarish, nazorat qilish, tartibga solish va muvofiqlashtirish ishlarini olib boradi.

Vazirlik O'zbekiston Respublikasini uning tashqarisida namoyish etadi; barcha tashqi iqtisodiy masalalar bo'yicha davlat manfaatlarini hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro bitimlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarini mamlakat nomidan himoya qiladi. Tashqi iqtisodiy

aloqalar vazirligi o'z faoliyatida xalqaro huquqiy normalarga, O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzgan bitimlariga, qonunlariga va normativ aktlariga amal qiladi.

O'z taraqqiyotidagi I-bosqichning yakuniy davrida (1995 yilning oxiri) O'zbekiston davlat boshqaruvida, iqtisodiyotda, tashqi savdo aloqalarida hamda ishlab chiqarish doirasida barqarorligi bilan ko'zga tashlandi. 1995 yilda MDH davlatlari orasida savdoda ijobiy sal'do olgan ikki davlatning biri bo'ldi.

Oltin qazib olish, energetika, qurilish, to'qimachilik sanoati va neft' ishlab chiqarish sohalarida dastlabki sanoat investitsiyalarining loyihalari tugallandi; hissadorlik asosida, shu jumladan, xorijiy kapitalning katnashuvi bilan agrar hamda sanoat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish uchun qonuniy va amaliy sharoitlar yaratildi.

EH iqtisodiy komissiyasining ko'rsatmalariga ko'ra, milliy mahsulotning salmog'i 1991 yildagiga nisbatan 1995 yilda O'zbekistonda 82,21 %ni, Rossiyada 49%ni, Qozog'istonda 43%ni, Belarusda 41%ni tashkil etdi. O'zbekistonning bu ko'rsatkichini markaziy va G'arbiy Evropa yaqin joylashgan SHarqiy Evropa mamlakatlari ko'rsatkichlari bilan solishtirib o'tamiz.

Iqtisodiy rivojlanishning ikkinchi bosqichi (1995-1998y) negizlaridan biri - bozor iqtisodiyotining amalda mamlakatning o'z sanoatiga asoslanib, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishi, makroiqtisodiy investitsiyaviy infratuzilmasini ta'minlaydigan bir qator institutlar barpo etishdir.

Bu bosqichda tashqi bozorni ta'minlash, bir tomondan, ichki bozor uchun (import o'rniga) va tashqi bozor uchun (eksportga) raqobatbardosh mollarni ishlab chiqarish bo'lsa, ikkinchi tomondan, O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlariga ko'plab xorijiy texnologik sarmoyalarning kirishi bilan chambarchas bog'liqdir:

- aviatsiya mashinasozligi va avtomobilsozligi;
- kon qazilmalari va kimyo sanoati;
- qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlash va qadoqlash;
- qurilish materiallarini ishlab chiqarish;
- to'qimachilik sanoati;
- telekommunikatsiya va aloqa;
- transport va uning xizmati.

SHuning uchun asosiy e'tibor O'zbekistonning aviatsiya va temir yo'li portlarini kompleks ravishda qayta ko'rishga; energetika, transport, aloqa va mashinasozlik sohalarida yirik sanoat komplekslarini barpo etishga qaratildi.

1996 yilda davlat byudjetining taxchilligi Tashqi Milliy Mahsulotdan kelib chiqib, 3,5% darajada baholandi hamda XVF ekspertlari tomonidan nazorat qilinadigan darajada keskin oshmadi. O'zbekiston 3 mlrd. AQSH dollari bilan baholanadigan yuqori potentsialli mineral xom ashyo resurslariga, sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi, mehnat resurslari hamda barcha ishlab chiqarish sohalaridagi malakali kadrlar va xizmat ko'rsatish doiralari miqyosida xalqaro savdo-sotiqni unumli ravishda yanada rivojlantirish imkoniyatlariga ega.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda transport aloqalari muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning yirik xalqaro temir yo'l, dengiz va avtomobil' portlaridan yiroq joylashganligi import va eksport tovarlarini etqazishda transport xizmati bahosiga jiddiy ta'sirini o'tqazmoqda.

YUk tashish ishlarining 90%i temir yo'l transporti orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston ichkarisida temir yo'l aloqalari tizimi etarli darajada rivojlanmagan va zich joylashgan (50 km dan 100 kv. km gacha) hamda Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'izistonga chiqish mumkin. 180 ta stantsiyadan 11 tasi yirik gabaritli konteynerlarni qayta ishlash uchun zarur vositalar bilan jixozlangan. Har kuni O'zbekistonda 8000 vagon qayta ishlanadi.

Tovarlarning anchagina qismi avtomobil' transporti orqali tashiladi. Tezkor yo'llar masofasi 42 ming km ni, mahalliy yo'llar masofasi 90 ming km ni tashkil etadi.

«O'zbekiston xavo yo'llari» hamda yonma-yon bo'lgan xalqaro aviatsiya kompaniyasi xizmatidagi tranzitmagistrali g'oyatda katta ahamiyatga ega. MDH mamlakatlari va 15 ta uzoq xorij yurtlariga samolyotlar to'g'ridan-to'g'ri parvoz qilmoqda. Toshkent, Samarqand, Termiz va Farg'ona shaharlari xalqaro aeroportlar maqomiga ega.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi davrda iqtisodiy faoliyatning barcha sohalariga aloqador qonunlar va me'yoriy huquqiy aktlarga har tomonlama asoslangan tizim vujudga keltirildi. Tashqi iqtisodiy aloqalar va savdo munosabatlaridagi huquqiy baza xalqaro huquqlar hamda me'yorlar darajasida asoslab berildi. CHunonchi, Respublika Prezidentining "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulkni himoya qilishni ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, keng iste'mol mollarini ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalar xorijiy valyuta toshirish va uni Markaziy bankka majburiy sotish bo'yicha besh yil muddat davomida soliq to'lashdan ozod qilindi.

O'zbekiston Prezidentining 1996 yil may oyida qabul qilingan «CHet el investitsiyalari asosida tashkil etilgan korxonalar faoliyatini rag'batlantirish xususidagi qo'shimcha chora-tadbirlar» to'g'risidagi farmonida amaliyot uchun eng zarur bo'lgan ko'pgina qoidalar ko'rsatildi.

Bunga ko'ra, eksport mahsulotining hajmi 30%dan oshgan korxonalar belgilangan normalardan ikki baravar kam miqdordagi stavkalar bo'yicha soliq to'lash huquqiga ega. SHu bilan birga respublikada xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun imtiyozlarning keng tizimi vujudga keltirilgan, xorijiy sarmoyadorlar uchun imtiyozli soliq joriy etilgan. "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonga binoan xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qo'shma korxonalarni ro'yxatga olingan paytidan boshlab besh yil muddatga xorijiy valyutadagi tushumdan soliq to'lashdan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga valyutani majburiy sotishdan ozod qilish ko'zda tutilgan.

"Eksportga mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonga ko'ra, korxonalar ishlab chiqargan mahsulot tarkibida eksportga ishlab chiqarish bo'lsa, imtiyozlarga ega.

Amaldagi imtiyozlar va rag'batlantirish omillari tizimi quyidagilardir:

- ishlab chiqarish hajmida tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksporti kamida 30%ni tashkil etadigan korxonalarga, mulkchilik shakllaridan katxiy nazar, foyda solig'ini amaldagi stavkalardan ikki baravar kamroq to'lash huquqini berish;
- Respublika davlat investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar bo'yicha soliqlar to'lashdan besh yil muddatga ozod etish;
- O'zi ishlab chiqargan mahsulotni ruxsatnomasiz bemalol chetga olib ketish;
- O'zbekiston hududida qo'shma korxonalarning va faqat xorijiy sarmoya bilan ishlaydigan korxonalarning Ustav fondiga hissa qo'shish uchun mol-mulkni chetdan boj solig'isiz olib kirish;
- Investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun er uchastkalaridan foydalanish va ularni tasarruf etish huquqini tanlov asosida sotib olish.

Xorijiy sarmoyalar to'g'risidagi qonunga muvofiq chet ellik sheriklar uchun ularning mol-mulkini davlat ixtiyoriga olish va musodara qilishdan ozod etish uchun kafolatlar belgilab qo'yilgan. Ularning o'z faoliyati natijasida olgan foydasi va boshqa pullarni chet elga o'tkazishga, olingan foydani respublika hududida sarmoya tarzida qayta ishlatish, respublika banklarida hisob raqamiga va unda cheklanmagan miqdorda har qanday valyuta mablag'iga ega bo'lish kafolatlanadi.

Xorijiy sarmoyadorlarga nisbatan investitsiyalar amalga oshirilgan paytda amalda bo'lgan qonun me'yorlari (normalari) 10 yil mobaynida qo'llanishi ko'zda tutilgan qonun hujjatlari o'zgartirilmasligiga kafolat mavjud.

SHunday qilib, vujudga keltirilgan huquqiy normalar (me'yorlar) xorijiy sheriklarning keng investitsiya faoliyati uchun kulay imkoniyatlar yaratib, ularning huquqlari va sarflagan sarmoyasini himoya qiladi.

O'zbekiston sarmoyalarni o'zaro himoya qilish to'g'risida Germaniya, Turkiya, Misr, Indoneziya, Malayziya, Pokiston, Finlyandiya, Koreya, AQSH, Frantsiya bilan bitimlar imzoladi, boshqa bir qancha mamlakatlar bilan ham shunday bitimlar tuzish davom ettirilmoqda.

Kanada, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Gollandiya, Germaniya, SHveysariya banklari va firmalari bilan 3,3 mlrd. AQSH dollariga yaqin miqdorda hukumatlararo 32 ta yirik kredit

bitimi tuzildi. Hozir bu bitimlar amal qilmoqda. O'zbekiston 30 dan ortik savdo va iqtisodiy bitimlar tuzgan. Ulardan 20 tasi uzoq xorij mamlakatlari bilan tuzilgan. Umuman, mustaqillikka erishilgandan so'ng respublikaga 5 mlrd. AQSH dollari kirib keldi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi respublikamizning Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki va O'zbekistonning boshqa tashqi iqtisodiyot institutlari bilan birgalikda tashqi savdo siyosatini ishlab chiqadi va milliy investitsiya loyihalarini muvofiqlashtirishni amaliy hal etadi. YUqorida kayd qilinganidek, iqtisodiy taraqqiyotning ikkinchi bosqichida asosiy diqqat-e'tibor ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilmoqda. SHu sababli ham yuqori sifatli tovarlarni yaratishga yo'naltirilgan va raqobatli bahodagi sarmoyalar me'yoriy-huquqiy qaydnomalarda (aktlarda) ko'zda tutilgan afzalliklar hamda imtiyozlardan foydalanishga imkon beradi.

O'zbekiston hukumati tomonidan iqtisodiyotning har xil sohalari bo'yicha va mamlakatning turli hududlari uchun afzal bo'lgan investitsiya loyiholari tizimi ishlab chiqilgan. Xususan, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi va Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki (MB) ixtiyorida mukammal analitik bazaga ega bo'lgan 177 loyiha mavjud. Ulardan ayrimlari hozirdanok joriy qilinmoqda. Masalan, yagona zamonaviy navigatsiya tizimini yaratish ikkinchi fazada amalga oshirilmoqda; traktorlar, samolyotlar, avtomobillar ishlab chiqarish uchun mashinasozlik bazasini yaratishga ham allaqachon kirishilgan.

O'zaro foyda keltiradigan savdo va pragmatik printsiplarga rioya qilgan holda, O'zbekiston sheriklari bilan hamkorlikni muayyan darajada kengaytirib bormoqda va ular taklif qilgan zamonaviy, yuqori sifatli texnologiya o'zlashtirilib, sanoatimizda qo'shma korxonalarining yakuniy mahsuloti ishlab chiqarilmoqda. Bunday yondashish o'zaro foydali hamkorlik va savdoning adekvat printsiplarga asoslanadi. Jahon bozori bilan bunday hamkorlikni jadal rivojlantirish sharoitlari O'zbekiston Respublikasining barqaror va izchillik siyosati bilan kafolatlanadi: islohot yo'llarida ularning amalga oshishi qator ijobiy natijalar bermoqda.

Birinchidan, jami tashqi savdo oboroti 2001 yilda bir muncha oshib, 6001,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. SHu jumladan, yaqin xorij (MDH) mamlakatlari bilan savdo 2609,0 mln. AQSH dollari va uzoq xorij mamlakatlari bilan savdo 3392,7 mln. AQSH dollarini tashkil qildi. Jami tashqi savdo oborotida xorijiy mamlakatlar bilan savdo-sotiqning salmog'i ancha ko'paydi.

Respublikaning erkin konvertatsiya qilingan valyutada eksport operatsiyalari hajmi ortdi: 1998 yilgi 51,2%dan 2001 yili 91,9%ga oshdi. Barter operatsiyalari 1996 yilgi 48,8%dan 2001 yilda 8,1 %ga kamaydi.

Ikkinchidan, tashqi bozorga ko'pgina xo'jalik sub'ektlarining chiqishi O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining respublikada TIAB ni qayta tuzish haqida qaroridan keyin ortdi, Respublika iqtisod elementlarining jahon xo'jalik munosabatlari tizimiga moslashishga olib keldi, bu bozor iqtisodiyotining shakllanishiga yordam beradi.

Uchinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni respublika mustaqilligi sharoitida olib borish ko'pgina yangi boshqaruv va tashkiliy-xo'jalik tuzilmalarini yaratishga imkon beradi: huquqiy va normativ bazalar ishlab chiqilmoqda, ular respublikaning tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqarishda muhim rol o'ynaydi, tashqi iqtisodiy kompleks infratuzilmasining keng tarmog'i shakllanmoqda hamda tashqi savdo, elchixona, xalqaro iqtisodchilikda kasbiy mahoratga ega bo'lgan kadrlar tayyorlanmoqda.

Biroq, tashqi aloqalar jarayonida salmoqli yutuqlarga erishishimiz bilan birga, bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan iqtisodiy islohotlarini amalga oshirish davomida uchrayotgan muhim va dolzarb muammolar hali echimini topgani yo'q. Bunga bir necha sabablar bor:

Birinchidan, tashqi tuzilmalardagi eksport ishlab chiqarishida tub o'zgarishlar ro'y bermaguncha, xom ashyo mahsulotlari, avvalo, paxta salmoqli o'rinda turaveradi, shuningdek, boy turistik imkoniyatlardan aslo etarli darajada foydalanilayotgani yo'q.

Ikkinchidan, qoloq (jahon standartlariga nisbatan olganda) texnologiyadan va ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish past darajada davom etmoqda, ayniqsa, respublikaning xom ashyo maxsulotlarini qayta tayyorlaydigan sohalari bo'yicha ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilmayotgan eksport baza taraqqiyotini cheklab qo'yishda asosiy to'siq bo'lmoqda.

Uchinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirishga oid qabul qilingan qarorlar ma'muriy-tashkiliy tadbirlar miqyosida o'z ijrosini topmayapti hamda iqtisodiy va amaliy choralarni hal etishda qat'iyatlilik etishmayapti.

To'rtinchidan, vazirliklar, idoralar, kontsernlar, hissadorlik jamiyatlari, barcha xususiy korxonalar hamda matlubot tashkilotlari respublika qonunchiligi asosida o'z zimmlariga yuklangan tashqi iqtisodiy faoliyatdagi vazifalarini mukammal bajarmayaptilar, bunga qisman iqtisodiy rag'batlantirish choralaridan samarali foydalana olmaslik ham sabab bo'lmoqda. Jahon bozori qonunlari va talablarini yaxshi bilmaslik, tegishli chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirmaslik, munosib kadrlar tayyorlash ishida mas'uliyatsizlik holatlari namoyon bo'lmoqda.

4. Tashqi iqtisodiy faoliyatda marketing

Tashqi iqtisodiy aloqalarning kengayishi eksport va importda, xalqaro auksion va savdolarida, chet el korxonalariga kiritiluvchi investitsiyalarda va nihoyat tovar va xizmatlar jahon bozorida namoyon bo'lib, ko'plab mamlakatlarda faoliyat ko'rsatuvchi hamda chet eldagi ishlab chiqarish va sotuv bo'linmalaridan foydalanuvchi transmilliy korporatsiyalar amalda butun jahon uchun ishlaydi. Bularning barchasi tovar va xizmatlarni mamlakat hududidan tashqarida sotish bo'yicha maxsus tadbirlar majmuasi - xalqaro marketing zaruratini yuzaga keltiradi. Bu erda gap xalqaro firmalar haqida boradi. Bu firmalarning ishlab chiqarish va tijorat faoliyati xorijiy mamlakatlarda ham tarqaladi hamda ular sho'ba korxonalarining mavjudligi, texnologik kooperatsiya va ixtisoslashuv, resurslar bazasining umumiyligi, boshqaruv va nazoratning markazlashuvi bilan tavsiflanadi.

Ushbu vazifani muvaffaqiyatli hal qilish uchun xalqaro marketing usullaridan – ishlab chiqarishni tashkil etish va tovar mahsulotlarini sotish kompleks tizimi, xalqaro bozor tadqiqotlari va prognozlash asosida muayyan xorijiy iste'molchilarning talab va ehtiyojlari, hohish-istaklari va odatlarini qondirish uchun xizmat ko'rsatishdan unumli foydalanish zarur.

O'zbekistonda bozor munoasabatlarining rivojlanishi va u bilan bog'liq bo'lgan ko'plab korxonalar iqtisodiy faoliyatidagi o'zgarishlar tobora o'z mahsulotlarini eksport qilishga yo'naltiradi, shuningdek, boshqa mamlakatlardan tovarlarni import qilishga ixtisoslashgan savdo tashkilotlarining paydo bo'lishi, mamlakatimizdagi xo'jalik strukturalarining xalqaro mehnat taqsimotiga jalb etilishi – bularning barchasi, ayniqsa, korxona, tashkilot, bank va sug'urta kompaniyalarining ishlab chiqarish, sotuv va boshqaruv faoliyatini muvofiqlashtirish sohasida xalqaro marketing funktsiyalari va usullarini yaxshi bilishni talab qiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda marketing tamoyillari va usullaridan foydalanish tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. CHet el mamlakatlarida marketing sohasidagi tashqi iqtisodiy faoliyat xalqaro marketing nomini olgan.

Uning yuzaga kelishiga o'tgan asrning 60-yillarida xalqaro mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish sharoitlarining jadallashuvi va turli mamlakatlarda tovar iste'mol qilishning chuqurlashuv jarayoni asosiy sabab bo'ldi. Xalqaro marketing sohasida Evropa marketing jamiyati (ESOMAR), Xalqaro marketing federatsiyasi (IFM), shuningdek, ko'pchilikka ma'lum bo'lgan Amerika marketing assotsiatsiyasi (American Marketing Association – AMA) kabi xalqaro tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Xalqaro marketing ko'pincha mamlakatlar chegarasidan tashqaridagi tovar va xizmatlar marketingi yoki mahsulot va xizmatlarni ikki yoki undan ortiq mamlakatda ishlab chiqaruvchi va taqsimlovchi xalqaro kompaniya tomonidan amalga oshiriluvchi marketing sifatida ta'riflanadi. Xalqaro marketing kontseptsiyasining mazmuni va uning rivojlanish yo'nalishlari tovar va xizmatlar jahon bozori bilan aloqasi xarakteri va kengligiga bog'liq bo'ladi.

Bu aloqalarni quyidagilar yordamida tavsiflash mumkin:

1. Korxona mahsulot eksportchisi ham, importchisi ham bo'lmaydi va xalqaro mehnat taqsimotining boshqa hech qanday shakllarida ishtirok etmaydi.
2. Korxona vaqti-vaqti bilan tayyor mahsulotlarni eksport qiladi hamda chet eldan tovar va xizmatlarni import qiladi.

3. Korxona xalqaro mehnat taqsimotida import materiallar yoki tarkibiy qismlar, nou-xauni iste'mol qilish orqali ishtirok etadi yoki aksincha, u etkazib beruvchi material va yarim tayor mahsulotlar yakuniy mahsulot tarkibida eksport qilinadi.

4. Korxona shartnomaviy ishlab chiqarish yoki qo'shma korxona shaklida xalqaro sanoat va ilmiy-texnik hamkorliklarda ishtirok etadi.

Korxonalarining xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etishiga quyidagilar sabab bo'ladi:

- mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan to'laroq foydalanishga intilish;
- eksport hisobiga ishlab chiqarish apparatini modernizatsiyalash uchun o'z moliyaviy ahvolini yaxshilash;
- mamlakat ichkarisida eksportchi sifatida mashhur bo'lishga intilish;
- mamlakatda raqobatchilik ustunligiga ega bo'lishni ta'minlash;
- chet el valyutasini olish imkoniyati;
- xorijiy bozorlarda aylanmalarining rentabelligi yuqori bo'lishini ta'minlash;
- chet eldan qimmatli nou-xaularni olish.

Xorijiy bozorga chiqish yoki chiqmaslik uchun o'z motivlarini aniqlash korxona uchun muhim ahamiyat kasb etib, jiddiy marketing ishlarini boshlashga turtki vazifasini bajarishi mumkin. Bundan tashqari, motivlar ro'yxatini ishlab chiqish va taqsimlash korxonaning xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish shakllari va muayyan maqsadlarini aniqlashga imkon beradi.

SHu tariqa, milliy kompaniyalarni xalqaro biznesni amalga oshirish, xalqaro marketing faoliyatiga kirishishga chorlovchi uchta asosiy jihatni ajratib ko'rsatish mumkin:

- sotuvni kengaytirish;
- resurslarni sotib olish;
- ta'minot manbalarini diversifikatsiyalash.

Xalqaro sotuv milliy kompaniyalarning xalqaro marketing faoliyatida ishtirok etishining asosiy motivi hisoblanadi. Biroq xalqaro marketing faoliyati faqatgina kompaniyalarning milliy sotuv bozorlarini kengaytirishga qaratilgan hatti-harakatlaridan iborat emas. Jahon iqtisodiyoti uchun ishlab chiqarishni baynalminallashtirish va buning natijasida marketingni bayonalminallashtirish ham xarakterlidir.

Baynalminallashtirish bosqichlarini quyidagi ko'rinishda aks ettirish mumkin:

1-bosqich. Mahalliy rivojlanish bosqichi – mahalliy ishlab chiqarish bilan tavsiflanadi.

2-bosqich. Baynalminallashtirishning boshlang'ich bosqichi chet ellik diler va agentlar bilan hamkorlikni boshlashdan avval chet el mamlakatalri bilan aloqalarning mavjudligi bilan ajralib turadi.

3-bosqich. Ushbu bosqich chet elda ishlab chiqarish korxonalarini tuzishdan avval chet ellik kontragentlar bilan turli xil shartnomalarning mavjudligi bilan tavsiflanadi.

4-bosqich. O'sish bosqichi chet elda 6 tadan ortiq bo'lmagan mamlakatlarda joylashgan ishlab chiqarish korxonalarining mavjud bo'lishini nazarja tutadi.

5-bosqich. Baynalminallashtirishning ko'p millatli bosqichi 6 dan ortiq mamlakatlarda ishlab chiqarish korxonalarini tashkil qilishni ko'zda tutadi (mazkur bosqich transmilliy korporatsiyalar uchun xosdir).

Hozirgi kunda fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq tovar va xizmatlarning jahon xarakteri ko'zga tashlanib turibdi. Biroq axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya vositalarining rivojlanishi bilan deyarli barcha bozorlar global bozorga aylanmoqda. Mamlakatlar o'z hududlari bilan cheklanib qolmay, birgalikda jahon bozori segmentlarini tashkil etmoqda. Iqtisodiy agentlar endi faqat sotuvchi, xaridor yoki savdo vositachisi sifatidagina ishtirok eta olmaydilar. O'zaro aloqalar omili xalqaro marketingning muhim jihatlaridan biriga aylanib bormoqda. «Ichki» (mamlakatning ichki bozorida faoliyat ko'rsatuvchi) va xalqaro marketing o'rtasida katta farq mavjud emas. Ikkala holda ham marketing faoliyatining bir xil tamoyillari qo'llanadi. SHu bilan birga, tashqi bozorlarning faoliyat ko'rsatishi va ularda ishlar sharoitlari yuzaga keltiruvchi o'ziga xos xususiyatlar xalqaro marketingga alohida e'tiborga olish zarur bo'lgan jihatlarni baxsh etadi.

Xalqaro bozorda korxonaning marketing faoliyati markazida quyidagi vazifalarni hal qilishga imkon beruvchi boshqaruv qarorlarini tayyorlash va qabul qilish turadi: Xalqaro bozorga chiqish

kerakmiq Bunda qanday maqsadlarni belgilash lozimq Korxona oldida qanday istiqbollar ochilishi va qanday xavf-xatarlar yuzaga kelishi mumkinq Mamlakatning qaysi bozoriga chiqish lozimq Bu bozorda iste'molchilarga ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni taklif qilish lozimmi yoki yangi tovarlarnimi Tanlangan bozorga qanday kirib borish, iste'molchilarni qanday topish va ularga o'z mahsulotini qay tariqa taklif qilish kerakq Bozorga importchi yoki eksportchi sifatida mustaqil chiqish kerakmi yoki boshqa tajribali hamkor bilan birgalikdamiq Tanlangan bozorga tayyor mahsulot etkazish kerakmi yoki yarim tayyor mahsulotlarni Tanlangan bozorda qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun qanday marketing chora-tadbirlari majmuasi dasturini ishlab chiqish zarurq

Boshqacha qilib aytganda, xalqaro bozorga chiqishdan avval korxona o'zining xalqaro marketing kontsepsiyasining hech bo'lmasa umumiy qoidalarini ishlab chiqishi lozim.

O'z mahsulotlarini chet elda sotish uchun firma xalqaro marketing muhiti xususiyatlarini aniqlab olishi lozim. eng muhim o'zgarishlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- jahon iqtisodiyotining baynalminallashuvi – xalqaro savdoning jadal suratlar bilan o'sishi, chet elda kapital joylashtirishning o'sishi;
- xalqaro moliya tizimining shakllanishi;
- turli mamlakatlarda talab shartlari va iste'mol xususiyatlarini tenglashtirish tendentsiyasining o'sishi;
- jahon bozorlarida raqobatning kuchayishi; xaridorlarning mamlakatga import qilinuvchi tovarlarning sifati, dizayni, yangiligi va boshqa ko'rsatkichlariga bo'lgan talabining o'sishi sababli tashqi bozorga etkazib beriluvchi tovarlar sifatida sezilarli o'zgarishlarning yuz berishi;
- XXR, MDH, Arab mamlakatlari va boshqa mamlakatlarning yirik bozorlariga asta-sekinlik bilan kirib borish.

Xalqaro marketing muhitini o'rganish xalqaro savdo va kooperatsiya tizimi, iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy muhit, tovar va xizmatlar xalqaro bozorini o'rganish, xalqaro raqobat va xalqaro marketingni tashkil etish bilan bog'liq masalalarni hal qilishni o'z ichiga kiritadi.

Xalqaro savdo tizimi dunyoning barcha mamlakatlari tashqi savdosi yig'indisini aks ettiradi – u mamlakatlar o'rtasidagi savdo bo'lib, tovar va xizmatlar importi va eksportidan iborat bo'ladi. Mamlakatning tashqi savdosini davlat tartibga solib boradi. Bunda har bir mamlakat o'ziga xos tashqi savdo siyosatini yuritadi. Buning uchun tarifli va notarif tartibga solish vositalaridan foydalaniladi. Masalan, import boji muayyan mamlakatga nisbatan qaysi tarif qo'llanishiga (masalan, Kanadada A+SH bilan savdoda maxsus tariflarning olti xil turi mavjud) bog'liq bo'ladi. Boshqa mamlakatlarda mahsulotni sotishni tashkil etishda firma turli xil cheklovlarga duch kelishi mumkinligi sababli xalqaro marketing muhitini sinchiklab o'rganish zarur. Davlatning tashqi savdo strategiyasining to'rt turini ajratib ko'rsatish mumkin:

- izolyatsiya strategiyasi (siyosiy va mafkuraviy qoida-jihatlariga asoslanadi);
- proteksionizm strategiyasi (o'z tovar va xizmatlar bozorini himoya qilishga asoslanadi);
- erkin savdo strategiyasi (tashqi savdo faoliyatini erkinlashtirishga asoslanadi);
- defitsitli bozorni himoya qilish yoki «teskari proteksionizm» strategiyasi (defitsit bozorni to'ldirishga asoslanadi).

Davlatning tashqi savdo siyosati siyosiy, iqtisodiy, tarixiy, jug'rofiy, madaniy va boshqa xususiyatlarga bog'liq bo'ladi.

Iqtisodiy muhit

Iqtisodiy muhitni ko'rib chiqishda mamlakatlarning tasniflanishini e'tiborga olish lozim bo'lib, ularning o'ziga xosliklari va raqobatbardoshlik omillarini aks ettiradi.

Xo'jalik strukturasi bo'yicha quyidagicha farqlash mumkin:

- iqtisodiyoti natural xo'jalik tipidagi mamlakatlar. Masalan, efiopiya va Bangladesh.
- xom-ashyo eksport qiluvchi mamlakatlar. Masalan, CHili, Zoir, Saudiya Arabistoni.
- sanoati rivojlanayotgan mamlakatlar. Masalan, Filippin, Hindiston.
- sanoati rivojlangan mamlakatlar. Masalan, A+SH, Germaniya, YAponiya.

Daromad taqsimoti bo'yicha mamlakatlar quyidagicha farqlanadi:

1. daromadi juda past;

2. daromadi asosan past;
3. daromadi juda past va shu bilan bir paytda juda yuqori;
4. daromadi past, o`rtacha va yuqori darajada;
5. daromadi o`rtacha darajada.

Aholi jon boshiga YAMM ko`rsatkichlari bo`yicha mamlakatlarni quyidagi guruhlariga taqsimlash mumkin:

- yuqori daraja (25 mamlakat) – 6 ming.doll. va undan ko`p
- o`rtacha daraja (54 mamlakat) – 554 doll.dan 6 ming doll.gacha
- yuqori o`rtacha daraja (37 mamlakat) – 2,2 dan 6 ming. Doll.gacha
- past o`rtacha daraja (17 mamlakat) – 545 dan 2.2 ming. Doll.gacha
- past daraja (42 mamlakat) – 545 doll.dan kam.

Mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini baholashda asosan quyidagilar hisobga olinadi:

- iqtisodiyot dinamikasi;
- sanoat samaradorligi;
- bozor dinamikasi;
- moliyaviy dinamika;
- inson resurslari;
- davlatning aralashuvi;
- milliy resurslar;
- tashqi yo`nalganlik (tashqi bozorga yo`nalganlik);
- investitsiya yo`nalganligi;
- ijtimoiy-iqtisodiy konsensus va barqarorlik.

SHu tariqa, xorijiy bozorlarning turli xil elementlari tavsifnomalarini aniqlab olgach, kompaniya dastlabki xulosalarga kelishi va istiqbollarni belgilashi mumkin.

Siyosiy-huquqiy muhit

Turli mamlakatlar bir-biridan siyosiy-huquqiy muhiti bilan ham ajralib turadi. U yoki bu mamlakat bilan ishbilarmonlik munosabatlarini o`rnatish masalasini hal qilishda quyidagi siyosiy-huquqiy omillarga e`tibor qaratish lozim:

1. *CHet eldan sotib olishga munosabat.* Ba`zi mamlakatlar (Meksika) bunday xaridlarga moyillik bildirsa, boshqa mamlakatlar (Hindiston) bunga salbiy munosabatda bo`ladilar.

2. *Siyosiy barqarorlik.* Mamlakatlarning hukumatlari almashib turadi va ba`zan mamlakat yo`nalishining o`zgarishi juda keskin (mulkni musodara qilish, import cheklovlari yoki yangi majburiy to`lovlar joriy qilish va hokazo) bo`ladi. Davlatning aralashuvini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- haq-huquqni cheklab qo`yuvchi ta`sir;
- haq-huquqni cheklamaydigan ta`sir;
- haq-huquqni cheklab qo`yuvchi choralar;
- mulkni davlat ixtiyoriga o`tkazish.

3. *Valyuta cheklovlari.* Ba`zan hukumatlar o`z valyutasini blokirovka qiladi yoki uni boshqa valyutaga almashtirishni taqiqlab qo`yadi. Valyuta ayirboshlash kurslarining tebranishi bilan katta tavakkalchiliklar bog`liq bo`lishi mumkin.

4. *Davlat mashinasi.* Bunga xorijiy kompaniyalarga qabul qiluvchi mamlakatning yordam ko`rsatish tizimi samaradorligini, ya`ni samarali bojxona xizmati, bozor ma`lumotlarining etarli darajada to`liqligi va tadbirkorlik faoliyatiga qulaylik tug`diruvchi boshqa omillarning mavjudligini kiritish mumkin.

Xalqaro marketingning siyosiy muhitini o`rganish davomida korxona tovar va xizmatlarni etkazib beruvchi yoki etkazib berishni mo`ljallayotgan barcha mamlakatlar bilan bog`liq siyosiy tavakkalchiliklarni ham hisobga olish lozim. Bu tavakkalchiliklar asosan quyidagilar bilan bog`liq hisoblanadi:

- xaridor mamlakatda importning taqiqlab qo`yilishi;
- yukni iste`molchiga etkazib berishda tartibsizliklar, ish tashlashlar va urushlar;

- pul o'tkazishning taqiqlab qo'yilishi;
- siyosiy vaziyatning barqaror emasligi va shu sababli mamlakat yoki mintaqada noqulay ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar tavakkalchiligi;
- tashqi iqtisodiy faoliyat (savdo va etkazib berishni cheklash, chegaralarni yopish va hokazo).

Ushbu xavf-xatarli va qulay imkoniyatlarning barchasi xalqaro marketing vositasida aniqlanishi va korxonaning rivojlanish strategiyasida hisobga olinishi lozim.

Huquqiy muhit

+iziqtirayotgan mamlakatning huquqiy infrastrukturasi, uning kompaniyaning bozordagi faoliyatiga ta'sir ko'rsatishini, kompaniya mansub bo'lgan mamlakatdagi huquqiy qonunchilikka munosabatini o'rganib chiqish, shuningdek, xalqaro huquq talablarini hisobga olish zarur.

Xorijiy mamlakatning huquqiy strukturasi.

- import qilinayotgan tovarlarga qanday tariflar qo'llanadiq
- biron-bir bozorga eksport qilishga cheklovlar mavjudmiq
- subsidiyalarni jalb qiluvchi mahsulotlar bormiq
- antidemping qonunlari amal qiladimi
- narx sohasida qonunchilik mavjudmiq
- chet ellik investorlar uchun sharoitlar qandayq
- milliy kompaniyalar bozorda ustunlikka egamiq
- qanday eksport-import litsenziyalari talab qilinadiq
- cheklovchi savdo kelishuvlari mavjudmiq
- mehnat qonunchiligi.
- monopoliyaga qarshi yoki trastlarga qarshi qonunlar amal qiladimi
- kasaba uyushmalari qanday huquqlarga egaq
- soliq qonunchiligi va uning xorijiy kompaniyalarga nisbatan qo'llanishi.
- mualliflik huquqini himoya qilish bo'yicha qonun hujjatlari bormiq
- huquqiy tizim qanchalik samarali ishlayaptiq
- poraxo'rlikka qarshi kurash qoidalarini ko'zda tutilganmiq

Kompaniya mansub bo'lgan mamlakatdagi huquqiy muhit

- qaysi qonunlar chet elda faoliyat ko'rsatishga taalluqliq
- qiziqtirayotgan mamlakat hukumati bilan kelishuvlar mavjudmiq
- eksportga ko'maklashish ko'zda tutilganmiq
- ayrim bozorlarga belgilangan mahsulotlarni eksport qilishga o'ziga xos taqiqlar mavjudmiq
- mamlakat boshqa biron mamlakatga nisbatan boykot choralarini qo'llab-quvvatlaydimiq

Xalqaro huquq

- qanday mintaqaviy kelishuvlar amal qiladi va ular kompaniyaning xalqaro faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatadiq
- BMT konvensiyalari qo'llanadimi
- xususiy mulkka oid qanday kafolatlar amal qiladiq

Madaniy muhit

Madaniyat har bir jamiyatda mavjud bo'luvchi ijtimoiy ko'rsatmalar, qadriyatlar va maslakhatlarga asoslangan qoidalar iborat. Har bir mamlakatning o'z udumlari, urf-odatlar va qoidalar bor. Turli xil madaniyat namoyandalarining qarashlari bir-biridan farq qiladi. Ishbilarmon kishilar madaniyatlar o'rtasidagi farqlar borasida juda ham ehtiyotkor bo'lishlari lozim. Xalqaro marketing mutaxassislari har bir bozordagi madaniy muhitni to'g'ri baholay olishlari zarur. Madaniy muhitning chuqur o'rganish kerak bo'lgan muhim elementlari quyidagilardan iborat:

- *Til* – bu insonning tajribalarini to'plash, saqlash va boshqalarga etkazishning ob'ektiv shakli hisoblanadi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga qaraganda er kurrasida 100ga yaqin rasmiy til va 3000dan ortiq mustaqil shevalar(dialektlar) mavjud. Xalqaro biznesda rasmiy yozishuvlarning

uchdan ikki qismi ingliz tilida olib boriladi. Biroq bir qator mamlakatlarda, jumladan, Frantsiya va Italiyada rasmiy ish yuritishni o'z tillarida olib borishni afzal ko'radilar.

- *Udumlar* – bu o'z ichiga u yoki bu g'oyalarni kirituvchi hamda jamoaviy hissiyotlarni chaqiruvchi jamoaviy stereotipik hatti-harakatlar yig'indisi, me'yor va qadriyatlardir.
- *Odatlar* – bu o'tmishdan olingan insonlar o'rtasidagi munosabatlar va faoliyatni ijtimoiy tartibga solish shakli, xulq-atvorning yozilmagan qoidalaridir.
- *An'analar* – bu avloddan avlodga etkaziluvchi va uzoq vaqdan buyon saqlanib keluvchi ijtimoiy va madaniy meros elementlaridir.
- *Din va uning jamiyatdagi roli.*
- *Punktuallik* – aniqlik, batartiblikni anglatadi. Ishbilarmonlikda punktuallik har bir mamlakatga bog'liq ravishda farqlanadi.
- *Prestij* – obro'-e'tibor, nufuzni anglatadi. U ham mamlakatga bog'liq ravishda turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, amerikalik uchun turli xil qulayliklarga ega bo'lgan ofis hajmi katta ahamiyat kasb etadi.
- *Ma'lumot* – savodlilik darajasi, uning texnika ta'limi va bozor aloqalarining o'rnatilishiga ta'siri.
- *Jamiyatning ijtimoiy tashkil etilishi* xalqaro biznesning boshqa jihatlari kabi ahamiyatga ega. Aholining ijtimoiy taqsimlanishi qanday, oliy, o'rta va quyi sinflar o'rtasida farqlar kattami va ularning xalqaro biznesga munosabati qandayq
- *Texnologiya* aniq tushunchalar, usullar, o'zgarishlar va bilimlar sohasidir. Boshqa mamlakatning texnika darajasini o'rganish uning rivojlanish darajasi va bozor salohiyati, infrastrukturasi rivojlanish darajasi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishga xizmat qiladi.

Firmaning xalqaro faoliyatini tashkil etish chet el bozorlariga chiqish usullarini tanlashni nazarda tutadi. Tashqi bozorlarga chiqishning o'ziga xos belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Kapitalning harakatlanish shakli (eksport, kooperatsiya, transfert, qo'shma korxona, egalik qilish).
2. CHet el bozoriga chiqish bilan bog'liq xarajatlar miqdori.
3. Investitsiyalashning jozibadorlik darajasi.

Tashqi bozorga chiqish usullari

Eksport bu – kapital, tovar va xizmatlarni ularni tashqi bozorda sotish uchun olib chiqishdir. Xalqaro savdoda eksportning bir necha xil turlari mavjud bo'lib, ulardan eng tarqalganlari mazkur mamlakatda tayyorlangan, ishlab chiqarilgan va qayta ishlangan tovarlarni olib chiqish hisoblanadi. Xom-ashyo va yarim tayyor mahsulotlarni chet elga qaytarib kelish sharti bilan bojxona nazorati ostida olib chiqish, shuningdek, vaqtincha ko'rgazma, yarmarka, kim-oshdi savdolari va hokazolarga chet eldan olib kirilgan tovarlarni olib chiqish ham katta ahamiyat kasb etmoqda. SHu munosabat bilan *reeksport* tushunchasini – mamlakatga ilgari olib kirilgan va qayta ishlanmagan tovarlarni olib chiqishni alohida ajratib ko'rsatish mumkin. *Bevosita eksport* operatsiyalarini vositachilarsiz, mustaqil amalga oshirishni anglatadi. Bu holda xalqaro kompaniya chet ellik xaridorlar bilan bevosita shartnomalar tuzadi. YAKuniy xaridorlar bilan o'z distrib'yuterlar tarmog'i orqali ishlash ham mumkin. *Bilvosita eksport* esa eksport operatsiyalarini xalqaro vositachilar yordamidan foydalangan holda amalga oshirishni anglatadi. Bunday vositachilar xalqaro marketing xizmatlarini ko'rsatar ekan, xalqaro savdo bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarni o'z zimmasiga oladi.

+o'shma *tadbirkorlik faoliyati* eksportdan shunisi bilan farq qiladiki, unda tuzilgan hamkorlik natijasida chet elda ishlab chiqarish quvvatlari yaratiladi. +o'shma faoliyatning to'rt turini ajratib ko'rsatish mumkin:

Tijoratni ko'chirish yoki bilim va intellektual mulkni berish. Buni belgilash uchun *xalqaro laysenzing* (litsenziyalash) atamasi qo'llanadi. Bunda bir mamlakatdagi intellektual mulk egasining egalik huquqini boshqa mamlakatdagi xaridorga belgilangan muddatda va ma'lum shartlar bilan berish tushuniladi. Litsenziyalash bu ishlab chiqaruvchini xalqaro marketingga jalb etishning eng

oddiy yo'llaridan biridir. Litsenziyalar savdosida etakchi o'rin A+SHga tegishli bo'lib, undan keyingi o'rinlarda G'arbiy Evropa davlatlari va YAponiya turadi.

Franchayzing – litsenziyalashning o'ziga xos shakli bo'lib, unga ko'ra bir tomon ikkinchi tomonga tijorat asosida ishlab chiqarish va (yoki) marketing texnologiyalari, nou-xau va tovar belgilariga litsenziyalarni beradi hamda buning uchun shartnomada kelishilgan miqdorda kompensatsiya oladi. Turli mamlakatlar korxonalari *kooperatsiyasi* xalqaro hamkorlikning samarali shakllaridan biridir. Xalqaro marketing tajribalarining ko'rsatishicha, kichik korxonalar ham yirik sanoat firmalari bilan tashqi bozorga zarur bo'lgan yuqori sifatli mahsulotlarni nisbatan arzon narxlarda etkazib berish yo'li bilan raqobatlashishi mumkin. BMTning Evropa iqtisodiy komissiyasi ishlab chiqarish bo'yicha xalqaro kooperatsiya shakllarini quyidagicha tasniflaydi:

1. Kooperatsiya (litsenziya asosida), ya'ni litsenziyani hamkorga berish (sotish).
2. Hamkorga doimiy ravishda ma'lum miqdorda detallar, tarkibiy qismlar yoki tayyor mahsulot etkazib turgan holda kooperatsiya (litsenziya asosida).
3. Bir vaqtning o'zida asbob-uskunalar, murakkab texnika va ishlab chiqarish-ombor binolarini lizing tartibida bergan holda kooperatsiya (litsenziya asosida).
4. Birgalikda ishlab chiqarish, texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqarish dasturlarini taqsimlash, mahsulotni sotish va hokazolarni ko'zda tutadi.

Raqobat bu — kishilarning avvalo iqtisodiy, shuningdek, jamiyat hayotining boshqa sohalaridagi jiddiy kurashdir. Iqtisodiyot nuqtai nazaridan raqobat bu sotuvchilarning (ishlab chiqaruvchilarning) iste'molchilar talablarini qondirish uchun kurash, shuningdek, xaridorlarning eng qulay sharoitlarda o'zlari uchun eng foydali tovarlarni sotib olish uchun kurash hisoblanadi. Raqobat bir tomonidan iqtisodiyotning to'xtab qolishiga to'sqinlik qilib, jamiyat taraqqiyotining garovi bo'lsa, ikkinchi tomondan barqarorlikning yo'qolishi, mojarolar, bankrotga uchrash, xodimlarning ishdan bo'shatilishi raqobatning ajralmas qismlaridan biridir. e. Xabbardning obrazli ifodalashiga ko'ra: «Raqobat – savdoning hayoti va savdogarlarning o'limidir». Bizning mamlakatimizda raqobat haqida bozor islohotlarining o'tkazila boshlashi bilan gapira boshladilar. SHu sababli respublikamizdagi ishlab chiqaruvchi va vositachilarda raqobatli kurash olib borish bo'yicha tajribalar hali etarli emas.

Bozorda raqobatning ikki xil turini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) narxga bog'liq bo'lgan raqobat;
- 2) narxga bog'liq bo'lmagan raqobat.

Dastlabki holatda raqobatchilar bilan kurash o'z tovarlari narxini tushirish vositasida olib boriladi. *Narxga bog'liq bo'lgan raqobat* sotuvchining ustunligi mavjud (talab taklifdan yuqori va xaridorlar o'rtasidagi raqobat kuchli) bo'lgan bozorlarda sof raqobat ustun bo'lgan (bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchilar soni ko'p) sharoitlarda, talabning o'zgarishi sust bo'lgan hollarda va kapitalning harakatlanishi unchalik yuqori bo'lmagan sharoitlarda qo'llanadi. Raqobat kurashining narx bilan bog'liq usuli samaradorligi yuqori emas, chunki raqobatchilar xuddi shu tarzda darhol o'z tovarlari narxini tushirishlari mumkin. Bundan tashqari, narx bilan o'ynash moliyaviy barqarorlikka imkon bermaydi, korxonani rejalashtirish va boshqarishni qiyinlashtiradi. Hozirgi sharoitlarda narx bilan bog'liq bo'lgan usulni qo'llash ayniqsa, yangi bozorlarga kirib borishda (masalan, yangi bozorga kirib borishda yaponlar narxlarni o'rtacha 10%ga kamaytiradilar) davom etmoqda. Biroq narxlarning pasaytirilishi bo'lajak foyda va rentabellik darajasi aniq hisoblab chiqishni talab qiladi (narxlarning pasaytirilishi daromadning o'sishiga olib kela oladimi yoki yo'qmi, shuni aniqlash kerak).

Hozirgi rivojlangan bozor sharoitlarida raqobatning narx bilan bog'liq bo'lmagan usuli – o'z tovarini raqobatchilarning o'xshash tovarlaridan ajratib ko'rsatish, unga xaridor uchun o'ziga xos bo'lgan xislatlar berish, texnik xizmat ko'rsatish darajasini oshirish, tovarlarni sotishning ilg'or shakllarini rivojlantirish, firma faoliyatining funksional jihatlari va tuzilmasini takomillashtirish, xaridorlar so'rovlarining o'ziga xosligini hisobga olish kabilar afzal ko'rilmogda. Buning uchun raqobatchilar yangi tovarlar chiqarish, ularni takomillashtirish, sifatini oshirish, turli xil qo'shimcha xizmatlar va sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish kafolatini taklif qilishdan foydalanadilar. Narx bilan bog'liq bo'lmagan raqobatda nisbatan moliyaviy barqarorlik ta'minlanadi va bu korxonani

samarali boshqarishga imkon beradi. Raqobatning narx bilan bog'liq bo'lmagan usuli samaradorligi yuqoriroq, chunki raqobatchilar javob tariqasidagi xatti-harakatarni narx bilan bog'liq bo'lgan raqobatdagi kabi tezlik bilan amalga oshira olmaydilar. SHuning uchun ham narx bilan bog'liq bo'lmagan raqobatni samarali raqobat deb ham atashadi. Narx bilan bog'liq bo'lmagan raqobat usuli narx bilan bog'liq bo'lgan raqobatga nisbatan ko'proq kuch va moliyaviy xarajatlar sarflanishini talab qilsada, muvaffaqiyatga erishilgan hollarda bu xarajatlar to'la oqlanadi. Firmaning maqsad va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda raqobatli xulq-atvorning quyidagi variantlaridan biri tanlab olinishi mumkin:

- 1) yangi mahsulot, texnologiya, sotuv usullari, servis va reklamani yaratish;
- 2) yangilik yaratganlardan qisqa muddatda kam xarajatalr bilan «nusxa ko'chirib olish»;
- 3) erishilgan yutuqlarni sifatni oshirish, assortimentni kengaytirish kabi yo'llar bilan imkon qadar uzoq vaqt saqlab turish.

Firmaning ma'lum bir bozor segmentlariga xizmat ko'rsatishga moslashib olishi qoidaga ko'ra boshqa bozor segmentlarini yo'qotish yoki ularda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarining pasayishi hisobiga erishiladi. SHunga asosan quyidagi raqobat strategiyalaridan biri belgilab beriladi:

CHeklangan raqobat strategiyasi — raqobatli kurash strategiyasi yuqori sifatli, tor ixtisoslashgan mahsulotlarni cheklangan miqdorda ishlab chiqarishdan iborat.

Lokal raqobat strategiyasi — raqobatli kurash strategiyasi bozorning kichik (lokal) hajmli ehtiyojlarini maksimal darajada chuqur qondirishni nazarda tutadi. Ushbu strategiyaga amal qiluvchi kichik firmalar samarali asbob-uskunalar, ilmiy-texnik loyihalar va maxsus sohada bilimlarga ega bo'lmaydi.

YAngilik kirituvchi raqobat strategiyasi — tubdan o'zgartirish va yangiliklar kiritishga yo'naltirilgan strategiya. Ushbu tavakkalchilik yuqori bo'lgan biznes bilan shug'ullanuvchi firmalarni kpincha «ilk qaldirg'ochlar» deb atashadi.

Differentsiatsiya nish — kompaniyalarning bozorda egallagan o'rinlarini ajratib (chegaralab) olish jarayonidir. Keskin kurashga kirishib ketmaslik uchun firmalar bitta o'rinni egallamaslikka harakat qiladilar. Ularning har biri raqobatchilar tovarlaridan bir oz farq qiluvchi tovarlar ishlab chiqaradi va bozorda o'z segmentini egallaydi. Nima sababdan xaridor aynan shu mahsulotni tanlab oladiq Bunda u qaysi mezonlarga amal qiladiq Uni ma'lum bir tovar yoki xizmatni tanlashga qanday qilib ko'ndirish mumkinq

SHu va shu kabi savollar har bir firmaning tijorat faoliyatida asosiy rol' o'ynaydi. Butun bozor iqtisodiyoti uchun esa bu savollar ushbu mamlakatda qaysi tovarlar ishlab chiqariladi degan savol bilan bir xil kuchga ega hisoblanadi. Bu savollarning javoblari raqobatbardoshlik tushunchasi bilan bog'liq.

Xalqaro marketing kontseptsiyasini tayyorlash va amalga oshirish jarayoni bir qator ketma-ket bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro marketingni rejalashtirish va amalga oshirish jarayoni:

Dastlabki bosqich – dastlabki ma'lumotlarni to'plash va muhim bo'lishi kutilayotgan xorijiy bozorlar orasidan eng ustivorlarini tanlab olish uchun taxminiy tahlilni amalga oshirish.

1-2-bosqich – Har bir ustivor mamlakat uchun to'liq (to'laroq) ma'lumotlarni yig'ish. Bozordagi imkoniyatlar, tavakkalchiliklar va ularga mos ravishda korxonalarining har bir ustivor bozordagi salohiyatining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash.

3-4-bosqich – korxonaning bosh maqsadlaridan kelib chiqqan holda tashqi iqtisodiy faoliyatning umumiy maqsadlari, chet el bozorlariga oid maqsadlar, bozorlarni tanlash va segmentlashni aniqlash. Bozorga kirib borish strategiya variantlari va tashqi iqtisodiy aloqa shakllarini ishlab chiqish.

5-6-bosqich – muqobil strategiyalarni korxona salohiyatining maqsad va strategiyalarga mos kelishi va amalga oshirilishi bo'yicha baholash. Har bir ustivor mamlakat bo'yicha marketing rejasini ishlab chiqish va korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyati bo'yicha umuiy strategiyani optimallashtirish.

7-8-bosqich – marketing chora-tadbirlari tezkor rejalarini ishlab chiqish va qabul qilishdan so`ng ularni amalga oshirish, nazorat qilish.

9-bosqich – kontseptsyani aniqlash va unga o`zgartirish kiritish.

Jahon bozorida marketing tamoyillari va usullari asosida ish yuritishning hamma uchun bir xil formulasi mavjud emas. Bunday faoliyatning muayyan shakllari bir-biridan sezilarli farq qilishi mumkin. Marketing yondashuvida asosiysi maqsadli yo`nalganlik, marketing faoliyati va boshqa tudagi faoliyatlarning tarkibiy qismlarini belgilangan strategik maqsadlarga erishish uchun yagona yo`naltirilgan texnologiya jarayoniga birlashtirishdir.

Xalkaro marketing faoliyatining tashkil etish asosiy kontseptsiyalari quyidagilar:

Ishlab chiqarish kontseptsiyasi xalqaro bozor sub`ektlarining tijorat-xo`jalik faoliyatini tashkil etish tizimi bo`lib, bunda sotuvchi ishlab chiqarishni takomillashtirish va tovar taqsimoti tizimining samaradorligini oshirish hisobiga o`z mahsulotlarini chet elda muvaffaqiyatli sotishni mo`ljallaydi. Bunda ichki ishlab chiqarish imkoniyatlari hal qiluvchi rol ni o`ynaydi. Mazkur vazifani bajarish uchun ishlab chiqaruvchi ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, ishlab chiqarish texnologiyalarini yaxshilash, xarajatlarni qisqartirish, mehnat mahsuldorligini oshirish kabi usullardan foydalanishi mumkin. Ishlab chiqarish kontseptsiyasi ikki xil holatda qo`llanishi mumkin:

- «sotuvchi bozori» sharoitida, ya`ni tovarga talab taklifdan yuqori bo`lganda;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxi yuqori bo`lib, uni pasaytirish zarur bo`lganda.

Ishlab chiqarish kontseptsiyasidan Genri Ford tijorat faoliyatini boshlagan paytda keng foydalangan. O`sha davrda Amerikaning avtomobil` bozorida «sotuvchi bozori» hukmron edi: avtomashinalarni tanlab olish cheklangan bo`lib, ularning narxi juda yuqori edi. Ishlab chiqarishni takomillashtirib olgach, Forda mahsulot tannarxini pasaytirishga erishdi. Bu esa avtomashinalarning keng iste`molchiarga ommasiga etib borishini osonlashtirdi.

Tovar kontseptsiyasi xalqaro bozor sub`ektlarining tijorat-xo`jalik faoliyatini tashkil etish tizimi bo`lib, bunda sotuvchi ishlab chiqarilayotgan mahsulotning yuqori sifati uning eng yaxshi ekspluatatsiya tavsifnomalari bilan uyg`unlashgan holdagina o`z mahsulotlarini chet elda muvaffaqiyatli sotishdan umid qiladi. Ishlab chiqaruvchi barcha hatti-harakatlarini tovarni takomillashtirishga qaratadi. Buning uchun foydalaniluvchi usullar xuddi ishlab chiqarish kontseptsiyasida qo`llanuvchi usullarga o`xshab ketadi. Ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishda asosiy o`rinni ITTKI egallaydi.

Sotuv kontseptsiyasi xalqaro bozor sub`ektlarining tijorat-xo`jalik faoliyatini tashkil etish tizimi bo`lib, bunda sotuvchi sotuv sohasiga ko`p kuch sarflagan holda o`z mahsulotlarini chet elda muvaffaqiyatli sotishga harakat qiladi. Sotuvchi faoliyatining asosiy vazifasi deb zarur sotuv hajmiga erishishni belgilaydi. CHet ellik xaridorga sotuvni rag`batlantirishning turli usullari yordamida ta`sir ko`rsatar ekan, sotuvchi uni o`z tovarlarini sotib olishga undaydi. Ko`p hollarda sotuvchi xaridorning ehtiyojlarini qondirish ustida bosh qotirmasdan, o`z mahsulotlarini zo`rlab sotish siyosatini ham qo`llaydi. Sotuv kontseptsiyasi ma`lum vaqt davomidagina potentsial xaridorlar soni etarli bo`lganda samarali bo`lishi mumkin.

Marketing kontseptsiyasi xalqaro bozor sub`ektlarining tijorat-xo`jalik faoliyatini tashkil etish tizimi bo`lib, bunda chet ellik xaridorlarning ehtiyojlarini aniqlab, ularni o`z raqobatchilariga nisbatan samaraliroq qondirish usullarini topgan holdagina o`z mahsulotlarini chet elda muvaffaqiyatli sotishni mo`ljallaydi. O`z maqsadlarigsha erishish uchun ishlab chiqaruvchi birinchi o`ringa chet ellik xaridorlarning muayyan ehtiyojlarini qo`yadi. SHu sababli boshqaruvda asosiy e`tiborni ishlab chiqarish faoliyatidan o`z mahsulotlariga bo`lgan ehtiyojni marketing usullari tizimi yordamida saqlab qolish va kengaytirishga qaratish zarurati tug`iladi.

SHu tariqa, marketing kontseptsiyasi bu chet ellik xaridorga yo`nalganlik bo`lib, ishlab chiqarishni uning manfaatlariga xizmat qilishiga asosalanadi.

Jamoatchilik marketingi kontseptsiyasi xalqaro bozor sub`ektlarining tijorat-xo`jalik faoliyatini tashkil etish tizimi bo`lib, bunda sotuvchi xalqaro bozorning ehtiyojlarini aniqlab, ularni o`z raqobatchilariga nisbatan samaraliroq qondirish usullarini topgan holda, ayrim chet ellik xaridorlar va umuman jahon hamjamiyatining uzoq muddatli manfaatlariga mos holda o`z mahsulotlarini chet elda muvaffaqiyatli sotishni mo`ljallaydi. Bunday kontseptsianing paydo bo`lganiga hali ko`p

bo'lgani yo'q. Uning paydo bo'lishiga ekologik muhitning yomonlashuvi, xom-ashyo va energetika taqchilligining yuzaga kelishi, inflyatsiya jarayonlarining chuqurlashuvi, demografik ahvolning jiddiylashuvi kabi holatlar sabab bo'ldi. Faoliyatini ushbu kontseptsiya doirasida tashkil etuvchi korxona o'z oldiga xalqaro hamjamiyatning manfaatlariga mos ravishda chet ellik xaridorlarning ehtiyojlarini qondirishni maqsad qilib qo'yadi.

9-mavzu: XORIJIY INVESTITSİYALARNI SUG'URTALASH VA TAVAKALCHILIK

Reja

1. Investitsiya faoliyatida risklar va ularning turlari.
2. Loyixa risklarini turlari
3. Investitsiya risklarini pasaytirish yo'llari va sug'urtalash

1. Investitsiya faoliyatida risklar va ularning turlari.

O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni muvaffaqiyatli jalb etish ma'lum darajada uch guruh omillarga bog'liq bo'ladi.

Birinchidan, investitsiya quvvatining mavjudligiga. Uni tabiiy, mehnat zahiralari, shuningdek, ishlab chiqarish, iste'mol, moliyaviy, innovatsiya, institutsional va infratuzilmaviy quvvatlar tashkil qiladi.

Ikkinchidan, mamlakatdagi mavjud investitsiya sharoitlari muhim ahamiyatga egadir. Bularga: umumiqtisodiy, bozor, me'yoriy-huquqiy, axborot bilan ta'minlanish, ekologik, ijtimoiy, madaniy va ijtimoiy-madaniy sharoitlar kiradi.

Uchinchidan, investitsiya tavakkalchiligi omillaridir. Ular xorijiy investorlarning investitsiya quvvati va investitsiya sharoitlarining qulay afzalliklaridan foydalanish bo'yicha vazifalariga qarama-qarshi turadi.

Barcha guruhlar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Misol uchun, etarli darajada jalb qiluvchi bo'lmagan investitsiya sharoitlari, hatto, yuqori quvvatli investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkoniyatlarini ham pasaytirib yuboradi.

O'tish iqtisodiyotida bo'lgan, ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha sharoitlarni shakllantirayotgan davlatlar uchun investitsiya risklari risklarning muhim turlaridan biridir. SHuning uchun ham riskni, uning manbalarini va uning oldini olish usullarini aniqlash rivojlanayotgan mamlakatlar uchun hayotiy muhim vazifa bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatdagi investitsiya faoliyati iqtisodiyotning ustuvor sohalarida investitsiya loyihalarini amalga oshirish bilan belgilanmoqda. Investitsiya loyixalari kelajakka tegishli bo'lganligi sababli, ularni amalga oshirish natijalarini aniq taxmin qilish muammodir. Bunday loyihalar kutilishi mumkin bo'lgan risklar va noaniqliklarni hisobga olgan holda bajarilishi kerak. Investitsion qaror bir qator kutilishi mumkin bo'lgan oqibatlarga ega bo'lgan hollarda, qaror riskli yoki noaniqliklarga ega deb hisoblanadi.

Riskni ma'lum bir qarorni qabul qilish natijasida zahiralarni yo'qotish imkoniyati, daromadlarni ololmaslik yoki qo'shimcha xarajatlar zarurati sifatida belgilash mumkin. Risk (grekcha ridsicon, ridsa so'zidan olingan bo'lib, yo'qotish, qoya degan ma'noni anglatadi)¹⁰-bu bashorat qilinayotgan loyihani amalga oshirishda haqiqiy sharoitlardan ozgina chekinilganda daromadlarni ololmaslik yoki zararlarning paydo bo'lib qolish ehtimolidir.

O'tish iqtisodiyotida bo'lgan mamlakatlar uchun investitsiya risklari turlarini baholash.

¹⁰ Журнал «Финансы и кредит» №14 2004 год, статья О.В.Латыпова «К вопросу оценки и управления экономико-экологическими рисками».

Risk turlari	O'tish iqtisodida bo'lgan mamlakatlar		
	SHarqiy Evropa mamlakatlari	Bolتيq bo'yi mamlakatlari	MDH mamlakatlari
Qonunchilik riski			
Qonunchilik asoslari nomukammalligi	*	*	***
Me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi doimiy o'zgarishlar	*	*	***
Hujjatlarni talqin etishdagi ko'p ma'nolilik	*	*	**
Ijtimoiy risk			
Ishsizlik darajasi	**	*	***
Aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlari	***	**	*
Aholi real daromadlari dinamikasi	*	*	***
Har bir band kishiga nisbatan ish haqi bo'yicha o'rtacha yillik qarzdorlik darajasi	*	*	***
Siyosiy risk			
Aholining davlat siyosatiga ishonchi	**	*	*
Ichki va tashqi xavfsizlik	**	*	**
Kriminal risk			
Mulkni o'g'irlash bilan bog'liq jinoyatlar soni	*	*	**
Korruptsiya bilan bog'liq jinoyatlar soni	*	*	***
Iqtisodiy risk			
Davlat byudjeti tanqisligi holati	*	*	**
Yillik inflyatsiya darajasi	**	**	***
YAIM o'sishi	*	**	***
To'lov balansi holati	*	*	**
Sanoat ishlab chiqarish dinamikasi	*	*	**
Zarar bilan ishlayotgan korxonalar ulushi va bankrot bo'lgan korxonalar soni	*	*	***
Asosiy fondlarning eskirishi	*	*	**
Korxonalar debitorlik-kreditorlik qarzlarning aylanma mablag'larga nisbati	*	*	***
Ekologik risk			
Ekologik noqulay hududlar mavjudligi	*	*	***
Zararli chiqindilarni chiqarib tashlash natijasida atrof-muhitning zararlanishi	**	*	***
Radiaktiv fon o'rtacha darajasi	*	*	**

Izoh: * - eng kam xatar, ** - o'rtacha xatar, *** - yuqori xatar.

Manba: ETTB va Jahon banki tahliliy materiallaridan foydalanilgan holda baholandi.

2. Loyixa risklarini turlari

Loyiha riski – bu investitsiya loyihasini amalga oshirishga halaqit beradigan yoki loyiha samaradorligini pasaytiradigan risklarning yig'indisidir.

Risk, boshqacha qilib aytganda, kutilishi mumkin bo'lgan xatar – bu investitsiyadan mo'ljallangan foydani olish jarayoniga xos bo'lgan noaniqlikdir. SHu bilan birga potentsial investor tomonidan qo'yilgan pul mablag'larini yo'qotish mumkinligi hamdir.

Risk tushunchasiga juda ham yaqin bo'lgan noaniqlik tushunchasi ham mavjud bo'lib, u riskning aniq turlarini tasniflash uchun “risk” atamasining sinonimi sifatida qo'llaniladi. Noaniqlik deganda, investitsiya loyihasini amalga oshirish shart-sharoitlari haqidagi ma'lumotlarni to'la yoki

aniq emasligi tushuniladi. Masalan, inflyatsiya haqidagi, texnika va texnologiyalardagi o'zgarishlar haqidagi, loyiha quvvatining, ob'ektning qurilish va foydalanishga topshirish muddatlari, xarajat va natijalarning noto'g'ri hisob-kitobi kabi ma'lumotlarning to'la yoki aniq emasligi natijasida noaniqlik kelib chikadi. Bundan tashqari noaniqlik deganda, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy holatga etarlicha baho bermaslik va boshqa shu kabilar tushuniladi. Loyihani amalga oshirish jarayonida yuzaga kelish imkoniyati bilan bog'liq ko'ngilsiz holatlar va oqibatlar noaniqligi risk tushunchasi bilan izohlanadi.

Risk bilan noaniqlikning farqi shundaki, natijalar ehtimolligi joriy davr ma'lumotlari asosida baholanayotgan vaqtda risk e'tiborga olinadi. Noaniqlik esa bunday ehtimollik o'tgan va kelasi davr ma'lumotlari etishmasligi yoki to'la emasligi sababli sub'ektiv aniqlangan vaqtda e'tiborga olinadi. Har qanday holda ham kelgusi iqtisodiy holatlar istiqbolini belgilash (inflyatsiya, foiz stavkasi, talab va taklif, ishlab chiqarish va sotish va boshqalar) kelajakning ma'lum emasligi sababli faqat taxminiy va noaniq natijalar bo'lishi mumkin. Chunki o'tgan davr ma'lumotlari asosida faqat noma'lum kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan o'tgan rivojlanish tendentsiyasini aniqlash mumkin.

Investitsion rivojlanishga quyidagilar ta'sir ko'rsatadi: siyosiy, ijtimoiy, savdo va ishga aloqador muhitdagi ko'pgina o'zgarishlar; texnika-texnologiyadagi, mehnat unumdorligi va baholardagi o'zgarishlar; atrof-muhit holati; amaldagi soliqqa tortish, huquq bo'yicha va boshqalar bo'yicha muammolar ta'sir ko'rsatadi. Bularning barchasi loyihalarda aniq riskning mavjudligini – loyihani muvaffaqiyatsizlikka uchrash xatarini yoki foydani o'rniga zarar olishi mumkinligini oldindan aniqlab beradi.

Iqtisodiy kategoriya sifatida risk – bu bo'lishi mumkin bo'lgan yoki bo'lmaydigan hodisa. Agar bu hodisa bo'lsa ijobiy (foyda, daromad yoki boshqa tushum) va salbiy (xarajatlar, zarar, yo'qotish) natija bo'lishi yoki hech qanday natija bo'lmazligi mumkin.

Moliyaviy operatsiyalar risk darajasini baholashni, uning miqdorini aniqlashni va uni kamaytirish chora-tadbirlarini qo'llashni talab qiladi.

Mamlakat iqtisodiyotiga o'z sarmoyasini kiritayotgan investor nuqtai-nazarida, shu mamlakatdagi holat, vaziyat investitsiya muhiti deb ataladi. Investitsiya muhiti bir qator risk omillarini o'z ichiga oladi. Bu omillar rivojlanish istiqbollari, ichki va tashqi shart-sharoitlar va vaziyat ta'siri ostida vujudga keladi. Ko'p hollarda mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy holat va uning rivojlanish istiqbollari qarang ijtimoiy-siyosiy, ichki va tashqi risklar taxmin qilinadi.

Risk omili yoki oddiygina qilib aytganda risk loyihaning samaradorligini baholashga ta'sir etuvchi muhim element hisoblanadi. Investitsiya loyihasida risk kiritilgan sarmoya haqiqiy qaytimini kutilayotganga nisbatan kamaytirishini hisobga olib, uni hisoblash uchun ko'p hollarda foiz stavkasiga o'zgartirishlar kiritiladi. Bu foiz stavkalari risksiz qo'yilmalar bo'yicha, masalan, bank depozitlari yoki qisqa muddatli davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlilikni xarakterlaydi.

Korxonalar (firmalar, aktsiyadorlar, investorlar) riskli loyihaga pul mablag'larini yo'naltirganda, kapital qiymatini oshirish yo'li bilan riskni hisobga oladilar, ya'ni riskka tuzatish kiritilgan diskont stavkasini qabul qiladilar. SHu yo'l bilan diskont stavkasi vaqtinchalik afzalliklarni va riskni hisobga oladi. Bu usul oddiy bo'lishi bilan birga bir qator kamchiliklarga ham ega. Chunki riskni ham, vaqtinchalik afzallikni ham hisobga olishda bir xil usul qo'llaniladi. Bundan tashqari sof daromad olish bilan bog'liq noaniqlikning yanada yuqori darajasini aks ettiruvchi oddiy diskont stavkasi E va qo'shimcha doimiy koeffitsientni K jamlash yo'li bilan riskka tuzatish kiritish, so'nggi ikki yil davomida bir xil riskka ega bo'lgan ikki loyiha bo'yicha bir xil ahamiyat kasb etmaydi.

Faraz qilamiz, investitsiyalar bir xil miqdorda daromad D_1 va D_2 keltiradi va so'nggi ikki yil davomida aniq risk darajasida bo'lgan. Diskontlash yo'li bilan D_1 daromadning ahamiyati $(1+E+K)$ stavka bo'yicha topiladi, D_2 bo'lsa, $(1+E+K)^2$ stavka bo'yicha topiladi, ya'ni D_1 ning mohiyati $D_1G(1+E+K)$ orqali, $D_2 - D_2G(1+E+K)^2$ orqali aniqlanadi. $D_2 > D_1$ bo'lganligi sababli, bu usul investitsiyalarni, shu bilan birga ulardan olinadigan daromadlarni bir xil riskka ega deb qaramaydi. Vaqtning turli davrlarida kelib tushgan, lekin pul mablag'lari oqimiga kiruvchi bir xil risk bilan

bog'liq diskontning bir stavkasini qo'llash bir xil miqdorda daromad olishga imkon bermaydi. Bundan tashqari, risk uchun qo'shiladigan qo'shimchaning miqdori, odatda, intuitiv, ya'ni kerak bo'lgan nazariy asossiz o'rnatiladi.

Foiz stavkasiga riskning o'z-o'zidan kiritish keng tarqalgan, lekin bu usul riskni hisoblashning yagona usuli emas. Bu masalani boshqacha echish usuli - bu investitsion loyihaning tashqi omillari va parametrlarining o'zgarishiga nisbatan shu loyihaning ta'sirchanligi-sezgirligi va barqarorligini tahlilidir. Tashqi omillarga inflyatsiyaning kelgusidagi darajasi; foydalanilayotgan hom ashyo va materiallar, yoqilg'i va energiya hamda boshqa resurslar bahosini va ularga bo'lgan talabni o'zgarishi; ssuda foizlari stavkasining, soliqlarning o'zgarishi va boshqalar kiradi.

Investitsiya loyihasi samaradorligini baholashda, agar investitsiyani amalga oshirishning turli sharoitlarida xarajatlar va natijalar har xil bo'lsa, risk va noaniqlik omillari hisobga olinadi. Amaliyotda esa risklarning bo'linishi, ularning tasnifi loyiha rejasi va shartnoma hujjatlarini tayyorlash jarayonida amalga oshirilishi lozim. Riskning turlari va xatarlarini bilgan holda, ularga ta'sir o'tkazish mumkin, ya'ni ularni boshqarish, riskning loyiha samaradorligiga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini pasaytirish mumkin.

Investitsiya loyihasini risklarini tasnifi turli tizimlari mavjud.

Birinchidan, loyiha faoliyatining bosqichlari va fazalari bo'yicha tasniflash: investitsiyalash oldi fazasidagi, investitsiyalash fazasidagi, ishlab chiqarish fazasidagi risklar.

Ikkinchidan, loyiha faoliyati ishtirokchilari uchun risk tahdidlariga ta'sir etishning imkoniyatlarini mezonlari bo'yicha tasniflash. SHu nuqtai-nazar bo'yicha riskni: ichki va tashqi risklarga ajratish mumkin. Tashqi risklarga siyosiy risklar va fors-major risklari kiradi. Fors-major riskiga tabiiy ofatlar: yong'in, suv toshqini, qurg'okchilik kabilar kiradi. Tashqi risklar loyiha faoliyatining barcha faza va bosqichlarida mavjud.

Uchinchidan, riskdan himoyalash imkoniyatlari nuqtai-nazaridan tasniflash:

- 1) Sug'urtalanadigan risklar;
- 2) Sug'urtalanmaydigan risklar.

Sug'urtalanadigan risklar o'z navbatida: a) kafolat; b) sug'urta; v) zahira fondi hisobiga qoplanadigan risklarga bo'linadi.

Bundan tashqari, loyiha faoliyatining xaqiqiy amaliyotiga asoslangan, eng ko'p uchraydigan risklar ham bo'lib, ularga loyiha ishtirokchilari e'tibor bersalar ham, hech bir guruhlash mezon doirasiga kirmaydigan risklar ham mavjud. Ular:

- iqtisodiy qonunlarning va iqtisodiy holatning o'zgarib turishi, investitsiyalash va foydadan foydalanish shartlari bilan bog'liq risklar;
- tashqi iqtisodiy risklar – savdo va mahsulot etkazib berishga cheklashlar kiritish, chegaralarning bekilishi va shu kabi ehtimolliklar riski;
- siyosiy holatning noaniqligi, hududdagi yoki mamlakatdagi noma'qul ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar riski;
- texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi, yangi texnika-texnologiya parametrlari, mahsulot sifati haqidagi ma'lumotlarning to'liq emasligi yoki noaniqligi;
- bozor kon'yunkturasining, ya'ni aniq davrdagi iqtisodiyotning joriy holatini xarakterlovchi belgilar, masalan, baho, valyuta kurslari, yalpi ichki mahsulot va boshqalarning o'zgarib turishi;
- tabiiy iqlim sharoitlarining, tabiiy ofatlar ehtimolining o'zgarib turishi;
- ishlab chiqarish texnik risklari – asbob-uskunalarining buzilishi va to'xtab qolishi, ishlab chiqarishdagi brak va boshqalar;
- loyiha ishtirokchilarining o'zlarini tutishlari, qiziqishlari, maqsadlarining noaniqligi, ularning moliyaviy holati va ishdagi obro'si haqidagi ma'lumotlarning to'liq emasligi, noaniqligi.

Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va loyihaning ayrim turlari bo'yicha risklar bo'lishi mumkin. Masalan, konchilik va neft'-gaz qazib chiqarish sanoatida geologik riskka, ya'ni zahiralarini to'g'ri baholash riskiga alohida e'tibor beriladi. Kimyo sanoati, kon qazib olish, qora va rangli metallurgiya loyihalarida ekologik riskka katta e'tibor beriladi.

YUqorida keltirilgan tasniflashlarga asoslangan holda, loyiha faoliyatidagi risklarni quyidagi guruhini keltirish mumkin:

- 1) Loyiha ishtirokchilari riski;
- 2) Loyiha smeta qiymatining oshish riski;
- 3) Qurilishni o'z vaqtida tugamaslik riski;
- 4) Ish va ob'ekt sifatining pastligi riski;
- 5) Konstruktsion va texnik risklar;
- 6) Ishlab chiqarish riski;
- 7) Boshqaruv riski;
- 8) Sotish riski;
- 9) Moliyaviy risk;
- 10) Mamlakat riski;
- 11) Ma'muriy risk;
- 12) huquqiy risk;
- 13) Fors-major riski.

Loyiha ishtirokchilari riski – bu ishtirokchilarning loyiha faoliyati doirasida o'z majburiyatlarini anglagan holda yoki majburiy tarzda bajarmaslik riski. Birgina loyiha ishtirokchisining o'z majburiyatlarini bajarmasligi, boshqa ishtirokchilarning o'z majburiyatlarini bajara olmasligiga olib kelishi, natijada loyiha barbod bo'lishi mumkin. Loyiha ishtirokchilari riskiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin: ishtirokchilarning vijdotsizligi; ularning professionallik darajasi, moliyaviy holatining barqaror emasligi, ishtirokchilarni turli risklardan etarlicha sug'urtalanmaganligi va boshqa loyiha faoliyatining bir qator risklari loyiha ishtirokchilarining riskidan kelib chikadi. Masalan, loyiha smeta qiymatining oshishi riski qurilish tashkilotining vijdotsizligi natijasida ro'y berishi mumkin. Ish sifatining pastligi riski, ko'p hollarda, tanlangan pudratchi va boshqa ishtirokchilarning etarli tajribaga ega emasligi bilan bog'liq bo'ladi.

Loyiha smeta qiymatining oshish riskiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin: loyihalash jarayonidagi xatolar, pudratchining resurslardan samarali foydalanishni ta'minlay olmasligi, loyihani amalga oshirish shartlarini o'zgarishi.

Qurilishni o'z vaqtida tugallanmaslik riskiga quyidagilar ta'sir ko'rsatadi: loyihalashdagi xatolar, pudratchi majburiyatining bajarilmasligi; tashqi shart-sharoitlarning o'zgarishi. Ishni tugatishning cho'zilib ketishi natijasida o'o'shimcha xarajatlar kelib chiqadi: kredit bo'yicha o'o'shimcha foizlarni hisoblash, narxlarning inflyatsiya natijasida o'sishi oqibatida ish va material qiymatining oshishi kabi qo'shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, bu risk natijasida kelgusidagi ob'ektga xom ashyo etkazib beruvchilar bilan va kelgusidagi loyiha mahsuloti iste'molchilari bilan shartnomaviy munosabatlar to'xtashi mumkin.

Ish va ob'ekt sifatining pastligi riski pudratchilar majburiyatining buzilishi, loyihalashtirishdagi xatolar va boshqalar natijasida kelib chiqishi mumkin. Ob'ekt sifatining pastligi natijasida loyiha bo'yicha qo'shimcha investitsion xarajatlar qilinishi kerak bo'ladi. Bu xarajatlar kamchiliklarni tuzatishga sarflanishi mumkin. Agar kamchilik saqlanib qoladigan bo'lsa, loyiha mahsulotini ishlab chiqarishga o'o'shimcha xarajatlar qilish kerak bo'ladi.

Konstruktsion va texnologik risk. Konstruktsion risk – bu investitsiya fazasidayoq loyihaning texnik amalga oshmaslik riski. Bu loyiha hujjatlarini ishlab chiquvchilarning xatolari, bu hujjatlarni ishlab chiqishda zarur bo'lgan ma'lumotlarni etarli yoki aniq emasligi natijasida ro'y berishi mumkin. Texnologik risk – bu ishlab chiqarish texnologiyalarining sanoat darajasida qo'llanilmasligi natijasida ma'lum texnik-iqtisodiy parametrlardan ob'ekt ekspluatatsiyasidagi cheklanishlar riski. Bunga ekspluatatsiya xarajatlarining oshishi, brak foizlarini kattaligi, ekologik normativlarga mos kelmaslik kabilar ta'sir etadi.

Ishlab chiqarish riski – bu ishlab chiqarish jarayonida kamchiliklarni yuzaga kelish riski. Bu ishlab chiqarish davomiyligining buzilishida, ob'ektning loyihaviy quvvatga erishmasligida, brak foizlarining yuqoriligida, qo'shimcha ishlab chiqarish xarajatlarida va boshqalarda namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarish riskining bir turi – bu yuqorida aytib o'tilgan texnologik riskdir. Kamchiliklar iqtisodiy tartib sababli – ta'minotdagi uzilishlar, o'sha joydagi resurs zahiralarning etishmasligi, xom ashyo sifatining pastligi, transport masalalari va boshqalar sababli kelib chiqadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining yuqori darajasi xarajatlarni xato hisoblash, xom ashyo va boshqa resurslar miqdori va sifatiga ma'lum talablarni aniq emasligi natijasida bo'ladi.

Boshqaruv riski – bu ishlab chiqarish riskining bir turi, boshqaruv shaxsining tajriba va malakasini etarli darajada emasligi natijasida ro'y beradi. Ayrim hollarda, boshqaruv riski deganda, loyiha faoliyatining barcha faza va bosqichlaridagi menejment darajasining pastligi va xatolari bilan bog'liq risklar tushuniladi.

Sotish riski – bu loyiha mahsuloti sotish hajmining va shu mahsulot bahosining kamayish riski. Sotish riski bozor kon'yunkturasining o'zgarishi riski, marketing riski yoki baho riski deb ham ataladi. Mos kelmaydigan kon'yunktura faqat loyiha rentabelligini kamaytirib qolmay, balki uning butunlay barbod bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bunday holat aniq bir vaqtdagi sotishdan kelgan tushum ishlab chiqarish xarajatlarini va kredit bo'yicha qarzlarni qoplashga etmagan hollarda yuz beradi. Sotish riski, ayniqsa bahosini taxmin qilish ancha qiyin bo'lgan, yangi mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq loyihalarda yuqori bo'ladi.

Moliya riski. Bu riskning loyiha faoliyatidagi asosiy turlari: a) kredit riski; b) valyuta riski; v) foiz stavkasini o'zgarish riski; g) qayta moliyalashtirish riski.

Kredit riski – bu loyihani amalga oshirayotgan tashkilotning kreditor bankka kredit shartnomasi bo'yicha to'lov majburiyatlarini to'liq yoki umuman to'lay olmaslik riski. Bu risk asosan loyihani moliyalashtirishda loyihani kreditlovchi bankning riskidir.

Valyuta riski – bu risk loyiha mahsuloti mahalliy bozorda sotilganda va hokimiyat mahsulotni milliy valyutada sotilishini talab qilayotgan paytda yuqori bo'ladi. Bu risk loyiha mahsulotini sotishdan olinadigan valyuta bilan kredit valyutasi bir xil bo'lmagan hollarda yuzaga keladi.

Foiz stavkasining o'zgarish riski – bu risk kredit resurslari o'zgaruvchan stavkada o'ollanilganda ro'y beradi. Bunday resurslarni jalb qilishda loyihada o'ollanilgan kapital qiymatining oshishi va mahsulot rentabelligining kamayish xavflari mavjud bo'ladi.

Qayta moliyalashtirish riski butunlay boshqaruvchi bank, ya'ni moliyalashtirishni tashkil qiluvchi bank zimmasida bo'ladi.

Mamlakat riski – bu tashqi loyiha risklariga tegishli bo'lib, uning mazmuni shundaki, loyiha amalga oshirilayotgan mamlakatning ijtimoiy-siyosiy jarayonlari va davlatning siyosati loyiha faoliyati uchun jiddiy qiyinchiliklar yaratishi va hatto loyihani barbod qilishi ham mumkin. Mamlakat riskining omillari: markaziy va mahalliy hokimiyatlarning harakati, urushlar, ish tashlashlar, inqiloblar, terrorchilik harakatlari va boshqalar bo'lib, bular asosiy loyiha ishtirokchilari ta'siri doirasidan tashqarida bo'ladi. Davlatning siyosati bilan bog'liq mamlakat risklarini shartli ravishda ikkita katta guruhga bo'lish mumkin: 1. Siyosiy. 2. Iqtisodiy.

Siyosiy mamlakat riski – hukumatning chet el investorlari va kreditorlari ishtirokidagi loyiha faoliyatini to'xtatish yoki cheklashga qaratilgan harakati bilan bog'liq. Bularga foydani boshqa mamlakatga olib o'tishdagi ta'qiqlashlar va cheklashlar, chet el kapitali uchun avval yaratilgan imtiyozlardan mahrum qilish, kontseptsiya va litsenziyalarni qaytarib olish va boshqalar kiradi.

Iqtisodiy mamlakat riski davlatning loyihani amalga oshirilishi sharoitida o'ollaydigan soliq, valyuta, bojxona va boshqa iqtisodiy shart-sharoitlarni o'zgartirishi bilan bog'liq o'zgarishlar xorijiy kapitalni cheklash bilan bevosita bog'liq bo'lmazligi ham mumkin.

Ma'muriy risklar – loyiha kompaniyalari va loyiha faoliyatining boshqa ishtirokchilarini davlat nazorat va tartibga solish boshqarmalaridan turli litsenziyalar, ruxsatlarni olishi bilan bog'liq. Litsenziya, ruxsatlar loyiha faoliyatining barcha faza va bosqichlarida talab qilinishi mumkin: loyiha hujjatlarini ishlab chiqishda, tenderlar o'tkazishda, mashina va asbob-uskunalarini etkazib berishda, qurilishda, dastlabki ishlar va ob'ektning ishga tushirilishida talab qilinadi. Litsenziya, ruxsatlarni soni ayrim loyihalar bo'yicha juda ko'p bo'lishi mumkin: loyiha faoliyatining u yoki bu turi bilan shug'ullanish huquqini beruvchi, tabiiy resurslardan foydalanish, tabiiy resurslarni va valyutani chetga olib chiqish huquqini beruvchi litsenziyalar, ruxsatlar bo'ladi.

Huquqiy risk – bu risk qaysidir darajada mamlakat, ma'muriy va boshqaruv risklari bilan bog'liq. Avvalo, bu risk kreditorning kafolat bermaslik va boshqa kredit bilan ta'minlashlar ehtimoli bilan bog'liq noaniqlik va ishonchsizligida namoyon bo'ladi. Bunday noaniqlik va

ishonchsizlik sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin: qonunlar majmuining va xalqaro huquq normalarining mukammal emasligi, huquqiy hujjatlar sifatining pastligi, sud-arbitraj mexanizmidagi kamchiliklar va boshqalar. Ayrim huquqiy risklar loyiha ishtirokchilari nazoratidan tashqarida bo'lib, ular mamlakat va siyosiy risklarga yaqin. Bundan boshqa huquqiy risklarni milliy qonunchilikni, xalqaro investitsion huquqlarni yaxshi biluvchi, shartnoma, kelishuvlar va boshqa loyihaning huquqiy hujjatlarida ishtirok etuvchi malakali huquqshunos maslahatchini jalb qilish bilan echish mumkin.

Fors-major riski – loyiha faoliyatiga tegishli bo'lmagan tashqi risklardan biri bo'lib, unga er silkinishi, yong'inlar, suv toshqini, bo'ronlar va boshqa tabiiy hodisalar kiradi. Fors-majorga ayrim ijtimoiy va siyosiy tabiiy hodisalar ham kiradi: ish tashlashlar, inqiloblar, o'z-g'olonlar va boshqalar. SHunday yo'l bilan mamlakat riskining bir qismi fors-major riski sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, loyiha faoliyati risklarining alohida turlari bir-birini qoplovchi "umumiy doira"ga ega. Masalan, ishlab chiqarish risklari boshqaruv, ekologik, ta'minot va boshqalarga bo'linadi. Bir qator muhim risklar aniq loyihalarga nisbatan o'z muhimligini yuqotadi. Masalan, sharbiy Evropa mamlakatlarida loyihani amalga oshirishda mamlakat riskini hisobga olish uchinchi ish sifatida qaraladi; davlatga elektr-energiya etkazib berishda uzoq muddatli shartnoma mavjud bo'lgan holda elektrostantsiya qurish loyihani amalga oshirishda sotish riski nolga teng deb qaraladi. YUqorida keltirilgan risklarning tasnifi shartli ravishda bo'lib, har bir loyiha uchun ahamiyatli risklarni aniqlash nuqtasiga yo'naltirish sifatida qaraladi. Bunday risklar aniq holatlarda mutaxassislar va ekspertlar tomonidan tarmoqqa tegishliligi, masshtablari, tanlangan texnologiya, loyihani amalga oshirayotgan mamlakat va boshqa loyihaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

3. Investitsiya risklarini pasaytirish yo'llari va sug'urtalash

Investitsiya risklarini pasaytirishda ko'proq sug'urtalashdan foydalaniladi. Sug'urta himoyasiga olishning uchta turi farqlanadi.

1. O'z-o'zini sug'urtalash.

Bu usulda xo'jalikdagi har qanday sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisalar, korxonalaridagi maxsus jamg'armalar tomonidan qoplanadi. O'z-o'zini sug'urtalash maxsus fondlarga ajratiladigan ajratmalar summasiga bog'liq bo'ladi. YA'ni ko'rilgan zararlar miqdori ko'p bo'lsa, ajratma summasini oshishiga olib keladi va shu jihatdan bu mablag'lar chegaralangandir. Korxonaning aylanma mablag'laridan bir qismi maxsus fondlarga jamg'ariladi va aylanma mablag'lar xajmiga salbiy ta'sir kursatadi. O'z-o'zini sug'urtalash ikkita asosiy sababga ko'ra zarur bo'ladi:

- korxonani sug'urtaviy himoyalashning boshqa usullarini qo'llash mumkin bo'lmaganda;
- yoki shunday risklar turlari borki, ularni albatta kompensatsiya qilish zarur.

2. Sug'urtalash.

Sug'urta iqtisodiy faoliyatning muhim turi sifatida, sug'urtalanuvchilar mulkiy qiziqishlarida ko'riladigan zararlar bo'yicha risklarni taqsimlanishi bilan bog'liq va bevosita maxsus ixtisoslashtirilgan tashkilotlar (sug'urtalovchilar) tomonidan, sug'urta badallarini bir joyga to'plovchi, sug'urta zahiralarini tashkil qilish va sug'urtalanuvchilarning ko'rgan zararlarini qoplashni amalga oshirishni ifodalaydi. Bu holatda sug'urtalanuvchilar o'rtasida risklarni taqsimlash asosiy jarayon bo'lib, ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar bo'yicha potentsial risklar sug'urtalanuvchilar o'rtasida taqsimlanadi, ya'ni ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash har bir sug'urtalanuvchilar zimmasiga tushadi. Bu munosabatlarda asosiy o'rinni sug'urtalovchiga to'lanadigan sug'urta badallari egallaydi. Ammo, bu sug'urta badallarining etishmovchiligi yuzasidan ko'riladigan zararlarni sug'urtalovchi qoplamaydi degani emas. Ana shu holat sug'urta faoliyatida tadbirkorlik riskini keltirib chiqaradi, ya'ni sug'urtalovchi kurilishi mumkin bo'lgan zararlar yuzasidan oldindan sug'urta qoplamasini o'z mablag'lari hisobidan ham to'lashni ko'zda tutadi.

Sug'urta usuli albatta sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yoki bo'lmagan risklarni ehtimoliyligi baholanganda va sug'urtalovchi tomonidan zararlarni qoplash bo'yicha aniq moliyaviy kafolatlar mavjud bo'lganda qo'llaniladi.

Investitsiya loyihasi riskini baholash usullari orasida eng ko'p o'q'laniladiganlari quyidagilar: 1) Loyiyaning sezgirlik tahlili. 2) "Zararsizlik nuqtasi"ni aniqlash. 3) Barqarorlikni tekshirish.

Sezgirlik tahlili loyiha o'xshash parametrlaridan biri o'zgarib, loyiha samaradorligi qay darajada o'zgarishiga miqdoriy baho berishda o'q'laniladi. Sezgirlik tahlilini investitsiya loyihalari natijalariga sezilarli darajada ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni taqqoslash tahlili uchun o'tkazish tavsiya etiladi. Bu omillar bilan bog'liq vazifalarni echishda quyidagi ketma-ketlikka amal qilinadi. Avvalo, sof joriy qiymatni hisoblashga yordam beradigan omillar aniqlanadi. Keyin ma'lum oraliqlarda omillardan biri o'zgartirilib, sof joriy qiymat hisoblab chiqiladi, ushbu yo'l har bir omil uchun takrorlanadi. Bundan so'ng hamma hisoblar jadvalga joylashtiriladi, har bir omil o'zgarishiga nisbatan loyiha sezgirlik darajasi solishtiriladi va loyiha muvaffaqiyatiga eng ko'p darajada ta'sir etuvchilari aniqlanadi. Sezgirlik tahlili yordamida, hisoblar uchun zarur bo'lgan turli xil o'zgaruvchilar berilganda, naqd foyda yoki investitsiya rentabelligining eng zaruriy o'zgarishlarini aniqlash mumkin. Turli xil o'zgaruvchilarga ishlab chiqarish xarajatlari, sotish hajmi, investitsiya davri davomiyligi, kredit foizi, xom ashyo va yonilg'i qiymati, soliqlar miqdori va boshqalar misol bo'ladi.

"Zararsizlik nuqtasi"ni aniqlash usuli yordamida mahsulot sotishdan kelgan tushum uni ishlab chiqarish xarajatlariga teng bo'lgan holdagi sotish hajmi aniqlanadi. Agar sotish hajmi bu nuqtadan past bo'lsa, korxona zararlarni qoplashi mumkin, agar pul kirimi xarajatlarga teng bo'lsa, korxona ishini zararsiz olib borayotgan bo'ladi. "Zararsizlik" tahlili loyiha quvvati yoki ishlab chiqarish hajmi miqdorini topish maqsadida o'q'laniladi. Agar ishlab chiqarish hajmi past bo'lsa, korxona zararga ishlayotgan bo'ladi. Bu tahlil loyiha baholashda turli narx va qiymatni hisobga olishga bir qator zararsizlik nuqtalarini hisoblashga imkon beradi.

Barqarorlikni tekshirish usuli yordamida investitsiya ishtirokchilari uchun eng xatarli variantlarda investitsiya loyihasini rivojlantirish rejasini ishlab chiqishni oldindan ko'rib chiqish mumkin. Har bir rejada har bir ishtirokchining rejalashtirilayotgan daromadi, yo'qotishlari, samaradorligi e'tiborga olinadi. Agar barcha ko'rib o'tilgan holatlarda ishtirokchilar qiziqishlari kuzatilsa, kutilayotgan ko'ngilsiz oqibatlar mavjud zahira va rezervlar hisobiga cheklatilsa yoki sug'urta to'lovlari bilan qoplasa, loyiha barqaror va samarali deb hisoblanadi. Loyiha barqarorlik darajasi uni amalga oshirish sharoitlarining ehtimolli o'zgarishlarga nisbatan ishlab chiqarish, narx va mahsulotning eng yuqori darajadagi qiymati orqali ifodalanishi mumkin.

YUqorida ko'rib o'tilgan riskni boshqarish bosqichlari va riskni baholash usullari yordamida risk sababli bo'ladigan yo'qotishlarni pasaytirish, ular bilan bog'liq ko'ngilsiz oqibatlarni kamaytirish usullarini taklif qilish mumkin.

Umumdavlat resurslari hisobidan markazlashgan holda ajratmalarni amalga oshirish orqali. Bu resurslar hisobidan katta xajmdagi ko'zda tutilmagan holatlar bo'yicha favqulodda zararlar qoplanadi.

10- mavzu. XORIJIY INVESTIYALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI ANIQLASH

Reja:

1. Kapital qo'yilmalarining umumiy samaradorligi
2. Xorijiy investitsiyalarni samaradorligini aniqlashda qo'llaniladigan umumiy ko'rsatkichlar
3. Xorijiy investitsiyalardan kutilayotgan daromadni aniqlash

1. Kapital qo'yilmalarining umumiy samaradorligi

O'zbekistonda kapital mablaglar samaradorligini oshirish yunalishlari quyidagicha :
Planlashtirish loyixalash Kurilish bosqichida Ob'ektlarni

boskichida

foydalanishga
topshirish va
uzlashtirish
boskichida

Ishlab chikaruvchi kuchlarni joylashtirishning optimal sxemalarini tanlash.

Kurilishni industirlashtirish, kurilish ishlarini kompleks mexanizatsiyalash, yigma konstruksiyalarni yigma konstruksiyalarni keng kullash

Ob`ektlarni foydalanishga topshirish va tula uzlashtirishni tezlashtirish

Ob`ektlarni kompleks kurishni ta`minlash

Kurilishda material texnika resurslaridan tejab tergap foydalanish, smeta intizomiga kattik rioya kilish, kurilish montaj ishlarini yukori sifatli bulishi, ob`ektlarni birinchi takdimotdayok topshirish.

Kurilayotgan ob`ektlarni kollektivlari uchun zarur uy-joy maishiy sharoitalri yaratish.

Ishlab turgan ob`ektlarni texnikaviy jixatdan kayta kurollantirish va rekonstruktsiyalash yulini tutish.

Barkaror mexnat kollektivlarning barpo kilish. kurilishlarda brigada pudratini keng joriy kilish.

Xujalikni tejamli yuritish, iG`ch rentabelligi oshirishninig ilgor metodlarini keng joriy kilish.

Ob`ektlarni loyixalash va kurish jarayonida loyixachilar, buyuurtmachilar va kuruvchilarning ijodiy xamkorligi

Ob`ektlarni tezrok va uzlashtirish maksadida kuruvchilar bilan ishlovchilarnin g xamkorligi

Loyixalashni jaxon andozalaridan keng foydalanish

yukorida kursatib utilgan 3-ta yunalishda belgilab berilgan xolatlarda tula rioya kilinsa Respublikamizda kapital mablaglarning samarali foydalanishga erishilishiga shubxa yuk.

1. **Kapital kuyilmalarning iktisodiy samaradorlik kursatkichlari va ularning xisoblash tartibi.**

Uzbekistonning tabiiy sharoiti, uning moddiy-material va mexnat resurslari boyligi Respublikamizda kapital mablaglar foydalanish va uning samaradorligini oshirishga juda katta axamiyat kasb etadi.

Kapital kuyilmalarning iktisodiy samaradorlik kursatkichlari va ularning xisoblash tartibi.

Kapital mablaglarning iktisodiy samaradorligini yukori bulishi respublikada ijtimoiy ishlab chikarishni usishini ta`minlabgina kolmasdan, xalkning turmush darajasini usishida xam muxim rol' uynaydi.

Kapital kuyilmalar samaradorligini xarakterlovchi kursatkichlardan biri umumiy iktisodiy samaradorlik kursatkichi bulib u kuyidagia aniklanadi: Bu kursatkich milliy iktisodiyot buyicha uning aloxida tarmogi buyicha yoki korxona mikyosida aniklanadi.

A) Butun xalk xujaligi tarmogi buyicha

$$E_{xx} = \frac{D}{K} \quad \text{bunda}$$

EXX= xalk xujaligi tarmogida kapital mablaglarning umumiy iktisodiy samaradorlik kursatchichi

D-milliy daromad

K= kapital kuyilmalar.

B) Aloxida tarmok uchun xisoblanganda.

P

Exx=----- bunda

K

Exx= Umumiy iktisodiy samaradorlik kursatkichi

P= olingan foyda va daromad

K= kapital kuyilmalar

V) Aloxida korxona uchun kuyidagicha aniklanadi:

M-T

Es=----- bunda

K

M- = yil davomida i/ch maxsulot

T= I/ch maxsulot tan narxi

K= kapital kuyilmalar

Misol: korxona tomonidan bir yilda 700,0 ming sumlik maxsulot ishlab chikarilib uning tan narxi 540,0 ming sumni tashkil kiladi. Ishlab chikarishni rekonstruktsiya qilishga sarflangan kapital mablaglar sarfi 1100,0 ming sum bulsin iktisodiy kursatkichi

7000000-540000

E=----- 0,1454 ni tashkil kiladi.

1100000

Umumiy iktisodiy samaradorlik kursatkichi bizning misolimizda 0,1454 yoki kiskartirilib 0,15 deb kabul kilsak buladi.

Umumiy iktisodiy samaradorlik kursatchiga teskari bulgan ana bir kapital mablaglarning samaradorligini xarakterlovchi kursatkich bu- kapital kuyilmalarnin g uzini koplash darajasidir. Bu kursatkich kuyidagicha formula bilan aniklanadi:

K

110000

Sk=----- bundan misolimizda -----=6,8

M-T

700000-540000

Demak yukoridagi mosolimizdagi korxonada kapital mablaglarni umumiy iktisodiy samaradorlik kursatkichi 0,15% bulganda, sarflangan kapital mablaglar korxonani shu xolatda ishlash jarayonida 6,8 yilda koplanadi.

Bu kursatkichlardan tashkari kapital mablaglardan foydalanish samaradorligini xarakterlovchi yoki unga ta`sir etuvchi kursatkich xam mavjud bulib ular

- ishlab chikarish unumdorlingi
- fondo-otdacha (fond samaradorligi)
- maxsulot tan naxiuzgarishi
- maxsulot sifati kursatkichlari kabilardir.

Ushbu kursatkichlarning uzgarish xam u bu xolatda kapital mablaglarning samaradorlik kursatkichiga uz ta`sirini kursatadi.

Bozor iktisodiyti sharoitida davlat jamoa, kushma, kichik, xissadorlik, xususiy va boshka shakildagi mulkka ega bulgan korxonalar moliyaviy axvolining urganishning mazmuni shundan iboratki bunda uz vaktida pul tushumlarining kelishi, xisoblashish intizomiga rioya qilish xususiy va karz mablaglarning tugri nisbatda bulishining ta`minlash,

moliyaviy tartib va intizomga, barcha ishlab chikarish buginlarida iktisod va tejamkorlikka rioya kilish muxim axamiyat kasb etadi. Korxonalarning moliyaviy xolati kup jixatdan baxo kredit foyda va uni iktisodiy taksimlash mexanizimiga boglikdir. Barkarorlik bulgan joyda barcha xujalik muomilalari va xisob kitoblar uz vaktida bajarildi. SHu bois bozor sharoitida xar kanday korxonaning moliyaviy axvolini bilish urganishga etibor kuchaymokda. Sekin sotiluvchi aktivlar bilan urta va uzok muddatli passivlarni solishtirish orkali urganiladi. Bunda korxonaning kelgusida munjanlangan xar xil tushumlari bilan kelajak tulovlarini oldindan va moliyaviy taxlilning asosiy maksadi kuydagilardan iborat:

----Korxonaning moliyaviy axvolini xar tomonlama urganib uning xolatiga anik va xolisona baxo berish

---- Mablag va manbalarning joylanishini tekshirish ularni tugi yunalishda ishlatilganligini aniklash

---- Xisoblashish ishlarining uz muddatida bajarilganligi debitor va kreditorlik karzlari tartibini urganish

---- Korxonaning uziga karashli mablaglari balan karz mablaglari urtasidagi nisbat va aylanma mablaglarni manba manba bilan ta'minlanganligini tekshirish.

---- Moliyaviy intizomga kanchalik amal kilinishi aniklash va tulov kobilyatiga baxo berish

---- Korxona mulkining kadiriligi va tez pulga aylana darajasini urganish

Aylana mablaglardan foydalanishga baxo berish va korxonaning moliyaviy axvolini yaxshilash buyicha takliflar bayon etish va x.k. Taxlilning asosiy maksadi moliyaviy faoliyatdagi yutuk va kamchiliklarni aniklab, mablaglardan yanada tugri foydalangan xolda xisob-kitob tartibini mustaxkamlashga karatiladi. Demak bu maxsulot ishlab chikarish va uni sotish, xarajatlarini tejash, pul moliyaviy alokalari va boshka faoliyatlarining bir biriga boglikligini kursatadi. Moliyaviy taxlilni bajarishda zarur buladigan manbalarga korxona balnsi unga kilingan ilovalar va xisobot ma'lumotlari kiradi. SHuningdek buxgalteriyaning sintetik va analitik schyotlari ma'lumotlaridan xam keng foydalanish lozim CHunki kiyingi yillarda tuziladigan xisobotlarning xajmi kiskarib taxlil imkoniyatlarini chegaralashga olib kelmokda.

Ayniksa maxsulot ishlab chikarish va uni sotish maxsulot va maksadli mablaglar zaxira jamgarmasi foyda va zararlar turli xil xisob kitoblar kimmatli kogozi va veksillar buyicha m'lumotlardan kuprok foydalaniladi. Bular xujalik faoliyatining tugri boshkarilishi uning moliyaviy barkaror bulishi va tulov kobilyatining yaxshilanishiga bevosita ta'sir kursatadi.

Bozor iktisodiyoti sharoitida korxonalar mulkining tarkibini urgani va uni kupaytirish yullarini aniklash xujalik faoliyatining taxlilida muxim urin tutadi. Ayniksa balansga karab korxona mol-mulki va boyligini tarkibini kuzatish, sof mablag xolatini aniklash, imkoniyat meyorini ulchashga yordam beradi. Odatda korxona mablaglariga asosan vositalar va oborotlardan tashkari aktivlar material (me'yorlashtirilgan) aylanma pul mablaglari kiradi. Ularni mikdori xissadorlik xamkorlik kichikva boshka korxonalarning katta kichikligiga ixtisoslashuvi va bozor sharoiti rakobatlariga bardoshligiga boglikdir. Birinchi jadvalda korxona mulkining xajmi va tarkibi keltirilgan. Uni tuzishda balans ma'lumotlaridan foydalanib sof ishlatishga loyikatli boyliklar xolatini urganiladi. Keltirilgan ma'lumotlar balansning xajmi summasiga teng buladi. Immobilizatsiya kilingan asosiy vositalar va oborotdan tashkari aktivlar birinchi bulimga aylanma mablaglar esa ikkinchi va uchunchi bulimga teng buladi. Korxonaning uziga tegishli mablaglar manbalari kanchalik etarli bulsa shunchalik mol- mullka uzi egalik kiladi.

Mulkning tarkibi va uning o'zgarishi

Kursatkichlar	Yil boshida		Yil oxirida		Farki(+:-)	
	Ming	Foiz	Ming	foiz	Ming	Foiz

	sum		sum		sum	
1.Asosiy vositalar va oborotdan tashkari aktivlar (koldik baxoda)						
2.Aylanma mablaglar	1780	38,1	1690	36,5	-90	-1,6
a) zaxiralar va xarajatlar	2890	61,9	2935	63,5	+45	+1,6
b) pul mablaglar xisoblashishlar va boshka aktivlar	1480	31,7	1345	29,1	-135	-2,6
	1410	30,2	1590	34,4	+180	+4,2
Jami mulk	4670	100	4625	100	-45	

Jadvaldan kurinadiki, korxona mulkining yil oxirida 36,5 foyzi asosiy vositalar va oburutdan tashkari aktivlar tashkil qilgan. Kolgan 63,5 foyzi esa aylanma mablaglar, shundan 29,1 foizi zaxiralar va xarajatlar, 34,4 foizi pul mablaglaridan iborat. Lekin yil oxirida kursatkichlar utgan yilga nisbatan 45 ming sumga kamayishini ijobiy xol deb bulmaydi. SHuningdek asosi vositalar, zaxiralar va xarajatlarning 90 va 135 ming sumga kamayishi bir me'yorda ish yuritishga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Pul mablaglarining 180 ming sumga yoki 4,2 foizga kupayishi va umumiy korxona mulkining uchdan bir kimidan kuprogini tashkil kilishi tulov kobiliyatning yaxshilanganligini kusatadi. Korxona mulkini urganish uchun asosi vositalar va oborotdan t'ashkari aktlar 6 aylanma mablaglar tarkibini xar tomonlama taxlil kilish lozim. Asosi vositalar va obrotndan tashkari aktivlar yil boshida 1780 ming sum bulsa yil oxiriga kelib 1690 ming sumga tushdi. YOki 90 ming sumga kamaydi. SHundan 790 ming sumni koldik baxodagi asosiy vositalar tashkil kiladi. Nomaterial aktivlar 150 ming sum kapital sarf va avanslar 300 ming sum, uzok muddatli kapital kuyilmalar 300 ming sum va boyliklar uchun xisoblashishlar 150 ming sumdan iboratdir. YUKorida kursatilganidek asosiy vositalar 20 ming sum, Nomaterial aktivlar 30 ming sum va kapital sarflr 40 ming sum kamaydi. Korxona mablagidan 600 ming sum kapital sarflar va uzok muddatga munjanlangan kiymatlar tashkil kilish, mablaglar aylanishi va ayniksa mulkning tez pul keltirishini sekinlashtiradi.

2. Xorijiy investitsiyalarni samaradorligini aniqlashda qo'llaniladigan umumiy ko'rsatkichlar

Moliyaviy taxlilning muxim xususiyatlarida biri korxona mulki, zaxiralar va mulki xar tomonlama urganishdir. Bunday mablaglar tarkibiga ishlab chikarish zaxiralari, ya'ni xom ashyo va materiallar sotib olingan yarim fabrikantlar va komplektldovchi buyumlar konstruktsiya va detallar ikkilamchi materiallar va urnatilagn asbob uskunalr extiyot kisimlar parvarish va bokuvdagi chorva mollari, urug va em xashak orzon baxoli tez eskiruvchi buyumlar va blar kiradi. Ular korxonaning bir meyorda ishlashi xamda maxsulot ishlab chikarishi va shartnoma buyicha sotish rejasini ta'minlashga etarli bulishi lozim. SHuningdek zaxira va xarajatlar tarkibiga usimlk va chorvachilik buyicha tugallangan ishlab chikarish kelgusi davr chikimlari tayyor maxsulot va bular xam kiradi. Tugallangan ishlab chikarish xarajatlarning xam urganish va taxlil etish lozim. Balansning passiv kismida korxona mablaglarning koplash manbalari kursatiladi. Bozor iktisodiyoti sharoitida mablaglarni tuldirish kuydagilardan iborat.

1. Uziga karashli manbalar

2. Kreditlar va boshka karzlarga olingan manbalar

Xisoblanishlar va boshka passivlar bundan eng muxim urini korxonalar uziga karashli ustav jamaksadli moliyalashtirish fondlari amortizattsiya va tamirlash fondlari xamda boshka manbalar egallaydi. Bulinmas jamgarma fond korxona ixtiyoridagi doim berkitilgan asosiy va aylanma manbalrning xajmini kursatadi, u turli xujjatlar xujalik muomilalari ta'sirida uzgarib turadi. Bunga foydaning taksimlashi sababiga tuldirilish xomiyalarining a'zolik badallari asosiy vositalrning kayta baxolanishi va boshkalar sabab

bulishi mumkin Mablaglarni kupaytirish manbalrning kupaytirish tarkibiga foyda aloxida urini egallaydi, foyda xajmini kupaytirishga eng avvalo nizom xajmini tuldishga va boshka extiyoj jamgarmalarini yaratishga olib keladi. Amortizattsiya va boshka fondlarning tashkil bulishi xam bozor sharoitida mazmunan uzgarmokda 1991 yildan amortizattsiya xisoblashda tezlashtirilgan meyorlar (aktiv turdagi mashinalar kurilmalar transport va boshka vositalar buyicha) kullinishi va turli tiklash kismi buyicha amortizattsiya xisoblash asosiy vositalrning balan kiymating maxsulotlar xam narxiga utkazib bulgunga kadam bajarish kabi yangiliklarjoriy etiladi.

Kredit va boshka karz mablaglarga kiska urta uzok muddatga munjanlanib olingan kreditlar uz muddatida uzilmagan ssudalar va boshka karz mablaglari kiradi.SHuningdek kreditlar bilan xisoblashishlarini va boshka passivlar xam shu erda inobatga olinadi. Bunda kreditorlik karzlaridan tashkari byudjetlar sugurta va mexnat yuzasidan korxonalarning karzlari kursatadi.

Bozor iktisodiyotida konuniyatlari va talabidan eklib chikkan xolda korxonada karz xam bulgani ma`kul. jadvalda korxona mablaglarining manbalriga kursatilgan:

Korxonaga karashli va karzga olingan manbalar

Kursatkichlar	Yil boshi yil oxiri				Farki (+ -)	
	Ming sum	foiz	Ming sum	foiz	Ming sum	Foiz
1.Xamma mablaglar shu jumladan:	4670	100	625	100	-45	X
2.Korxonaning uziga tegishli mablaglar manbalari shundan:	2170	46,5	2125	45,9	-45	-0,6
a) uziga karashli aylanma mablaglar manbai (2170+520-1780) yil boshida	910	19,5	1085	23,5	+175	+4,0
910(2125+650-1690) yil oxirida	2500	53,5	2500	54,1	-	+0,6
3, karz mablaglar shundan:						
a) uzok muddatli karz	620	13,3	690	14,9	+70	+1,6
b) kiska muddatli karz	1130	24,2	910	19,7	-220	-4,5
v) kreditorlik karzlar	750	16,0	900	19,5	+150	+3,5

Jadval ma`lumotlari shuni kursatadiki yil boshida korxonadpgt mulkning 46,5 foizi uziga karashli mablaglar tashkil etgan bulsa yil oxirida bu rakam 45,9 foiz bulib 0,6 foiz kamayib 45 ming sumga kamaydi karz mablaglari jami uzgarmagan bulsa xam umumiy mablaglari tarkibidagi ulushi +0,6 foiz ortdi ayniksa kreditor karzlarni +150 ming sumga kupaygan korxonaning moliyaviy barkororligiga salbiy ta`sir kursatdi.

3. Mablaglarning xarakatchan taxlilligi

Balans mablaglariga asosanib korxona mablaglarning tez pulga aylanish xolati urganilad i Bunday korxonalarning kattik moliyaviy cheklanitsh paydo bulishi va olingan karzlarni kaytarish imkoniyatlarni uz vaktida xisoblab baxo berishda.kurinadi.Ayniksa tulov majburiyatlaring muddati korxona mulki faoliyati natijasida pulga aylanish muddatiga mos

kelishi moliyaviy xolatini yaxshilanishiga ta'sir kursatadi shu bois korxona aktivlarning xarakatchanliglarini taxlil qilgan xolda karzlarni akytarishga etarli yoki ytishmasligini muntazam urganishi lozim.

Pul shakliga aylanish tezligi kariyib korxona aktivlari kuydagi guruxlarga ajraladi.

1. Doimi xarakatdagi aktivlar
2. Tez sotuvchi aktivlar
3. Sekin sotuvchi aktivlar
4. Kiyin sotuvchi aktivlar

Doimiy xarakatdagi aktivlar guruxdagi aktivlar balansdagi barcha pul mablaglari va kiska muddatli moliyaviy kuyilmalari ya'ni kimmatli kogoslar kiradi bunday aktivlar doimo karz majburiyatlarini tulash uchun tayyor turgan mablaglar xisoblanadi va pul mablaglari kup bulgan korxonalar bilan iktisodiy alokalarini uzaro xisob kitoblarni kelishgan muddatda bajarish imkonini beradi.

Tez sotuvchi mulklarga balnaslarning 3-bulimi aktivdagi debitor karzlar va bokalarni kursatish mumkin .Bu mablaglar xam zarur bulgan xollarda tulov vositasi bulib xizmat kiladi.Sekin sotiluvchi aktivlarga balansning 2-bulimi «Zaxiralar va xarajatlar» jami tushinilib nakt pul mablaglari ytishmagan xollarda tulov majburiyatlarni koplashga sarflanishi mumkin Kiyin sotiluvchi guruxlarga esa «Asosiy vositalar» va boshka oborotdan tashkari aktivlar kiradi.Bu mulk turli ishlab chikarishda uzok muddat katnashib uz kiymatini asta sekin yaratilayotgan maxsulotlarga utkazib beradi.SHuning uchun xam asosiy vositalarni pulga aylani tulov vositasi va majburiyatlarini uzishga manba bulishi kupvakti talab etadi.

4. Moliyaviy barkarorlik va tulov kobiliyati taxlili

Bozor sharoitida moliyaviy barkarorli kva tulovga kobiliyatlilik korxonaning muxim iktisodiy kursatkichi xisoblanadi .Moliyaviy barkarorlik balansdagi ma'lumotlar asosida urganiladi.Undagi kursatkichlarni bir biri bilan takkaslab mablaglar urtasidagi nisbat va uzaro boglanish aniklanadi.Korxonaning moliyaiy barkarorligini belgilovchi eng muxim kursatkichlar kuydagilardan iboratdir.

1.jami mablagdagi korxonaning uziga karashli mablag ulishini kanchaligini xisoblashdir yoki bu kuydagi tartibda topiladi.

Korxonaninig uziga karashli mablag

jami mablag (balans jami)

2. Korxonadagi uziga karashli mablag bilan karzga olingan mablaglar urtasidagi nisbat yoki bu kuydagi tartibda topiladi.

Karzga olingan mablag

uziga karashli mablag

3. Uzok muddatli karzlardan foydalanish koeffitsenti ya'ni uzok muddatli karzlardan foydalanish koeffitsenti ya'ni uzok muddatli karz mablaglarini korxonaning uziga karashli va karz mablaglar summasining yigindisiga bulinadi. YOki bu kuydagi tartibda topiladi.

Uzok muddatga olingan karz mablag

korxonaning uziga + uzok muddatga olingan
karashli mablag karz mablag

4. Korxonaning uziga karashli mablaglarning chakkon xarakatchanlik koeffitsenti yoki bu kuyidagi tartibda topiladi:

Uziga karashli aylanma mablag

Uziga karashli jami mablag

5. eskirishni jamlanish koeffitsenti yoki bu kuyidagi tartibda topiladi
Asosiy vositalarni eskirish summasi

Asosiy vositalar + nomaterial aktivlar

6. Korxona mulki tarkibidagi asosiy vositalarni aniq qiymati koeffitsenti bu kursatkich
balans ma'lumotlari asosida xisoblanadi va quyidagicha topiladi.
Asosiy vositalar (koldik baxoda)

jami sof mulk

7. Korxonadagi jami mulkni xarakatchanligi (chakkonlik) koeffitsenti uni xisoblash
quyidagicha buladi.

Aylanma mablaglar (zaxira va pul mablaglari)

jami mulk (balans jami)

11-mavzu. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH

Reja

1. Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ahamiyati
2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xalqaro hamkorlik
3. Tadbirkorlarni huquq va manfaatlarini himoya qilish mexanizmi
4. Kichik biznes va sub`ektlarini moddiy-texnika bilan ta`minlanishi

1. Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ahamiyati

2009 yilda Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida iqtisodiy o`shishni ta`minlash, yangi ish o`rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o`rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag`batlantirish va qo`llab-quvvatlashga alohida e`tibor qaratildi.

**Kichik biznes sub`ektlari** – korxona ko`lami, ishlab chiqarish hajmi, ishlovchilar soni, moliyaviy mablag`lari miqdori va boshqalar jihatidan imkoniyatlari cheklangan ishlab chiqaruvchi sub`ektlar. Respublikamizda kichik biznes sub`ektlari toifasiga yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar va kichik korxonalar kiradi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik – alohida fuqarolar tomonidan o`zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foйда) olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo`jalik faoliyati.

Mikrofirma – kichik biznes sub`ektlarining bir turi bo`lib, mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka ko`ra sanoat ishlab chiqarishning tarmoqlarida 20 kishigacha, xizmat ko`rsatish sohasida 10 kishigacha, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishigacha ishlovchi korxonalar mikrofirma hisoblanadi.

Kichik korxona – kichik biznes sub`ektlarining bir turi bo`lib, mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka ko`ra sanoat ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarida (masalan, engil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik sanoati va h.k.) 100 kishigacha, ayrimlarida (masalan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg`i-energetika sanoati va boshqalarda) 50 kishigacha, xizmat ko`rsatish sohasida 25 kishigacha ishlovchi korxonalar kichik korxona hisoblanadi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida kichik biznes sub`ektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2009 yilda 50 foizdan oshdi. Holbuki, 2000 yilda bu ko`rsatkich 31 foizni tashkil etgan edi. Bunday natija birinchi navbatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat tomonidan doimiy qo`llab-quvvatlanayotgani samarasidir (2.4.1-rasm).



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining kengayishi iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlari ishlab chiqarish hajmidagi salmog'ining oshishi orqali ham namoyon bo'ldi. Xususan, mazkur sohaning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 2008 yildagi 13,9 foizdan 2009 yilda 16,9 foizga, qishloq xo'jaligida tegishli ravishda 97,8 foizdan 97,9 foizga, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida – 23,1 foizdan 23,7 foizga, pullik xizmat ko'rsatish hajmida – 48,5 foizdan 48,7 foizga, eksport hajmida – 12,4 foizdan 14,6 foizga qadar oshdi (2.4.1-jadval).

**O'zbekistonda kichik biznesning iqtisodiyot asosiy tarmoqlarida ishlab chiqarilgan mahsulot
(ish, xizmat)lar hajmidagi ulushi, foizda**

Ko'rsatkichlar	2008 yil	2009 yil
Sanoat	13,9	16,9
Qishloq xo'jaligi	97,8	97,9
Qurilish	48,3	41,6
Savdo	48,1	46,5
Asosiy kapitalga investitsiya	23,1	23,7
Pullik xizmat	48,5	48,7
Eksport	12,4	14,6
Import	35,7	42,5

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bu qadar jadal rivojlanishida eng avvalo mazkur soha uchun belgilanayotgan soliq imtiyozlari etarli darajadagi rag'batlantiruvchi rol' o'ynayotganligi hisoblanadi. Jumladan, bu borada 2009 yilda kichik sanoat korxonalari uchun yagona soliq to'lovi 8 foizdan 7 foizga pasaytirildi, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun esa qayd etilgan soliq miqdori o'rtacha 1,3 barobar kamaytirildi.

Rasmdagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, 1996-2010 yillar mobaynida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun belgilangan soliq stavkalari 38 foizdan 7 foizgacha, ya'ni 5,4 marta qisqargan.

Yagona soliq to'lovi – kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida turli solik va yig'imlar o'rniga soddalashtirilgan tartibda to'lanuvchi yagona soliq turi.

2009 yilda ham tadbirkorlarning o'z ishini tashkil etish bilan bog'liq sarf-xarajatlarini qisqartirish ishlari davom ettirildi. Masalan:

- arxitektura-rejalashtirish topshiriq to'plamlarini olish qiymati – 4 barobar;
- loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish – 2,5 barobar;
- kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish qiymati – 2 barobarga pasaytirildi.

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishdagi ruxsat berish jarayonlarining qisqartirilishi va to'lovlarning optimallashtirilishi bilan bog'liq tadbirlar natijalarini quyidagi jadval orqali yaqqolroq ko'rish mumkin.



Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda ruxsat berish jarayonlarini qisqartirilishi va to'lovlarning optimallashtirilishi

Ruxsat berish bilan bogʻliq jarayonlar turlari	Toʻlov miqdori				Toʻlov miqdorining qisqarishi, foizda
	Avval amalda boʻlgan		YAngi kiritilgan		
	eng kam ish haqi miqdori boʻyicha	soʻmda*	eng kam ish haqi miqdori boʻyicha	soʻmda*	
Tadbirkorlik subʼektlarini davlat roʻyxatidan oʻtkazish	5	140200	2	56080	- 60
Bankda hisob raqamini ochish	1	28040	0,5	14020	- 50
Arxitektura-rejalashtirish topshiriqlarini ishlab chiqish	40	1120000	10	280400	- 75
Er uchastkasini rasmiylashtirish	-	130000	-	58000	- 56
Ekologik ekspertiza	25	701400	1	28040	- 96
Loyiha-smeta hujjatlarini ekspertiza qilish	10	280400	3	84120	- 70
Qurilish davomida nazorat-ijro sʼemkalari oʻtkazish	5	140200	3	84120	- 40
Normativlar loyihalarining ekologik ekspertizasini oʻtkazish	75	2103000	1	28040	- 98,7
Gigienik sertifikatlar olish	10	280 400	3	84 120	- 70
Jami toʻlovlar qiymati (litsenziya va ruxsatnomalarsiz)	-	5037660	-	830960	- 83,5

* Izoh: eng kam ish haqi miqdori to'lovlarni qisqartirishga oid me'yoriy hujjatlar qabul qilingan davrga tatbiqan olingan.

Jadvaldan ko`rinadiki, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda ruxsat berish jarayonlarini qisqartirish va to'lovlarni optimallashtirish tadbirlari ahamiyatli darajada amalga oshirilgan. Masalan, normativlar loyihalarining ekologik ekspertizasini o'tkazish bo'yicha to'lov miqdori 75 marta, ekologik ekspertiza qiymati 25 marta kamaytirilgan. Buning natijasida har bitta tadbirkorlik sub'ekti uchun o'z faoliyatini tashkil etishda o'rtacha 4207 ming so'm miqdorgacha mablag'larni tejash imkoniyati paydo bo'ldi.

2009 yil davomida inventarizatsiya natijasida aniqlangan qariyb 2 mingta bo'sh bino kichik tadbirkorlik sub'ektlariga ijaraga berildi. Bunda binolarni ijaraga berish tariflari tadbirkorlik sub'ektlarining qaerda joylashgani va ularning faoliyat turiga qarab 3 barobardan 10 barobarga qadar kamaytirildi. SHuningdek, o'tgan davr mobaynida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun quyidagi imtiyoz va qulayliklar yaratildi:

- mahsulotlarning gigienik sertifikatini amal qilish muddati ilgari 3 yildan endilikda cheklanmagan muddatga o'tkazildi;

- fitosanitariya xulosalarini berish muddatlari qisqartirildi;

- elektr va issiqlik tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlarni bajarish muddatlari 1 oydan 3 kungacha qisqartirildi;

- binolarni turar joydan noturar joy toifasiga o'tkazish jarayoni soddalashtirildi;

- davlat mulkidagi bo'sh binolar ijara haqlari 10 va undan ko'p barobargacha tushirilishi natijasida ularning 81 foizi (aniqlangan 3650 tadan 2939 tasi) tadbirkorlik sub'ektlariga ijaraga berildi;

- tashqi reklamani joylashtirish tariflari o'rtacha 20 dan 30 foizgacha pasaytirildi hamda ayrim hududlarning qishloq joylarida haq olish bekor qilindi. Buning natijasida tashqi reklama beruvchi tadbirkorlarning ulushi 34 foizgacha oshdi;

- tashqi reklamani joylashtirish qiymati Toshkent, Farg'ona, Jizzax, Namangan va Navoiy viloyatlarining qishloq joylari uchun 50 foizgacha pasaytirildi;

- elektr energiyasini oldi-sotti shartnomasida belgilangan hajmga nisbatan kam sarflanishi uchun jarimalar bekor qilindi va ortiqcha sarflash bo'yicha jarimalar 50 foizga qisqartirildi.

Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash tadbirlari kuchaytirildi. Xususan, 2009 yil davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga 1 trln. 850 mlrd. so'mdan ortiq kreditlar ajratildi.



O'zbekistonda tadbirkorlik sub'ektlariga xizmat ko'rsatuvchi mavjud infratuzilma ob'ektlari (2010 yil 1 yanvar' holatiga, birlikda)

Infratuzilma ob'ekti nomi	Soni
Tijorat banklari filiallari	1042
Minibanklar	2318
Axborot-maslahat markazlari	262

Konsalting markazlari	327
Auditor firmalari	113
O`quv markazlari	917
Baholash kompaniyalari	138
Tovar xom ashyo birjasining savdo maydonchalari	204
Mikrokredit tashkilotlari	32
Kredit uyushmalari	103
Biznes-inkubatorlar	34
Sug`urta tashkilotlari	32
Brokerlik idoralari	1424

Ma`lumotlardan ko`rinadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga yo`naltirilayotgan kreditlar miqdori 2001-2009 yillar mobaynida deyarli 11 barobar o`sgan.

SHuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishida unga xizmat ko`rsatuvchi infratuzilma muassasalarining tashkil etilishi va xizmat sifati darajasining yaxshilanib borishi sezilarli ta`sir ko`rsatmoqda (2.4.3-jadval).

Jadvaldan ko`rinadiki, bugungi kunda mamlakatimiz kichik biznes sohasiga o`ndan ortiq turdagi 8 mingga yaqin infratuzilma muassasalari xizmat ko`rsatib, faoliyat uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib bermoqda.

Biznes-maktab – tadbirkorlarni, kichik korxonalarining rahbarlarini, kichik korxonalar uchun mutaxassislarni, ishsizlarni, o`z ishini ochmoqchi bo`lgan boshqa fuqarolarni, kichik tadbirkorlikning rivojlanishi uchun mas`ul bo`lgan xizmatchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni amalga oshiruvchi tuzilma.

**O`quv-amaliy markazlari** – kichik tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash va bozor iqtisodiyoti uchun kadrlar tayyorlashning keng miqyosli dasturini amalga oshiruvchi tuzilma.

Biznes-inkubatorlar – maxsus tanlab olingan kichik korxonalarni o`z maydonlariga joylashtiruvchi va ularga maslahat, o`qitish va ofis xizmatlarini ko`rsatuvchi tuzilmalar.

Ijtimoiy-amaliy markaz – ish bilan band bo`lmagan aholi va ishsizlar o`rtasida kichik tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish o`rinlarini yaratish bilan shug`ullanuvchi, odatda bandlik markazlari qoshida tashkil etiluvchi tuzilma.

Texnopark – o`z hududida kichik innovatsion korxonalarni yaratish va rivojlantirish orqali ilmiy salohiyatdan foydalanish va ishlab chiqilgan texnologiyalarni tijoratlashtirish maqsadida tashkil etiluvchi tuzilma.

Biznes-markaz – tadbirkorlar va biznesmenlarga servis xizmatlari ko`rsatuvchi tuzilma.

Konsalting – ishlab chiqarishga ish yuzasidan xizmat ko`rsatish sohasida ixtisoslashgan firmalarning o`z mijozlariga maslahat xizmati ko`rsatish va texnikaviy loyihalarni ekspertiza qilish bilan bog`liq iqtisodiy faoliyat.

Auditorlik kompaniyasi – xo`jalik yurituvchi sub`ektlarga buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish, buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarni tayyorlash, bu borada turli maslahatlar berish, moliya-xo`jalik faoliyati to`g`risida xulosalar berish va shu turdagi boshqa xizmatlar ko`rsatish bilan shug`ullanuvchi muassasa.

**Sug`urta kompaniyasi** – sug`urtalovchi rolida maydonga tushuvchi, ya`ni sug`urta hodisasi ro`y bergan chog`da sug`urtalangan shaxsning zararlarini qoplash majburiyatini o`ziga oluvchi tashkilot.

Buning natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlarining mamlakatimizda yangi ish o`rinlarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatidagi natijalari salmoqli bo`lib bormoqda. Jumladan, mamlakatimizda 2009 yilda yaratilgan jami 940,5 mingdan ortiq yangi ish o`rinlarining 391,8 mingtasi (41,7 foizi) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga to`g`ri kelmoqda. Bu o`tgan yildagiga nisbatan 4,7 foizga ko`proq demakdir. Jami yangi ish o`rinlarining deyarli 21 foizi turli shakllardagi uy mehnatini yo`lga


qo'yish, 7,5 foizi yangi ob'ektlarni ishga tushirish, mavjud ishlab chiqarishlarni qayta qurish va kengaytirish, deyarli 30 foizi ish joylarini ko'paytirishning qo'shimcha chora-tadbirlarini amalga oshirish hisobiga tashkil etilgan. Buning natijasida, kichik tadbirkorlikda band bo'lganlar sonining jami iqtisodiyotdagi band bo'lganlar soniga nisbatan ulushi 2008 yilda 73,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2009 yilga kelib 74,2 foizga etdi.

Bundan ko'rinadiki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatida amal qilmoqda.

O'tgan yili banklar tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan kreditlar miqdori 2007 yilga nisbatan 68,2 foiz oshib, 1 trln. 251 mlrd. so'mni tashkil etdi (1.6.4-rasm).

Hisobot yilida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «YOsh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2007 yil 18 maydagi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida tijorat banklari tomonidan yosh oilalarga imtiyozli shartlar asosida 135,7 mlrd. so'm miqdorida ipoteka, iste'mol va mikrokreditlar ajratildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan kreditlar miqdori, mlrd. so'm



So'nggi yillarda respublikada kichik biznes, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish borasida hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan izchil tadbirlar, xizmat sohasidagi alohida olingan tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan qator dasturiy yo'nalishlar xizmat ko'rsatish va servis sohasini, shuningdek maishiy xizmat ko'rsatish sohasining yuqori sur'atlar bilan rivojlanishiga olib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 maydagi «Xizmat ko'rsatish va servis sohasini 2006-2010 yillarda rivojlantirish haqida»gi PQ-325-sonli, 2007 yil 21 maydagi «O'zbekiston Respublikasida 2010 yilga qadar xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar haqida»gi PQ-640-sonli qarorlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Xususan, respublikamizda 2010 yilga qadar xizmatlar va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar haqidagi qarorda quyidagi asosiy yo'nalishlar belgilab berilgan:

- xizmatlar ko'rsatish sohasida tadbirkorlikning faoliyatini yanada kuchaytirish uchun qulay shart-sharoit yaratish;
- 2010 yilgacha xizmatlar hajmining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 49 foizga etkazish;
- qishloq joylarda istiqomat qilayotgan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar turlarini ko'paytirib borish;
- an'anaviy xizmat turlari bilan birgalikda yangi istiqbolli – yuridik, konsalting, bank, moliya, sug'urta, lizing va baholash xizmat turlarini jadal rivojlantirish;

- mamlakatimiz korxonalarining xalqaro bozordagi xizmatlari darajasini va sifatini oshirish hamda shu asosda xizmatlar eksportini ko'paytirish;
- xizmatlar va servis sohasida ishlaydigan kadrlarni tayyorlash va ular malakasini oshirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash.

Qararlarda belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi natijasida 2008 yilda aholiga ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmi 121,3 foizga o'sib, 20082,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Xizmatlarning zamonaviy, ilg'or turlari – telekommunikatsiya xizmatlari, uyali telefon aloqasi, moliya-bank xizmatlari, lizing tartibidagi kreditlar ajratish, sug'urta, sayyohlik-ekskursiya va boshqa zamonaviy xizmat turlari jadal sur'atda rivojlanmoqda. 2008 yilda xizmat ko'rsatish sohasida 215 mingdan ko'p yangi ish o'rinlari, 2103 ta savdo va 5138 ta maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchalari tashkil etildi.

Respublikada 2008 yil yakuni bo'yicha aholi jon boshiga 738,5 ming so'mlik xizmatlar ko'rsatilgan, shu jumladan transport xizmatlari - 243,8 ming so'm, savdo va umumiy ovqatlanish xizmati – 128,8 ming so'm, kommunal xizmatlar 113,4 ming so'mni tashkil etdi. Maishiy xizmat ko'rsatish jami hajmi 2007 yilga nisbatan 132,8% ga o'sdi.

Aholiga ko'rsatilayotgan maishiy xizmatlar tarkibida zamonaviy xizmat turlari ustuvor ravishda rivojlanmoqda. Maishiy xizmatlarning umumiy hajmida engil avtomobillarni ta'mirlash va texnikaviy sozligini aniqlash xizmati ulushi 14,1% ni, murakkab turdagi texnikaviy jihozlarni ta'mirlash 10,6% ni, yakka tartibdagi uy-joylarni qurish, ularni va ko'p qavatli turar joylarni ta'mirlash xizmatlari 12% ni, aholi yuklarini tashish transport xizmati 12,4% ni, sataroshxona xizmatlari 5,6% ni tashkil etadi.

SHu bilan birga, ayni paytda mazkur tarmoqni rivojlantirishda mavjud imkoniyatlaridan hali to'liq foydalanilmayotganligini ta'kidlash lozim.

Hududlar yonma-yon bir xil sharoitda joylashganliklariga qaramay, ularda ko'rsatilayotgan xizmatlar bir-birlaridan katta farq qiladilar. Agar Toshkent shahrida har bir kishiga 2762,3 ming so'mlik, Navoiy viloyatida 963,1 ming so'mlik, Toshkent viloyatida 848,8 ming so'mlik xizmatlar ko'rsatilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasida – 204,5 ming so'mni, Surxondaryo viloyatida – 290,1 ming so'mni, Jizzax viloyatida 312,2 ming so'mni tashkil etdi.

Qishloq aholisiga xizmat ko'rsatish tizimi ham hozirgi vaqtda o'sib borayotgan talablarga javob bermayapti. 2008 yilda jami xizmatlar hajmining 26,8 foizi qishloq aholisiga to'g'ri keldi, yoki har bir qishloq aholisiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi shaharliklarga nisbatan 5,1 marotaba kam bo'ldi.

Bundan tashqari yangi xizmat turlari, jumladan, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratishda zarur bo'lgan moliyaviy, lizing, konsalting, yuridik va boshqa xizmatlar etarli darajada rivojlanmayapti. Turistik xizmat ko'rsatish sohasida beqiyos imkoniyatlar mavjud bo'lishiga qaramay ushbu soha o'ta sekin rivojlanmoqda. Bunga hududlar bo'yicha turistik xizmatlarni ko'rsatuvchi tizimning yaratilmaganligi, ichki turizm reklamalari rivojlanmaganligi, respublika ichidagi turistik yo'nalishlar (marshrutlar) aholiga ma'lum emasligi to'sqinlik qilmoqda.

Prezident qarorida berilgan katta imtiyozlar, jumladan Bolalar sport inshootlarida ko'rsatiladigan pullik sport xizmatlari daromadidan olinadigan soliq va yakka tartibdagi soliq to'lovlaridan 3 yilgacha ozod qilinganligiga qaramay, qishloqlarda ushbu xizmat turi umuman rivojlanmayapti. Hisobot yilida Respublikada 203 ta yangi qurilgan va ta'mirlangan Bolalar sport komplekslarining 75% qishloq joylarda foydalanishga topshirilganligiga qaramay, ularda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi qisqarib bormoqda.

SHu sababli hukumatimiz tomonidan xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni to'g'risida qabul qilingan qarorda xizmatlar hajmining o'sish darajasini yuqori ko'rsatkichlarda belgilab berildi. 2009 yilning o'zida 1389 ta yangi maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari tashkil etilishi mo'ljallangan. Ushbu shaxobchalarning asosiy qismi qishloq joylarda tashkil etiladi. Tashkil etilishi mo'ljallangan shahobchalarda har yili 200 mingdan ortiq yangi ish joylari tashkil etilishi ko'zda tutilgan.

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlarni tubdan qayta ko'rib chiqish va qishloq joylarda ularni aholi, ayniqsa, yoshlar bandligining, qishloqda hayot darajasini

oshirishning muhim omili sifatida jadal rivojlantirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar ko`rish zarur.

Bu boradagi eng asosiy vazifa vaziyatga tadbirkor nuqtai nazaridan qarash, ya`ni unga o`z ishini rivojlantirish uchun nima to`squinlik qilayotgani va davlat tomonidan qanday yordam kerakligini aniqlash lozim. Xususiy sektorga qishloq joylarda ko`rsatilayotgan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga ham alohida ahamiyat berish darkor.

